






TOHIR XO'JAYEV

**NAVOIY
"XAMSA"SI:**

obraz, badiiyat va mohiyat



TOHIR XO'JAYEV

NAVOIY "XAMSA"si:
obraz,
badiiyat va mohiyat



Toshkent
«Zilol buloq» nashriyoti
2023

UO‘K 821.512.133.09-1

KBK 83.3(50‘)

X 70

Tohir Xo‘jayev

**NAVOIY “XAMSA”si: obraz, badiiyat va mohiyat / – Toshkent: «Zilol buloq»
nashriyoti, 2023. 232 b.**

Mas’ul muharrir:

Ergash Ochilov

Taqrizchilar:

Nurboy Jabborov,

filologiya fanlari doktori, profesor

Marg‘uba Abdullayeva,

filologiya fanlari doktori

Ushbu monografiyada Alisher Navoiy “Xamsa”sini o‘rganish va anglash bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berilgan. Unda shoir dostonlaridagi sir-u sinoat, keng o‘quvchilarga yetarlicha ayon bo‘lmagan jihatlari, “Xamsa” jumboqlarini tushunishni osonlashtirish, shoir g‘oyalarini teranroq his qilish imkoniyatiga ega bo‘lish maqsad qilib olingan.

Dostonlarda uchraydigan obrazlar, ularning genezisi, o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy san’atlar, ularning voqealar tasviridagi o‘rni, shoirning badiiy mahorati, asarning mazmun-mohiyati kabi yoritishga harakat qilingan.

Mazkur kitob umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchi, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, oliy o‘quv yurti talabalarining Navoiy “Xamsa”si haqida kengroq ma’lumot olish, dostonlar mohiyatini yetarlicha anglash, misralarni aniq tahlil qilishda yordam beradi.

Navoiy davlat pedagogika instituti Kengashi (21.12.2022, Bayonnoma № 4) tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Alisher Navoiy tavalludining
582 yilligiga

MUQADDIMA

Hazrat Alisher Navoiy ijodi cheksiz ummon. Taniqli adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetov Navoiy she'riyatini o'rganish bo'yicha muhim mulohazalarni bayon etib, shunday yozadi: "Navoiyning lirik merosini bundan buyon ma'lum bir tematik qismlarga bo'lib o'rganish ular bo'yicha muayyan xulosalarga kelishni osonlashtiradi". Binningcha, Navoiy "Xamsa"sini o'rganish va o'rgatishda ham bu qimmatli fikrlarga suyanish lozim, chunki undagi mazmun-mohiyat, voqea-hodisalar tizimi, obrazlar silsilasi, so'z, jumla talqini, umuman, g'oyaviy-badiiy nafosatini tushunish yetarli darajada tayyorgarlikni talab etadi. Maktab o'quvchilari, oliy o'quv yurti talabalarining bu masalada anchagina qiyinchiliklarga duch kelishi tayin. Talabalar "Navoiyshunoslik" fanini o'qishadi. Shu sabab ham "Xamsa"dek ulkan asarni to'laroq anglash, baytlar mohiyatini mukammal his qilish uchun keng qamrovli bilim sohibi bo'lish talab qilinadi. Arab, fors, eski o'zbek tili so'zlarining ma'nosini bilish, dunyo mamlakatlari, ularning o'rni, jug'rofiy joylashuvi, qator payg'ambarlar obrazlari, islomiy g'oyalar, diniy talqinlar uchrashi – Qur'oni karim sabog'ining muhimligi, turli sulolalar, podsholar, tarixiy kishilar nomlarining mavjudligi – tarix fanidan yetarlicha ogohlik, mifologiya, tasavvuf, falsafa, she'rshunoslik va hokazolarga doir ilmlardan ma'lum darajada xabardorlikni taqozo etadi.

Bu jihatlarining hammasini o'quvchilardan talab qilish mushkul. Eng oson va tez amalga oshiriladigani yuqorida zikr etilgan har bir masala tadqiqiga bag'ishlangan alohida-alohida yoki ikki-uch to-

monini qamrab olgan qo'llanma, monografiya, sharh tarzidagi kichik tadqiqotlar tayyorlash lozim bo'ladi. Bizningcha, Navoiy "Xamsa"si-
ni to'liqroq anglashda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

"Xamsa"da turli afsonalarga ishora qilinuvchi baytlarni aniqlab, ularning sharhini berish;

asarda qayd etilgan joy nomlarini, mamlakatlarning joylashgan o'rni, ayni kundagi nomi, hududi, ularni qo'llashda shoirning g'oyaviy-badiiy niyatini ko'rsatish;

"Xamsa" dostonlarida uchraydigan obrazlarni quyidagicha tasniflab, mohiyati, o'ziga xosligini oydinlashtirish:

a) tarixiy shaxslar obrazlari;

b) payg'ambarlar obrazlari;

v) mifologik obrazlar;

g) an'anaviy obrazlar (sevgi-muhabbat, saxiylik, adolat va hokazolar bilan bog'liq timsollar).

– "Xamsa" dostonlaridagi voqealar, holatlar: obrazlar, falsafiy tushunchalar, ayrim istilohlarning majoziy yoki haqiqiy, dunyoviy yoki tasavvufiy ma'nolarini aniq, asosli va ishonarli tarzda sharhlash;

– "Xamsa"da hayotiy manzaralar ifodasi (inson, uning urf-odatlari, hayot va tabiatdagi o'zgarishlar, voqea-hodisalar);

– dostonlarda uchraydigan turli badiiy usul va vositalar (ramzlar, tush manzaralari, hushdan ketish holatlari);

– "Xamsa" da xalq maqollari, hikmatli so'zlar tasnifi va boshqalar.

Ushbu monografiyada mazkur masalalarning bir qismi yoritishga harakat qilinadi. Kitob to'rt bobga ajratildi. Har bir bob masala va xarakteri jihatidan ma'lum tomonlarni yoritishga qaratildi.

Birinchi bobda obrazlar xususida mulohaza yuritildi. "Xamsa"da uchraydigan payg'ambarlar, diniy-tasavvufiy, mifologik va boshqa obrazlar haqida qaydlar keltirildi. Odam ato, Nuh, Iso, Muso, Sulaymon, Yusuf a.s.kabi payg'ambarlar, Xizr, Surush kabi mifologik, Bahrom bilan bog'liq fikrlar bildirildi. Ularning "Xamsa" voqealari talqinidagi o'rni ko'rsatishga harakat qilindi.

Ikkinchi bob "Xamsa" badiiyati masalasiga bag'ishlandi. Unda

dostonlarda ko'zga tashlanadigan she'riy san'atlar, badiiy vositalar, tush voqealari, turli afsona va rivoyatlarga ishora qiluvchi baytlar, ramzlar, xalq maqollarining ishlatilishi imkon qadar yoritildi.

Kitobning keyingi bobida "Xamsa" dostonlarining mazmun-mohiyati, mavzular, odob-axloq, ba'zi tushunchalar talqinini berish nazarda tutildi.

Monografiyaning to'rtinchi bobi "Hayrat ul-abror"dagi hikoyatlar tahliliga qaratildi. Dostondagi hikoyatlar tuzilishi, mavzulari, obrazlari, badiiyati jihatidan imkon qadar yoritildi.

Bu ishlar "Xamsa" dostonlarini o'rganishdagi kichik bir qadam. Yuqorida zikr etilgan masalalarni tadqiq etishni davom ettirish galda-gi muhim vazifalardandir.

I BOB: NAVOIY "XAMSA"SIDAGI OBRAZLAR

1. PAYG'AMBARLAR OBRAZI

Navoiy "Xamsa"da ko'plab obrazlar uchraydi. Biz bevosita dostonlardagi asosiy qahramonlar, sujetida shu obrazlar sarguzashti, kechinmalari ifodalanganlarni nazarda tutmayapmiz. Aksincha, ana shu obrazlar bilan bog'liq voqealar, ulardagi turli qirralarni namoyon etishda vosita bo'ladigan, o'xshatiladigan, qiyoslanadigan o'zga obrazlarni e'tiborga olayapmiz.

Ma'lumki, "Hayrat ul-abror"da yagona voqea, biror obrazlar taqdiri, ular bilan aloqador sarguzashtlar bayon etilmaydi. Shu sabab ham asarda falsafiy mushohadalar jarayonida ko'plab payg'ambarlar, shayx, avliyo, so'fiylar, hukmdorlar, shoiru olimlar nomlari qayd etiladi. "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun"da esa boshqacha. Ularda ma'lum qahramonlar hayoti, u bilan bog'liq voqealar tizimi bayon etiladi. Shu nuqtai nazardan, "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy"ning obrazlari ham o'ziga xos. "Xamsa"ni to'liq mutolaa qilinsa, obrazlar ko'lami, ularning rang-barangligi, turli toifa kishilari ekanligi ma'lum bo'ladi.

Umumta'lim maktablarida "Xamsa" dostonlari o'qitiladi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida ham "Xamsa"ni o'rganishga ancha soat ajratilgan. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilar ham, talabalar ham "Xamsa"dagi barcha obrazlar mohiyatini, ular bilan bog'liq tafsilotlarni yetarlicha bilmaydilar. Bu tabiiy. Chunki ularni tushunish ko'p manbalardan xabardor bo'lishni talab etadi. Bizningcha, bu mushkulotni hal qilishning muhim usuli "Xamsa"dagi obrazlarni yaxlitlash, tasniflash, ularga xos belgilarni jamlash va baytlar tahlili asosida tushuntirishdir. Mazkur qismda ana shu narsa nazarga olindi. "Xamsa" dostonlarini o'rganish asosida undagi obrazlarni quyidagicha tasniflashni ma'qul topdik:

1. Payg'ambarlar obrazlari.
2. Avliyo, so'fiy, shayx, umuman, diniy tushunchalar bilan bog'liq siymolar.

3. Tarixiy shaxslar timsollari:

- a) hukmdorlar obrazlari;
- b) olimlar va hakimlar obrazlari;
- v) shoirlar timsollari;
- g) turli toifa, kasb-hunar va amal egalari obrazlari.

4. Mifologik obrazlar:

- a) ezgulik miflari;
- b) yovuzlik miflari;
- v) abadiy tiriklar (o'lmaydiganlar) obrazi.

5. Ishq-muhabbat bilan bog'liq an'anaviy adabiy qahramonlar.

6. Afsonaviy qahramonlar obrazlari v.b.

O'quvchilarga osonlik tug'dirish uchun "Xamsa" da uchraydigan obrazlar xususida yuqoridagi ko'rinishda tartib va izchil tarzda mu-lohaza yuritildi. Har bir obraz bilan daxldor ilk va zaruriy nazariy fikrlar bayon etiladi. Dostonlardagi baytlar jarayonida ushbu nazariy bilimlar yanada to'ldirilib, tahlil qilib boriladi.

"Xamsa" dostonlarida eng ko'p uchraydigani payg'ambarlar obrazlaridir. Bu narsa islom dini, ayniqsa, Qur'oni karim va boshqa muqaddas diniy kitoblar ta'siri bilan bog'liq. Ayni paytda, bu an'ana bilan ham bog'liq. Navoiy o'z his-tuyg'ulari, falsafiy mushohadalari asnosida lirik qahramon kechinmalari, yor ko'rinishi, uning turli sifat-lari tasviri jarayonida bu obrazlarga murojaat qiladi. "Qur'oni karimda zikr bo'lg'on va hammamizga bilmoq vojib bo'lg'on payg'ambarlar 28 tadir"¹. Ushbu muqaddas kitobning "Anbiyo surasi"da payg'am-barlar haqida fikr yuritilgan. Is'hoq, Ya'qub, Lut, Nuh, Dovud, Su-laymon, Ayyub, Ismoil, Idris, Zul-kifl, Zunnun, Zakariyo va Iso alay-his-salomlar to'g'risida xabar keltirilgan². Bulardan tashqari, diniy manbalarda Odam, Solih, Ibrohim, Yusuf, Shuayb, Muso, Horun,

¹ Qarang: Islom dini asoslari. 1-kitob. Toshkent, 1991. 9-bet.

² Qur'oni karim. Anbiyo surasi. O'zbekcha izohli tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. Toshkent: Cho'lpon, 1992. 220-bet.

Yunus, Ilyos, Yahyo, Muhammad kabi ulug'lar ham payg'ambarlar sifatida qayd etiladi. Ularning deyarli hammasi Navoiy "Xamsa" sida tilga olinadi.

"Xamsa" da to'rt-besh o'rinlarda Odam nomi tilga olinadi. Bu kishi biz ko'p bor tilga oladigan Odam Atoga ishoradir. "Hayrat ul-abror" ning avvalgi na'ti (asarning payg'ambarimiz Muhammad a.s. madh etilgan, u kishining sifatlari maqtalgan qismi) da ham Odamning tarixiga doir ba'zi ma'lumotlar keltirilgan. Ko'pgina diniy manbalarda (Bibliyada Adam) ham u kishining yaratilgani, hayotlari, Havvo (Momo Havvo), iblis bilan bog'liq kechinmalari bayon etiladi. Ayniqsa, Qur'oni karimning bir necha suralarida Odam Ato bilan bog'liq voqealar bayoni berilgan.

Odam – birinchi insonning ismi. Shuningdek, u kishi "Abu-l-bashar" – insoniyat otasi deb ataladi¹. Manbalarda birinchi payg'ambar sifatida ham tilga olinadi. Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida shunday yozadi: "Odam salavotulloh alayh xilqati Odamning kuniyati Bulbashedir va laqabi Safiyullohdur². Safiyulloh Ollohning sof, pok quli demakdir. Safi – pok, sof. "Qisasi Rabg'uziy" ning "Qissai Odam safiy alayhis-salom" qismida Odam, uning tuproqdan yaratilgani, jannatdan joy berilgani, Havvodek juftga ega bo'lishi, Iblis vasvasasiga ilingani, shu sabab ujmoq (jannat) dan ayrilgani, Olloh inoyati bilan barcha narsalarning nomini bilishi kabi voqealar tafsiloti keltirilgan³.

Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida Odam so'zi bilan birgalikda "alayhissalom" jumlasini ham qo'llaydi. Bu Odam Atoning ilk payg'ambar hisoblanishiga ishora:

¹ Islom. Ensiklopidicheskiy slovar. –Moskva: Nauka, 1991. 13-bet.

² Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. MAT. 20-tomlik. 16-tom. T., 2000. 99-bet. (Izoh: boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko'rsatiladi)

³ Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1-kitob. –Toshkent: Yozuvchi, 1990. 15-32-betlar. (Izoh: boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko'rsatiladi)

Ki andinki Odam alayhissalom,
Xilofat saririda tutti maqom¹.

Navoiy ushbu dostonning XI bobida tarix ilmi, aniqrog'i Ajam mamlakatlari tarixiga doir ma'lumot keltirar ekan, bu tarixni Odam Atodan boshlaydi. Shu asosda keyin o'tgan tabaqalar xususida fikr yuritadi.

Muhammad payg'ambar haqida gapirilar ekan, ilk payg'ambar Safiyullohdin (Odam Ato) oxirgi payg'ambarimiz Abdullohg'a (Muhammad payg'ambar) bilan bog'liqlikka e'tiborni qaratadi. Odam Atoning ota undan keyingi bashariyatni farzand ekanligi, Muhammad payg'ambar ham shu otaning farzandligi, buning hujjatlari, asoslari haqida to'xtalib o'tadi.

Bo'ldi sanga Odam sabqatnamo,
Avval o'g'ul, so'ngra gar o'lsa ato...
O'zga dalil istasa tab'i saqim,
Basdurur Odamda "alif", "dolu", "mim".
Barchasi Ahmadda topib izzu shon,
O'g'lida uch harf atodin nishon².

Islomda arab harflari ham katta ma'no anglatadi. Mazkur misralarda esa bu harflar Odam bilan Muhammad a.s. bir-biriga yaqinligini asoslovchi dalil sifatida keltirilgan. Odam so'zida ham, Muhammad so'zida ham yuqoridagi uch harf – "alif", "dol", "mim" borligi bunga asos.

Diniy qarashlarga ko'ra, Odam tuproqdan yaralgan. Ammo unga Ollohning nuri yog'ilib, go'zallik kasb etgan. "Mavlo azza va jalla Odamni qamug' ko'rkluklar birla bezadi. Tishlarindin nur balqinur erdi, ko'z nuri mengizlik. Muhammad al-Mustafoning nuri Odam-

¹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. MAT. 20 tomlik. II-tom, T., 1993. 74-bet. (Izoh: boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko'rsatiladi)

² Alisher Navoiy. Hayratul-abror. MAT. 20 tomlik. 7-tom. T., 1991. 33-bet. (Izoh: boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko'rsatiladi)

ning oldinda qo'miyur erdi to'lun oy mengizlik..."¹. Ushbu misralarda ilohiy nur haqida gap boryapti:

Bo'ldi chu Odamda bu partav nihon,
Anda nihon, lek yuzida ayon. («Hayrat ul-abror». 34-bet)

O'zbek mumtoz adabiyotida ko'p murojaat etiladigan obrazlardan biri Nuhdir. U Bibliyada Noy deb ataladi. Qur'oni karimning bir necha oyatlarida, "Nuh surasi"² da ushbu payg'ambar haqida fikrlar qayd etilgan.

Alisher Navoiy ham, Rabg'uziy ham Nuhni Idris payg'ambar avlodidan ekanligini ko'rsatadilar. "Nuh ibn Malik Manusax ibn Idris. Onasi oti Shamxo binti Anursh erdi. Nuhdin Odamg'a tegi o'n ota erdilar, qamug'lari musulmon erdilar. Oti Yashkir erdi, navha birla yig'lamish uchun Nuh atandi"³. Ba'zi manbalarda u Odami soniy-ikkinchi Odam ato deb ham yuritiladi. Nuh uzoq umr ko'rganligi, suv toshqini, to'fon bilan aloqador obraz. Misralarda ko'pincha "Nuh umri" birikmasini uchratamiz. U payg'ambarlar orasida eng uzoq umr kechirganlardan biridir. Nuh ming yildan ortiq, Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" sida yozilishicha, "Nuh a.s. umri ming olti yuz yil bo'lg'ondin so'ng olamdan o'tti" (105-bet). Sulaymon Boqirg'oni-ning mana bu baytida ham Nuh umriga ishora bor:

Qani ul ming yashagan odam o'g'li,
Mingda uch yuz yil umri bo'lg'on Nuh nabi⁴.

Navoiy "Xamsa"sida ham Nuh bir necha jihatlar bilan namoyon bo'ladi. Nuh va umri, Nuh va to'fon, Nuh va kemasi kabi voqealarga ishora qiluvchi baytlar ko'zga tashlanadi. O'quvchilar Nuh qissasi bilan tanish. Maktab darsliklarida Nuh, to'fon, kemasi va qaldirg'och

¹ Qisasi Rabg'uziy. 18-bet.

² Qur'oni karim. 432-bet.

³ Qisasi Rabg'uziy. 39-bet.

⁴ Sulaymon Boqirg'oni. Boqirg'on kitobi. T., 1991, 18-bet.

bilan bog'liq qissa keltirilgan. Navoiy "Xamsa"sida ham bu voqealarga ishora qiluvchi baytlar mavjud. "Ikki yuz ellik yoshga yetkani-da xudoyi taolo payg'ambar qilib, o'z zamonidagi xalqqa yuborgan" Nuh nabiyy a.s. bilan bog'liq bu kechinmalar "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor" dostonlarida uchraydi.

Ko'proq "Nuh umri", to'fon va Nuhning kishtibonligi (kemachilik, kemani boshqarish) kabilarga e'tibor qaratiladi. Bu qissalarning mazmunini bilish esa dostonidagi baytlarni to'g'ri tahlil qilish imkoniyatini beradi. "Sab'ai sayyor" da shunday bayt bor:

Bulut el uzra qatra bor o'ldi,
Nuh to'foni oshkor o'ldi¹.

Bu dostonning oxirgi o'rinlaridan olingan bayt. Bahrom va odamlarining behad ko'p ov qilishi, jonivorlarni o'ldirishi, yer qonga to'lishi-yu, yuqoridan bulutning "qatra bor" qilishi, ya'ni yomg'ir yog'dirishi natijasida mislsiz namu botqoqning hosil bo'lishi. Ushbu holat Nuh to'foniga qiyoslanmoqda. Nega Nuh to'foni? Bu to'fonning tafsiloti nima? Ma'lumki, Nuh yer yuzining g'arqioab bo'lishi, suvning chekinishi kabi voqealarning shohidi bo'lgan payg'ambar. Yer yuzidagi to'fon uning nomi bilan bog'lanadi. Bibliya, Qur'oni karim va xalq og'zaki ijodi asarlari orqali keng tarqalgan Nuh va to'fon bilan daxldor tafsilotlar jahon xalqlari orasida ham yaxshigina mashhur. Qur'oni karimning "A'rof surasi"da² "Shayx ul-anbiyo-payg'ambarlar oqsoqoli Nuh" haqida, u kishining pand-nasihati quloq solmay, qaysarlik qilgan diyonatsiz qavmlari bilan olib borgan bahslari, iymonsizlarni jazolash uchun Ollohga qilgan iltijolari, buning natijasi o'laroq to'fon balosi yuborilgani xususida fikrlar keltirilgan.

Elshunos Dj.Dj.Frezerning yozishicha, to'fon haqidagi afsonalar Sharqiy Osiyo, Avstraliya, Qadimgi grek va hind, Janubiy Amerika, Markaziy va Sharqiy Amerika va boshqa xalqlar orasida keng tarqal-

¹ Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. Nasriy bayoni bilan. Toshkent, 1991. 324-bet. (Izoh: Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko'rsatiladi)

² Qur'oni karim. 96-bet.

gan¹. To'fonning vaqti haqida ham turlicha xabar beriladi. Rabg'uziy buni quyidagicha ko'rsatadi: "Nuh aydi: "To'fon va'dasi qachon bo'lur?" Farmon keldi: "Qachon sening tanuring ichinda suv bilgursa ul azob izg'um turur"². To'fon (ya'ni yer yuzini suv bosishi) boshlangandan keyin, "Nuh kemaga har bir jonzotdan oladi. Xudoning o'zi kema eshigini yopdi. yetti kundan keyin to'fon boshlanib, qirq kun va qirq kecha davom etdi"³. Bu kemanding egasi, kishtiboni Nuh payg'ambarning o'zlari. Shuning uchun ham ba'zi baytlarda ana shu narsaga ishora qilinadi. "Sab'ai sayyor"ning ikki o'rinda, ikki baytda Nuh, uning kemasi, to'fon va kemani boshqarishi bilan aloqador mulohazalar bildirilgan:

Kimki ul kishti ichra topsa futuh,

Yo'q ajab bo'lsa kemachi anga Nuh. ("Sab'ai sayyor". 328-bet)

Qissadan ma'lumki, to'fondan xalos bo'lish faqat Nuh kemasiga chiqqanlarga nasib etadi. Ollohning amri shunday bo'ladi: "U kemaga har (jonivordan) bir juftdan va ahli oilangni chiqargin. Yana iymon keltirgan kishilarning barchasini (kemaga chiqargin)!"⁴. Demak, kemaga chiqishga erishganlarning kishtiboni – kemachisi Nuhning o'zlaridir.

Nuh kemasi – yer yuzida qayta hayot jonlanishi uchun Olloh tomonidan zuhur qilingan yaralmadir. Xalqimiz orasida kema, Nuh, qaldirg'och, sichqon, ilon, ari haqidagi afsona keng tarqalgan. Bu qissa "Qisasi Rabg'uziy"da ham keltirilgan. Shuningdek, Xorazm o'zbeklari urf-odatlarini o'rganib chiqqan G.P.Snesarov fikricha, Nuh kemachilarning muqaddas piri hisoblanib, kemanding old tomonida har qanday kishining o'tirishi ta'qiqlangan. U yer tabulashtirilgan. Bu joy Nuhga atalgan.⁵

¹ Frezer Dj.Dj. Folklor v vetxom zavete.M.: Polit.lit., 1990.-S.102.

² Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1-kitob. 41-bet.

³ Muqaddas kitob suratlarda.Muqaddas Kitobni (Bibliya) tarjima qilish instituti, 1985. 22-bet.

⁴ Qur'oni karim. 146-bet.

⁵ Snesarov G.P. Relikty domusulmanskix verovaniy i obryadov v uzbekov Xorezma.-M., 1969.-S.247

Yana bir misol:

Kimgakim Nuh bo'ldi kishtibon,

G'am yo'q ar ko'kka mavj urar to'fon. ("Sab'ai sayyor". 328-bet)

Endi bu baytning mazmuni aniq. Nuh kema boshqaruvchisi bo'lgandan keyin, suv-to'fon ko'kka qadar ko'tarilsa ham tashvish chekmasa bo'ladi. "Sab'ai sayyor"da bu fikr Navoiyning hayot, dunyo, umr, yashash haqidagi falsafiy mushohadalari jarayonida keltirilgan. Yuqorida qayd etganimizdek, "Xamsa"da Nuh umri bilan bog'liq misralar anchagina uchraydi. "Nuh umri" haqida ba'zi fikrlarni bildirib o'tdik. Bu birikma uzoq yashaganlik ifodasi. "Farhod va Shirin"da shunday bayt bor:

Agar topsa Skandar mulki zoting,

Gar o'lsa Nuh umricha hayoting. ("Farhod va Shirin". 180-bet)

Bu misralar Suqrot tilidan Farhodga aytilgan. Undagi ikki jumla – "Skandar mulki" va "Nuh umri" birikmasi izohtalab. "Nuh umri" tushunarli. "Skandar mulki" esa Iskandarning tengsiz davlati, ko'p mamlakatlarning podshosi ekanligiga ishora. Ko'p yurtga podshoh bo'lsang ham, Nuh hayoticha uzoq umr ko'rsang ham – baribir o'lim haq. Bu dunyodan hamma o'tadi, degan fikr mujassam. Mumtoz adabiyotda Nuh nomi bilan yonma-yon tarzda Ayyub nomi ham keltiriladi. "Hayrat ul-abror" dagi mana bu baytga nazar tashlaylik:

Bot bo'lu bir jom ila yetkur futuh,

Sabr esa Ayyubcha yo'q umri Nuh. ("Hayrat ul-abror". 245-bet)

"Sabr esa Ayyubcha" – Ayyub sabri ham o'ziga xos talqiniga ega. Buni keyingi o'rinlarda izohlaymiz. Bu baytda lirik qahramon histuyg'ulari ifodalanmoqda. Falak, uning tez aylanishi, umr, umuman, qilinadigan ishlarda Ayyubcha sabr bo'lsa ham, Nuh umridek hayot berilmagani ta'kidlanmoqda.

"Farhod va Shirin" dostonida Abulfavoris Shohg'arib Bahodir madhi mavjud. Navoiy Husayn Boyqaroning o'g'li bo'lgan ushbu temuriyzodaga nasihat qilar ekan, unga samimiy tilaklarini ham bildi-

radi. Umri uzoq bo'lishini istaydi. "Nuh umricha hayoti" bo'lishini tilaydi:

Va gar hikmatqa bo'lsa iltifoting

Ki, bo'lsun Nuh umricha hayoting. ("Farhod va Shirin". 465-bet)

Ushbu dostonning Armaniya yurtida tog' qazib, suv keltirish bilan mashg'ul kishilar ishiga doir voqea mavjud. Uch yildan buyon ishi yurishmayotgan, ariq qazish juda sekinlik bilan borayotgan, bu zaylda ishlansa, Nuh umri berilsa ham ish oxiriga yetmasligi bayon qilingan:

Bu yanglig' birla umri Nuh topsoq,

Badanda ko'prak ondin ruh topsoq. ("Farhod va Shirin". 229-bet)

"Sab' ai sayyor" dostonining yettinchi hikoyatida ham Nuh umriga ishora qiluvchi bayt bor. Diloromning san'atiga qoyil qolgan xorazmlik cholg'uvchi tilidan ushbu misralar aytilgan:

Umrum ar Nuhdin kam ermastur,

Hosili umr ul manga basdur. ("Sab' ai sayyor". 296-bet)

Uning fikricha, hayoti Nuh umridek uzun bo'lsa ham yoki kamroq umr kechirsa ham bu muhim emas. Asosiy maqsadi, "hosili umr" Diloromga shogird tushish, undan musiqa o'rganish.

Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Umuman, o'quvchilar Nuh payg'ambar bilan bog'liq bu qaydlardan xabardor bo'lishgach, mumtoz adabiyotda u bilan daxldor misralarni oson anglab oladilar.

"Xamsa" dostonlarida nomi uchraydigan payg'ambarlardan yana biri Ibrohim a.s.dir. Bu nom o'quvchilarga yaxshi ma'lum. Qur'oni karimning ta'siri, bu muborak zot bilan bog'liq yaxshi sifatlarning oqibati bo'lsa kerakki, ko'pgina ota-onalar o'z farzandlariga ushbu nomni beradilar. Qur'oni karimning "Ibrohim surasi"¹ mavjud. "Payg'ambarlar tarixi islomiyat tarixidir" kitobida yozilishicha:

¹ Qur'oni karim. 168-bet.

“Qur’oni karim suralarining yigirma beshtasida oltmish to‘qqiz mar-
ta Ibrohim payg‘ambar haqida gapirilgan”¹. Rabg‘uziyning “Qisasi
Rabg‘uziy” asarida yozilishicha, kofir Namrud tushi sabab tug‘ila-
jak o‘g‘il bolalarni o‘ldira boshlaydi. Uning Ozar ismli maslahatchisi
bor bo‘lib, xotini yukluk bo‘ladi. U o‘g‘il ko‘rib otini Ibrohim ataydi.
Namruddan qo‘rqib bolani tog‘dagi g‘orda yashirib qo‘yadi. Uning
ulg‘ayishi, ota-onasi, Namrud bilan bahslashishi, Namrud tomonidan
o‘tga tashlanishi kabi voqealar tasvirlanadi².

Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida ham bu tafsilotlar
keltirilgan³. “Ibrohim har uchala din vakillari – yahudiylar, nasroniy-
lar va musulmonlar tomonidan hurmat bilan tilga olinadi va ‘xalqlar
otasi, xalqlarning ulug‘ otasi” degan ma‘noni anglatadi. Yodgorliklar-
da Ibrohim “Xalilulloh, Xalil, Xalilul rahmon, Abul Ziyfon, Abul
Anbiyo” nomlari bilan ham qo‘llanilgan”⁴. Demak, Ibrohim buttaro-
sh Ozarning o‘g‘li bo‘lib, miloddan 2000-yil avval Bobilda dunyo-
ga kelgan. U o‘z qavmlarini yakka Xudoni tan olishga da‘vat etgan.
Ka‘bani Ibrohim bunyod qilgani, 170 yil umr ko‘rgani qayd etiladi.
Undan ikki o‘g‘il – Is‘hoq (onasi Sora) va Ismoil (onasi Hojar) qolgan
ekan.

Navoiy “Xamsa”sida Ibrohim payg‘ambar bilan bog‘liq ana shu
va boshqa voqealar singdirilgan misralar uchraydi. Tahlil jarayonida
o‘z fikrlarimizni yanada kengaytirib, u kishi bilan aloqador hodisala-
rni bayon etib boramiz.

“Sab‘ai sayyor”da Ibrohim a.s.ning laqablari –Xalilullo nomi
keltirilgan bir baytda u kishining nasabiga e‘tibor beriladi:

Kim Xalilullo Ozar o‘g‘lidur,

Butshikan ko‘rki, butgar o‘g‘lidur. (“Sab‘ai sayyor”. 64-bet)

¹ Rahmatulloh qori Obidov. Payg‘ambarlar tarixi islomiyat tarixidir. Birinchi
kitob. Toshkent: “Movarounnahr”, 2005. 99-bet.

² Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. I-kitob. 59-68-betlar.

³ Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. 112-116-betlar.

⁴ Husanov N. XV asr o‘zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-
semantik va uslubiy xususiyatlari. Fil. fan. doktori dis. avtor. T., 2000. 12-bet.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida "Ozar o'g'li", "butgar o'g'li" jumlarining ma'nosi oydinlashadi. Ozar-Ibrohim payg'ambarning otalari nomi ekanligi, "butgar" –but yasash uning kasbiligini bilib olamiz. "Hayrat ul- abror"dan olingan mana bu misralarda Ibrohim a.s. taqdiri bilan bog'liq yana bir voqeaga ishora qilinadi .

Bu ne namudori jamil, ey ko'ngul,
Balki gulistoni Xalil, ey ko'ngul. ("Hayrat ul-abror". 196-bet)

"Gulistoni Xalil" birikmasi izohtalab. Qissadan ma'lumki, Namrud kofirlardan edi. U Ibrohim a.s.ning da'vatlariga qarshi chiqib, o'tda kuydirmoqchi bo'ladi. "Qisasi Rabg'uziy"da Namrud Ibrohimni o't bilan qiynashni, kuydirishni, "kim qutg'arur ermish ko'rayin" deb, barcha lashkariga to'rt oy o'tin yig'dirgani, g'oyatda ulkan o'tin to'dalangani, o'n kun davomida olov yonib, kuchaygani, unga yaqin borib bo'lmaganidan manjaniq (tosh, shunga o'xshash biror narsa otishga mo'ljallangan qurol) bilan Ibrohim a.s.ni o'tga otganlari, Ollohga bo'lgan ishq o'tining kuchliligi, Tangri inoyati bilan o'tda kuy-maganligi kabilar bayon qilinadi¹. Xudoning amri bilan o't gulistonga aylanadi. Baytda ana shu voqealar ifodalangan. Ushbu baytda ham shunday mazmun singdirilgan:

So'zdin etib o'tg'a azimat Xalil,
So'z yukiga homil o'lub Jabroil. ("Hayrat ul –abror". 58-bet

"Farhod va Shirin" dostonida Farhodning asir tushishi, uni Xusravning oldiga olib kelishlari, Farhod va Xusravning hammamizga tanish dialog-bahsi (Dedi: -Dedi:) berilgan qismida ham Xalil nomi tilga olinadi. Xalilning lug'aviy ma'nosi do'st, muhib, yor. Ibrohim payg'ambarning laqablari. Baytni o'qiylik:

Xalil oso ochib o'tdin gulumni,

Bukim debsen sovursunlar kulumni. ("Farhod va Shirin". 327-bet)

Farhodning Xusravga qarata, o'tda kuydirib, kulini sovurishini orzu qilishini Xalil –Ibrohim payg'ambar qissasi bilan asoslamoqda. O't –olov o'rnida gulu gulzor hosil bo'lishiga ishora qilinmoqda.

¹"Qisasi Rabg'uziy". 1-kitob. 64-bet.

O'zbek mumtoz adabiyotida, Navoiy she'riyatida ko'p uchraydigan, ba'zan "Xamsa"da ko'zga tashlanadigan, lirik qahramon holati, ruhiyati, oshiq va ma'shuqa kechinmalari, "Xamsa" obrazlari ko'rinishi, sifat va belgilarini ko'rsatishda munosib talmeh bo'lgan obrazlardan biri Yusuf a.s.dir. Yusuf musulmon xalqlari afsona va rivoyatlarining sevimli obrazi. An'anaviy tasvir bo'yicha, asosan, uning go'zalligiga e'tibor beriladi. Xalq og'zaki ijodi asarlarida, shuningdek, yozma adabiyotda ham Yusuf birinchi navbatda tengsiz husni, Olloh tomonidan faqatgina unga ato etilgan ko'rkli chehrasi bilan namoyon bo'ladi.

Qur'oni karimning "Yusuf surasi"da "Ollohning payg'ambarlaridan Yusuf ibn Ya'qubning hayoti zikr qilinishi, u zotning boshiga tushgan balolar, og'a-inilari va begonalardan ko'rgan kulfatlari-chohga tashlanganlari; tuhmatga yo'liqqanlari; zindonband bo'lganlari haqida va bunday og'ir ko'rguliklarga sabr-toqat qilishlari natijasida oxir-oqibat zindon azobidan xalos qilinishi, butun Misr zaminining mulku xazinasiga ega bo'lganlari xususida so'z boradi"¹. Yusuf payg'ambar haqida arab, fors-tojik, turkiy adabiyotda ko'plab asarlar yaratilganki, ularning sujetida ana shu voqealar o'z ifodasini topgan. Yusuf haqida gap borganda, avvalo, u kishining go'zalligi, iymonli va pokligi namoyon bo'ladi. "Xabarda andoq kelur, izi azza va jalla ko'rkni yuz ulush qildi. To'qson to'quzni Havvog'a berdi. Bir ulushni qamug' olamlig'larg'a berdi. Ul bir ulushni yana o'n ulush qildi. To'quzni Yusufga, bir ulushni olamlig'larga berdi"². Yer yuzidagi jami odamlarga ko'rkning "bir ulushi" berilgani holda, Yusufga to'qqizi nasib etdi. Shu bois ham, "Kim ersa Yusufga boqsa ko'zguda ko'rartek o'zin yuzin ko'rar erdi... Qorong'u tun kuntek bo'lur erdi"³.

Alisher Navoiy asarlarida ham Yusuf a.s. nomlari sevib tilga olinadi. Shoir "Tarixi anbiyo va hukamo"da bu qissaning g'oyat mashhurligi, "g'arobat (g'aroyib, ajoyib, qiziq) va shirinligi uchun akobir (ulug'lar) ham nazm va ham nasr aning sharhi asbobin tuzubdurlar va

¹ Qur'oni karim. 152-bet.

² Qisasi Rabg'uziy. 1-kitob. 19-bet.

³ O'sha asar, 102-bet.

bayonida sehrlar” ko‘rsatganliklari, Firdavsiy, Jomiy, Mas‘ud Iroqiy kabilarning bu sujetda yetuk asarlar yozganliklarini qayd etib o‘tadi¹. “Xamsa”da bir necha o‘rinda – goh Farhodning kechinmalari, goh Majnun hayoti bilan aloqador o‘rinlar yoki “Sab‘ai sayyor”da so‘z xususida mulohazalar yuritganda, Sa‘d ta‘rifini keltirganda, “Hayrat ul-abror”da “Me‘roj kechasi ta‘rifida” qismida Yusuf nomi va u bilan bog‘liq voqealar qalamga olinadi. Yuqorida aytganimizdek, Yusufning eng birinchi belgisi – behad go‘zalligi, husni. Navoiy aytmog‘chi, “Yusuf a.s. bani odam jinsining jamilrog‘idur” (jamil – chiroyli, ko‘rimli). “Sab‘ai sayyor”da uchinchi iqlim musofiri Misr xojasi va uning farzandi Sa‘d haqida hikoya qilar ekan, uni shunday ta‘riflaydi:

Misr shohiga naqdu mol ichra,
Yusufi Misrcha jamol ichra. (“Sab‘ai sayyor”. 177-bet)

Bu misralarda Yusufning ham misrlik ekanligi, ham jamoliga e‘tibor qaratilgan. Qissadan ayonki, Yusuf Misr eliga borib qolgandan so‘ng, bu yurtda podshohlik qiladi. Xalqni ochlik, qahatchiliklardan saqlab qoladi. Demak, Sa‘dning mol-u davlati, husni Yusuf a.s.ga qiyoslanmoqda. Yusuf qissasida akalarining uni adashtirib yuborishi, sotishi, ko‘ylagini qonga bo‘yab, bo‘rini uni yeganlikda ayblash o‘rinlari mavjud. “Qisasi Rabg‘uziy”da yozilishicha, Yusuf a.s.ni xush ko‘rmagan akalari uni sayrga olib chiqib, o‘ldirish istagida bo‘ladilar. Ammo uni bir quduqqa tashlab, “bir o‘g‘loq bo‘g‘uzladilar, qonini Yusuf ko‘nglakinga bulg‘adilar” va yig‘lab otalariga uni bo‘ri yeganini aytadilar. Bo‘rini olib kelganlarida, Olloh inoyati bilan u tilga kiradi va Yusufni yemaganini, yolg‘onchilar uning og‘ziga qon surtub keltirganliklarini aytadi². “Farhod va Shirin”dan olingan mana bu baytda ana shu voqealarga ishora qilinadi:

Bo‘riga sharh etib gah arzi holin,
To‘kub yosh, yod etib Yusuf jamolin. (“Farhod va Shirin”. 339-bet)

¹ Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. 122-bet.

² Qisasi Rabg‘uziy. 1-kitob. 108- 109-betlar.

Farhodning Salosil qo'rg'onidan chiqib, dasht-u biyobonlarda kezishi, qush, sheru qoplonlar bilan birga yurishi, bo'riga o'z holatini bayon etishi, holatining Yusufga o'xshab ketishi kabilar ifodalanmoqda.

“Layli va Majnun”dan olingan ushbu baytda Yusuf a.s. qissasidagi yana bir jihat Majnun va uning yaqinlari holatiga qiyoslangan:

Andin bo'lub ul guruh afgor,
Itgon Yusufklar talabgor¹.

Yusuf qissasidan ayon bo'ladiki, akalari uni quduqqa tashlaydilar, sotadilar, azob beradilar. Ya'qub payg'ambar esa, suyuqli farzandlarining yo'qolganidan aziyat chekadilar, ko'z yoshi to'kadilar.

Ushbu holat Qays va uning yaqinlari voqeasiga o'xshatilmoqda. Layli ishqida beqaror bo'lgan Majnun qabilasiga bormay, dasht-u sahrolarga chiqib ketadi. Qabiladoshlari esa, “ul gulruh” “itgan (yitgan, yo'qolgan) Yusufklar”- Qaysni qidirib aziyat tortadilar. Qays kechinmalarini Yusuf voqealari bilan izohlash misralar ta'sirchanligini yanada oshirgan.

Yana bir bayt:

Shohidi boshidin-ayoq dilkash,
Husn bozori ichra Yusufvash. (“Sab' ai sayyor”. 31-bet)

“Husn bozori” birikmasida ham Yusuf bilan bog'liq voqea nazarda tutilgan. Qur'oni karimning “Yusuf surasi”da yozilishicha, Yusufni quduqqa tashlaganlarining uchinchi kunida bir karvon kelib, suv o'rnida uni topib oladi. “So'ng uni sotiladigan narsalari qatori yashirib qo'yadilar. Oллоh ularning qilayotgan amallarini bilib turguvchidir. (Keyin karvon Misrga yetib kelgach) uni arzon bahoda – bir necha tangaga sotib yubordilar”². “Qisasi Rabg'uziy”da bu baho aniq ko'rsatilgan. Akalari tomonidan Yusuf misrlik malik Za'r ismli kishiga o'n sakkiz pulga sotiladi. Misrda esa, u bozorga chiqarilib,

¹ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. MAT. 20 tomlik. 9-tom. T., 1992. 94-bet. (Izoh: Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko'rsatiladi)

² Qur'oni karim. 154-bet.

savdoga qo'yiladi. Ba'zi manbalarda aytilishicha, "Yusufning bahosi to'rt yuz ratl oltun, to'rt yuz ratl kumush, to'rt yuz ratl yinju, gavhar muqarrar bo'ldi"¹. Misr Azizi Zulayho talabi bilan Yusufni sotib oladi. Yuqoridagi baytda ana shu voqealar e'tiborga olingan.

"Hayrat ul-abror"ning beshinchi na'tida – "Me'roj kechasi ta'rifi-dakim" qismida ham Yusuf nomi tilga olingan:

Dalvg'a Yusuf kibi solmay nazar,
Hutda Yunus kibi qilmay maqar. ("Hayrat ul-abror". 46-bet)

Umuman, Yusuf qissasining sujetidan xabardor bo'linsa, u bilan bog'liq misralar sharhi oson hal bo'ladi.

"Xamsa"da Ayyub payg'ambar obrazi ham uchraydi. U kishi sabr timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Qur'oni karim izohlarida o'qiymiz: "Ayyub payg'ambar asli Rum mamlakatidan bo'lib, serfarzand va boy-badavlat kishi edilar. So'ngra boshlariga og'ir kunlar tushib, mol-dunyolaridan ajradilar, lekin qanoat qildilar; bolalari birin-ketin halok bo'lishib, ulardan ham judo bo'ldilar, sabr qildilar; salomatliklaridan ajrab, eng og'ir xastaliklarga duchor bo'ldilar, shikoyat qilmadilar!"². "Tarixi anbiyo va hukamo"da ham Ayyub payg'ambar, u kishining avlodi, Rumda tavallud topgani, asosan Shomda yashagani, boshiga tushgan balolar, ularni sabr bilan yenggani, keyinchalik Tangri inoyati bilan barcha narsalarga ega bo'lishlari bayon qilingan³. Ayyub payg'ambarning nomlari bilan bog'liq joylar – buloqlar, quduq va toshlar Suriya, Falastin, Misr, O'rta Osiyo mamlakatlarida uchrashi ta'kidlanadi⁴.

"Hayrat ul-abror"ning o'n uchinchi maqolatida haqiqiy insoniylik, "odamiylar odamiysi" qanday bo'lishi haqida mulohazalar bildirilgan. Shoirning ta'kidicha, "necha jaf o'ldi, vafo aylagan", azo-bu ozorlarga sabr bilan chidaydigan, hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaydigan kishi "basha xaylining insoni"dir. Navoiy bu fikrlarin-

¹ "Qisasi Rabg'uziy". 1-kitob. 115-bet.

² Qur'oni karim. Anbiyo surasi. 226-bet.

³ Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. 129-131-betlar.

⁴ Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. M., 1991. 17-bet.

ing dalili sifatida Ayyub payg'ambar bilan bog'liq bir hikoyatni keltirgan. Unda yozilishicha, Ayyubning uyiga o'g'ri lahim qazib kiradi. Lahim orqali u o'g'rilangan narsalarni olib chiqib ketmoqchi bo'ladi. Voqeadan xabardor bo'lib turgan Ayyub o'g'riga yumshoqlik bilan muomala qiladi va narsalarni olib chiqib ketish uchun eshikni ochib beradi. O'g'ri bu munosabatdan so'ng tavba qiladi. To'g'ri yo'lga kiradi. ("Hayrat ul-abror". 242-244-betlar).

"Xamsa"ning boshqa o'rinlarida ham bu obraz ko'zga tashlanadi. Yuqorida Nuh obrazi bilan bog'liq bir baytni tahlil qilganimizda, unda Ayyub nomi ham tilga olinganini ko'rgan edik. Misralardagi "sabri Ayyub" birikmasining ma'nosi esa endi tushunarli.

"Xamsa" dostonlarida nomi ko'proq uchraydigan payg'ambarlardan yana biri Muso a.s.dir. Muso kim? Uning payg'ambarlik xususiyatlari nimada? Muso mo'jizalari nimalardan iborat? "Xamsa"-da bu obraz nima maqsadda qayd etilgan? Bu kabi savollarga javob berish uchun, avvalo, Muso payg'ambar qissasidan ogoh bo'lish muhimdir. Muso haqidagi ma'lumotlar Injilda, Qur'oni karimda, Rabg'uziyning «Qissasi Rabg'uziy» asarida va boshqa manbalarda bayon qilingan. "Qur'onning o'ttiz to'rt surasida bir yuz o'ttiz olti marta Muso nomi tilga olingan"¹. Muso haqidagi qissaning Injildagi qisqacha mazmuni quyidagicha: Yusuf va uning avlod-ajdodlari dunyodan o'tishadi. Misr taxtiga yangi podsho keladi. U Bani Isroil qavmiga azob beradi. Yangi tug'ilgan o'g'il bolalar o'limga mahkum etiladi. Muso tug'ilganidan so'ng uch oycha yashirin tutiladi. Fir'avnning qizi uni topib olib saroyga keltiradi. Muso ulg'ayadi. Bir kuni u o'z qavmidan bo'lgan kishini misrlikdan himoya qilib, uni o'ldirib qo'yadi. Muso qochadi. Bir ruhoniyning (Qur'onda Shuayb payg'ambar) qizlariga yordam beradi (ularning qo'yini sug'oradi). Ruhoniyning Zipora nomli qiziga uylanadi. Qaynotasining qo'ylarini boqib yuradi. Muso Xudo bilan suhbatlashadi. Xudo unga o'z xalqining xaloskori bo'lishni buyuradi. Musoning so'zlariga odamlar ishonishlari uchun unga mo'jizalar ko'rsatish salohiyatini baxsh etadi. Musoning qo'lidagi hassa ilonga aylanadi, qo'li oppoq bo'lib

¹ Rahmatulloh qori Obidov. Payg'ambarlar tarixi islomiyat tarixidir. 247-bet.

ko'zni xiralashtiradigan nur taratadi. Xudoning xohishi bilan Muso yana bir necha karomatlar qiladi: dengizni teng ikkiga ajratib, o'z qavmiga yo'l ochadi, ularni qutqaradi. Fir'avn boshliq misrliklarni g'arq etadi va hokazo¹. Yuqorida qayd etilgan manbalarda Muso so'zining ma'nosi ham izohlanadi: «Muso-yahudiycha «tortib olingan», ya'ni «Men uni suvdan tortib olganman», degan ma'noni bildirar edi»². Bu Muso qismati bilan bog'liq. Fir'avnning amri bilan yangi tug'ilgan isroillik o'g'il bolalar o'ldirilishi kerak edi. Levita degan ayol o'z o'g'lini (Musoni) uch oycha yashirib yurgach, sol yasab uni suvga, qamishzorlar orasiga bekitadi. Fir'avnning qizi uni topib oladi. Va unga Muso deb nom qo'yadi. Ushbu ism ma'nosini elshunos Dj.Frezer ham shu taxlit izohlaydi³. Muso Isroil xalqining xaloskori, ularni qullik, azob-uqubat, misrliklar istibdodidan qutqarishga otlangani, sehrli hassasi, g'aroyib qo'li va cho'ponlik qilishi kabi boshqa tomonlari bilan namoyon bo'ladi. Yozma badiiy asarlarda ana shu belgilari asosida talqin etiladi. Muso obrazi Yusuf xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Hofiz Xorazmiy, Sakkokiy kabi Navoiygacha bo'lgan shoirlar asarlarida, Navoiy ijodiyotida va undan keyingi mumtoz shoirlarimiz asarlarida ham uchraydi.

Yusuf xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida u haqda shunday yozadi:

Qani ul tayaqi yilan bolg'uchi
Teniz yarlib otra kirib ketguchi.

Tarjimasi:

Qani u hassasi ilon bo'luvchi,
Dengiz /suvi/ yorilib, o'rtasiga kirib ketguvchi.

Navoiy "Xamsa"sida ham bu obraz ana shu jihatlari asosida talqin etiladi. Ma'lumki, muqaddas kitoblar – Qur'oni karim, Zabur, Injil, Tavrotlarning nozil bo'lishi ham payg'ambarlar nomi bilan bog'liq. Qur'oni karim payg'ambarimiz Muhammad a.s.ga nisbat berilsa, "Zabur" Dovud payg'ambarga, "Injil" Iso payg'ambarga, "Tavrot"

¹ Qarang: Muso qissasi. "Sirli olam" jurnali, 1991. 7-son. 47-48-betlar.

² O'sha manba, 47-bet.

³ Frezer Dj. Dj. Folklor v vetxom zavete. M.: Polit. lit.ra, 1990. -S.314.

esa Muso a.s.ga nozil bo'lganligi bayon etiladi. "Saddi Iskandariy" dagi mana bu baytda ana shu mazmun singdirilgan:

Chu Musog'a "Tavrot" etib haq bayon,
Sanga ul bayn ichra mu'jiz ayon. ("Saddi Iskandariy". 21-bet)

Muhammad a.s. madhiga bag'ishlangan na'tda, yuqorida zikr etilgan kitoblarda ham bu zot haqida fikrlar bildirilgani ta'kidlangan. "Layli va Majnun" dostonida shunday bayt bor:

Yo'q, yo'qki, shubonliq ichra Muso,
Ilgingda aso ham ajdaroso. ("Layli va Majnun". 226-bet)

Bu misralar Majnunning Layli qabilasi mollarini boqib yurgan cho'pon bilan uchrashgandagi holatini izohlaydi. Majnun uchun bu cho'pon Muso darajasida, qo'lidagi tayog'i esa uning hassasi monand. Bu yerda Muso a.s. qissasiga daxldor ikki jihat bor: cho'ponlik va aso. Ularning sharhi qanday?

Qur'oni karimning "Qasas" surasida yozilishicha, Muso Shuayb payg'ambar qizlarining qo'ylarini sug'orib beradi. Shu ayb payg'ambar Muso sakkiz yil ishlab bersa, ikki qizidan birini berishni, o'n yil ishlab bersa marhamat ko'rsatishini bildiradi. Muso haqiqiy tolibga, sadoqatli murshidga xos tarzda haq yo'lga, to'g'ri yo'lga boshlovchi pirining xohish-istagini to'la ado etadi. O'n yil cho'ponlik qiladi. Bu narsa-cho'ponlik, undagi pirga sadoqat, kamtarlik va xokisorlik, sabr va qanoat timsoli sifatida keng shuhrat topadi. Muso nomi bilan yonma-yon tarzda "shubon", "shubonlik" (cho'ponlik) so'zlarining uchrashi ana shu bilan aloqador. "Aso ham ajdaraso" jumlasining ham izohi bor. "Qisasi Rabg'uziy"da o'qiymiz: "Fir'avn aydiki, andin ikki qo'rqunchim bor, biri tayoq yerga solsa yilon bo'lur, biri iligi oy kundek yoruq. Ko'zlarni xira qilur"¹. Aso – hassaning mo'jizasi nimada? Qur'oni karimning "A'rof", "Qasas" suralarida bu haqda ma'lumotlar keltirilgan. "Qasas" surasida o'qiymiz: "Ey Muso, albatta Men barcha olamlarning parvardigori Ollohdurman. 31. Asoyingni (yerga) tashlagin!" Bas, qachonki (Muso)

¹ Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1-kitob. 169-bet.

uni ilondek qimirlayotganini ko'rgach, ortiga qaramay qochdi. "Ey Muso, kel, qo'rqmagin! Zero sen (xavfu xatardan) omonda bo'lguvchi kishilardandirsan"¹. Demak, Olloh tomonidan Muso payg'am-barga nozil etilgan mo'jizalardan biri – asoning ilon, ajdarga aylanishidir. "(Fir'avn): "Agar rostgo'y kishilardan bo'lib, oyat – mo'jiza bilan kelgan bo'lsang, qani uni keltir", -dedi. Shunda (Muso tutib turgan) asosini tashlagan edi, banogoh u aso rostakam ajdarga aylandi"². "Sab'ai sayyor"dan yana bir bayt:

Ko'rguzib anda chun yadi bayzo,
Qo'yubon pushti dast yuz Muso. ("Sab'ai sayyor". 20-bet)

Qur'oni karimda ta'kidlanishicha, "Musoga to'qqiz ochiq oyat-mo'jiza ato etilgan". Ana shulardan biri undagi g'aroyib ilik-qo'l bilan bog'liq. Muso payg'ambar qo'llarini yenglaridan chiqarsalar, nihoyatda oppoq bo'lib, ko'zni qamashtirguvchi kuchli nur tarqalarkan. "Qo'lingni qanoting – qo'ltig'ingga tiqqin, u hech qanday ziyon – zahmatsiz oppoq – nurli bo'lib chiqur. (Bu) ikkinchi mo'jiza (bo'lur)"³. Birinchi misrada "yadi bayzo" birikmasi mavjud. Uning ikki ma'nosi bor: Oppoq qo'l va kuch-qudrat. Bu yerda Muso payg'ambar qo'llarining mo'jizaviyligi – nur taratishi nazarda tutilgan. "Saddi Iskandariy" da ham shu mazmundagi misralar bor:

Aningdekki ilgini Muso sunar,
Ko'zi tushqali yadi bayzo sunar.
("Saddi Iskandariy". 401-bet)

"Kalimulloh" – "Olloh bilan bevosita so'zlashguvchi" degan nomga sazovor bo'lgan Muso alayhis-salomning bu sifatleri ham Qur'oni karimda sharhlangan. "Toha surasi"da o'qiymiz: "U (uzoqdan) bir olovni ko'rib ahli oilasiga: "(Shu yerda) turinglar, men bir olov ko'rib qoldim, shoyadki sizlarga undan biron cho'g' olib kelsam yoki shu o't oldidan biron yo'l (ko'rsatuvchi) topsam", dedi. 11. Bas,

¹ Qur'oni karim. Qasas surasi. 270-bet.

² Qur'oni karim. 104-bet.

³ Qur'oni karim. 214-bet.

qachonki u (olovning yaqiniga) kelgach, “Ey Muso” degan nido eshitildi. Men sening parvardigoringman”¹. O‘t, bu o‘tning Olloh nuri ekanligi, Tur tog‘i, unda Musoning Olloh bilan suhbatlashgani kabi hodisalar mana bu baytda ifodalangan:

O‘tig‘a Muso o‘ti yanglig‘ ziyo,
Yeli Masiho damidek jonfizo. (“Hayrat ul-abror”. 91-bet)

“Muso o‘ti” tushunchasi aniq bo‘ldi. “Masiho dami”ning ma‘nosini Iso payg‘ambar xususida mulohaza yuritganda bayon etamiz.

Muso va Tur tog‘i bilan bog‘liq hodisa “Layli va Majnun”dagi mana bu baytda ham aks ettirilgan:

Ham Turi fazilat uzra Muso,
Ham Qofi qanoat uzra Anqo. (“Layli va Majnun”. 31-bet)

So‘z haqida gap borar ekan, Navoiy Nizomiy, X.Dehlaviy, Ashraflarning so‘zdan foydalanish mahoratiga yuksak baho beradi. Musoning Tur tog‘ida Olloh bilan suhbatlashgani, Anqoning Qof tog‘ida bo‘lishini eslatib o‘tadi. Tur- Arabistondagi tog‘. Shu tog‘da Muso Ollohnning jamolini ko‘rish uchun chiqadi. So‘z sehri shu holatga qiyoslanadi.

Umuman, Muso payg‘ambar bilan bog‘liq bunday baytlarni “Xamsa”dan ancha keltirish mumkin. Ushbu sharhlar ham u kishi haqidagi qissadan yetarlicha xabardor bo‘lish imkoniyatini tug‘diradi.

Muso nomlari tilga olingan o‘rinlarda ba‘zan Horun ismi ham uchraydi. Horun kim? Qur‘oni karimning “Toha surasi”da Muso va Horun payg‘ambarlarning qissasi bayon qilingan². Manbalarda Musoning akasi sifatida tilga olinadi. Qur‘oni karimda o‘qiymiz: “Muso akasi Horunga dedi: “Qavmim ustida mening o‘rinbosarim bo‘lg’in va (agar ular yomon amal qilsalar) tuzatgin. Buzg‘unchi kimsalarning yo‘liga ergashmagin³. Demak, “Horun Qur‘oniy obraz bo‘lib, Muso payg‘ambarning akasi, safdoshi va yordamchisi, Bibliyada esa Aar-

¹ Qur‘oni karim. 214-bet.

² Qur‘oni karim. Toha surasi. 213-220-betlar.

³ Qur‘oni karim. 106-bet.

ondir. U Muso bilan birga Fir'avnga qarshi turadi"¹. Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida Muso bilan bir qatorda Horun haqida ham gapirib o'tadi. U kishining tug'ilishi, Muso bilan birgalikda Olloh yo'lida olib borgan ishlari bayon qilinadi². "Saddi Iskandariy" dostonining "Munojot" qismida ikki o'rinda Horun nomi qayd etiladi. Bu o'rinda shoir gunohlarni afv etish, Olloh inoyatidan bahramand bo'lib, gunohlardan xalos bo'lish xususida mulohaza yuritadi. Shu asosda o'z qavmining gunohlariga Horunning bildirgan munosabatini qayd etadi:

Eshittimki, Horuni daryo ato
Demishkim, chu afv aylasam pur xato.

Ilohiy, tuman ming bu Horun kibi,
Ne Horunkim, Ashku Faridun kibi.

("Saddi Iskandariy". 18-19-betlar)

"Xamsa"da Iso payg'ambar, u kishining sifatlari, mo'jizalari bilan bog'liq baytlar anchagina uchraydi. Dostonlardagi obrazlar, ularning kechinmalari, turli voqealar bayoni jarayonida Navoiy Iso obrazidan keng foydalanadi. Iso nomi o'quvchilarga yaxshi tanish. Diniy qissalarga ko'ra, Iso o'z nafasi, dami bilan o'likni tiriltirish, jonsiz vujudga hayot ato etish mo'jizasiga ega. Iso – Iisus Xristosning musulmon mifologiyasidagi nomi. Qur'oni karimda u Maryamning o'g'li, "Olloh so'zi", "Xudoning ruhi", "Ollohning quli" sifatida talqin etiladi. Iso, go'yoki, xudoning duosi bilan Maryam vujudidan paydo bo'ladi³. Iso hech qanday Xudo emas, balki Ollohning amri bilan bibi Maryamdan tug'ilgan inson farzandidir. Ollohning so'zi – Iso binni Maryamdir. Chunki u zot, Qur'onning xabariga ko'ra, Tangrining: "Bo'li!" –degan so'zi-farmoni bilan Maryamdan otasiz taval-lud topganlar⁴. Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida Iso a.s.ni "modarzod payg'ambar edi" deydi. Ya'ni onadan tug'ma payg'am-

¹ Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. 275-bet.

² Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. 133-142-betlar.

³ Mifi narodov mira. 1 tom. M., 1980. -S.565

⁴ Qur'oni karim. Ol-i Imron surasi.39-bet.

barliklarini ta'kidlaydi. "Muqarrardurkim, Iso a.s.ning otasi yo'qtur. Maryam Jabroil a.s.ning nafasi bila homila bo'ldi"¹. "Diniy va ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra u qadimiy yahudiycha yeshu'a so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "xudoning marhamati", "qutqaruvchi xudovand" ma'nolarini anglatadi"². Barcha payg'ambarlarga berilganidek, Iso a.s.ga ham Oллоh tomonidan bin necha mo'jizalar ato etilgan. Birinchi mo'jiza - chaqaloq paytlaridayoq biyron til bilan gapirib, onalari Maryamning pokdomon ekanligini isbot qilishlari, ikkinchisi – Injil kitobining sohibi bo'lishlari, uchinchisi – mutlaqo davosiz hisoblangan shabko'r, tug'ma ko'r, pes kasallari u Zotning bir nazarlari yoki bir qo'l bilan silashlari natijasida tuzalishi, to'rtinchisi – jonsiz narsalar bir puflashlari bilan jonliga aylanar, qadimiy o'liklar u kishining buyruqlari bilan tirilib, qabrdan bosh ko'tarar edilar³.

"Layli va Majnun" dostonining bir necha o'rinlarida Iso va mo'jizasi, Iso va o'likni tiriltirish, Iso va dami, Iso va jon ato etish, Iso va uning maskani kabi voqealarga ishora qiluvchi baytlar uchraydi. "Farhod va Shirin"da "Masiho nafasi", "Masih kalom", "Sab'ai sayyor"da "Masih", "Masihodam", "Hayrat ul –abror"da "Masiho nafasi", "Iso nafasi", "anfosi Masiho", "nutqi Masih" jummalari, "Saddi Iskandariy"da "Iso anfosi", "anfosi Isosirish" birikmalari kiritilgan ayrim baytlarda Iso a. s.ga xos u yoki bu jihatlarga e'tibor qaratiladi. Ular asosida asar qahramonlariga xos xususiyatlar, ularning zohiriy sifatlari, ichki olami yoritiladi. Shoirning ma'lum g'oyaviy maqsadlarini ifodalashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

"Layli va Majnun" dostonidagi Layli va Majnunning ishq, bu boradagi iztiroblari o'quvchilarga yaxshi ayon. Majnun Layli ishqida dasht-u sahrolarni kezadi. Jinni degan nom oladi. Layliga taalluqli neki xabar, qanday narsa bo'lsa ham uni shod etadi. Dostonning yigirma to'qqizinchi bobida Majnunning Layli qabilasidan bo'lgan cho'pon bilan uchrashuvi, suhbatı lavhası bor. Cho'pon bilan gaplashgan Qays uning "dami ravonbaxsh", "nutqi o'lgan taniga jonbaxsh" ekanligini aytadi. Uni Isoga tenglashtiradi:

¹ Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. 176-bet.

² Husanov N. O'sha manba. 17-bet.

³ Rahmatulloh qori Obidov. Payg'ambarlar tarixi islomiyat tarixidir. 119-120-betlar.

Isodek o'lukni tirguzursen,

Xush mo'jizadurki ko'rguzursen. ("Layli va Majnun". 226-bet)

Isoning mo'jizalari o'likni tiriltirish. Ana shu ishni cho'pon ham bajarmoqda. Layli ishqida, uning hajrida Majnun jonidan ayrilgan edi. Cho'ponning Layli haqida keltirgan mujdasi uning jonsiz taniga hayot baxsh etadi. Qayta tiriklik beradi. Boshqa bir o'rinda Laylini davolamoqchi bo'lgan tabibga "Isaviy dam" deyiladi:

Sa'y etti hakimi Isaviy dam,

Bo'lmodi quyosh harorati kam. ("Layli va Majnun". 275-bet)

Majnunning ota-onasi vafot etganini eshitgan Layli iztirobga tushadi. Uning g'am-alami behadligidan kuyinadi. Oh-nola chekadi. Kasal bo'lib, harorati chiqadi. Laylining ota-onasi bundan xabar topib, qizlarining shifosi uchun tabib keltirishadi. "Hakimi Isaviy dam" –mohirlikda Iso darajasida bo'lgan bu hakim Laylini tuzatish uchun ko'p harakat qiladi. Demak, hakim – Iso, Layli quyosh. Qancha sa'y qilsa ham, tabib qizning haroratini tushira olmaydi. "Layli va Majnun"ning boshqa bir o'rnida xatib –mulla Isoga o'xshatiladi. Ma'lumki, Laylining otasi Majnunga qizini bermagach, Navfal kuch bilan buni amalga oshirmoqchi bo'ladi. Qaysning aqli, odobi Navfalga juda ma'qul keladi. Unga o'zining iffat-u hayoda yagona, "Bosh-tin-ayog'i latifu dilkash" qizini bermoqchi bo'ladi. Ota-onalar rozi bo'lgach, to'y bo'ladi. Iso nafaslik xatib "oy birla quyosh"ni – Layli va Majnunni nikohlab qo'yadi:

O'lturdi xatibi Iysi i'joz,

Haq hamdu sanosin aylab og'oz.

Oy birla quyoshni ayladi aqd,

Boshi uza sochtilar base naqd. ("Layli va Majnun". 234-bet)

"Iysi i'joz" – Iso mo'jizasi. "Aqd"-nikoh. "Saddi Iskandariy" dostonida ham Iso nafasiga e'tibor qaratilgan baytlar bor. Bu yerda Iskandar va Mehrnoz, Ravshanak munosabatlari, ularning yashash

maskanlari, Iskandar ruhining taskini uchun yel-shabada Iso nafasiga o'xshatiladi:

Nazohatda gulshan, nechukkim, bihisht,
Yeli borcha anfosi Isosirisht. ("Saddi Iskandariy". 404-bet)

"Hayrat ul -abror"da:

Marg samumidin agar yetsa biym,
Bil ani Iso nafasidin nasim. ("Hayrat ul-abror". 273-bet)

Dostonning "Xudnamo muxannasvashlar" nomli o'n oltinchi maqolatidan olingan ushbu baytda o'ziga bino qo'ygan olifta kishilar haqida gap bormoqda. Shoir fikricha, maqtanchiq, takabbur, zulmkor, hech kimni pisand qilmaydigan kishi o'lim shamoliga duch kelsa, uni Iso nafasi darajasida bil. Ya'ni bunday kishilardan xalos bo'lish ko'p foydalidir.

"Xamsa" dostonlarida Iso nomiga qaraganda, u kishiga ishora qiluvchi, payg'ambarning nisbatlari bo'lmish "Masih" so'zi ko'proq tilga olinadi. Nega Masih? "Masih" so'zining ma'nosi nima? Bu savollarga ham Qur'oni karimdan javob topa olamiz. Qur'on izohlarida yozilishicha, har bir payg'ambar o'zining zamonida rivojlanib, taraqqiy qilgan sohada zamondoshlaridan ustun va peshqadam bo'ladilar. Masalan, Muhammad alayhis -salom zamonlarida arab olamida adabiyot nihoyat darajada rivojlangan bo'lib, adiblar orasida tez-tez musobaqalar o'tkazilib turar va g'oliblarning asarlarini Ka'ba devorlariga osib qo'yishar edi. Iso alayhis -salomning davrida esa tabobat ilmi shunday taraqqiy etgan ediki, dunyoda bironta davosiz dard yo'q, deb hisoblanar edi. Shunda Iso alayhis-salom keldilaru, hech bir tabibning qo'lidan kelmaydigan ishni qildilar - o'likni tiriltirdilar! Shuning uchun ham Qur'onda u zotning nomlariga Masih -silovchi laqabi qo'yildi. Ya'ni u kishining qo'llari tekkan-silagan o'likka jon kirar edi. Bunday mo'jizalar, tabiiyki, odamlar o'z payg'ambarlariga iymon keltirishlariga sabab bo'lar edi¹.

Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida Iso a.s.ning u kishiga iymon keltirganlarga javoban ko'rsatgan mo'jizalaridan bir nechitasi-

¹ Qur'oni karim. 39-40-betlar.

ni ta'kidlab ko'rsatadi. Biri bo'yoqchilarning buyumini Nil daryosiga tiqib, egasi tilagan rangda bo'yab chiqaradilar. Iso a.s. olam va dunyo asbobidin hech nima qabul qilmadi va alardin bir pashmina to'n va bo'rk va bir asosi bor edi. Bir yerda bo'lmas edi, doyim sayrda erdi¹. Bu ma'lumotlardan Iso a.s.ning mo'jizakorligi, mol-davlatga qiziqmagani, bir to'n va bosh kiyim, hassalari bo'lib, doim har yerda ko'chib yurishlari oydinlashadi. Eng asosiy mo'jizalari, Iso a.s. nomlari tilga olinganda shuurimizda uyg'onadigan ilk taassurot u kishining o'likni tiriltirishidir. "Xamsa"da bunga ishora qiluvchi baytlar anchagina. "Sab'ai sayyor"dan olingan mana bu baytda Masih va Maryam nomlari tilga olingan:

Tong emas bo'lsalar Masihodam,
Kim alarning onasidur Maryam. ("Sab'ai sayyor". 63-bet)

"Hayrat ul abror"dagi ushbu baytda Iso Masihning o'likni tiriltirishiga ishora qilingan:

Chashmasini chunki Masiho topib,
Pok damidin o'luk ihyo topib. ("Hayrat ul-abror". 85-bet)

Dam- nafas. "O'luk ihyo topib" degani o'likka jon kirishi, tirilishi demakdir.

Mumtoz adabiyotda ko'pincha va asosan yorga "Masih" nisbati beriladi. U o'z nafasi, so'zi, tabassumi, qarashi bilan oshiqqa jon baxsh etadi. "Farhod va Shirin"dan olingan mana bu baytda esa boshqacha:

Zihi nutqung takallum vaqti jonbaxsh,
Masiho yanglig' anfosing ravonbaxsh.
(“Farhod va Shirin”. 461-bet)

Bu misralar dostonning ellik uchinchi bobidan olingan. U Sulton Husayn Boyqaroning o'g'li Shoh G'arib Mirzo madhi va unga Navoiyning ba'zi nasihatlaridan iborat.

Shoir Shoh G'arib Mirzoni madh etar ekan, uni "koni malohat", "takallum vaqti daryoyi fasohat", ya'ni so'zlari yoqimli, chiroyli,

¹ Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. 177-bet.

nutqi jonbaxsh ekanligini ta'kidlab, uni Masihga, so'zlarini esa uning nafasiga o'xshatadi. Demak, bu yerda Shoh G'arib Mirzo va uning so'zlari Masih va nafasiga qiyoslanmoqda. Dostonning sakkizinchi bobi "Farhod va Shirin"ning yozilish sabablari haqida. Hotif (g'oyibdan kelgan ovoz) uni dostonni yozishga undaydi. "Ikkinchi hotif (Jomiy) esa uni qo'llab-quvvatlaydi:

Chu ul boshlab Masih oso kalomin,

Duo ul deb, maloyik aytib: omin.

("Farhod va Shirin". 41-bet)

"Masih oso kalom" –Masihdek jonbaxsh so'zlar egasi Abdurahmon Jomiy. U kishi Navoiyni mazkur dostonni yozishga ruhlantirib turadilar, duo qiladilar, farishtalar esa "Omin" deyishadi. Xalqda "Yaxshi gapga ham, yomon gapga ham farishtalar "omin" deydi" degan gap bor. Jomiyning duolariga malaklar – farishtalar "omin" deb, shoirga ushbu dostonni yozishda kuch tilaydilar. Bu baytda Masih nisbati Jomiyga berilgan.

Ma'lumki, mifik obrazlarning o'ziga xos yashash maskanlari, faoliyat ko'rsatish joylari bilan bog'liq qarashlar mavjud. Garchi Iso chekka Nil havzalari bo'yida palma daraxti ostida tug'ilgan bo'lsa-da, uning keyingi hayoti ko'k bilan, falak bilan aloqadorlikda ko'rindi. Bunday qarashlar ruh bilan, inson vafot etgach, ruhi osmonda yashashi mumkin degan diniy tushunchalar bilan bog'liqligini anglatuvchi misralar Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"ida ham uchraydi: "Ya Isa bolub kokka ag'dym taqy man" ("Yo Iso bo'lib men yana osmonga ko'tarildim")¹. "Layli va Majnun" dostonining to'rtinchi bobida na't keltirilgan. Muhammad a.s.ning Buroq otiga minib ko'kka ko'tarilishi, osmon, sayyora, burjlarning bundagi holati tasvirlangan. Shu voqealar jarayonida Iso nomi ham tilga olinadi:

Isoni taajjub aylabon lol,

Haryon falak uzra muztarib hol. ("Layli va Majnun". 22-bet)

¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T., 1971.939-bet.

Bu baytda Isoning ko'kdaligiga ishora bor. Payg'ambarimiz Muhammad a.s.ning osmonga ko'tarilishi falakdagi barcha jismlar qatori Iso a.s.ni ham taajjubga solib, lol qoldirgan. Mana bu baytda esa, payg'ambar nuri falakdagi Isoga ham ta'sir etgani, uning yorug'tal'ati-yuzi quyoshni ham "zarbaft" –zardan to'qilgan mato kiyishiga sabab bo'lgani tasvirlangan. Bu yerda quyoshning ko'rinishiga, sariq rangiga e'tibor qaratilgan:

Isog'a yetib chu kimiyosi,

Zarbaft bo'lub quyosh libosi. ("Layli va Majnun". 24-bet)

Iso a.s. haqida gap borganda u kishi bilan bog'liq yana bir sifat qayd etiladi. Bu u zotning mujarrad–bo'ydoq, uylanmay o'tganliklari haqidadir. Navoiy shunday yozadi: "Va zuafo bila ixtiloti yo'q erdi. Bu jihatlar din mujarradliqqa mashhur bo'ldi"¹. "Zuafo" –zaiflar, ayollar, "ixtilot" – aralashish, yaqinlashish degani. Mujarradning ma'nosi endi ma'lum. Ana shu mazmun ifodalangan misra "Hayrat ul –abror"–da uchraydi:

Bermasa lysoyi mujarrad diram,

Yozib aning aqdida to'qquz haram. ("Hayrat ul –abror". 225-bet)

Bu bayt o'n ikkinchi maqolatdan olingan. Unda shoir qalam haqida gapirar ekan, ma'qul va noma'qul, pulga o'ch va insofli kotiblar xususida mulohazalar bayon etadi. Shoir fikricha, qozixonaning ba'zi insofsiz kotiblari nohaqni haq, xiyonatni diyonat deb, to'g'ri odamlarni yo'ldan urib, oq qog'ozni qora qilishdan ham tiymaydilar. Pul bermasa uylanmay o'tgan Iso payg'ambarning ham nikohida to'qqiz xotini bor deb yozishdan qaytmasliklarini ta'kidlaydi. Navoiy ba'zi poraxo'r va noinsof kotiblarning kirdikorlarini fosh etishda Iso a.s. taqdiri bilan bog'liq voqeani ham dalil sifatida qo'llaydi.

Qisqasi, bildirilgan mulohazalar, fikrni asoslovchi baytlar o'quvchilarga "Xamsa"da Iso, Masih, Maryam bilan bog'liq misralarni tushunishga imkon bera oladi.

¹ Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. 177-bet.

O'zbek mumtoz adabiyotida, jumladan, Navoiy asarlarida tez-tez qayd etiladigan obrazlardan biri Sulaymondur. Bu obraz haqidagi muhim qaydlar, asosiy tafsilotlar Qur'oni karimda o'z ifodasini topgan. Ushbu muqaddas kitobning "Naml" va "Saba" suralarida mulohazalar yuritilgan¹. Sulaymonning otasi podshoh Dovud, onasi Virsaviya. Dovud Sulaymonni o'z taxtining vorisi deb e'lon qiladi. Oллоh Sulaymonning tushiga kirib, nima istasa, hammasini bajarishini aytadi².

Sulaymonning insu jinlar, devu parilar, butun mavjudot ustidan hukmronligi, sehrli ashyolar – uzuk va gilamga, mo'jizaviy taxtga egaligi, qushlar tilini bilishi- hammasi Oллоhning inoyati. Xudoning unga ko'rsatgan marhamati.

Navoiygacha bo'lgan davr adabiyotida ham, shoir asarlarida ham Sulaymon va unga xos sifatlar ko'pincha yonma- yon tarzda tilga olingan. Sulaymon va chumoli, Sulaymon va lashkari, Sulaymon va uzugi, Sulaymon va taxti, Sulaymon va mulki, Sulaymon va podsholigi, Sulaymon va Bilqis, Sulaymon va hudhud, Sulaymon va Osaf mazmunidagi qator hodisotlarga e'tibor qaratiladi. Bularning har biri o'z asosiga, o'z talqiniga ega. Sulaymonning chumoli yoki hudhud, Bilqis yoki Osaf bilan munosabati, mulki, lashkari, podsholik darajasi, xotam – uzuk va taxti sifatlari haqida ma'lum bilim-ga ega bo'lish – bayt mazmunini anglashni osonlashtiradi. Navoiy "Xamsa"sida ba'zan ana shu o'zaro bog'liqliklarning bittasi, ba'zan ikkitasi birgalikda singdiriladi.

Afsonalardan ma'lumki, Sulaymonning butun salohiyati, podsholigi qudrati uning uzugi bilan bog'liq edi. "Farhod va Shirin" dos-tonining yigirma beshinchi bobida Farhodning Xoqon va Mulkoro bilan Suqrot tog'iga borgani bayon qilinadi. Xoqon va yaqinlari Suqrot bilan uchrashadi. Suqrot Xoqonga ko'p alam tortgani, buning eva-ziga ko'p xazina, oltin-u javohirlarga, shuningdek, "Sulaymon xota-mi", "Jamshid jomi"ga ega bo'lganini ta'kidlaydi. Sulaymon xotami,

¹ Qur'oni karim. Alouddin Mansur tarjimasi. Toshkent, 1992. 261-264, 297-302-betlar.

² Mifl narodov mira. Ensiklopediya. 2 tomlik. 2-tom. Moskva, 1992. 460-bet.

Jamshid jomi mumtoz adabiyotda ko'p tilga olinadigan, juda noyob afsonaviy ashyolar. Bularga ega bo'lish qudrat va buyuklik ramzi. "Farhod va Shirin"da shunday bayt bor:

Adadsiz javharu naqdi kiromi,
Sulaymon xotami, Jamshid jomi. ("Farhod va Shirin". 176-bet)

Uzugi vositasida Sulaymon "olamni musaxxar"—o'ziga bo'ysundirardi. Chunki "bu uzukning ko'zi "kibriti ahmar" degan qimmatli toshdan yasalgan, unda ismi a'zam yozilgan ekan. Kimyogarlarning e'tiqodiga ko'ra, bu tosh har qanday mo'jizalarga kalit berar emish. Bu toshga Tangrining sirli ismi o'yilgani uchun barcha maxluqlar Sulaymonning amriga bo'ysunar ekan"¹.

"Farhod va Shirin"ning yigirma ikkinchi bobida Farhodning ajdarni o'ldirib, Afridun xazinasiga ega bo'lishi, uning otasi va qo'shiniga sovg'a qilgani haqida gapiriladi. Farhod ega bo'lgan sehrli qilich va qalqonda ham Sulaymon podshoh uzugiga yozdirgan ulug' ismlar mavjud edi:

Ki, qalqon qubbasida misli xotam,
Sulaymon yozdurubtur ismi a'zam.

("Farhod va Shirin". 149-bet)

Demak, Sulaymon xotami —uzugida bo'lganidek, Farhod qo'lga kiritgan qalqon qubbasida ham "ismi a'zam" — Olloh nomi yozilgan edi. Uning kuchi bilan "yuz tuman dev"ni ham mavh etish mumkin. Dostonning keyingi o'rinlarida esa falak Sulaymonga, tong esa uning uzugiga qiyoslanadi:

Tutub holig'a tun ifriti motam,
Sulaymoni falak ko'rguzdi xotam. ("Farhod va Shirin". 153-be)

"Ifrit"—dev, shayton. Tunning qoraligi ularga o'xshatilmoqda. Tong otishi esa tun uchun motam. "Farhod va Shirin"ning mana bu baytida ham Sulaymon xotamining kuchi, barcha insu jin, devlarni ham yenga olish xususiyati nazarda tutilgan:

¹ Shayxzoda. Asarlar. 4-tom. Toshkent, 1972. 256-bet.

Topar chun devni qatl etti, kini,
Sulaymoni nabining xotamini. ("Farhod va Shirin". 140-bet)

Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida shunday yozadi: "Va yelni farmonig'a kiyurdi va ismi a'zam yozilg'on xotam karomat qildi"¹. Ma'lumki, Sulaymon barcha vahshiy jonivorlar, qushlarni ham o'z izmida saqlardi. Ularning tilini bilardi. "Farhod va Shirin"da Farhodning Xusravga asir tushib, Salosil qo'rg'onida saqlanishi tasvirlangan bob bor. U banddan qutilib, sahro-yu dashtga chiqib ketar, qo'riqchilar jazolanmasin deb yana qaytib kelardi. U tog'-u sahrolarga chiqar ekan, qushlar, vahshiy hayvonlar yonida to'p bo'lardi. Bu xuddi Sulaymon holatiga o'xshaydi:

Sulaymondek barig'a hukmi jori,
Agar dashtiyu yoxud ko'h sori.

Sulaymonvash chekib ul yerga poya
Ki, qushlar tortibon boshig'a soya. ("Farhod va Shirin". 338-bet)

Yuqoridagi baytlarda xotam Sulaymon nomi bilan yonma-yon tilga olingan. Ammo "Hayrat ul-abror"dagi mana bu baytda boshqacha tasvir:

Devu pari zumrai odam bila
Tobii amri edi xotam bila. ("Hayrat ul-abror". 204-bet)

Bu misralarda Sulaymon podsho bilan bog'liq voqealar nazarda tutilgan. Sulaymon nomi tilga olinmagan bo'lsa-da, "xotam", "devu pari", "amr" so'zlari unga ishora qiladi. "Xotam" adabiyotimizdagi mashhur qissaga urg'u berayotgan kalit so'z. Sulaymon payg'ambar bilan bog'liq voqealardan xabardor o'quvchi uni tez ilg'ab oladi. Ammo ko'pincha kitobxon bunga yetarlicha e'tibor bermay, bayt mazmunini anglamay qolishi mumkin. Xotam, nigin -uzuk qudrat timso-li. So'fi Olloyor ta'kidicha, Sulaymonning "insu jin"ni bo'ysundirishi bir uzuk ta'sirida edi:

¹ Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. 161-bet.

Sulaymonkim igurdi ins-u jindin
Ani farmoni erdi bir nigindin¹.

Sulaymon qissalarida hudhud nomi ham ko'p uchraydi. O'zbek mumtoz adabiyotida qushlar, jonivorlar, o'simliklar, turli predmetlar o'ziga xos tasviri va mohiyatiga ega. Qushlar ham qator sifatleri bilan namoyon bo'ladi. Simurg – baland martaba, oliy sifat sohibi. Anqo – qadr-qimmatli, noyob va xayoliyligi, bulbul-muhabbat va oshiqlik timsoli, umuman, ko'proq ijobiy ko'rinishda ifodalansa, boyqush, zog' kabilar noxush, yoqimsiz, baxtsizlik timsollari sifatida galdalanadi.

Hudhud esa ko'p o'rinlarda e'tiborli, muhim ishlarni bajaruvchi dono tarzida tasvirlanadi. U majoziy va haqiqiy ruhdagi asarlarda ham ko'rinaveradi. Jaloliddin Rumiyning "Uchmoqqa qanot yo'q vale uchgayman" nomi bilan chop ettirilgan asarida "Hudhud va Sulaymon haqida rivoyat" keltirilgan². Bunda hudhud ilohiy, tasavvufiy obraz sifatida talqin etilgan. Navoiyning "Lisonut-tayr" asarida ham shu mazmunda. Hudhud – pir timsolida. Gulxaniyning "Zarbulmasal" ida esa nodon, aqlsizlarga tanbeh beruvchi dono. U Ko'rqush bilan bahsga kirishadi. Bu majoziy – dunyoviy xarakterda.

Hudhud timsolining adabiyotimizda ko'p uchrashi ma'lum asosga ega. Bizningcha, buning birinchi sababi uning Qur'oni karimda tilga olinishi bo'lsa, yana bir tomoni Sulaymon payg'ambar voqealariga aloqadorligidir.

Qur'oni karimning "Naml surasi"da Sulaymon va hudhud, uning Saba' malikasi Bilqis haqida xabar keltirishi, Sulaymonning Bilqis bilan uchrashishi haqida ma'lumotlar keltirilgan³. Hudhud Sulaymon oldida e'tiborga molik edi. Shu sabab ham mumtoz adabiyotda ular ko'pincha birgalikda qo'llaniladi. Navoiy talqinicha, Sulaymon har bir qushga ma'lum ish topshirgan bo'lib, Hudhud suv topishga mas'ul edi⁴. Hudhud Sulaymon bilan yonma-yon ifodalangan

¹ So'fi Olloyor. Sabotul o'jizin. Toshkent, 1991.4-bet.

² Jalolliddin Rumi. Uchmoqqa qanot yo'q vale uchgayman. Toshkent, 1994, 16-17-betlar.

³ Qur'oni karim. 262-bet.

⁴ Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. 164-bet.

misralarda asosan e'zozli, e'tiborli tarzda ko'rinadi. "Layli va Majnun"dan olingan mana bu baytga nazar solaylik:

Hudhudg'a ne moya, qadru osmon,
Sayr aylasa yer uza Sulaymon. ("Layli va Majnun". 18-bet)

Dostonning uchinchi bobi –Muhammad a.s. na'tidan olingan bu misralarda payg'ambarimiz sifatleri, u kishining imkoniyatlari xususida fikr yuritilgan. Payg'ambarimizning Olloh elchisi ekanliklari Sulaymon va hudhud munosabatlari asosida tasvirlangan.

Ko'p o'rinlarda Sulaymon payg'ambar nomi bilan birgalikda Bilqis atamasi ham ishlatiladi. Bilqis kim? Uning Sulaymon payg'ambar bilan qanday munosabati bor? Sulaymon a.s. zamonlarida (miloddan ilgari –taxminan o'ninchi asrda) Yaman mamlakatining Saba' shahrida Bilqis ismli ayol hukmronlik qilgan. Qur'oni karimning "Naml surasi"da Sulaymon va hudhud, uning Saba' malikasi Bilqis haqida xabar keltirishi, Sulaymonning Bilqis bilan uchrashishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.¹ Bilqis dono malika edi. U Sulaymon mak-tubini olgach, sinash uchun hadya yuboradi. Hadya Sulaymonning shunchaki podshoh yoki payg'ambar ekanligini bilish uchun vosita edi. Sulaymon hadyani olmaydi. Bu Bilqisning unga bo'ysunish bel-gisi edi. Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida shunday yozadi: "Sulaymon a.s. so'rg'och, arz qildikim, bu nav' shahrg'a yettim va bu nav' podshohi bor. G'oyat husnu jamol va nihoyati husnu kamol va salotindin munfarid va millati oftobparastlig'. Otasi Sharohil Ya'rib binni Qahiton naslidin va onasi Rayona jinikim, jin Shohining qizi bo'lg'ay... Va noma Bilqisga yetkondin so'ngra, Bilqis taammul bila to'rt kirpich ikisi oltun, ikisi kumush, dog'i bir muhrlik durj va yuz qiz va o'g'ul –barisin borchasig'a eranlar libosi kiydurulgan orasta qilib, Manzar binni Umarkim, aql va kayosatlig' kishi erdi, bu ni-malar bila Sulaymon a.s. hazratiga yubordi"². Bu qaydlarda Bilqisning asli, uning Sulaymon a.s.ni sinash uchun yuborgan sovg'alari ko'rsatilgan. O'zaro sinash, savol-javoblardan so'ng, Sulaymon a.s.

¹ Qur'oni karim. 261-264-betlar.

² Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. 164-bet.

Bilqisni o'z nikohlariga oladilar. "Aymishlar, Sulaymonning Bilqis-din o'n ikki o'g'li bo'ldi. Qamug'i kichikda vafot bo'ldi. Aymishlar, Bilqis yuz yil o'z mulkida umr kechirdi, musulmonliq uza bordi"¹. Navoiy "Xamsa"sida Bilqis nomi bir necha baytda uchraydi. "Farhod va Shirin"da shunday bayt bor:

Chu sen topting Sulaymonliq maqomin,

Demon qil manga Bilqis ehtiromin. ("Farhod va Shirin". 371-bet)

Dostonning qirq beshinchi bobida Shirinning Farhodga yozgan maktubi keltirilgan. Bu noma o'quvchilarga yaxshi tanish. Ko'pchilik uni yoddan biladi. Shu xatda Shirin Farhodning holatini, kechinmalarini bayon etadi. Farhodning tog'-u sahroda yurgandagi tasviriga, uning humoy, kiyik, qulon kabi jonivorlar bilan kezishiga e'tiborni qaratadi. Hayvonlar bilan bo'lgan bu do'stlikni qushu hayvon – barcha jonivorlar tilini biladigan, ular bilan hamsuhbat bo'lgan Sulaymon payg'am-barga o'xshatadi. "Sharafdin bo'lg'on ermishsen Sulaymon"-shon-u sharafda, obro'-e'tiborda Sulaymon bo'lding deya Farhodga baho beryapti. Shirin Farhodni Sulaymon maqomiga erishganini ta'kidlab (bu ham Farhodga bo'lgan muhabbat, unga berilgan yuksak baho), o'ziga Bilqis ehtiromini qilmasa ham mayli deydi. Navoiy Shirin xatining bir necha o'rinda Farhod va Shirin munosabatlarini Sulaymon va Bilqis holatiga qiyoslaydi. Shirin nomidan Farhodga Sulaymon nisbatini bersa-da, Shirin o'zini Bilqisga tenglashtirmaydi. Kamtarlik qiladi. Bilqis bo'lolmasa ham, kanizi bo'lishga tayyorligini bildiradi:

Agar Bilqisdek yoru azizing

Bo'la olmon, ham o'lg'oymen kanizing.

("Farhod va Shirin". 371-bet)

"Sab'ai sayyor"da ham shu ruhdagi bayt uchraydi. Dostonning o'ninchi bobi poklik haqida.

Chun Sulaymong'a yor erur ne ajab,

Anga Bilqisi soniy o'lsa laqab. ("Sab'ai sayyor". 61-bet)

¹ Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob.54-bet.

Mumtoz adabiyotimizda Sulaymon va chumoli sujeti ancha mashhur. Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida Sulaymon bilan "qarinchqa" - chumoli suhbatini to'liq bayon qilingan. Chumolining savoliga javob berish orqali Sulaymon o'ziga mavlo taolo ato etgan yorliqlarni sanab o'tadi. Bular: Sulaymonning Ollohdan hech kimda bo'lmagan mulk, yel-shamolni bo'ysundirish, fil suyagidan taxt, uchar qushlarga hukmronlik, uzuk – xotam, dev, parini bo'ysundirish kabilarga ega bo'lishidir.¹

Umuman, yuqoridagi ma'lumotlar mumtoz adabiyotimizda ko'zga tashlanadigan Sulaymon a.s. bilan bog'liq voqealarni yetarli-cha anglash, misralarni to'g'ri tahlil qila olish imkonini beradi.

"Xamsa", ayniqsa, "Saddi Iskandariy" dostonining bir necha o'rnida Ilyos a.s. nomlari zikr etilgan. "Lug'atlarda Ilyos qadimiy ibriycha "Iliya" so'zidan olinganligi hamda "mening tangrim", "tangrinning qudrati, kuchi" kabi ma'nolarni anglatishi qayd etilgan"². Ilyos a.s. ga xos xususiyatlar nimada? Payg'ambar sifatida u kishiga taalluqli jihatlar nimalar bilan belgilanadi? "Qisasi Rabg'uziy" da "Qissai Ilyos yalavoch alayhis –salom" nomli qism bor. Unda Ilyos a.s. ning tug'ilishlari, qavmi bilan munosabati, Ollohnin u kishiga ko'rsatgan inoyati, Jabroil a.s. bilan muloqotlari bayon qilingan³. "Xizr va Ilyos alayhimas-salom so'zlari" sarlavhasi ostida esa, Xizr va Ilyos munosabatlari keltirilgan. Unda shunday so'zlar bor: "Ba'zi aymishlar, Xizr birla ikkilari mangu suyini ichtilar qiyomatg'a tegi o'lmaslar. Xizr daryolarda yurur. Ilyos sahrolarda yo'ldin ozg'onlarga yo'l ko'rguzurlar. Ishlari bu turur"⁴. Bu ma'lumotlardan quyidagilar anglashiladi: Tiriklik suviga ega bo'lganlardan biri Xizr bo'lsa, ikkinchisi Ilyosdir. Xizr daryolar, suv dunyosi bilan bog'liq bo'lsa, Ilyos quruqlikda, sahrolarda kezadi. Adashganlarga yo'l ko'rsatadi.

¹ Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob. Toshkent: "Yozuvchi", 1991. 36-bet.

² Husanov N. Ko'rsatilgan manba. 17-bet.

³ Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob. Toshkent: "Yozuvchi", 1991. 66-67-betlar.

⁴ Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob. Toshkent: "Yozuvchi", 1991. 68-bet.

Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo"da ham bu haqda yozadi: "Zulqarnayn hayvon suyi xiyoli bila zulumatga kirganda Xizr a.s. ani boshlab kirdi. Va derlarkim, Ilyos a.s. dog'i bila erdi. Ul suvni tengri taolo bu ikovga nasib qildi va Zulqarnayn mahrum yondi"¹. Iskandar Zulqarnayn "hayvon suyi" – abadiy tiriklik suvini izlashga tushadi. Bunda unga Xizr va Ilyos a.s. hamrohlik qilishadi. Tiriklik suviga Xizr va Ilyos ega bo'ladi, Iskandar benasib qoladi. "Saddi Iskandariy" dostonining yetmish ikkinchi bobida Iskandarning quruqlikni egallab bo'lib, endi kema yasab, suv olamini zabt etishga kirishishi tasvirlanadi. U jahonni o'ziga bo'ysundirgani, endi dengiz sayrini ko'ngli tusaganini aytadi:

Qurug'likni qildim Xizr birla tay,
Bu dam qo'ysam Ilyos ila suvg'a pay.
("Saddi Iskandariy". 478-bet)

Yuqorida Xizr quruqlik bilan, Ilyos esa suv bilan bog'liqligini aytgan edik. Bu baytda Iskandar ana shu narsaga ishora qilmoqda. Quruqlikni Xizr bilan "tay" qilgan-kezman hukmdor endi Ilyos bilan suv dunyosi (dengiz)ga "pay" – qadam qo'yishni orzu qilmoqda. Dostonning yetmish oltinchi bobida esa, Iskandarning Muhit –okean sayohatiga chiqishi ifodalanadi. Unga Suqrot, Ilyos yo'l boshlab borishadi:

Ishe tutmoq ul yo'l ishin pos o'lub,
Aning posini tutqon Ilyos o'lub. ("Saddi Iskandariy". 493-bet)

Birinchi misrada yo'l tayyorgarligiga rioya qilib ish tutish,uning boshida esa Ilyos turgani ta'kidlanmoqda. "Pos" –rioya, e'tibor va qo'riqlash, saqlash ma'nolariga ega. Dostonning yigirma uchinchi bobida Iskandar ishlarining tafsiloti berilgan. Unda ham Iskandarning quruqlikdagi rahbari Xizr, dengiz ichra "yovari" –yordamchi, madadkori Ilyos ekanligi ta'kidlanadi:

Qurug'luq aro Xizr o'lub rahbari,
Tengiz ichra Ilyos edi yovari. ("Saddi Iskandariy". 432-bet)

¹ Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. 129-bet.

Shu misralarning o'zi ham Ilyos a.s. obrazining mumtoz adabiyotdagi mohiyatini anglash imkonini beradi.

“Xamsa”da Dovud nomi ham ko'zga tashlanadi. U payg'ambarlardan biri. Buyuk Sulaymon hukmdorning otasi. Dovud temirchilarning piri, o'tkir qiroatchi, sovutsoz, mohir cholg'uvchiligi kabi tomonlari bilan shuhrat topgan. Qur'oni karimning «Saba» surasida Dovud payg'ambar bilan bog'liq tafsilotlar keltiriladi. Dovud ham xuddi Sulaymondek domishmand, uning qo'lida har qanday metall yumshoq holga keladi. Uning eng muhim xususiyatlaridan biri xush ovozligi va yoqimli tilovat qilishidir. Qur'on izohlarida o'qiyamiz: «Tangri taolo Dovud alayhi-s-salomga shunday xush ovoz bergan ekanki, u kishi Zaburni tilovat qilayotganlarida, osmonda uchib ketayotgan qushlar tek qotar va chor atrofdagi tog'u toshlar bilan birga, u zotga jo'rovoz bo'lib tilovat qilishar ekan. O'sha zamonlarda temirchilik hunari nihoyat darajada ravnaq tongan bo'lib, temirchilar o'zlarining asbob-anjomlari vositasida istagan narsalarini yasay olar ekanlar. Asli kasbi sovutsozlik bo'lgan Dovud payg'ambar esa shunday fazilatga ega ekanlarki, qo'llari tekkan temir xamirdek muloyim bo'lib qolar va u zot biror asbob-anjomsiz uni o'zlari xohlagan shaklga kiritar ekanlar...”¹. Rag'uziyning “Qisasi Rabg'uziy” asarida “Qissai Dovud alayhi-s-salom” nomi ostida ushbu payg'ambar bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan. “Dovud yalavoch bani Isroildin erdi. O'n qarindosh erdilar. Otalari Isho' otlig'. Dovud qamug'idin kichik erdi”². Ushbu asarda Dovudning kasb egallashi – temirchilikni o'rganish sababi haqida gapiriladi. Mavlo taolo bir farishtani kampir qiyofasida yuborib, podshohingiz qanday odam degan savolga “odil turur, onchasi bor kishilar molin yeyur”, ya'ni podshohimiz adolatli, ammo mehnat qilmay, xalq molini yeydi degan javobni eshitadi³. Umuman olganda, “Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Dovud miloddan oldingi 1000-960-yillarda Isroil va Iudeyani birlashtirib yagona yahudiy davlatini tuzadi. Dovud Tangriga bag'ishlangan madhiya, diniy qo'shiq, duo, iltijo

¹ Qur'oni karim. 299-bet.

² “Qisasi Rabg'uziy”. 2-kitob. 23-bet.

³ O'sha asar, 28-bet.

va shikoyatlardan tashkil topgan Zaburni yaratadi”¹. Ma’lumki, to’rt muqaddas kitob – Qur’oni karim, Injil, Tavrot va Zabur payg’ambarlarga nozil qilingan. Qur’oni karim payg’ambarimiz Muhammad a.s., “Tavrot” Muso a.s., “Injil” Iso a.s. nomlari bilan bog’liq. “Zabur” Dovud payg’ambariga nisbat beriladi. “Saddi Iskandariy” dostonidan olingan mana bu baytda ana shu jihat nazarda tutilgan:

Bo’lub chunki Dovud qismi “Zabur”,
Sening mo’jizing anda aylab zuhur. (“Saddi Iskandariy”, 21-bet)

Qur’oni karimda “Dovudga Zaburni ato etdik” degan jumla bor. “Zabur” so’zi lug’atda bir necha ma’noni ifodalaydi: 1. Yozuv. 2. Aql. 3. Mustahkam. 4. Man’ etmoq. 5. Kasrali “zibr” yozilganda -kitob, ikki zamma bilan “zubur yozilganda esa kitoblar. 6. Temir parchalari. 7. Lavhul-mahfuz (taqdir lavhi)”². Yuqoridagi bayt dostonning uchinchi bobidan olingan. Bu bob payg’ambarimizga bag’ishlangan na’t. Shoir Muhammad a.s.ni “anbiyo xaylining sarvari” –payg’ambarlar sardori deya ulug’laydi. Ayni paytda, oldin nozil qilingan “Tavrot”, “Injil” va “Zabur”da u kishi haqida, ulug’ sifatleri xususida nishon berilgani bayon qilinadi. Shu maqsadda Dovud va Zabur nomlari tilga olinadi.

“Xamsa”da Qorun nomi ham tez-tez namoyon bo’ladi. Qorun kim? Unga xos xususiyatlar nimalardan iborat? Adabiyotimizda u nimaning timsoli? Qur’oni karimning “Qasas surasi”, “Ankabut surasi”da Qorun nomi, uning ishlari xususida gap boradi. “Qasas surasi”da yozilishicha, Qorun Muso qavmidan bo’lib, kibru havoga beriladi. U ega bo’lgan xazinalar kaliti “bir jamoatga ham og’irlik qilardi”. Qorun bu davlat Olloh ehsoni ekanligini inkor etib, “faqat o’zidagi bilim sababligina” unga erishganini aytib, hovliqmalik qiladi. “Bas, biz (Qorunni) ham, uning hovli-joyini ham (yerga yutdirdik)”³. Bu qaydlardan Qorunning behad xazinaga ega ekanligi, kibrga berilib, butun mol-mulki bilan yer yutganligidan ogoh bo’lamiz. Mumtoz ad-

¹ Husanov N. Ko’rsatilgan manba, 16-bet.

² Rahmatulloh qori Obidov. O’sha manba, 2-kitob. 34-bet.

³ Qur’oni karim. 273-bet.

abiyotda ham Qorun, avvalo, ana shu tomonlari bilan namoyon bo‘ladi. Agar bu obraz “Hayrat ul –abror”da o‘zining behisob xazinasi, johilligi, xalq e’tiboridan qolishi kabilar bilan tasvirlansa, “Farhod va Shirin”da “yuz ganji Qorun” tarzida boshqa obrazlarga qiyos, yer osti xazinalari sohibi ekanligi bilan namoyon bo‘ladi. “Sab’ai sayyor”da ham mislsiz xazinasi, bu ganjni boshqalar davlatiga qiyoslash, bir o‘rinda esa “Xamsa”ni Qorun ganjiga o‘xshatish bor. “Saddi Iskan-dariy”da “tamavvulda Qorun edi” jumlası bor. “Tamavvul” – mulk-dorlik, boylik.

“Farhod va Shirin”da shunday bayt bor:

G‘animat ko‘rdi har yon haddin afzun,

O‘kulgon har taraf yuz ganji Qorun.

(“Farhod va Shirin”. 112-bet)

Yuqorida Qorun xazinasining miqdori haqida eslatib o‘tgan edik. Ba’zi manbalarda bu ganjning adadi yana ham aniqroq ko‘rsatiladi. “Ba’zi mufasssirlarning aytishlaricha, Qorunning dunyosini emas, balki uning xazinasi saqlanadigan omborlarning kalitini qirq tuya yoki oltmishta xachir ko‘tarib yurardi”¹. “Qisasi Rabg‘uziy”da bu xazinaning to‘planish sabablari haqida gap boradi. Unda yozilishicha, bir tilanchi Musodan narsa so‘raydi. U kishi hech narsasi yo‘qligini aytsa ham, nochorligini aytib iltijo qiladi. Muso payg‘ambar unga barcha o‘tlarni yig‘ib quritishni, keyin temir, mis, qo‘rg‘oshin, bronza kabilarni tashlab eritishni, ular oltinga aylanishini aytadi. Bu gaplarni panada turgan Qorun eshitib qoladi. Darveshni aldab jo‘natib yuborgan Qorun “etti tun-kun oltunchilik qildi”. Har bir xazinasiga yengil bo‘lsin deb sigir terisini quritib barmoqcha kalit yasattirdi. Qirq xachir bu kalitlarni ko‘tara olmadi². Qorun va ganj haqidagi ishora “Sab’ai sayyor”da ham ko‘zga tashlanadi:

Bo‘lub ikisi Musoyu Horun,

Ganj ila lek ani qilib Qorun. (“Sab’ai sayyor”. 152-bet)

¹ Rahmatulloh qori Obidov. O‘sha manba, 1-kitob. 343-bet.

² “Qisasi Rabg‘uziy”. 2-kitob. 12-bet.

Bu baytda yuqoridagi voqealar mazmuni singdirilgan. “Sab’ai sayyor”dagi birinchi musofir tilidan bayon qilingan Farrux va Axiy haqidagi hikoyat tafsiloti jarayonida yuqoridagi misralar keltirilgan. Axiy Farruxga ulug’ inoyatlar ko’rsatadi, hatto, sevimli xotinini ham taloq qilib, unga nikohlab beradi. Davr aylanib Axiy boshiga musibatlar tushadi. Farrux uni vayronadan nochor-u aftoda holda topib oladi. O’ziga qanday e’tibor ko’rsatilgan bo’lsa, Axiyga ham uni namoyon qiladi. Shoir bu yerda Farrux va Axiyni Muso va Horunga qiyoslam-oqda. Axiyga hadya etilgan mol-mulk, davlat esa Qorun ganjiga tenglashtirilmoqda.

Dostonning o’ttiz yettinchi bobida shoirning tushida Shoh Bahromni ko’rgani bilan bog’liq voqea tasvirlanadi. Unda Navoiyning tushida Bahrom bilan suhbatlashgani, Bahromning shoirdan minnatdorligi, uning tarixini turkiy tilda doston qilib, nomini yoyganligidan mamnunligi xususida gap boradi. Bahrom qo’liga nima tushsa, sarf qilgani, yer ostiga xazina yashirmagani, davlat yig’maganini aytib, Faridun va Qorun nomini tilga oladi:

Ganj qo’ysam edi Faridundek,
Naqlar ko’msam erdi Qorundek. (“Sab’ai sayyor”. 338-bet)

Faridun haqida alohida to’xtalib o’tamiz. “Naqlar ko’msam erdi Qorundek” degani nima? Naql –xazina. Qorun xazinasining yer ostiga ko’milganiga ishora.

“Hayrat ul-abror”dan olingan mana bu baytda Qorunga xos yana bir jihatga e’tibor qaratilgan:

Ilgida Qoruncha bo’lub ganju mol,
Topmoq erur xalq rizosin mahol. (“Hayrat ul-abror”. 334-bet)

Qorun badavlat edi. Ammo o’ta xasis. Birovga ehson qilmaydigan baxil. “Yana Jabroil yorlig’ tegurdi: Ey Muso, Qorung’a ayg’il molining beshda birini chig’oylarga (qashshoqlarga) bersun... O’n ancha mol berayin...” Qorun narsa bermaydi. Muso duoyi ba’di bilan uni yer yutadi. Yuqoridagi bayt “Hayrat ul-abror”dagi “Bu faqr kulbasi...” bobidan olingan. Unda Navoiyning ichki kechinmalari, hayot va in-

son haqidagi mulohazalari bayon qilinadi. Shoir ta'kidicha, kimniki Rustamcha quvvati, Hotami Toyicha saxovati, Qorunnikidek xazinasiga bo'lsa ham, xalq rizosiga erishishi qiyin.

Yuqorida tilga olinganidek, "Sab' ai sayyor"da "Xamsa" qimmatini Qorun xazinasiga qiyoslanadi:

Xamsa yo'q, panj ganji Qoruniy,

Yoyibon elga Ganja madfuni. ("Sab' ai sayyor". 36-bet)

Dostonning oltinchi bobida so'z haqida gapiriladi. Xamsanavislar Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviylar madh etiladi. "Xamsa"ning nozimi – tuzuvchisi, yaratuvchisi deya Nizomiyni ulug'laydi. Uning "Panj ganj"ini Qorun xazinasiga o'xshatadi. Ikkinchi misrada iyyom san'ati qo'llangan bo'lib, "Ganja"ni ikki ma'noda – ham xazina, ham Nizomiyning yurti sifatida anglash mumkin. "Madfun" – ko'milgan, dafn etilgan. Bu Nizomiy vafot etgan bo'lsa ham, dostonlari el orasida mashhur bo'lganini ta'kidlashdir.

Umuman, "Xamsa"da tilga olingan ulug' zotlar – payg'ambarlar bilan bog'liq ushbu ma'lumotlardan xabardorlik o'quvchining Navoiy dostonlari, ulardagi mazmun, mohiyatni anglashda yordam beradi. Uning tushunishini osonlashtiradi.

2. DINIY-TASAVVUFIY QARASHLAR BILAN BOG'LIQ OBRAZLAR

Alisher Navoiy "Xamsa"sida diniy mohiyat kasb etadigan turli toifadagi ulug' zotlar – so'fiy, shayx, avliyo, xalifa va boshqalar nomi ham zikr etilgan. Bu shaxslarga daxldor voqea-hodisalar, sifatlar, belgilardan xabardor bo'lish "Xamsa" mazmuni, shoir g'oyalari ni anglash imkonini osonlashtiradi. "Xamsa"da, ayniqsa, "Hayrat ul-abror"da bu obrazlar tez-tez ko'zga tashlanadi. Adabiyotshunos N.G'afforovning "Alisher Navoiy "Xamsa"sida so'fiylar timsoli" (Toshkent, 1999) nomli dissertatsiyasida bu masalaga e'tibor qaratilgan. Uning yozishicha, "Xamsa"da "jami o'n ikki tarixiy so'fiy siymosi" mavjud. "Dostondagi tarixiy so'fiylarni quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Dostonning asosiy yo'nalishiga bog'liqlik jihatidan:

a) asarning kirish qismidagi boblarda zikr etilgan so'fiylar –Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy;

b) dostonning illyustirativ qismi, ya'ni hikoyatlarda tasvirlangan so'fiylar –Boyazid Bastomiy, Ibrohim Adham, Robiya Adviya, Xoja Abdulloh Ansoriy, Shayx Iroqiy, Shayx Suhrovardiy, Abdulloh, so'fiylar Muborak, Xoja Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr Porso”¹.

Yuqorida keltirilgan parchada Abdurahmon Jomiy ham so'fiylar qatorida sanab o'tilgan. To'g'ri, Jomiyda ham so'fiylik nisbasi bor. Ammo u kishida shoirlik belgisi birinchi o'rinda turadi. Jomiyning shoir sifatida mashhurligi ma'lum. Shuning uchun bu zotni shoirlar safida talqin etish ma'qul.

“Xamsa”ni o'qish jarayonida payg'ambarimiz izdoshlari, xalifalardan Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Ali nomlari, u kishining yaqinlari Xadicha, Sora, mashhur shayx-u so'fiylardan Xoja Bahouddin Naqshband, Boyazid Bastomiy, Ibrohim Adham, Robiya Adviya, Xoja Abdulloh Ansoriy, Shayx Iroqiy, Shayx Suhrovardiy, Zunnun Misriy, Shayx Shibliy, G'azzoliy, Shofiy, Xoja Muhammad Porso, Abu Nasr, Uvays Qaraniy, Suqrot, Zaynul Obiddin kabilarning ismlari uchrashi kuzatiladi.

Umar – to'rt xalifadan biri. Xalq orasida “choryorlar” deb yuritiladi. Avvalo, “xalifa” nima degani, uning mohiyati nima?

“Xalifa (arab. –o'rinbosar, noib) – musulmon jamoasi va musulmon davlatining diniy hamda dunyoviy boshlig'i. Xalifa Muhammad payg'ambar (sav)ning o'rinbosari, umaviylar davridan boshlab esa Allohning yerdagi noibi hisoblangan. Muhammad (sav)dan keyin to'rt xalifa (Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon, Ali)ni xulafoi roshidin, ya'ni to'g'ri yo'ldan boruvchi xalifalar deb atashgan”².

Umar –to'rt xalifaning ikkinchisi. U 585-644-yillar orasida yashab o'tgan. Al Xattob al Faruq. 616-yil islomni qabul qilgan. Abu Bakrning xalifa qilib saylanishining tashabbuskorlaridan bo'lgan. Is-

¹ G'afforov N. Alisher Navoiy “Xamsa”sida so'fiylar timsoli. Fil.fan.nom. ilmiy daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref. T., 1999. 9-10-betlar.

² O'zbekiston ME. 9-tom. T., 2005.362-bet.

lomni targ'ib etish, bir necha qonun-qoidalarini joriy etishda g'ayrat ko'rsatgan¹. "Hayrat ul -abror"ning to'rtinchi na'tida Umar nomi tilga olingan:

Kim iki tandin birin et tojvar,
Biri Abujahlu birisi Umar. ("Hayrat ul-abror". 43-bet)

Bu baytda Muhammad payg'ambarimizga izdoshlik qilgan, u kishini qo'llab-quvvatlagan kishi sifatida Umar nomi tilga olingan bo'lsa, ikkinchisi u kishiga qarshi turgan Abujahlidir. U kim? Abu Jahl (asl ismi Amr ibn Hishom) –Makka zodagonlaridan biri. Muhammad (s.a.v.) targ'ibotiga qarshi turgani, unga dushmanlik qilgani uchun la'natlangan. Islom an'anasida unga Abu Jahl (jaholat egasi) laqabi berilgan. Abu Jahl makkaliklar va madinalik musulmonlar o'rtasidagi Badr jangida (624) halok bo'lgan².

Yuqoridagi baytda ana shu ikki insonga baho berilayapti. Biri yaxshiligi, payg'ambarimizga izdoshligi tufayli duoga erishdi. Ikkinchisi –Abujahl esa, taqdiri azobu g'amga giriftorlikda kechdi.

Ali – Ali ibn Abu Tolib (taxm. 600-661, Ko'fa) – islomda "xulafalar –roshidin" ("to'g'ri yo'ldan borgan xalifalar"), dindorlar o'rtasida "choryorlar" deb atalgan dastlabki to'rt xalifadan to'rtinchisi. Quraysh qabilasining hoshimiylar xonadonidan. Muhammad (s.a.v.) ning amakivachchasi va kuyovi (Fotimaning eri). Muhammad (s.a.v.) ning barcha yurishlarida ishtirok etgan, qo'rqmas va sodiq jangchi, o'ta taqvodor inson, mohir notiq³. Navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida al-Murtazo, Asadulloh –Ollohning sheri (Hazrat Alining laqabi) nomlari ham hazrat Aliga nisbat berilgan. Shohimardon (erlar shohi, mardlar shohi) ham Alining nomlaridan biri. Xalq orasida Haydar nomi ham tilga olinadiki, u Alining laqablaridan biri. Zulfiqor – afsonaviy qilich ham shu kishiga mansub. "Hayrat ul-abror"da Ali nomi ko'zga tashlanadi. Payg'ambarimiz, u kishiga yaqin zotlarning ismlari ko'pincha an'anaviy tarzda dostonlarning muqaddimasida

¹ Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. M., 1991. 241-bet.

² O'z ME. 1-tom. T., 2000. 51-bet.

³ O'z ME. 1-tom. T., 2000. 206-bet.

keltiriladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Umar nomi tilga olingan o’ninchi bobda Ali ismi ham qayd etiladi. Bu bob dostondagi to’rtinchi na’t bo’lib, payg’ambarimizning qudrati, noyob xususiyatlari, as’hoblari, islomni yoyishda u kishini qo’llab-quvvatlagan Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Alilar haqida gap boradi:

Na’lini gar toji sharaf qildi arsh,

Qildi Ali na’lig’a egnini farsh. (“Hayrat ul-abror”. 43-bet)

Bu baytda hazrat Ali ulug’lanmoqda. Arsh—osmon ham Ali na’liga—oyog’i ostiga egnini to’shadi. Shoir Muhammad payg’ambarimizga sadoqat ko’rsatgan bu zoti muborakni ana shunday hurmat bilan tilga oladi. Dostonning ellik beshinchi bobida ham Ali nomi uchraydi:

Xatmi nubuvvatqa bo’lub nuri ayn,

Sham’i valoyat Ali binni Husayn. (“Hayrat ul-abror”. 290-bet)

Bu yerda hazrat Alining o’g’illari Husayn nomi ham tilga olingan. “Hayrat ul-abror”da Boyazid nomi uchraydi. Bu nom mumtoz adabiyotimiz, tasavvufiy g’oyalarga o’rin berilgan ijod namunalari—da tez-tez ko’zga tashlanadi. U mashhur so’fiy. Tasavvufiy g’oyalar nazariyotchisi, targ’ibotchisi sifatida tanilgan. “Boyazid Bistomiy (h.261-m. 874-y.v.e): Islom tasavvufining eng muhim siymolaridan biri. Tasavvufda “ishq” va “vahdad” g’oyalarini ilgari surgan...”¹. Manbalarda to’liq ismi Boyazid Tayfur binni Iso Bistomiy (Bistom Erondagi shahar nomi), Abu Yazid Tayfur binni Iso binni Odam tarzida berilgan. “Boyazid – Abu Yazid arabcha bo’lib, “tortiq qilingan, “bag’ishlangan” ma’nolarini anglatadi”². Bistomiy tayfuriya so’fiylik tariqatining piri. Vafotidan keyin uni Sulton al-orifin laqabi bilan atay boshlaydilar. Bistomiy o’zidan asar qoldirmagan. Uning ibratli gaplari, nasihatlarini mulozimlari yozib olishgan³. Professor H.Ho-midiyning “Tasavvuf allomalari” kitobida bu ma’lumot yanada to’ldirilgan: “Manbalarda xabar berilishicha, Boyazid nozikbin yozuvchi

¹ Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. T., 1999. 54-bet.

² Husanov N. O’sha manba, 26-bet.

³ O’zME. 2- tom. T., 2001. 62-bet.

va serzavq shoir ham bo'lgan. Imom G'azzoliy o'z asarlarida uning hikoyat va she'rilaridan istifoda etgani ham buni tasdiqlaydi. "Kitob al-nurmin kalamoti abi-al Tayfur", "Shatohiyoti Boyazid Bistomiy" singari kitoblarida Boyazidning qarindoshlari, shogird-u safdoshlari tomonidan aytilgan, naql etilgan ko'plab hikoyat, rivoyatlar keltirilib, izohlangan bo'lsa ham, lekin olimning biron bir asari bizgacha mukammal yetib kelmagan yoki hali topilmagan"¹. Ushbu kitobda Boyazid Bistomiy bilan bog'liq bir nechta hikoyat keltirilgan. O'quvchi, talabalarga ibrat bo'larli bir hikoyat borki, uni keltirish lozim topildi: "Naql qilibdurlarkim, Boyazidning uyidin to masjidqa qirq qadam yo'l erdi. Uyidin chiqib masjidqa borg'uncha masjidning hurmatini saqlab, hargiz yo'lda tupurmas erdi"². Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Boyazid Bistomiyni Tangri taolo oldidagi qo'rqinchi, shariat ta'zimi, namoz o'qisa suyaklaridan tovush chiqishi haqida gapirib o'tadi³.

"Xamsa"da Boyazid haqidagi bayt quyidagicha:

Qayg'uliq o'lturmish edi Boyazid,

So'rdi g'ami kayfiyatini bir murid. ("Hayrat ul-abro"r. 108-bet)

Navoiy bir necha o'rinda Bistomiyni "Sulton ul-orifin" deb e'zolaydi. "Hayrat ul-abror"ning yigirma ikkinchi bob birinchi maqolati "Iymon sharhidakim..." deb boshlanadi. Bu maqolatga ilova tarzida yigirma uchinchi bobda "Sulton ul-orifin va murid" haqidagi voqea bayon qilinadi. Boyazid Bistomiyni g'amgin ko'rgan murid buning sababini so'raydi. Pir bu dunyoda inson ko'pligi, ammo haqiqiy kishini topish maholligi, hammaga o'z ishi yaxshi ko'rinishi, kishi sonidagilar bo'lsa ham oldin o'tib ketganligini aytib afsus chekadi. Murid o'zingiz ham shu elga mansubsiz-ku deya e'tiroz bildiradi. Shayx iymonli odamlarni haqiqiy kishilar sirasiga kiritadi. O'zini kamtar tutadi.

¹ H.Homidiy. Tasavvuf allomalari. T., 2004. 48-bet.

² O'sha manba, 49-bet.

³ Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 20 tomlik. 17-tom. T., 2001. 48-bet.

Ibrohim Adham haqida ko‘p eshitganmiz. U kishi bilan bog‘liq hikoyatlar, qissalar, badiiy asarlar ko‘pchilikka tanish. “Xamsa”da bu ulug‘ inson nomi, u kishi bilan bog‘liq hikoyat keltirilgan. Ibrohim Adham kim? U shohlikdan voz kechib, tasavvuf yo‘lini qabul qilgan mashhur shaxs. 777-yilda vafot etgan. Manbalarda uning Balxdan ekanligi, zodagon oilada tug‘ilgani, yaxshi bilim olgani, ilohiyotga qiziqib, haq yo‘liga kirgani, bir oz vaqt shahar hokimi vazifasida ishlagani, shohlikdan voz kechib, so‘fiylik yo‘liga kirishi bilan bog‘liq hikoyat keltiriladi. Unda yozilishicha, bir tunda tomda biron yurganini sezgan Ibrohim Adham nima qilayotganini so‘raydi. Tomdagi kishi tuyasini qidirayotganini aytadi. Ibrohim unga tomda tuya nima qiladi deya dashnom beradi. U kishi esa, hokimlik taxtida o‘tirib, Haqqa yetib bo‘lmashligini aytadi. Shu sabab Ibrohim Adham barcha narsasidan voz kechib, zohidona hayot kechirishni ma’qul topadi¹. “Hayrat ul-abror”ning ikkinchi maqolati “Islom bobidakim...” deb boshlanadi. Unda islom dini, musulmonlik, uning shartlari xususida mulohazalar bildiriladi. Ilova tarzda yigirma beshinchi bobda Ibrohim Adham va Robia Adviya haqidagi hikoyat keltiriladi. Bu hikoyat to‘liq diniy ruhda. Unda birinchi bayt Ibrohim Adhamning mansabdan voz kechib, Olloh, fano yo‘lini qabul qilgani haqida. Ibrohim Adham bilan Robia Advianing islom yo‘lidagi harakatlari qiyoslanadi. Ibrohim Adham o‘n to‘rt yil zahmat chekib, namozini to‘liq bajarib, Ka’ba ziyoratiga keladi. Ammo “baytul-harom” o‘z o‘rnida yo‘q edi:

Qoldi bu yo‘l qat’ida o‘n to‘rt yil,
Madhig‘a har xor-u giyah chekti til.

Makka tavofig‘a chu qildi xirom,
Yo‘q edi o‘z o‘rnida baytul-harom. (“Hayrat ul-abror”. 118-bet)

Buning sababini bilolmagan pirga g‘oyibdan – Hotifdan javob keladi. Ka’ba Robia tavofiga kelgan bo‘ladi. Ibrohim undan so‘raydi:

¹ H.Homidiy. Tasavvuf allomalari. T., 2004. 20-21-betlar.

Dedi Birohimki: "Ey pok rav,
Balki malak xaylidek aflok rav.

Nedin ekin buki manga yeti ranj,
Men chekibon ranju sanga bo'ldi ganj".
("Hayrat ul-abror". 120-bet)

Men ranj – azob, mashaqqat tortdimu ganj – xazina, ya'ni Ka'ba ziyorati senga nasib bo'ldi. Navoiy talqinicha, "Tangri taolo oldida musulmonchilikning barcha shartlarini bajarib, Qur'oni karimda va'da etilgan jannat ilinjida yurgan namozxon afzalimi yoxud ko'nglida Olloh ishq jo'sh urib, yaratgan vaslin istagan niyozmand durustmi".¹ Bu jihatdan Ibrohim Adhamga qaraganda Robia ustun edi

Badiiy adabiyotda Ibrohim Adham, Birohim Adham, Adham tarzida tilga olinadigan bu ulug' zot nomi "Saddi Iskandariy" dostonida ham uchraydi. Dostonning o'ttiz beshinchi bobida Iskandarning Xuroson tomon yurish qilib, Hirotni barpo etishi, Movarounnahrni olib, Samarqandni bunyod qilishi va Kashmirga qarab borishi bayon qilinadi. Shoir Iskandarning Sipohon (Isfahon), Xurosonni egallashi, u yerdagi Hirmand, Nimro'd, Darijaz daryolarining tavsifini berib, Balx mulki haqida gapiradi. Hushangshohning Balxni taxtgoh qilgani, Ibrohim Adham ham shu yerdanligini ta'kidlaydi:

Hamul Balxkim, qildi Hushangshoh,
Jahondin guzin aylabon taxtgoh.

Maqomi – Birohimi Adham kelib
Ki, gardi rahi charxi a'zam kelib. ("Saddi Iskandariy". 235-bet)

Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da Ibrohim Adham haqida gapirib, balxlik ekani, bir kuni ovga chiqib, Hotifning bu ish senga yarashmaydi degan nidosini eshitib, hukmdorlikdan voz kechishi, tariqat yo'lini tutishi, Shomda vafot etgani, bir necha do'stlari bilan faqat halol luqma yeyishga ahd qilganliklarini ta'kidlaydi.²

¹ G'afforov N. Alisher Navoiy "Xamsa"sida so'fiylar timsoli. Fil.fan.nom.diss. avtoref. T., 1999. 12-13-betlar.

² Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. 38-39-betlar.

Yuqoridagi hikoyatda Ibrohim Adham bilan birga Robia nomi ham tilga olingan. Robia Adviya nomi mumtoz adabiyotda, tasavvufiy manbalarda ko'p uchraydi. "Robia al-Adaviya (713/714-801)– zohidlikning ilk vakilasi. Qashshoq arab oilasida tug'ilib, cho'ri qilib sotilgan. Keyinchalik xudojo'yligi va zohidlarga xos turmush tarziga ixlos bilan rioya etgani sababli ozodlikka chiqarilgan. Robia Adaviya Allohni sevishdan boshqa jamiki narsalarni rad etish tarafdori bo'lgan"¹. Bu avliyo ayol nomi ayrim manbalarda Robia Adviya, yana birida Robia Adaviya tarzida yoziladi. "Tasavvuf allomalari" kitobida yozilishicha, "Robiya arab tilida ko'plab qo'shiq va she'rlar yaratgan. Sarchashmalarda Robiya she'rlaridan namunalar keltirilgan. Jumladan, Fariduddin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" hamda "Mantiq ut-tayr" dostonida Robiya haqida fikr yuritib, she'rlaridan misol keltirib o'tadi"². "Hayrat ul-abror"da Ibrohim Adham bilan bog'liq hikoyat talqinida Robia haqida gapirildiki, shuning o'zi uning nufuzi, diniy ma'rifati xususida yetarlicha tasavvur uyg'otadi.

"Xamsa" da Zunnun nomi ham uchraydi. U Abulfayz Subon Zunnun Misriy bo'lib, Zunnun Misriy nomi bilan mashhur. So'fiylikda nom qozongan shaxs. U taxminan 796-860/861-yillarda yashab o'tgan. Misrda ko'p bolali oilada tug'ilgan. Makka, Damashq kabi joylarda sayr etadi³. Tasavvuf ilmi bo'yicha ko'pgina ishlarni amalga oshirgan olim. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da u haqda keng ma'lumot beradi. Zunnun Misriyning tarjimai holi, tasavvufdagi ishlari, uch safar qilib, uch ilm olib kelgani, avvalgi ilmni xos kishilar anglab, oddiy kishilar qabul qilmagani, ikkinchisi ham shunday, uchinchisini na xos, na avom qabul qilganini, bu ilm haqiqat ilmi ekanligini, vafot etganda benihoya ko'p yashil qushlar janozasiga soya solib, barcha odamlar ularning ko'lakasida qolganini, keyingi kunda qabri boshida yozuv topilgani, unda Zunnun Allohning suyukli bandasi va shavqi tufayli Alloh yo'lida jonini fido qilguvchidir deb yozilganini, bu xat

¹ O'zME. 7-tom. T., 2004. 341-bet.

² O'zME. 7-tom. T., 2004., 24-bet.

³ Islam. Ensiklopedicheskiy slovar. 79-bet.

odamlarning yozuviga o'xshamasligi, yuvgan bilan o'chmasligi kabi ma'lumotlarni keltiradi¹.

Navoiy "Hayrat ul-abror"da ikki o'rinda bu ulug' zot nomini tilga oladi. Dostonning to'rtinchi maqolati "Riyoyi xirqapo'shlar..." haqida. Unda riyokor, aldamchi din kishilari tanqid qilinadi. Xirqa (shayx va so'fiylarning maxsus ust kiyimi) kiyib, ertadan kechgacha zikr tushadigan, salla, rido, hassa kabi narsalari xalqni aldash uchun vosita ekanligini ta'kidlaydi. Ular o'zini Zunnundek tutadi. Aslida Zunnun Misriyga yaqin ham bo'lolmaydi:

Shayx qadin xam qilibon "nun" kibi,
O'lturubon go'shada Zunnun kibi.
("Hayrat ul-abror". 135-bet)

"Nun" – bu arab alifbosidagi harf. Mumtoz adabiyotda qomatning egikligi, xamligi ifodasi. Shayx hujrada o'zini taqvodor ko'rsatib, xuddi Zunnunmonand tutadi. Navoiy bunday riyokorlarni qoralaydi. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da Zunnun Misriyga taalluqli bir necha fikrlarni keltiradi. "Va ham ul debdurkim, (maxfiyroq va qat-tiqroq parda – nafsni ko'rish va unga tadbir qilish, ya'ni jilovlash-dir)"².

Umuman, "Xamsa"dagi obrazlarni yuqoridagi tasnif asosida o'rganib chiqish, ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish doston mohiyatini to'liqroq anglash, shoir muddaolarini aniq va to'g'ri tush-unish imkonini beradi. Bu narsa o'quvchi, talaba – barcha kitobxonga Navoiy ijodiyotini osonroq o'rganishga yordam beradi.

SURUSH OBRAZI

Navoiy she'riyatida rang-barang obrazlar ko'p uchraydi. Ularni mifologik, diniy, tarixiy, afsonaviy, an'anaviy kabi timsollar tarzida guruhlashtirish mumkin. Adabiyotda ko'p ko'zga tashlanadigan Yu-suf, Nuh, Dovud, Sulaymon kabi payg'ambarlar, "badiiy adabiyotda

¹ Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. 29-31-betlar.

² Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. 30-bet.

bir ijodkordan ikkinchi ijodkorga o'tib yuruvchi, ko'pchilikka tanish bo'lgan, qachonlardir adabiyotga kirib kelgan va qattiq o'rnatilib qolgan"¹ Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Hotam, Bahrom, No'shiravon, Iskandar kabi an'anaviy obrazlar ko'pchilikka yaxshi tanish. Bu obrazlarning har biri ma'lum belgilari, o'ziga xos yetakchi xususiyat va sifatlari bilan namoyon bo'ladi.

Ammo ba'zi obrazlar mavjudki, ularga xos mohiyat, asosiy tomonlarni aniqlash muhim vazifalardan. Ana shunday obrazlardan biri Surushdir. Navoiy "Xamsa" sida, g'azallarida bu timsol uchrab turadi. Surush kim? Unga xos asosiy belgilar nima? "Navoiy asarlari lug'ati" da shunday qayd berilgan: "Surush-f. Farishta, Xudodan xabar keltiruvchi deb hisoblanadigan farishta, Jabroil"². Xuddi shunday izoh "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" ning III tomida ham keltirilgan: «Surush-1. Farishta, Jabroil farishta. 2. Ovoz»³. Ushbu izohlardan Surushning farishta, Jabroil ekanligi, ayni paytda "ovoz" ma'nosi ham borligi oydinlashmoqda. Professor B.To'xliyevning 9-sinflar uchun mo'ljallangan "O'zbek adabiyoti" darsligida ham shu ruhdagi mulohaza keltiriladi: "Avesto"da ifodalangan zardushtiylik diniga ko'ra, odam vafot etgach, to'rtinchi kuni tangri farishtasi Surush (farishta Jabroilning boshqacha ismidir) uning ruhini Chinvod (Chinobod) qil ko'prigiga olib keldi. U yerda odamning bu dunyoda qilgan yaxshiliklari o'lchanadi"⁴.

Ushbu fikrlar Surush ko'p bor tilga olingan ilk manba—"Avesto" ekanligiga e'tiborni tortgani bilan ahamiyatli. Bu yerda ham Surush va Jabroil aynan bir farishtaligi ta'kidlanmoqda.

"Avesto"ni mutolaa qilish jarayonida Surush nomi ko'p uchrashi kuzatildi. Unga xos sifatlarga diqqat qilindi. "...olamlarga firo'zlik va

¹ Qarang: Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari.-Toshkent: "O'qituvchi", 1997. 208-bet.

² Navoiy asarlari lug'ati.-Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. 577-bet.

³ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik, 3 - tom.-Toshkent: "Fan", 1984.131-bet.

⁴ To'xliyev B. O'zbek adabiyoti. 9-sinf uchun darslik.-Toshkent: "O'qituvchi", 2000. 20-bet.

kenglik baxsh aylaguvchi porso Surush...”¹, “jasoratli, tanmansara, ahuraviy qudrat sohibi, qattiqqo‘l va porso Surush, bu nomdor va shuhratmand ilohga xushnudlik bo‘lsin!” (41-bet).

“Avesto” izohlarida Surushga xos tomonlar ko‘rsatib o‘tilgan. Ularda qayd etilishicha, “Surush oxirat va oqibat amallarini hisob-kitob qiluvchi xudolar sirasidan”. Surush xususida bildirilgan mana bu mulohazalar diqqatni talab qiladi: “Forsiy va arabiy adabiyotlarda u Jabroil farishta bilan tenglashtiriladi. Biroq zardushtiylikda bu vazifa Nayryuzsanghaning zimmasida”².

Biz ham ushbu fikrga qo‘shilamiz. Ya’ni Surush bilan Jabroil aynan bir timsol emas. Ularga xos o‘xshash tomonlar bor. Jabroil – farishta: “Xudo bilan payg‘ambar o‘rtasida vositachi, vahyi keltiruvchi farishta nomi”³. Bizningcha, Surush va Jabroil o‘rtasidagi farqlar quyidagilar:

1. Surush Jabroilga qaraganda qadimiyroq obraz.
2. Surush “Avesto”, zardushtiylik bilan bog‘liq bo‘lsa, Jabroil islom diniga daxldor.
3. “Surush ilohiy oyat-belgi va ahuraviy so‘zlarni maxluqlarga yetkazuvchi” (314-bet) bo‘lsa, Jabroil Olloh bilan payg‘ambar o‘rtasidagi vositachi.
4. Surush iloh, xudo, farishta sifatida tilga olinsa, Jabroil faqat farishta maqomidadir.

Yana bir narsani ta’kidlamoqchimizki, Navoiy “Xamsa”sida, g‘azallarida Surush nomi doimo kichik harf bilan yozilgan. Bizningcha, bu nomni ham xuddi Jabroil yoki boshqa ilohiy obrazlar singari bosh harf bilan yozish joizdir.

Mana shu mulohazalar asosida Navoiy asarlarida ushbu obrazning o‘ziga xos talqinlariga e’tiborni qaratsak. Navoiy “Xamsa”si, lirik she’rlarida Zardusht, Surush kabi “Avesto” obrazlaridan tortib, shoir bilan bir davrda yashagan ko‘pgina tarixiy shaxslar nomlarigacha uchraydi. Navoiy turli ilmiy, tarixiy, diniy, badiiy va

¹ Avesto. Asqar Mahkam tarjimasi. Toshkent, 2001. 38-bet.

² O‘sha asar, 340-bet.

³ Navoiy asarlari lug‘ati. 214-bet.

boshqa manbalar orqali bu timsollardan yaxshi tanish edi. Professor N.Mallayevning mana bu qaydlari ham e'tiborlidir: "Alisher Navoiy mif va afsonalar bilan xalq ijodiyoti orqali, yozma manbalar: tarix kitoblari, tazkiralar (masalan, "Devonun-nasab", "Tazkiratul-avliyo" kabi), ilmiy asarlar va alalxusus badiiy asarlar orqali tanish edi"¹. Olimning e'tiroficha, Navoiy uchun Firdavsiyning "Shohnoma"-si muhim badiiy manba hisoblanadi. Shoir asarlarida "Shohnoma" obraz, sujetlarining ko'p uchrashi ham bu fikrni tasdiqlaydi.

"Xamsa" dostonlarining ko'p o'rinlarida Surush nomi uchraydi. "Farhod va Shirin" da shunday bayt bor:

Ko'targach boshni ko'rdi sabzpo'she,
Yuzi nuroni andoqkim surushe.²

Bu Farhodning Suqrot tog'i tomon borishida Xizr bilan uchrashganining ifodasi. Baytda Xizrga xos "Sabzpo'sh" lik – yashillik, "yuzi nuroni" lik jihatlari ta'kidlanib, u Surushga qiyoslanmoqda. Bundan Surushga xos ayrim belgilar oydinlashmoqda. Nuronilik, yaxshilarga hamroh va qo'ldosh bo'lish.

"Sab'ai sayyor" ning nasriy bayonida "surush" nomi "farishta" sifatida tilga olingan, xolos³. Surush uchun asosiy belgi-farishtalik. Dostonda Sa'd bilan bog'liq hikoyatda bir necha o'rinda Surush nomi tilga olingan:

Dedi farrux surush ruhoni:
K-ey nasibing bu sirri pinhoni. (46-bet)

Ul ikki rahravi zumurradpo'sh,
Rahnamoi aning, nechukki surush. (181-bet)

¹ Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. 96-bet.

² Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. MAT. 20 tomlik. 8-tom. -Toshkent: "Fan", 1991. 163-bet.

³ Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. Nasriy bayoni bilan. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. 448-bet.

Birisi chekti mujda birla xurush,
Qildi mundoq nido nechukki surush. (183-bet)

Bu baytda Sa'd bilan hamrohlik qilgan ikki musofir Surushga o'xshatilmoqda. Surushga xos rahnamolik sifati namoyon bo'lmoqda.

"Layli va Majnun" izohida "Surush-xushxabar yetkazuvchi farishta"¹ sifatida qayd etiladi. Majnun uchun Zayd – Surush:

Jon dardig'a chorako'sh sen sen
Odam demayin, surush sen sen. (192-bet)

Bu misralarda Surush odamzot xaylidan emas, farishta ekanligi aniq ta'kidlanmoqda. Majnun uchun Layli haqida xabar yetkazgan Zayd Surush darajasida. Demak, Surush yaxshi xabarlar, kishilarga manzur, jonbaxsh voqealardan darak beruvchi farishta. U hatto tushda ham bu vazifani bajaradi:

Kim, yetti qulog'iga xurushe,
Aytur edi bu xabar surushe. (288-bet)

Bu baytda Surushning Majnun tushida Laylining ahvolidan xabar berishi ifodalangan.

Navoiy g'azallarida ham oz bo'lsa-da, Surush nomi tilga olingan. "Navodir ush-shabob" da shunday bayt bor:

Turmadi shayxi riyoyi, chun yetishti piri dayr
Qochmayin Iblis netsun, chun nuzul etti surush².

"Avesto" da yaxshilik va yomonlik olami haqida gapiriladi. Har ikki olamning o'ziga xos kuchlari, timsollari tilga olinadi. Iblis – yomonlik, aldoq, yo'ldan ozdirish timsoli. Riyokor shayxlar-shayton. Ularga qarshi turuvchilar "piri dayr" – Surush. Bu baytda ham Surushning ezgulik farishtasi ekanligi qayd etilmoqda. "Ba-

¹ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. MAT. 20 tomlik. 9-tom. – Toshkent: Fan, 1992. 341-bet.

² Alisher Navoiy. Navodir ush – shabob. MAT. 20 tomlik. 4-tom. – Toshkent: "Fan", 1989. 191-bet.

doye' ul-vasat" dan olingan mana bu baytda ham ana shu ruh o'z ifodasini topgan:

Subhidam ul but sabuhiy bazmin ettim orzu,
Chiqmag'il dayri fanodin deb nido qildi surush¹.

Umuman, Surush kabi nazarga unchalik ham tashlanavermaydigan obrazlarni tahlilga tortish, ularga xos mohiyatni aniq yoritib berish mumtoz adabiyotimiz namunalarini yana ham teranroq anglash imkonini tug'diradi.

3. MIFOLOGIK VA BOSHQA OBRAZLAR

1. XIZR OBRAZI

Mumtoz adabiyotimizda bo'lganidek, "Xamsa"da ham ko'p bor nomi tilga olingan ulug' zotlardan biri Xizrdir. Xizr, u kishiga xos sifatlar, bu obrazning yozma adabiyotdagi o'rni, poetik vazifalari, xalq og'zaki ijodi asarlari va mumtoz adabiyotda uchraydigan Xizr xususida ko'pgina tadqiqotlar yaratilgan.

Qur'oni karimning "Kahf surasi"da Xizr haqida gap boradi. Unda keltirilishicha, Muso a.s. Tangriga murojaat qilib, o'zidan ham ilmi ziyoda kishi bor yoki yo'qligini so'raydi. Olloh taolo Xizr undan ilmliroq ekanligini aytadi. Muso Xizr bilan uchrashadi. Unga hamroh bo'lishga ruxsat so'raydi. Xizr u nima ish qilsa ham o'zi aytmaguncha so'ramasligini uqtiradi. Yo'lda Xizr tomonidan kemanding teshilishi, bir bolani o'ldirishi, yiqilay deb turgan devorni tuzatishi Musoni hayratga soladi. Sabr qilolmay, har birining sababini so'raydi. Xizr hamrohlik shu yerda tugashini aytadi va voqealar sababini izohlaydi². Bu voqealardan Xizrga xos muhim bir sifat - yetuk ilm egasi ekanliklari oydinlashadi. Yana bir tomoni, u kishining yashillik bilan aloqadorliklari. "Qisasi Rabg'uziy" da shunday deyiladi: "Xizr ma'nisi yashil bo'lur. Qayu tosh uza Xizr alayhissalom o'ltursa ul

¹ Alisher Navoiy. Badoye' ul-vasat. Asarlar. 15 tomlik. 3-tom. Toshkent: "Badiiy adabiyot" nashriyoti, 1965. 240-bet.

² Qur'oni karim. 204-205-betlar.

tosh yasharur erdi. Aning uchun Xizr ataldi. Aymishlar: Qayu yerda o'ltursa ul yer ko'karur erdi"¹. Mana bu fikrlar ham shu qarashni ifoda etadi: "Imom Buxoriy rivoyatlarida, Abu Hurayra (r.a.) aytadilar: "Payg'ambarimiz (s.a.v.) dedilar: "Xizrning shu nom bilan atalishiga sabab shuki, u oppoq (sho'r) yerga o'tirsa ham, o'rnidan turishi bilan u yerdan yashil maysalar unib chiqardi"² XVIII asr Xorazm shoiri Muhammad Niyoz Nishotiy o'zining "Qushlar munozarasi" asarida to'ti tilidan shunday fikrlarni bildiradi:

Muttasil Hinddur manga manzil,
Xizrdek kiyganim erur yashil³.

Xizrga xos yana bir belgi uning doimiy tirikligidir. Buning sababini yuqorida qisman izohladik. Yana bir fikrlarga ko'ra, "to'fon tingandan keyin, kemadan tushib Nuh (a.s.) o'g'illariga: "Odamni vasiyat qilgan yeriga dafn qilib kelinglar!"-deb buyurdilar. Yerning hamma joyini suv bosgan va Odam (a.s.) vasiyat qilgan joyni topish mushkul edi. Xizr (a.s.) sabot va matonat bilan Odam aytgan joyni topdi va Odam (a.s.) ni o'sha yerga dafn etdilar. Shundan so'ng Odam (a.s.) ning duolariga noil bo'lib, uzoq umr ko'radigan bo'ldilar... Ba'zilari esa, Xizr (a.s.) "hayot bulog'i"dan ichganlari uchun bu ne'matga erishgan deydlar"⁴.

Xizr haqida gap borganda, u kishining nomi tilga olinganda tafakkurimizda uyg'onadigan yana bir jihat – u kishining tiriklik suviga ega bo'lganidir. "Tiriklik suvi", "obi hayot", "obi zindagoniy", "obi hayvon" nomlari bilan mashhur ushbu tushunchaning tafsilotlariga qisman to'xtab o'tildi. Ozarbayjon olimi M.Saidovning yozishicha: "Dirilik cyjy", «Dirilik bulag'ы» mifik anlajygıy, korunduıy kimi, eski turkdilli xalqların mifologiyı tefekkuru ile bag'lydyr"⁵. Demak,

¹ Qisasi Rabg'uziy. II kitob. 68-bet.

² Rahmatulloh qori Obidov. Payg'ambarlar tarixi islomiyat tarixidir. II kitob. 14-bet.

³ Nishotiy. Qushlar munozarasi // Muborak maktublar. T., 1987. 293-bet.

⁴ Rahmatulloh qori Obidov. O'sha manba, 12-bet.

⁵ Saidov M. Ozarbayjon mifik tafakkurining gaynaklari. Baku: Yozuvchi, 1983. 127-bet.

“tiriklik suvi”, “tiriklik bulog‘i” tushunchalari turkiy tilli xalqlarning mifologik tafakkurlari bilan bog‘liq ekan.

Xizrga xos muhim sifatlardan yana biri uning homiyligi, qiynalgan, adashgan kishilarga yo‘l ko‘rsatishi, yordam berishidir. U yo‘lda, dashtda, o‘rmonda tunda ham, kunduzi ham kezib yuradi. Xizr go‘yo-ki uyqudagi inson bilan ham muloqotga kirish xususiyatiga ega. U musulmon xalqlari tushunchalarida, asosan, nuroniy chol sifatida, Xizr bobo, Xo‘ja Xizr, Hazrati Xizr nomlariga ega holda tasavvur etiladi. O‘rta Osiyo xalqlari nazarida, Xizr nuroniy chol qiyofasida ko‘rinadi, unga kim yo‘liqsa, kim uni ko‘rsa, baxtli bo‘ladi. Ko‘pgina musulmon mamlakatlarida Xizr kishilarni o‘t va suv balosidan, ilon va chayon chaqishidan himoya qiluvchi obraz sanaladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari Xizr asar qahramonlarining piri, suyanchi, himoyachisi sifatida namoyon bo‘ladi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida tasvirlanishicha, “Xizr Go‘ro‘g‘lining homiysi:

Bek bo‘lganning bo‘lmas ekan havosi,
Topilgay-da endi dardning davosi.
Go‘ro‘g‘li shunday tashlanab qolganda,
Bolam, deb keldi er Xizr bobosi¹.

Xalq qo‘shiqlarida ham Xizrning insonlarni qo‘llash, suyash, ularga pirlik qilishiga ishora qilinuvchi misralar uchraydi:

Birda-ikkida to‘yda aytganim yo‘q, yor-yor,
Qo‘l bergan xo‘jayin Xizr o‘zing qo‘lla, yor-yor,
O‘lan aytib to‘ylarni gul qilasiz, yor-yor,
Bu Xizrni o‘zingizga pir qilasiz, yor-yor².

Ozarbajjon olimi M.Saidov Xizrni turkiy tilli xalqlarga taalluqli timsol deb, Xidirni esa arab xalqiga mansub deb ajratadi. Xizrni ilqlik, o‘t, olov bilan bog‘laydi. Uningcha, Xizir yo‘lda qolgan, adashganlarga yordam bersa, Xizr ham ularga, ham sevishganlarga ko‘mak berar ekan³.

¹ Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. Dostonlar. T., 1967, 72-bet.

² Oq olma, qizil olma. T., 1972. 160-bet.

³ Oq olma, qizil olma. T., 1972. 128-bet.

Ko'rinadiki, og'zaki ijod va yozma adabiyotda uchraydigan Xizrning bir necha xususiyatlari mavjud ekan. Navoiy "Xamsa"sida bu timsol qaysi tomonlari bilan namoyon bo'ladi? Qanday g'oyaviy-badiiy vazifalarni bajaradi? Dostonlardan olingan baytlar asosida bu savollarga javob olamiz.

Yuqorida qayd etganimizdek, Xizr yashillik bilan aloqador. "Farhod va Shirin" dostonidan olingan mana bu baytda Xizr kiyimining yashilligi nazarda tutilgan:

Bo'yig'a nazm solg'on hulla axzar,

Dema to'ti, degil Xizri payambar. ("Farhod va Shirin". 28-bet)

Navoiy dostonning oltinchi bobida "Qalam vasfida" gapiradi. Nizomiy, Xusrav Dehlaviylarni ulug'laydi. Xusrav Dehlaviyni madh etib, uni "guharrez", "hinduyizodi shakarrez" ("hinduyizod-hindistonlik Xusrav Dehlaviy"), "Shirin maqol", "bulbul" deya nisbatlaydi. Uni Xizr payg'ambar deb biladi. "Hulla axzar" – yashil to'n degani. Ana shu birikma Xizr kiyimiga ishora qilmoqda. "Sab'ai sayyor"da ham shu mazmundagi bayt bor:

Xizr monand sabzadin rangi

Sabzasi suyi ko'zgusi rangi. ("Sab'ai sayyor". 178-bet)

Dostonning yigirma beshinchi bobi uchinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir hikoyati haqida. Unda Misr mamlakatilik Sa'd afsonasi keltiriladi. Sa'd o'z uyida turli kishilarni, musofirlarni ziyofat qilib, qiziq sarguzashtlarni tinglardi. Bir kuni ikki g'arib keladi. Ular boshdan oyoq yashil kiyimda edi. Musofirlar Shahrisabzdan ekanliklarini, yashillikka burkangan yurtliklarini aytishadi. Yuqoridagi bayt ham Shahrisabz ta'rifida. Shaharning yashilligini Xizrmonand, ya'ni sabz rang deya uqtirishmoqda.

Mana bu misralarda ham Xizr sifatleri bayon qilingan:

Xirqasi axzaru aso axzar,

Go'yi ul erdi Xizr payg'ambar. ("Sab'ai sayyor". 188-bet)

Ushbu bayt ham dostonning shu bobidan olingan. Sa'd ko'rgan tushining ma'nosini topish uchun g'orda necha yildan buyon maqom tutgan bir pir bilan uchrashadi. Pir boshidan o'tgan voqealarni gapirib beradi. Donishmand bu zot tush ko'rib, ta'birini topolmay qiynalgani, jonidan umid uzganida bir pir duch kelgani, uning "xirqasi axzar" – kiyimi yashil, "aso axzar" – hassasi yashil bo'lib, xuddi Xizrga o'xshashini aytadi. Bu yerda ham kiyim va aso rangi Xizr ko'rinishiga o'xshatilgan. Dostonning bir o'rnida "Xizr yanglig' libosi rayhoniy" deyilgan. Bu ham yashillikka ishora.

"Saddi Iskandariy"da Iskandarning Hindistonga safari haqida gapiriladi. Hindistonning go'zalligi madh etiladi. Dehli yaqinidagi Nig'or o'rmoni ta'riflanar ekan, Navoiy shunday baytni keltiradi:

Qo'nub qay shajar uzra axzar qilib,
Ne axzarki, Xizri payambar qilib. ("Saddi Iskandariy". 311-bet)

O'rmon, daraxtlar, undagi qushlar haqida gapirilib, har bir daraxtning yashilligi Xizrga qiyoslanmoqda.

"Xamsa"da Xizr, u kishi ega bo'lgan tiriklik suvi kiritilgan baytlar ham anchagina. Ko'pgina manbalarda Xizr payg'ambar, ba'zi o'rinlarda avliyo, ba'zan esa mifik obraz tarzida talqin etiladi. Bizningcha, Xizr ega bo'lgan "obi hayot", "tiriklik bulog'i" tushunchalari mifologik tasavvurlar bilan bog'liq. Hayot suvi, "obi hayot", uning zulmat olamida ekanligi, bu suvni Xizr, Ilyos va Iskandar izlagani haqidagi tafsilotlar boshqa o'rinlarda keltirildi. Bu haqda ma'lum tushunchalarga ega bo'lindi. Endi ana shu ruhdagi voqealarning "Xamsa"dagi talqiniga nazar solaylik. "Sab'ai sayyor" da shunday bayt bor:

Qora shol ichra o'ylakim, zulmot,
Xizrdak no'sh qildi obi hayot. ("Sab'ai sayyor". 154-bet)

Bu bayt dostonning yigirma birinchi bobidan olingan. Unda avvalgi- birinchi iqlim yo'lidani kelgan musofir afsonasi bayon qilingan. Bu hikoyat Hindiston shohi Jasratxonning o'g'li Farrux sarguzashtlari haqida. Farruxning tushida parimonand qizni ko'rib sevib qolishi, uni izlab Quds, Halab shaharlariga borishi, Halabda Axiy ismli ba-

davlat, mehmondo'st, saxiy kishi bilan uchrashishi, ishq iztiroblarini gapirib berishi, sevib qolgani Axiyning xotini ekanligi, Axiy xotinini taloq qilib, Farruxga nikohlab berishi, keyinchalik Farrux voqealardan xabardor bo'lib, u bilan aka –singil tutinishi, voqealar yaxshilik bilan yakun topishi tasvirlanadi. Yuqoridagi misralarda Axiyning o'z xotini bilan qaytadan topishishi, go'yo Xizr obi hayotni topganiga qiyoslanmoqda. Qora shol –zulmat ifodasi. Chunki Farrux ham, Axiy ham qiyin holatda qolganda qora sholga o'ranib, g'ariblar makonidan qaror topishadi. Bir – birlarini shu holatda uchratishadi. Obi hayot –sevimli yor. Axiy uzoq ayriliqdan so'ng topgan xotini- gulchehrasi. Demak, zulmat, Xizr, obi hayot – qora shol, Axiy va uning yori tarzida qiyoslangan. "Farhod va Shirin" da ham shu mazmunga yaqin misralar ko'zga tashlanadi:

Qirog'inda daraxti ko'kka hambar,

Bu hayvon suyi ul Xizri payambar. ("Farhod va Shirin". 163-bet)

Bu bayt Farhodning Suqrot tog'i sirini ochishga borib, Xizr suhbatiga erishgani voqealari bilan bog'liq. Farhod otasining duosini olib ishga kirishadi. Qarshisida keng o'tloqzor, unda bir chashma, yonida ko'kka bo'y cho'zgan daraxt namoyon bo'ladi. Shoir daraxt, uning yashilligini Xizrga, u yerdagi buloqni esa Xizrning "hayvon suyi" – tiriklik bulog'iga o'xshatgan. Mana bu baytda ham "obi zidagoni"- tiriklik suvi tilga olingan:

Nechukkim Xizr zulmatdin nihoni,

Ulusqa sochting obi zidagoni. ("Farhod va Shirin". 38-bet)

Bu bayt "Farhod va Shirin" ning sakkizinchi bobidan olingan. Unda dostonning yozilish sabablari haqida gapiriladi. Shoir Surush nidosi asosida o'z fikrlarini bayon etadi. Surush shoirni asarni yozishga da'vat etadi. "Hayrat ul-abror" ni yozib, xalqdan ofarin eshitganini aytadi. Shoirning yozganlari-asarlari xalqqa berilgan "obi zidagoni" ekanini bildiradi.

Navoiy dostonlarida Xizr nomi bilan yonma-yon tarzda “ziloli Xizr”, “ziloli zindagoniy”, “Xizr suyi”, “obi zindagoni” birikmalari qo‘llaniladi. Bu – obi hayot, tiriklik suviga ishora.

“Hayrat ul-abror” da shunday bayt bor:

Xizr suyidek anga ravshan zulol,
Nutqi Masih onda nasimi shamol. (“Hayrat ul-abror”. 312-bet)

Ma’lumki, Navoiy “Hayrat ul-abror” ning bir maqolatini Xuroson ta’rifiga bag‘ishlaydi. Shoir jahonni yetti iqlimga ajratib, Xurosonni to’rtinchi iqlimga kiritadi. Hirotni madh etadi. Undagi binolar, manzaralar, vodi-yu rudlarni zavq bilan ta’riflaydi. Hirot suvlarini “Xizr suyi” – tiriklik suviga, shamollarini esa “Nutqi masih” – Iso nafasiga o’xshatadi.

Mana bu baytda boshqacharoq ifoda:

Xat arokim, la’lin etib xandanok,
Xizr suyidin qilib, elni halok. (“Hayrat ul-abror”. 286-bet)

Bu misralar dostonning o’n yettinchi maqolatidan. Unda shoir yigitlik va qarilik haqida gapiradi. Inson umrining bu davrlarini fasllar – bahor va kuz ko‘rinishi, o‘zgarishlari holatida tasvirlaydi. Yigitlik davrini bahor go‘zalliklari – quyoshning nur sochishi, yoqimli tong shamollari esishi, bulut va yomg‘ir yog‘ishi, sabza-yu gullarning yerdan bosh ko‘tarishi, atrofnig qip-qizil alvonga aylanishi, daraxtlarning barg-u gulga burkanishi tarzida ifodalaydi. Qarilikni – kuz faslini-chi? Mevasiz shoxning za’f holatini “ko‘ngilsiz kishi”, “oshiqi mahzun”, “majnun”, “yafrog‘”, “o‘luklar kibi tufrog‘ uza yotti”, “do‘zax” tashbehlari asosida ko‘rsatadi. Tabiat ham, inson umri ham ana shu tarzdagi o‘xshashlikka ega. Yuqoridagi bayt ham hayotning ana shunday aldoviga ishora. Yashash bazm, sarxushlik, kulib boqib, so‘ng halok etadi. “Xizr suyi” dan halok etish – oldin shod-u xurramlik bilan yashab, so‘ng umr yakuniga yetishi.

“Farhod va Shirin”da “Zuloli Xizr” jumlası uchraydi:

Bu soqiy ilgidin joming payopay,
Zuloli Xizr ul joming aro may. (“Farhod va Shirin”. 55-bet)

Bu- dostonning Husayn Boyqaro madhi keltirilgan qismidan. Shoir shohni ulugʻlar ekan, uni buyuk zotlarga tenglashtiradi. Shoh jomini – saltanat-u davlati boqiyliqi “Xizr zuloli” – Xizr obi hayotiga oʻxshatmoqda. “Hayrat ul-abror”da bulutdan tomayotgan qatra “Xizr chashmasi” ga oʻxshatilgan:

Koʻrguzubon barq bulutdin daraxsh,
Qatra Xizr chashmasidek ruh baxsh. (“Hayrat ul-abror”. 80-bet)

“Barq” – chaqmoq, yashin. “Daraxsh” – yaltirash, porlash, yorugʻlik. Odatda chaqmoq chaqib atrof yorishadi. Yomgʻir yogʻadi. Yomgʻir tomchilari Xizr chashmasi-tiriklik suviga qiyoslanmoqda.

“Farhod va Shirin” dostonida “ziloli zindagoni” jumlası uchraydi. Maʼlumki, Farhod Armaniya yurtiga borib, togʻdan ariq qazib suv keltiradi. Dostonning oʻttiz toʻrtinchi bobida ana shu voqealar tasvirlanadi. “Ayn ul-hayot” chashmasidan “Bahr un-najot” hovuziga suv keltirish tomoshasiga butun xalq qatori Mihinbonu va Shirin ham keladi. Bu hodisani koʻrishga oshiqqan Shirin yuzidagi terlar, xol, kipriklar turli narsalarga tashbehlanađi:

Dema suvkim, ziloli zindagoni,
Ne Xizru ne Sikandar topib oni. (“Farhod va Shirin”. 263-bet)

Shirin yuzidagi xol gulga qoʻngan zogʻga, terlar esa bogʻni egalagan suvga qiyoslanadi. Shoir nazarida, bu shunchaki suv yoki ter emas, Xizr va Iskandar erisha olmagan tiriklik suvidir.

Baʼzi baytlarda lirik qahramon ega boʻlgan ter, labi, soʻzi Xizr ega boʻlgan obi hayotdan ustun qoʻyiladi. Yuqoridagi baytda Shirin yuzidagi qatralar shunday sifatga ega tarzida tasvirlangan edi. “Saddi Iskandariy”da ham ana shu mazmundagi baytlar mavjud:

Soʻzungdin yetib elga quti hayot,
Xizr suyini gum qilib ul uyot.
Gar ul suv berib Xizr umriga mad,
Bu soʻzdin ulusqa hayoti abad. (“Saddi Iskandariy”. 72-bet)

Dostonning o'ninchi bobida Sulton Badiuzzamon madhi keltirilgan. Yuqoridagi misralar ana shu bobga taalluqli. Navoiy Badiuzzamonni ulug'lar ekan, uni "zamon ahlining shohu shahzodasi", "adab osmonida mehr", "maloiksifat", "boshindin ayoq yaxshiliq" deydi. Shoir e'tiroficha, uning so'zidan elga jon kiradi. Uning ta'siri shunchalikki, Xizr suvi uyolganidan qochib ketgan-zulmatda makon tutgan. Agar obi hayot faqat Xizrga abadiylik, "umri mad"- uzoq umr baxsh etgan bo'lsa, Badiuzzamon so'zidan "ulusqa" – ko'plab kishilarga abadiy hayot nasib etadi. Badiuzzamon so'zi Xizrning tiriklik suvidan-da qimmatliroq degan fikr bayon etilmoqda.

Xizr ega bo'lgan sifatlardan yana biri hamrohlik, odamlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish, og'ir damlarda suyanch bo'lish. "Xamsa" da ana shu mazmundagi misralar ham uchraydi. Bu narsa Xizr so'zi mohiyati bilan ham aloqador. Tilshunos olim N.Husanovning qayd etishicha, "Xizr matnlarda "hamkorlik qiluvchi, hamroh, avliyo, yo'l ko'rsatuvchi, yashil, daraxt, ma'shuqa labidagi tuk, mangu tirik, ustoz" kabi ma'nolarni ifodalaydi"¹.

"Saddi Iskandariy" dostonidan olingan mana bu baytda Xizrning kishilarga hamrohlik qilishi aniq tasvirlangan:

Safar qilmag'ong'a ne ogohliq,

Ki elga qilur Xizr hamrohliq. ("Saddi Iskandariy". 255-bet)

Dostonning o'ttiz oltinchi bobida Navoiy safarga chiqish, uning foydalari haqida gapiradi. Shoir ta'kidicha, safarga chiqmagan odam xom, issiq, osoyishta joyga o'rgangan odam sovuqqa chidamsiz bo'ladi, sayru sayohat mashaqqatlariga dosh berishi qiyin bo'ladi. Safarga chiqmagan kishi Xizrga hamroh bo'lolmaydi. Chunki Xizr yo'lga, sayrga chiqqanlarga yo'ldoshlik qiladi. "Xamsa"da "Xizri roh" birikmasi ko'zga ko'p tashlanadi. "Xizri roh" degani Xizrning yo'lboshchiligi, kishilarga yo'l ko'rsatishiga ishora. Yuqorida qayd

¹ Husanov N. XV asr o'zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari //Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. T., 2000. 30-bet.

etganimizdek, Ilyos dengizda, suv olamida adashganlarga, yordamga muhtojlarga ko'mak bersa, quruqlikda bu ishni Xizr bajaradi. "Layli va Majnun" dostonida shunday bayt bor:

Muso neki, Xizri rohim o'ldung,
G'am zulmatida panohim o'ldung. ("Layli va Majnun". 227-bet)

Bu misralarda Xizr bilan bog'liq afsonaning bir necha jihatiga ishora bor. "Xizri roh" va "g'am zulmati" jumalari bu narsani ayon etadi. Biri Xizrning yo'lda kishilarga duch kelib, mushkulini oson qilish bo'lsa, ikkinchisi Xizrning zulmat dunyosida obi hayot izlashi bilan bog'liq. Dostonda ushbu jihatlar Majnun holatini ifodalashda muhim vazifani bajargan. "Layli va Majnun"da tasvirlanishicha, Navfal Majnunni kuyov qilmoqchi bo'ladi. Majnunning yaqinlari Navfal qabilasi tomon yo'l olishadi. Yolg'iz qolgan Majnun Layli hajrida ko'z yosh to'kadi. Ishq aql-u hushini, inon-ixtiyorini mavh etadi. U dasht-u sahroga chiqib ketadi. Dashtda Layli qo'ylarining cho'poniga duch keladi. Bu cho'pon Majnun uchun Xizr darajasida edi.

"Sab' ai sayyor"da ham "Xizri roh" atamasi ko'zga tashlanadi.
Gah munga ul qarinu goh anga,
Xud bu ikisi Xizri roh anga. ("Sab' ai sayyor". 182-bet)

Bu bayt Sa'd haqidagi hikoyatga aloqador. Ikki musofirdan Kitvar mamlakatidagi butxona, unga kirib uxlagan kishining g'aroyib tush ko'rishi haqidagi xabarni eshitgan Sa'd safar ishtiyoqiga tushib qoladi. Otasi noiloj rozi bo'ladi. Bu safarda o'sha ikki musofir Sa'dga hamrohlik qilishadi. Navoiy ularni Xizrga o'xshatadi.

"Farhod va Shirin"da Xizrning asar qahramoniga hamrohlik qilishi yanada aniqroq ifodalangan:

Meni Xizr anglakim, tuttum yo'lungni
Ki, to bu yo'lda tutqaymen qo'lungni.
(“Farhod va Shirin”. 163-bet)

“Farhod va Shirin”da tasvirlanishicha, Farhod Xizr muloqotiga erishgan obraz. U Suqrot tog‘i tilsimini ochishda Xizrdan ko‘mak oladi. Xizr bu yo‘lda unga yordam berishini, mushkulini hal qilishda yo‘l ko‘rsatishini, qo‘lidan ushlab maqsad manziliga etishini aytadi.

Xizrga xos ishlarni hamma ham bajara olmaydi. To‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, qiyinchilikka uchraganlarning mushkulini oson qilish og‘ir vazifa. Navoiy “Hayrat ul -abror”da riyokor, aldanchi shayxlar, yurish-turishi, kiygan kiyimu, aytgan so‘zlari bilan qiladigan ishlari to‘g‘ri kelmaydigan ayrim xirqapo‘shlarni fosh etadi. Ularning o‘zini Xizrsifat qilib ko‘rsatishini qoralaydi:

Xizrdek ul qavm tutub elga qo‘l,
Ko‘rguzubon manzili maqsadg‘a yo‘l.
 (“Hayrat ul-abror”. 139-bet)

Umuman, Xizr va u bilan bog‘liq yuqorida bildirilgan mulohazalar “Xamsa”ning qaysi o‘rnida shu ruhdagi baytlar kelsa, ularni tushunish, misralar mohiyatini anglash uchun yetarli deyish mumkin.

2. SHOH BAHROMGA NISBAT BERILGAN “GO‘R” SO‘ZIGA DOIR MULOHAZALAR

Mumtoz adabiyotimizda ayrim so‘zlar, tushunchalar, nomlar, obrazlar mohiyati, asarlar muallifi, ba’zi shoirlar yashagan davr, tarjimai holi, tug‘ilgan yili kabi qator masalalarda bahsli jihatlar mavjud. Ana shunday mulohazalardan biri Bahrom Go‘r bilan ham bog‘liq. Shoh Bahrom Sharq adabiyotida eng mashhur siymolardan biri. “Bahrom Go‘r yoki Varaxran V (Shohlik yillari 421-438) – Eronda hukmronlik qilgan sasoniylardan Yazdigardning o‘g‘li. Yaman podshohi No‘mon va uning o‘g‘li Munzir tarbiyasida o‘sgan... Uning sevgan mashg‘uloti go‘r (qulon) ovi bo‘lganligi uchun ham u Go‘r laqabini olgan”¹.

Abdulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf, Navoiy kabi ulug‘ shoirlar shoh Bahrom sujeti asosida asarlar

¹ O‘zME. 1-tom. T., 2000. 669-bet.

yozganlar. Biz bu o'rinda Bahrom obrazi, u haqdagi asarlar xususida emas, balki Bahromning laqabi bo'lgan "Go'r" so'zi haqida ayrim qaydlarni keltirmoqchimiz.

Ma'lumki, "Go'r" so'zi turlicha izohlangan. "Navoiy asarlari lug'ati" da shunday yozilgan: "Go'r. 1.f.1. Yovvoyi eshak; 2. Shoh Bahromning laqabi"¹.

Professor N.Mallayev talqinicha esa: "Rivoyatlarga ko'ra, u go'r qulon (yovvoyi eshak) oviga o'ch bo'lgani uchun Bahrom Go'r nomi bilan shuhrat topgan ekan"².

Bu parchada "Go'r" qulon" ekanligi aytilmoqda. Qulon nima? "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday berilgan; "Qulon. Otdan kichikroq, eshakdan kattaroq, otdan ko'ra ko'proq eshakka o'xshab ketadigan yovvoyi hayvon, yovvoyi xachir"³. "Go'r" bilan "qulon" bir tushunchani anglatishi "Navoiy asarlari lug'ati"da ham ta'kidlangan: "Qulon. Tojik tilida "go'r" atalgan hayvon, yovvoyi eshak"⁴.

Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asarida quyidagi ma'lumotni keltiradi: "Va ani Bahrom Go'r dedilar. Muning jihatini ba'zi dedilarkim, go'rni sher sayd qilg'onda, aning o'qi ikisidan o'tib, yerga tegdi. Ba'zi debdurlarkim, go'r ovig'a ko'p moyil erdi..."⁵.

9-sinf "Adabiyot" (Q.Yo'ldoshev v.b. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik-majmua. T., 2006. 94-bet), 10-sinf darsligi (B.Qosimov v.b. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. T., 2004. 224-bet) da ham "Go'r" qulon deb o'tilgan.

Umuman, ko'pchilik "Go'r" deganda "qulon", yovvoyi eshakni anglashi ma'lum. Savol tug'iladi: Yovvoyi eshakni ov qilishdan maqsad nima? Shunchaki zavq olishmi, qon to'kishmi, merganlikni mashq qilishmi? Bizningcha, bular yetarli asos bo'lolmaydi. Kiyik, yovvoyi echki, bug'u, quyon, o'rdak, tustovuq, kaklik, bedana kabilarni sayd qilishdan ma'lum bir maqsad bor. Tanovul qilish mum-

¹ Navoiy asarlari lug'ati. T., 1972. 171-bet.

² Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. T., 1974. 163-bet.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom. Moskva, 1981, 616-bet.

⁴ O'sha asar, 745-bet.

⁵ Alisher Navoiy. Tarixi muluki Ajam. 16-tom. T., 2000. 235-bet.

kin. Yovvoyi eshak na qadimda, na bugun iste'mol qilinadi. Uning go'shti makruh.

Ayrim manbalarda "Go'r" ohu, kiyik ekanligi, qulon esa cho'l kiyigi ma'nosidaligi aytiladi. Professor H.Homidov fikricha, "Go'zal tabiatning ko'rki bo'lgan uchqur ohu-Go'rni bir o'q bilan qonga belagan Bahrom Ozodadan o'z hunarini baholashni istaydi"¹. Bahrom sujetini chuqur o'rgangan, Nizomiy, Dehlaviy, Navoiy asarlarini qiyosiy tahlil qilgan adabiyotshunos S.Hasanov ham shu ma'noni qayd etib o'tadi: "Bahrom kuchli, dovyurak bo'lib voyaga yetadi. Turli qurollardan mohirlik bilan foydalanishni o'rganadi, ov qilish san'atini mukammal o'zlashtiradi, ayniqsa go'rlarni, ya'ni kiyiklarni ov qilishni juda yaxshi ko'rar edi. Shuning uchun ham keyinchalik Bahrom – Bahrom Go'r degan nomni oladi"². 7-sinf "Adabiyot" darsligida "Ravshan" dostonidan parcha keltirilgan. Dostonda shunday misralar bor:

Qulon yurmas yerlardan
Quvib o'tib boradi.
Bulon o'tmas yerlardan
Burib o'tib boradi³.

Shu yerdagi lug'atda "qulon" so'zi "cho'l kiyigi" tarzida berilgan. Biz ham ana shu fikrlar tarafdori. "Go'r", "qulon" so'zlari kiyik, ohu ma'nosiga ham egaligini quyidagicha asoslaymiz:

1. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar bunga dalil.

2. Nizomiyning "Haft paykar" asarida Bahrom Fitnaga o'z mahoratini kiyik otib ko'rsatadi. Xusrav Dehlaviyda ham shunday. "Hasht bihisht"da Dilorom Bahromga ota kiyikni ona kiyikka va aksincha tarzda o'z merganligini ko'rsatishini so'raydi. Asarda yozilishicha, Bahrom may bilan kiyik sonidan bo'lgan kabobni yeyishni xush ko'rgan. Navoiyning "Sab'ai sayyor" ida ham Bahrom Diloromga

¹ Homidov H. Boqiy bo'ston tarovati. T., 1986. 21-bet.

² Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. T., 1991. 32-33-betlar.

³ Yo'ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik-majmua. T., 2009.

kiyik otib o'z mohirligini namoyish etadi. Demak, barcha asarlarda Bahrom o'z mahoratini yovvoyi eshak emas, kiyik otib ko'rsatadi.

3. Bizni ushbu mulohazalarni yozishga undagan va eng muhim asos bo'ladigan misol Navoiyning "Sab'ai sayyor" idagi mana bu baytlar:

Lolagun go'rni shikor aylab,
Qonidin yerni lolazor aylab.
Lolazor ichra chun ichib mayi nob,
Go'r eti erdi bazmi ichra kabob¹.

Bahrom "lolagun go'r"ni ov qilish uchun ko'p qon to'kadi. Kiyik loladek, yer uning qonidan lolazor. Lolazorda mayi nob ichayotgan shoh uchun "Go'r eti kabob" edi. Ohu, kiyik go'shtini kabob qilish, yeyish mumkin. To'rtinchi misra – "Go'r eti erdi bazmi ichra kabob" deyish – ko'p narsani oydinlashtiradi.

Xulosa shuki, endilikda chop etiladigan darslik, qo'llanmalarda "Go'rni" – yovvoyi eshak deb emas, kiyik yoki kiyikning bir turi deb izohlash to'g'ri bo'lardi. Shunda o'quvchilar "Go'r" so'zining turlicha talqini o'miga mantiqqa yaqin, asosli ma'nosini anglagan bo'lardi.

¹ Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. 20 tomlik. 10-tom. T., 1992. 353-bet.

II BOB: SHOIR "XAMSA" SINING BADIY XUSUSIYATLARI

1. Dostonlardagi badiiy san'atlar haqida

Bugungi kunda mumtoz adabiyotimizning turli qirralarini yoritishga e'tibor qaratilmoqda. Mumtoz adabiyotimiz namunalari ham mazmun, ham shakl jihatidan, tasavvufiy mohiyati, obrazlar, turli badiiy vositalar, til xususiyatlari, badiiylik mezonlari nuqtai nazaridan o'rganilmoqda. Alisher Navoiy merosini tadqiq etishda ham bu harakatlar kuzatiladi.

Alisher Navoiy asarlarida she'riy san'atlarning qo'llanishini tadqiq etish ham muhim ishlardan. Zero, asrlar davomida shakllangan badiiy san'atlarning ham o'z taqdiri bor. Badiiy so'zning, xususan, lirikaning g'oyaviy hissiy mohiyati, vazifasi bevosita badiiy san'atlar bilan chambarchas bog'liqdir. She'riyatdagi bir badiiy san'atni, uning xususiyatlarini, istilohi, ta'rifi, rivojlanishi kabi masalalarni alohida mavzu sifatida o'rganish bugunning ishlaridan.

Biz Alisher Navoiy "Xamsa" sidagi "Farhod va Shirin" dostonida she'riy san'atlarning bir guruhi- lafziy san'atlarning qo'llanishi xususida mulohaza yuritmoqchimiz. Bunda lafziy san'atlarning doston g'oyaviy mazmunini ochishdagi, ularning shoir fikrlarini yuzaga chiqarishdagi o'rni, she'riy san'atlar haqida o'quvchi, talaba va boshqa qiziquvchilarga kengroq tushuncha berish kabilar e'tiborga olindi. Ma'lumki, badiiy san'atlarning yuzdan ortiq, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra esa, ichki tarmoqlari bilan yuz ellikdan ortiq turi mavjud ekan. Ularning katta bir qismini lafziy san'atlar tashkil etadi. Ushbu qismdagi asosiy maqsad ham mazkur san'atlar misolida "Farhod va Shirin"ning ayrim jihatlarini yoritishdir. Lafziy san'atlardan o'z o'rni va me'yorida foydalanish ijodkorning ma'naviy olami, o'ziga xos uslubi, poetik maqsadi, samimiyati, mahorati bilan bog'liq. Maqsad bularni imkon qadar tadqiq etish, misralarni tahlil qilishdan iborat. Ayni paytda quyidagi masalalarga e'tibor qaratildi:

- lafziy san’atlar haqida fikr yuritish;
- ularga qaysilar kirishini aniqlash;
- bu san’atlar haqidagi ta’riflarga to’xtalish, ularni umumlashtirish;
- har bir san’atning shoir fikrlarini ro’yobga chiqarishdagi o’rnini ko’rsatish;
- Navoiyning bu san’atlarni misralarga singdirishdagi mahoratini tavsiflash;
- obrazlar holati, qiyofasini chizishda ularning o’rnini belgilash;
- misralarni tahlil qilish va boshqalar.

San’atkor so’z mas’uliyatini juda yaxshi his qilgan holda qalam tebratadi. U muayyan so’zdan o’z o’rnida unumli foydalanishga intiladi. She’r san’atlari shoir uchun eng muhim vositalardir. Bade’shunolikda she’riy san’atlar xususida anchagina fikrlar bildirilgan. Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog’a” (“Yetuklik ilmlari”) asarining uchinchi bo’limida badiiyatlar va san’atlar xususida gapiriladi: “Uchinchi fanda so’zning badoye’in (“bade”ning ko’pligi, bade’alar, badiiyatlar, badiiy usul va yo’sinlar) va sanoye’ni (san’atlar- badiiy, she’riy san’atlar, so’z o’yinlari) zikr etar” deydi.¹

Ushbu asarda badiiy san’atlar umumiy tarzda qayd etiladi. Agar A.Husayniyning “Badoyi’u-s-sanoyi” asarida lafziy san’atlar, ma’naviy san’atlar va “uchunchi san’at” ostida “lafziyu ma’naviy go’zalliklar” deb uch guruhga ajratib berilsa, Ahmad Taroziy ularning barchasini qayd etib o’tadi. U shunday yozadi: “Va majmui sanoye’kim, balog’at ahli e’tibor qilurlar, bu turur: tarse’, tarse’maat-tajnis, tajnisi tom, tajnis-uz-zoyid, tajnis-un- noqis, tajnis-ul-murakkab, tajnis-ul-mukarrar, tajnis-ul-mutarraf, tajnis-ul-xat, tashif, tashbehi mutlaq, tashbeh-ul-mashrut, tashbeh-ulkinoyat, tashbeh-ut-tasviyat, tashbeh-ul-aks, tashbeh-ul-izmer, tashbeh-ut-tafzil, tafsir-ul-jilo, tafsir-ul-xafo, tazmin, tazmin-ul-muzdavaj, tansiq-us-sifat, ta’kid-ul-madh bimo yushbihuzzam, tarjima, taajjub, tajohil-ul-orif, xayol, ihom, ashkol, e’not, ibdo’, irsol-ul-masal, ig’roq, ishtiqaq, iltifot, in-

¹ Qarang: Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog’a. “O’zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2002-yil, №1. 73-bet.

tiboh, iqtibos, istihfom, istidlol, istidrok, istiora... muroot-un-nazir, mutanosib, mutarodifi matlun, musalsal, muvajjah, mukarrar, murabba', mulamma', mujarrad, muvashshah, muammo, mag'lata, lug'z, raqto, xayfo, baroati istehlol, radd-ul-matla', radd-ul-fajr, alas-sadr, laffu nashri murattab, laffu nashri mushavvash, tard-ul-aks, hashv-ul-maleh, hajv-ul-qabih, savolu javob, husnut-tahlil..."¹

Badiiy san'atlar, ularning turlari, farqlari, har bir san'atning o'ziga xos jihatlari, ular haqidagi nazariy ma'lumotlar, har bir she'riy san'atga doir misollar Atoulloh Husayniyning "Badoyi'u-s-sanoyi'" kitobida to'liq keltirilgan. Asarning "Tamhid" (Umumiy tushunchalar) qismida shunday yozadi: "Bilgilkim, arabning fasohatu balog'at ahli nutq go'zalliklarni ikki nav' deb bilipturlar. Birinchi nav'i zotiy go'zalliklardurkim, dilbarlarning tabiiy husni yanglig'dur va ikkinchi nav'i oriziy go'zalliklardurkim, alardag'i ko'rsatma bezaklar singaridur. Birinchi nav'ining bayonini "balog'at ilmi" derlar va bahslarining ko'plig'i sababidin ani ikki ilm qilipturlar. Biri ma'oniy ilmi va ikkinchisi bayon ilmidur... Ajam shuarosi tashbeh, istiora, kinoya yanglig' eng mashhur va ko'p uchrayturg'on zotiy go'zalliklarni oriziy go'zalliklar bilan qo'shupturlar va alarning majmu'ini sanoiy' derlar. Qisqasi, nutq go'zalliklari uch qism bila cheklanur ul jihattinkim, har go'zallik yo faqat lafz go'zalligidur, yo faqat ma'no go'zalligidur yoxud lafzu ma'no yig'indisining go'zalligidur. Binobarin bu risola uch san'at ila ado etildi."²

Bu fikrlardan shu narsa oydinlashadiki, A.Husayniy badiiy san'atlarni uch guruhga ajratadi. Va shu guruhlar asosida har bir turga mansub she'riy san'atlarni alohida-alohida ta'rifini keltiradi. Atoulloh Husayniy fikricha, badiiy san'atlarning birinchi guruhi, ya'ni lafziy san'atlar she'riy nutqqa bezak, ziynat, go'zallik berishga xizmat qilsa, ikkinchi guruhi, ya'ni ma'naviy san'atlar she'r ma'nosini oshirishga ta'sir ko'rsatadi. Uchinchi guruh san'atlar esa, ya'ni "lafzu ma'no yig'indisi" she'rning ham shakliga, ham mazmuniga ta'sir qiladi.

¹ Qarang: Ahmad Taroziy. Funun ul-balog'a. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2002. №4. 78-bet.

² Atoulloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. 34-bet.

A.Husayniy "Birinchil san'at" qismida "Lafziy go'zalliklar, o'shul hukmdagi va xat suvratig'a taalluqlug' go'zalliklar bayonida" nomi ostida lafziy san'atlarga to'xtalib o'tadi: "Bilgilki, lafziy go'zalliklarning asosi uldurkim, alfozni (lafz) ma'nog'a tobi' qilg'aylar, umuman barcha go'zalliklarning asosi uldurkim, nutq ul tarzda ado etilgaykim, ma'noni anglashg'a, aning latofati, tarkibi va sog'lomlig'ig'a hech bir xalol yetmagay. Lafziy go'zallik ko'pu son-sanoqsizdur..."¹

Soddaroq qilib aytganda, lafziy san'atlar so'zning tovushi bilan bog'liq hodisa. U shakl hodisasi. So'zning tashqi tomoni. Badiiy asar tili bilan bog'liq. Ammo "lafziy go'zalliklarning asosi uldurkim, alfozni ma'nog'a tobi' qilg'aylar". Demak, lafziy san'atlar ham ma'noga tobe bo'ladi. Ma'noni yuzaga chiqarish, ta'sirli bayon etishda xizmat qiladi. A.Husayniy. "Lafziy san'atlar"ga quyidagilarni kiritadi: tarsi', tajnis, raddu-lajzmina-s-sadr, qalb, maqlub-i kull, sat', mumosala, tashtir, tajziya, tasri', tasmit, aks (tardu aks), tardid, taattuf, tashri', tavshih, talavvun, tarofuq, mulamma', muqatta', muvassal, raqta, xayfa, jomi'u-l-huruf, e'not, tazmini muzdavagi, mutazalzil, murabba', mu'aqqad, mudavvar, mushajjar, tavsīm, mushokala kabilar.

Keyingi yillarda she'riy san'atlar yuzasidan ko'pgina ishlar qilgan adabiyotshunos olim A.Hojiahmedov "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya"² nomli kitobida lafziy san'atlar sifatida quyidalarni qayd etib o'tadi: tajnis, iyhom, tanosub, ishtiyoq, tazod, ta'dil, raddul ajuz, tardu aks, jam', taqsim, tafriq, jam' va taqsin, jam' va tafriq, takrir, mukarrar, tazmini muzdavaj, kitobot, talmi', muvozana, tarix, raddi matla', insho.³

Biz Navoiyning "Xamsa"sidagi bir doston- "Farhod va Shirin" da ushbu san'atlarning qo'llanishiga e'tiborni qaratdik. Dostonni o'qish asosida amin bo'ldikki, she'riy san'atlarning har uch guruhi- ma'naviy, lafziy va ma'naviy lafziy san'atlar ham ko'p uchrar ekan. Lafziy san'atlarga mansub deyarli barcha turlar asarda ko'zga tashla-

¹ Atoulloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. Toshkent, 1981. 35-bet.

² O'sha asar, 35-124-betlar.

³ Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent: "Sharq", 1998. 65-114-betlar.

nadi. Ular dostonlarning hayotiyroq, ta'sirchanroq, undagi g'oyalarning yorqin, timsollarning jonli chiqishiga xizmat qilgan. Shuningdek, baytlarning ohangdorligi, shakliy nazokati, musiqiy va jozibadorligini ta'minlashda asosiy omil bo'lgan.

Asarda ko'p uchraydigan san'atlardan biri mukarrardir. A.Husayniy, T.Boboyevlar takrir, mukarrarlarni ma'naviy san'atlar sifatida berishadi. She'riy san'atlar bilimdoni, bu sohada ko'pgina tadqiqotlar yaratgan adabiyotshunos olim A.Hojiahmedov ularni lafziy san'atlar doirasiga kiritadi. Biz ham shu asosda ularni lafziy san'atlar sifatida ko'rib chiqishni ma'qul topdik. A.Husayniy shunday yozadi: "Rashid-i Vatvot depturkim, shuaro mukarrar deb andoq she'rni ayturlarkim, bir baytta bir lafzni keltirurlar va o'zga baytta aning ta'sirida o'shul lafzni yana keltirurlar..."¹ Bunga ko'ra, bir so'z dastlabki baytda keltirilsa, keyingi baytda ham o'sha so'z qaytariladi. O'zbek tilida takror so'zlar bor. Baytda ana shunday so'zni qo'llash-mukarrardir. A.Hojiahmedov esa shunday yozadi: "Mukarrar" so'zi "qayta-qayta, ust-ustiga" ma'nolarini ifodalaydi. Shu nom bilan ataluvchi lafziy san'at esa baytning har ikki misrasida juft so'z qo'llashni nazarda tutadi.²

Bu fikrlarda izohtalab joy bor. Misralarda "juft so'zlar" emas, takroriy so'zlar deb nomlash to'g'ri bo'lardi. Chunki "olloh-olloh", "tez-tez", "qatra-qatra" kabilar juft so'zlar emas, takror so'zlardir. A.Husayniy bunday so'zlar ikki baytda to'rt misrada kelishini aytadi. O'zbek she'riyatida esa, bir baytning ikki qatorida takror so'zlarning kelishi ko'p kuzatiladi. Bunday takror so'zlar misraning turli o'rinlarida keladi.

"Farhod va Shirin" dagi mana bu baytga e'tibor beraylik:

Kim etsa darddin oz-oz rivoyat,

Qilib ul dard anga ko'p-ko'p siroyat.³

¹ Qarang: Atoulloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. 174-bet.

² Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Toshkent, "Sharq", 1998. 100-bet.

³ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 8-tom. Toshkent, 1991. 70-bet. (Izoh: Boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko'rsatiladi.)

Ushbu baytdagi mukarrar “oz-oz” va “ko‘p-ko‘p”. Ikki misrada ham o‘rtada kelyapti. Misrada ta‘kidlanishicha, kimki o‘z dardini, iz-tiroblarini gapirib bersa, bu narsa unga ko‘p-ko‘p ta’sir etadi. Farhod Xusravga asir tushib, Salosil qo‘rg‘oniga qamalgandan keyingi holati shunday tasvirlanadi:

Urubon lahza-lahza tosh uza bosh,
Boshin pargola-pargola qilib tosh. (349-bet)

Farhodning o‘z holatiga achinib, lahza-lahza boshini toshga uri-shi, tosh boshini “pargola-pargola” qilishi, ya’ni bo‘laklar parcha-par-chalarga ajralishi mubolag‘ali tarzda ifodalangan. Bunda ham mis-ralar o‘rtasida kelgan “lahza-lahza” va “pargola-pargola” mukarrari qo‘l kelgan.

Mukarrar misralar boshida, oxirida kelishi, birinchi misraning ox-iri, ikkinchi misraning boshi, oxiri yoki o‘rtasida ham kelishi mum-kin. Yuqoridagi ikki baytda misralar o‘rtasida takror so‘zlar kelgan bo‘lsa, mana bu baytlarda misralar oxirida kelgan:

Ne ikki anbar oso zulf vah-vah,
Ne ikki jonfizo lab, ollah-ollah. (236-bet)

Bu baytda Shirin tasviri berilgan. Uning zulfu jon ato etuvchi lab-larining go‘zalligi, benihoyat hayratlanarli ekanligi “vah-vah”, “ol-lah-ollah” so‘zlari orqali juda ta’sirli bayon qilingan. Shu tasvirning davomi, Shirin go‘zalligining yanada yuksak jihatlarini mana bu mis-ralarda ham keltirilgan:

Labidin jon tomib bisyor-bisyor,
So‘zidan shahd oqib xirvar-xirvar. (238-bet)

Shoir ta‘kidicha, Shirin husnining bir uzvi bo‘lgan labidan jon to-madi- oshiqclariga hayot baxsh etadi, so‘zidan shahd-bol tomadi.

Mana bu baytda esa, mukarrar san’ati birinchi misraning oxirida, ikkinchi misraning o‘rtasida kelgan:

Borib Farhodning olinda bir-bir,
Borisin daf’a-daf’a ayla taqrir. (132-bet)

Ushbu baytda esa aksincha:

Topibdur daf'a-daf'a barcha tahrir,
Chu solg'ungdur nazar borig'a bir-bir. (467-bet)

Quyidagi baytda esa, birinchi misraning ikki o'rinida kelgan:

Desam shah-shah, desam darvesh-darvesh,
G'aribu xasta Farhod jigarresh. (361-bet)

Birinchi qatordagi "shah-shah", "darvesh-darvesh" takror so'zlari mukarrardir.

"Farhod va Shirin"da mukarrar san'atiga yaqin, uning bir ko'rinishi sifatida takrir san'ati ham uchratildi. A.Husayniyning "Badoyi'u-s-sanoiyi" asarida "Ikkinchi san'at", ya'ni "Ma'naviy go'zalliklar bayonida" qismida takrir xususida mulohazalar bildirilgan.¹ Adabiyotshunos T.Boboyev ham bu san'atni ma'naviy san'atlar sirasiga kiritadi.² Professor A.Hojiahmedov esa, uni lafziy san'atlar doirasida tadqiq etadi. U shunday yozadi: "Takrir "takrorlash" ma'nosini ifodalovchi lafziy san'at bo'lib, she'rda u yoki bu so'zni takror qo'llashni nazarda tutadi. Takrorlash vositasida so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish ushbu san'atning asosiy xususiyati sanaladi".³

Takrir san'atining mukarrar san'atiga o'xshashligi va farqli tomonlari bor. O'xshashligi so'z takroriga asoslanishi. Farqi mukarrarda har xil takroriy so'zlar baytning ikki misrasida ham qo'llaniladi. Takrorda esa bir xil so'zning bir misrada yoki ikki misrada qayta qo'llanishidir. A.Husayniy keltirgan misollarda asosan bir so'zning misra boshida va oxirida kelishi takrir ekanligi namoyon bo'ladi. Masalan:

Har ki kaj bozad nazar bo mahvasham,
Mekusham az tiri ohash mekusham.⁴

Bayt tarjimai:

Kimki mening mahvashim bilan egrincha ko'z urushtirsa, uni o'ldiraman, ohim o'qi bilan o'ldiraman.

¹ O'sha asar, 172-bet.

² Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. 243-bet.

³ O'sha asar, 100-bet.

⁴ O'sha asar, 172-bet.

Baytdagi “Mekusham” soʻzi (oʻldiraman) ikkinchi misraning boshida va oxirida kelgan. A.Hojiahmedov esa, bundan tashqari misralarda bir soʻzning ikki-uch marta qayta-qayta kelishini ham takrir sifatida talqin etadi. Ogahiy qalamiga mansub ushbu baytni keltiradi:

Jonim olur, ey pari, holimgʻa boq,
Ishtiyoqu ishtiyoqu ishtiyoq.¹

Ikkinchi misradagi “ishtiyoqu ishtiyoqu ishtiyoq” soʻzi takriri hosil qilgan. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida ham takrir-lar uchraydi. Asosan, birinchi shakldagi, A.Husayniy nazarga tutgan takrir namunasi koʻzga tashlanadi. Masalan:

Erur bu ishda saʼyu ehtimomi,
Tamomi harzau zoye tamomi. (392-bet)

“Tamomi” soʻzi ikkinchi misraning boshi va oxirida kelyapti. Bu misralarda Shirinning Farhodga boʻlgan sevgisi va ayni paytda Xusravga nisbatan munosabati bayon qilingan. Bu bayt Shirinning maktubidan. Xusravning Shirin vasliga yetish uchun qilayotgan ishlari “xayolidur anga xom” ekanligi ifodalangan. Shirin maktubidan xabar topgan Xusrav Farhodni oʻldirishga chogʻlanadi. Shirin esa, har qanday holatda ham Xusravga rozi boʻlmasligi, oʻzini asrashi, Farhod uchun qurbon boʻlishga ham tayyorligi, Xusravning bu yoʻlda barcha “saʼyu ehtimomi” – harakatlari behuda va foydasizligi uqtirilmoqda. Shirinning holati, tuygʻulari, Farhodga boʻlgan sevgisi va Xusravga munosabati “tamomi” soʻzini ikki marta qoʻllash orqali yanada taʼsirli ifodalangan.

“Farhod va Shirin”da koʻp uchraydigan lafziy sanʼatlardan biri raddu-l-ʼajz mina-s-sadrdir. A.Hojiahmedov uni “radd-ul-ajuz al-as-sadr” deb ataydi. “Badoyiʼu-s-sanoyiʼ” da unga shunday taʼrif beriladi: “Bu sanʼat nasrda jamiʼ arab fusahosiya ajam shuarosi nazdida andoq boʻlurkim, bir lafzni birinchi jumlada keltirgaylar va yana oʻshul lafzki oʻshul maʼnoda ul jumlaning oxirida zikr etkaylar yoki orasida

¹ Oʻsha asar, 100-bet.

yo tajnis, yo ishtiyoq, yo shibh-i ishtiyoq bo'lgan ikki lafzning birin jumla boshida va ikkinchisi oxirida keltirurlar".¹

Buning soddaroq ma'nosi shuki, bir so'z birinchi misraning boshida va ikkinchi misraning oxirida aynan keltiriladi. Bu so'zlar bir ma'noda yoki tajnis shaklida bo'lib, turli-turli ma'nolarni anglatishi mumkin.

A.Hojiahmedov kitobida shunday qaydlar bor: "Bir xil ma'nodagi yoki shakldosh ikki so'zni baytning turli o'rinlarida keltirish san'atidir. Sharq adabiyotshunosligiga ko'ra bayt boshidagi bo'lak (rukn) sadr deb, oxiridagi bo'lak (rukn) esa ajz deb ataladi. Binobarin, ushbu san'at nomi "bir xil yoki shakldosh ikki so'zni bayt boshi va oxirida keltirish" degan ma'noni ifodalaydi. Takrorlanuvchi so'zlarning o'zaro munosabati va o'rniga ko'ra bu san'atning yigirmaga yaqin turi mavjud".²

Xulosa shuki, bu san'atning bir necha ko'rinishlari mavjud. Bu narsa asosan takror so'zning baytning qaysi o'rnida kelishi bilan bog'liq. Radd-ul-ajuz al-as-sadrning eng ko'p tarqalgan turi bir xil ma'noni ifodalovchi ikki so'zning misra boshi va oxirida kelishidir.

"Farhod va Shirin" da shunday bayt bor:

Chu men ham qildim oxir xayr boding,
Murodim buki yetkach ul murodim. (183-bet)

Ikkinchi misradagi "murodim" so'zi ham misra boshida, ham oxirida qo'llangan.

Mana bu baytda esa, birinchi misraning oxiridagi so'z ikkinchi misraning o'rtasida kelyapti:

Chu dono chekti bu g'oyatg'a so'zni,
Bas etti so'zni dog'i yumdi ko'zni. (183-bet)

Quyidagi baytga esa aksincha. Birinchi misraning boshida kelgan "mijozi" so'zi ikkinchi misraning o'rtasida kelyapti:

¹ O'sha asar, 52-bet.

² O'sha asar, 85-86-betlar.

Mijozida harorat g'olib erdi,
Yana mayg'a mijozi tolib erdi. (196-bet)

Umuman, shakldosh, o'zakdosh bo'lib ko'ringan, aslida boshqa-boshqa ikki so'zning boshi va oxirida, birinchi misra o'rtasi va bayt oxirida keltirishi ushbu san'atga xis xususiyatdir.

Mana bu misralarda birinchi misra o'rtasida kelgan so'z- "gul" ikkinchi misra o'rtasi va oxirida kelgan:

Sekiz gul bargi birla betaammul,
Sarig' gul uzra oqizdi qizil gul. (353-bet)

Yana bir misol:

Sirishki qoni yuz qoshida oqqan,
Hamonokim yur erdi qon bila qon. (360-bet)

Ikki baytda ham Shirin holati tasvirlangan. Ma'lumki, Farhodning asir tushib, Salosil qo'rg'onida saqlanishini eshitgan Shirin iztirob chekadi. "Sekiz gul bargi"- bu Shirinning barmoqlariga ishora. Uning yuzlarini timdalab qon oqizishi- qizil gul qiyosi bilan berilmoqda. U qon yuzlarini qon bilan - qizil ko'z yoshlari bilan yuvadi. Shirin portreti, ruhiy holatini chizishda shoir so'zlar takroridan unumli foydalangan. Bunday misollarni anchagina keltirish mumkin.

"Farhod va Shirin" ko'p uchraydigan san'atlardan biri hojibdir. Bu ham so'z takroriga asoslanadi. Arab tilidan olingan, lug'aviy ma'nosi esa "parda tutuvchi", "eshik og'asi" degan ma'nolarni anglatadi. Hojib shaklan ishtiyoqqa o'xshaydi. Ishtiyoqda o'zakdosh so'zlar bayt yoki misraning turli joylarida qo'llaniladi. Hojibda esa shakldosh so'zlar ko'pincha qofiyadan oldin takrorlanib kelaveradi. Hojibning to'rt turi mavjud: sara, takrorli, tajnisli va murakkab hojiblar.¹

Hojib radifga o'xshash. Ammo farqli tomonlari bor. Adabiyotshunos V.Rahmonov bu haqda shunday yozgan: "Radif bilan hojibning o'xshashligi va farqi bor: o'xshashligi- bir xil so'zning baytda parallel takrorlanishi: farqi-qofiyadan ilgari kelishi".²

¹ Qarang: Pirimqulov A. Ogahiy masnaviylarida badiiy tasvir// Atoqli shoir, tarixnavis, tarjimon. Maqolalar. Toshkent, 1999. 114-bet.

² Rahmonov V. She'r san'atlari. 1972. 111-bet.

Dostonda bir soʻzli, ikki soʻzli hojiblar uchradi. Farhodning Armaniyaga borib, togʻ qazishdagi kuch-qudrati, gʻayrati tasvirlangan ushbu baytga eʼtibor beraylik:

Malakvash odamidur koʻh monand,
Kesakdur teshasigʻa koʻh parkand. (233-bet)

Navoiy Farhodni "Malakvash"- farishtalarga oʻxshash, yaʼni juda goʻzal, barvasta ekanligini, kuchda, savlatda esa "koʻh monand"- togʻdek insonligini uqtirmoqda. Ikkinchi misrada esa, uning ishlash jarayoni, yaʼni teshasining oldida koʻh-togʻ boʻlaklari kesakdek gap. Togʻni juda oson tarzda qoʻporishiga eʼtibor qaratilgan. Shoir fikrini taʼsirli chiqishida "koʻh" hojibi muhim vazifani bajargan. Farhodning Shiringa yozgan maktubidan olingan baytda ham hojib bor:

Yoʻlingda bor esam tufrogʻdin kam
Va lekin chiqmadim tufrogʻdin ham. (385-bet)

Farhodning ruhiyati, ishqiy kechinmalarini tasvirlashda "tufrogʻdan" soʻzi maʼlum uslub, maʼnoni kuchaytirish niyatida qayta-qayta keltirilgan. Birinchi misrada Farhodning kamtarligi, xokisorligi ifodalangan boʻlsa, ikkinchi qatorda uning gʻurbat-u alamlardan qutula olmaganiga ishora bor.

Mana bu baytda ikki soʻzli hojiblar keltirilgan:

Oʻgʻulsizlarni ham aylab navoliq,
Atosizlargʻa ham aylab atoliq. (63-bet)

Bu baytda— Farhodning otasi Xoqoni Chin kechinmalari tasvirlangan. Xoqon farzand koʻrishni orzu qiladi. Bu yoʻlda koʻp-koʻp nazr qiladi, ehson koʻrsatadi. Oʻgʻilsizlarga hamdard, otasiz yetimlarga otalik qiladi.

Yoki:

Agar maʼshuq erur fardi zamona
Bu oshiq ham erur fardi yagona. (285-bet)

Ba'zi baytlarda ikki qofiyaning har biridan oldin alohida-alohida tarzda hojiblar qo'llangani kuzatiladi. Masalan:

Ishi Shirin bila surmak durur kom,
Mihinbonu bila ichmak durur jom. (395-bet)

Hojibning barcha turlaridan dostonida namunalar berilgan. Ular lirik qahramon holatini tasvirlashda muhim o'rin tutgan.

"Farhod va Shirin"da ishtiyoq san'ati ham ko'p uchraydi. A.Husayniy ishtiyoq san'atini ba'zi olimlar tajnisning tarmoqlaridan biri ekanligini, boshqalar esa alohida san'at sifatida baholashlarini yoza-di. Chunonchi, Rashid-i Vatvot, Ibnulasir kabilar uni tajnis turiga qo'shmaydilar, "Miftoh" (to'liq nomi "Miftohu-l-'ulum") (ilmlar ochqichi) bo'lib, asar muallifi Sirojiddin Sakkokiy) esa uni "tajnis-qa tobi'u tarmoq", ya'ni tajnisga taalluqli narsa deb ataydi. Rashid-i Vatvot shunday yozadi: "Ishtiyoq andoq bo'lurkim kotib yo shoir nazm yo nasrda harflarni bir-biriga yaqin shakldosh alfozni keltirur.¹ A.Hojiahmedov bu san'at xususida quyidagilarni bildiradi: "Ishtiyoq ("so'zdan so'zni ajratmoq") she'r baytlarida o'zakdosh so'zlarni qo'llash san'atidir. Masalan, Navoiyning

Qilsa zulm ul zolim elni qilmag'il, yo rab, zabun,
Chun tazallumdur ishim, doim meni mazlum qil.

Baytdagi zulm, zolim, tazallum, mazlum so'zlari ishtiyoq san'ati asosida qo'llangandir".² Ba'zan o'zakdosh bo'lib ko'ringan so'zlar aslida boshqa-boshqa ma'nolarni ifodalaydi. Bu holat shibhi ishtiyoq ("ishtiyoqqa o'xshashlik") deb yuritiladi. Chunonchi, Navoiyning

No'shi vasl, eykim tilarsen, neshi hijron ko'rmayin,
Chun ermas bag'ring jarohatlig', ne marham topqasen.

baytdagi "no'shi" va "neshi" so'zlari shibhi ishtiyoq hosil qilgan, chunki ular shakl jihatidan o'xshash bo'lsa ham, no'sh- "lazzat", nesh

¹ A.Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. 51-bet.

² O'sha asar, 83-84-betlar.

esa “tikan” ma’nosini ifodalayotgani uchun o‘zakdosh sanalmaydi.¹ Ko‘rinadiki, ishtiyoq san’ati bir o‘zakdan hosil bo‘lgan so‘zlar doirasida vujudga keladi. “Ahbob”, “muhabbat”, “habib”, “tolib”, “matlub”, “talab” kabi. Ikkinchi bir jihati, bir o‘zakdan qo‘shimchalar orqali o‘zakdosh so‘zlar hosil qilishdir.

Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida bunday misollar ko‘zg ko‘p tashlanadi. Mana bu baytga nazar solaylik:

G‘arobat maxzan ichra chun ko‘p erdi,
Tutub ilgin xazoyin ichra kirdi. (120-bet)

Bu baytda “maxzan” va “xazoyin” so‘zlari ishtiyoqdir. Ushbu misralarda Xoqonning o‘g‘li Farhodni o‘z xazinalariga olib kirishi, u yerdagi mol-u davlat, g‘aroyibotlar bilan tanishtirishi bayon qilingan. Uning “maxzan”- xazinasida ajoyib narsalar ko‘p edi, o‘g‘lining qo‘lidan ushlab “xazoyin”- xazinalar sari olib kirdi.

Yana bir misol:

Kelib menkim sanga holim degaymen,
Ulus fahm etmas ahvolim degayman. (318-bet)

Bu baytdagi “holim” va “ahvolim” so‘zlari ishtiyoq asosida qo‘llanilgan.

Qilur gulbun chu gul ochmoqni ohang,
Bo‘lur gulshan yuzi gul birla gulrang. (98-bet)

Bu misralardagi “gul”, “gulbun”, “gulshan”, “gulrang” so‘zlari ishtiyoqdir.

Farhod Armaniya qo‘rg‘onini Xusrav lashkarlaridan himoya qiladi. Uning muomalasi, odamlarga munosabati ta’rifga tushadi. Ammo Xusrav uni qo‘lga tushirish istagida. Navoiy mana shu hodisalarni, Farhodning kishilarga bo‘lgan mehr-muhabbatini shunday ifodalaydi:

Topib andin navozishlar gadolar,
Ko‘rub hardam navolar benavolar. (315-bet)

¹ O‘sha asar, 84-bet.

Gadolar undan “navozish”- mehribonliklar topganidek, “benavorlar”- bechoralar navo, yaxshilik va muruvvat ko‘radilar. Misralardagi “navozish”, “navo”, “benavo” so‘zlari ishtiyoqdir.

Kabutar sayd o‘lur, sayyod erur bu,
Dema sayyodkim, jallod erur bu, - (421-bet)

misralaridagi “sayd” va “sayyod” so‘zlari,

Ki, ko‘hsor ichra topib ko‘hkanni,
Balo tig‘i kibi jonsiz badanni, - (422-bet)

misralaridagi “ko‘hsor”, “ko‘hkan” so‘zlari ishtiyoqdir.

Umuman, bunday misollarni dostonidan ko‘plab keltirish mumkin.

Asarda, shuningdek, lafziy san‘atlar doirasiga kiruvchi ta‘dil, insho, tasbe, iyhom, nido kabilarga doir anchagina misollar ko‘zga tashlanadi. Ta‘dil san‘ati ham “Farhod va Shirin” dostonida ko‘p kuzatiladi. Bu san‘at sodda otlarning qator kelishidir. A.Husayniy bu san‘atni uchinchi guruhga –“lafziy ma‘naviy go‘zalliklar” sirasiga kiritgan. “Arab fusahosi va ba‘zi ajam shuarosi qoshida sodda otlarning bir tartibu bir tariqada keltirmaktur, andoqkim bayt:

Durdu dardu nozu sozu mehru kin
Har chi oyad, xush buvad z-on nozanin.

Shams-i Qays deptur bu san‘at andoq bo‘lurkim, shoir sodda otlardan birt necha nimani sanab chiqar va andin so‘ng hammasin yoki birin-ketin vasf qilur”.¹

Adabiyotshunos A.Hojiahmedov esa “ta‘dil”ni lafziy san‘atlar sirasiga kiritadi. Shuning uchun ham biz uni shu asosda tahlil qilishga harakat qildik. A.Hojiahmedov shunday yozadi: “To‘g‘rilamoq” ma‘nosidagi bu so‘z she‘rda sodda otlarni tartib bilan keltirish san‘atini ifodalaydi. Chunonchi, Lutfiyning

Jinu malaku hur chaman ichra ko‘rinmas,
Yuzung oyidin barchasi sharmanda dagulmu?”²

¹ A.Husayniy. Badoyi‘u-s-sanoyi’. 237-bet.

² O‘sha asar, 85-bet.

Bu baytdagi “jin”, “malak”, “hur” so‘zlari sodda otlar bo‘lib, ta’dil san’atini hosil qilgan. “Farhod va Shirin” dostonida shunday bayt bor:

Kim, ya’ni toju taxtu saltanat ham,
Sinohu mulku molu mamlakat ham. (114-bet)

Birinchi misradagi “toj”, “taxt”, “saltanat”, ikkinchi misradagi “sinoh”, “mulk”, “mol”, “mamlakat” so‘zlari ta’dilni hosil qilgan.

Yana olamda shahru tog‘u vodiy,
Kezib ishq ahliga qilg‘il munodi. (418-bet)

Yoki:

G‘amu dardu balog‘a tushti g‘avg‘o
Ki, gardun ahlig‘a yovushti g‘avg‘o. (419-bet)

Shahr, tog‘, vodiy, ikkinchi baytdagi g‘am, dard, balo so‘zlari ta’dil san’atini hosil qilgan.

Umuman, Navoiy dostonida lafziy san’atlar turli g‘oyaviy-badiiy niyatni, shoir tuyg‘ularini ta’sirli, asar qahramonlari kechinmalarini jonli va hayotiy tasvirlashda qo‘l kelgan.

She’riyatda badiiy san’atlarni qo‘llashda o‘ziga xos qonun-qoidalar, me’yor bo‘lishi muhim. She’riy san’atlarni bo‘lar-bo‘lmasdan, ko‘p qo‘llash ham ma’noga ziyon yetkazishi, shaklbozlikka olib keliishi mumkin. Lirikada ularni ishlatishdagi muhim jihatdan biri-me’yor. Timsollar yangiligi, o‘ziga xosligi, betakrorligi, hayot mantiqiga mos kelishi, kitobxonga tushunarli bo‘lishi, nafasat qoidasiga muvofiqligi kabilar ham asosiy o‘rin tutadi.¹

Ba’zi she’riy san’atlar hammaga tushunarli bo‘ladi. She’riy asarlardan ularni topish, yetarli nazariy ma’lumotga ega bo‘lish oson kechadi. Bayt o‘qilgani bilan o‘quvchi uni tez ilg‘ab oladi. Ayni paytda ular misralarda, turli janrdagi asarlarda tez-tez ko‘zga tashlanadi. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida ko‘p uchraydigan, hamma-ga ma’lum lafziy san’atlarga tarse’, tazod, tajnis, tardu aks kabilarni ko‘rsatish mumkin.

¹ Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. 4-7-betlar.

A.Husayniy "Badoyi'u-s-sanoyi'" asarida lafziy san'atlar turkumi ostida birinchi navbatda tarsi' (tarse') san'atini keltiradi. Bu an'anaviy ekanligini, san'atlar haqida gap ketganda Ajam shoirlari avvalo tarsi' haqida fikr yuritishlarini aytadi: "jami' ajam shuarosining tariqi uldurkim, sanoyi' aytqanda va alarni bayon etkanda tarsi'ni ilk bergaylar, ul jihattinkim, bu yetuk san'at matla'din o'zgasida ado topmag'ay.

Tarsi'-aksar arab fusahosining qavlig'a ko'ra andin iboratturkim, ikki bo'lak kalomning, xoh nazm bo'lsun, xoh nasr, har bo'lagidag'i har bir lafz ikkinchi bo'lagidag'i ancha muqobil lafz bila vaznda teng bo'lg'ay va oxirgi harfta muvofiq yoki yaqin bo'lg'ay.¹ Ahmad Taroziy "Funun ul-balog'a" asarida tarse' xususida yozadi: "Tarse' lug'atta oltun, kumushga javohirni o'rnatmoqni ayturlar. Va istiloh birla tarse' ul bo'lurkim, har kalimakim, avvalgi misrada kelur, so'nggi misraning har kalimasin ul kalimalarning muqobalasinda kelturub, vazn birla muvofiq va lafz birla muttafiqlar va oxir harf birla muttahid qilurlar".²

Adabiyotshunos T.Boboyev bu san'at haqida quyidagilarni yoza-di: "Tarsi' (ar. ziynatlash, bezash) she'r (bayt) da birinchi misra so'zlari bilan ikkinchi misra so'zlarining bir-biriga ohangdosh, vazndosh, qofiyadosh bo'lib kelish usuli. Misol:

Ko'rub dardim tarahhum qilmading hech,
To'kub ashkim tabassum qilmading hech.

Bu baytdagi "ko'rub"- "to'kub", "dardim- "ashkim", "tarahhum"- "tabassum" so'zlari ohangda ham, qofiyada ham, vaznda ham bir-biriga teng; "qilmading hech" so'zlari har ikkala misrada ham aynan takrorlanib kelganki, bular radifdir".³

Sodda qilib aytganda, tarse'-bu misrlardagi ohangdoshlik. Bir-

¹ O'sha asar, 35-bet.

² Shayx Ahmad Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog'a. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2002-yil. №4.78-bet.

³ Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. Toshkent, 1996. 237-238-betlar.

inchi misradagi soʻzlarning ikkinchi misradagi soʻzlar bilan deyarli qofiyadosh boʻlib kelishi. Shuning uchun ham, tarse' arabcha "injuni ipga tizish" degan ma'noni bildiradi. "Farhod va Shirin"da tarse' qoʻllangan baytlar anchagina. Dostonning XI bobi Badiuzzamon Bahodir madhiga bag'ishlangan. Bobning boshlanishida azaldan har bir kishining qismatida yozilgani bo'lishi, Olloh kimga nimani ravo ko'rsa shu bo'lishi ta'kidlanadi. Gadoga gadolik, notavonlik nasib qilganidek, boyga kamronlig' - shodlik yor bo'lgani uqtiriladi:

Gadog'a notavonlig' bo'ldi ro'zi,
G'anig'a kamronlig' bo'ldi ro'zi. (55-bet)

"Gadog'a-g'anig'a", "notavonlig'-kamronlig'" ohangdoshlikni hosil qilgan. "Bo'ldi ro'zi" esa-radif. Doston sujetidan ma'lumki, Xoqon o'z taxtini Farhodga berishni istaydi. Buning bir sababi sifatida qariligini aytadi.

Yigitlik ayshi bisyor o'ldi bisyor,
Qariliq ranji dushvor. (113-bet)

Yigitlik zavqini, ayshini ko'p surganini, qarilik ranji-azobi yetib kelgani, bunga chora yo'qligini shoir Xoqon tilidan bayon etmoqda. Misrlardagi "yigitlik-qarilik", "ayshi-ranji", "bisyor-dushvor" so'zlari vazn va ohang jihatidan muvofiq.

Asarda Shirin surati chizilgan o'rinlar anchagina misrani tashkil etadi. Farhod sehrli oyna orqali Shirin chehrasini ko'rib hushidan ketadi. Farhod ariq qaziyotgan kishi, uning atrofidagi odamlar guruhini ko'radi. Bir qancha otliqlar paydo bo'ladi. Ularning barchasi go'zal. Navoiy ular qiyofasini shunday chizadi:

Jabinlar gul-gulu kirpiklari xor,
Qabog'lar keng-kengu, og'izlari tor. (188-bet)

Jabinlar-peshonalari gul, kipriklari tikandek uzun-uzun, qaboqlari keng, og'izlari tor. Bu-go'zallik tasviri.

Adabiyotshunos V.Rahmonov tarse' xususida shunday yoza-di: "Tarsi'ga asoslangan misralarning diqqatga sazovorligi shunda-

ki, mukammal tarsi' yaratuvchi so'zlar qatorida nechta komponent bo'lsa, shunga qofiyadosh va radifdosh yo hojibdosh so'zlar qatnashadi. Odatdagi she'rlarda har bir misra oxiridagi bir so'z qofiyadosh bo'lsa, bunda har ikkala misradagi barcha so'zlar qofiyadosh bo'ladi".¹ Mumtoz, mukammal tarse' barcha so'zlar ohangdoshligiga asoslanadi. Masalan:

Labidin tomibu oqib latofat,
Yuzidin oqibu tomib malohat. (238-bet)

Bu baytda tarse' bilan birga tardu aks san'ati ham qo'llangan. "Tomibu oqib-oqibu tomib"- tardu aksdir. Misralardagi barcha so'zlar esa, ohangdosh, qofiyadoshligi bilan tarse' san'atini hosil qilgan. "Labidin-yuzidin", "tomib-oqib", "oqib-tomib", "latofat-malohat".

Bu bayt Shirin tasviriga bag'ishlangan. Farhodning tog'ni qo'porib tashlayotgani, uning teshasidan chiqqan sado uzoqlarga yetgani, bu tovushni eshitib, Shirin uni ko'rish orzusiga tushgani va shu asosda Navoiy bir necha baytda Shirin qiyofasini tasvirlab berishi bayon qilingani. Shirinning shirinso'zligi, nafis va nazokat bilan so'zlashi, yuzidan go'zallik, malohat ayon bo'lib turishi ifodalangan.

Farhod kechinmalari, ruhiy holati, hijron azobidan tortgan iztirobi mana bu baytda o'z ifodasini topgan:

Necha jonimg'a mundoq kecha bo'lg'ay,
Kecha jonimg'a mundoq necha bo'lg'ay? (350-bet)

Bu misralardagi "necha-kecha", "kecha-necha" so'zlari qofiyadosh so'zlar. "Jonimg'a mundoq"- hojib. "Bo'lg'ay" – radif. Demak, qofiya, hojib va radifdan iborat tarse'. V.Rahmonov yozishicha: "Ba'zan tarsi' usulidagi misralarda qatnashgan barcha so'zlar qofiyadosh bo'lmashligi ham mumkin. Nuqsonli tarsi'larda qofiyadosh bo'lmaydigan so'zlar aralashib qolgan bo'lishi mumkin".²

Navoiy dostonida ham bunday baytlar uchraydi:

¹ Rahmonov V. She'r san'atlari. 1972. 106-107-betlar.

² O'sha asar, 107-bet.

Vafo ahli ishi mundoq bo'lurmu?

Vafo aylar kishi mundoq bo'lurmu? (429-bet)

Bu misralardagi "vafo-vafo", "ishi-kishi" so'zlari qofiyadosh, "mundoq bo'lurmi?"-radif. "Ahli-aylar" esa qofiyalanmay qolgan. Nuqsonli tarsi'.

Yana bir misol:

Gadolarg'a dag'i andin ato ber,

G'anilarg'a dag'i ani tuto ber. (8-bet)

Baytdagi "andin-ani" ohangdoshlik hosil qilmagan. Qolgan barcha so'zlarda bu bor.

Adabiyotshunos Yo.Is'hoqov she'riyatda tarsi' qo'llash bilan bog'liq ba'zi mulohazalarni bildiradi. U shunday yozadi: "Tarsi' oddiy so'z o'yini emas, balki fikr bilan ifodaning muayyan paytda muvozanat hosil qilishi natijasida yuzaga kelgan poetik usul bo'lib, she'rning, umuman, tasvirning musiqiyligi va ta'sirchanligini oshirishga yordam beradi".¹

Navoiy dostonida qo'llangan tarse' deyarli barcha baytlarda asosan ana shu narsaga xizmat qilgan.

Yiqilsa hujra, bo'lsun qasr obod,

Qurusa sabza, bo'lsun sarv ozod. (412-bet)

Umuman, bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Tarse' Navoiy dostonida muhim g'oyaviy-badiiy, uslubiy vazifalarni bajarishga xizmat qilgan.

"Farhod va Shirin" dostonida, umuman, mumtoz adabiyotimizda eng ko'p qo'llangan badiiy san'atlardan biri tazoddir.

Adabiyotshunos T.Boboyev tazodni ma'naviy san'atlar sirasiga kiritsa, A.Hojiahmedov lafziy san'atlar doirasida tadqiq etadi. Shuning uchun ham biz A.Hojiahmedov kitobiga suyanagan holda uni lafziy san'at deb oldik.

¹ Is'hoqov Yo. Irsolu-l-masal. Tarsi'. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1972. №4. 75-bet.

Tazod- arabcha –qarshilashtirish. Zid tushunchalarni ifoda etuvchi soʻzlarni bir baytda qoʻllanishi. “Tazodda bir-biriga zid narsa va tushunchalar toʻqnashtiriladi”, ayni choqda, bir-biriga zid tushunchalarni oʻzida mujassamlashtirgan obʼyektning mohiyatini gʻoyatda taʼsirchan tilda ochish va unga nisbatan kishi qalbida faol munosabat uygʻotish koʻzda tutiladi. Tazoddagi toʻqnashuvchi bir-biriga zid narsalarning kelib chiqish manbai yagona: bir narsa ham yaxshilikning, ham yomonlikning kelib chiqishini oʻz ichiga qamrab oladi. Chunonchi, maʼshuqa mujgonlaridan oʻq otib oshiqni halok qilsa, laʼli lablari bilan unga hayot baxsh etadi. Demak, yomonlik (oʻldirish) va yaxshilik (hayot baxsh etish) bir-biriga zid tushunchalar-shular toʻqnashadi, ammo, ayni paytda, har ikkala xislatning ham manbai bir-maʼshuqa. Tazod-mana shular”.¹ “Farhod va Shirin” dostonida tazod sanʼati qoʻllangan yuzlab baytlar uchraydi. Oʻzaro qarama-qarshi soʻzlar ot, sifat, ravish, feʼl soʻz turkumlariga mansub. Koʻproq ot va sifat turkumiga oid tazodlar uchraydi.

Oʻzaro zidlikni hosil qilgan otlarga “ranj-ganj”, “kun-tun”, “bosh-oyoq”, “doʻst-dushman”, “vafo-jaf”, “zulm-adolat”, “shoh-gado”, “shoh-darvesh”, “shoh-qul”, “podshoh-gado”, “sulton-darvesh”, “gʻani-gado” kabilar mansubdir. Eng koʻp shoh, sulton, podshoh soʻzlari va ularning zidi tarzida asosan gado, baʼzan qul, darvesh, faqir soʻzlari yonma-yon keladi. Dostonda Navoiy shohlar, mamlakatlar, hukmdorlar haqida gapirar ekan, adolat bilan boshqarilgan yurtida gado ham podshoh boʻlishini taʼkidlaydi:

Chu baxshish topib andogʻ mulku johe,
Boʻlub ul dam gado ham podshohe. (54-bet)

Yana bir misol:

Dedikim: gar gado, gar shoh boʻlsun,
Agar gʻofil, vagar ogoh boʻlsun. (127-bet)

Bu bayt Farhodning Yunon mulkiga borish harakatiga tushgan voqealar bilan bogʻliq. Farhod Mulkoroni xilvatga chaqirib, kim

¹ Boboyev T. Sheʼr ilmi taʼlimi. 245-bet.

bo'lishidan qat'i nazar, shohmi, gadomi taqdirida borini ko'rishini aytadi. Uning qismatida Yunonga borish yozilgani, buning uchun otasini ko'ndirib berishini so'raydi. Misralardagi "gado-shoh", "g'ofil-ogoh" so'zlari tazodni hosil qilgan. Ba'zi baytlarda "gado" o'rnida "darvesh", "qul", "faqir" so'zlari keladi:

Dedikim: shohg'a bo'lma shirkat indin!

Dedi: ishq ichra tengdir shohu darvesh! (325-bet)

Muningdek mulkning shohu faqiri,

Bo'lub boshdin oyoq dushman asiri. (326-bet)

Baytdagi "shohu-faqir", "bosh-oyoq" so'zlari tazodni hosil qilgan. Dostondagi baytlarda "chin-yolg'on", "kichik-ulug'", "yaxshi-yomon", "xo'p-yomon", "qari-shabob", "qari-navjuvon", "ulug'-haqir", "qorong'u-ravshan", "yorug'-qorong'u", "qurug'-ho'l", "vayrona-obod", "oshkora-nihon", "o'luk-tirik", "achchiq-chuchuk", "oson-mushkul", "g'ofil-ogoh", "qaro-qizil", "sariq-qaro" kabi sifat so'z turkumiga mansub tazodni hosil qilgan so'zlar uchraydi.

Va lekin egrilikni aylab oyin,

Yasab yuz nav yolg'on, o'ylakim chin. (411-bet)

Bu bayt Farhodning vafoti oldidan aytgan so'zlari bilan bog'liq. U Xusrav Parvezning kirdikorlarini, ko'p yomon ishlarini, shulardan biri yolg'onchiligi ekanligini, "yuz nav' yolg'on"ni rost kabi ko'rsatib, egrilikni o'ziga rasm qilib olganini aytadi. Baytda "yolg'on" va "chin" so'zlari tazodni hosil qilgan.

Farhod Iskandar tilsimini ochib, Xoqon va Mulkoro bilan Suqrot tog'iga boradi. Suqrot Xoqon, Mulkoro qismati haqida gapiradi. "Hakimi donish" Farhodga murojaat qiladi:

Safo kelturdungu xush kelding oxir,

Qorong'u uyni ravshan qilding oxir. (179-bet)

Suqrot Farhod kelganidan xursand bo'ladi. Uning tashrifi "qorong'u uyni ravshan" etadi. Baytdagi "qorong'u-ravshan" so'zlari tazoddir.

Navoiy dostonning Shohgʻarib Bahodirga bagʻishlangan bobida dunyo, odamlar, yaxshilik, yomonlik haqida mulohazalar bildiradi. Bu dunyoda muhimi yaxshi nom qoldirish ekanligini aytadi. Kishining yaxshi yoki yomon nom chiqarishi uning qilgan ishi bilan belgilanadi:

Bu ot gar yaxshidur, yoxud yomondur,
Qilurgʻa oni bois koʻr, ne fandur. (465-bet)

“Yaxshi-yomon” soʻzlari tazodni hosil qilyapti. Mana bu baytlarda esa “oshkora-nihon” (yashirin), “oson-mushkul”, “achigʻ-chuchuk” soʻzlari tazodni hosil qilgan:

Koʻrar erdim gahi gul dilraboni,
Yiroqtin oshkora, goh nihoni. (322-bet)

Berib shahzodagʻa yonida manzil,
Soʻz ogʻoz etti oson, lek mushkil. (110-bet)

Seni dono demak yoxud xiradmand,
Demakdurkim achigʻ maydur, chuchuk qand. (112-bet)

Dostonda “kecha-kunduz”, “oz-koʻp”, “tashinda-ichinda”, “aval-oxir”, “ostinda-ustinda”, “subhu-shom”, subh-oqshom kabi ravish soʻz turkumiga mansub tazodlar, “keldi-ketdi” kabi feʻlga mansub soʻzlar ham uchraydi.

Nechuk qilgʻay bir ish ahli maoni,
Ki, sudi ozu koʻp boʻlgʻay ziyoni? (425-bet)

Baytdagi “oz-koʻp” soʻzlari tazod. Misra Farhod vafotidan keyingi holatni anglatadi. Xusrav va uning yaqinlari Mehinbonuga nasihat qilib, Shirinni Xusravga berishni maslahat beradilar. Baytda tasvirlanishicha, “ahli maoni”- aqlli kishilar “sudi (foydasi) oz” ziyoni koʻp

ishni qilmaydi. Go'yo Xusravga Shirinni berish foydali va ziyonsiz bir ish.

Hamul avvalgi parkorin chekib tuz,
Qozar erdi arig'ni kecha-kunduz. (255-bet)

Yana bir misol:

Junun osorini ko'p zohir etti,
O'ziga keldi gohi, goh ketti. (377-bet)

Birinchi baytdagi "kecha-kunduz" ravishi, ikkinchi baytdagi "keldi-ketti" fe'llari tazodni hosil qilgan. Ikkinchi baytda Farhod holati berilgan. Shirin maktubini o'qib, hijrondan, "iztirobdan qiynalgan oshiq ko'rinishi. Farhod "junun"- jinnilik holatida. U goh o'ziga keldi, goh behush bo'ladi. Uning kechinmalarini berishda "keldi-ketti" so'zlari o'rinli qo'llanilgan.

Umuman, bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. "Farhod va Shirin" dostonida ko'p qo'llanilgan san'atlardan yana biri tajnisdir. Tajnisning eng sodda va tushunarli ma'nosi shuki, misralarda bir xil shaklga ega bo'lgan so'zning turli mazmunni anglatishidir. Tilshunoslikda omonim so'zlar atamasi mavjud. Adabiyotshunoslikda esa, tajnis, jinos, jinsdosh so'zlar nomi bilan tilga olinadi. Ahmad Xudoydod Taroziy "Funun ul-balog'a" asarida shunday yozadi: "Tajnis ul bo'lurkim, shoir bayt ichinda ikki kalima keltururkim, bir-birining jinsi bo'lgay bir vajhdin. Va bu san'at yetti nav' bo'lur".¹

Ahmad Taroziy talqinicha, tajnisning yetti turi mavjud. Tajnisi tom, al-tajnis-ul-zoyid, al-tajnis-ul-noqis, al-tajnis-ul-murakkab, al-tajnis-ul-mukarrar, al-tajnis-ul-mutarraf, al-tajnis-ul-xat kabilar shular jumlasidandir. Bularning hammasi tajnis nomi ostida birlashadi. Kichik bir-ikki jihatlarini bilangina farqlanadi. A.Hojjahmedov ularning har biriga xos jihatlarni ko'rsatib o'tadi. Tajnisi tom ikki so'z ham unli, ham undoshlari jihatidan bir-biriga to'la mos bo'lib tushishidir. "Farhod va Shirin"da bunday misollar ko'p uchraydi. Masalan:

¹ Qarang: "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2002. №4. 79-bet.

Birov farzona sori surdi otin

Etib Xusrav tilidin soʻrdi otin. (300-bet)

Bu bayt Xusravning Shirindan rad javobini olgach, jahlga minishi, Armaniyaga qoʻshin tortishi, Farhodning qarshiligiga duch kelishi manzaralari bilan bogʻliq. Farhod tosh ustida oʻtirib, Xusrav qoʻshini-ni Arman yurtiga kirishga qoʻymaydi. Xusrav uning kimligi bilan qiziqadi. Uni bilish uchun odam yuboradi. "Farzona"- oqil, dono degani. Birov Farhod tomoniga ot minib boradi va Xusrav nomidan uning otini soʻraydi. Misralardagi "otin" soʻzlari tajnis. Birinchi misradagi "otin" soʻzi ot (hayvon) maʼnosida. Ikkinchisida esa "otin" – ismini mazmunida kelgan. Yana bir misol:

Hututi makrdin yuzinda yuz chin,

Tiliga oʻtmayin umrida soʻz chin. (396-bet)

Baytdagi "chin" soʻzi tajnis. Bu baytda Farhodni hiyla bilan ajal domiga tashlagan zoli makkoraning qiyofasi chizilgan. Birinchi misrada ifodalanishicha, u kampirning yuzidagi "chin"- ajinlar makrlar chizigʻi. Tili faqat yolgʻon soʻzga moyil. "Chin"-rost, haq soʻz uning tilidan chiqmaydi. Demak, "chin"-ajin, "chin"- rost, haq. Tajnisi murakkabda (tarkibli) esa, shakldosh soʻzlarning bir soʻzdan, boshqasi ikki soʻzdan iborat boʻlishi mumkin:

Tushub taxtigʻa shohi kishvar oroy,

Aningdekkim sharaf burji aro oy. (185-bet)

Birinchi misradagi "oroy"- bezak, ziynat. Yaʼni mamlakat shohi taxtiga mos boʻldi. Goʻyo koʻkdagi oy kabi. "Aro oy"- oy kabi deyishdir. Tajnisi noqis (nuqsonli tajnis) da soʻzlardagi undosh bir-biriga muvofiq keladi-yu, unlilar farqlanadi:

Chu oz fursat bu yangligʻ koʻshish etti,

Arigʻning boshi qasr oʻrnigʻa yetti. (255-bet)

Tajnisning yana bir turi tajnisi zoyiddir. Unda shaklan oʻzaro yaqin soʻzlarning birida bir-ikki harf ortiqcha boʻladi, shu harflar

tushirib qoldirilsa, soʻzning qolgan qismi ikkinchi soʻzga har jihatdan mos tushib tajnisi tomi hosil qilishi mumkin.¹ Tajnisi zoyid “orttirilgan tajnis” degani. Demak, bu turda shakldosh soʻzlar harf jihatidan farqlanadi. Bitta-ikkita harf kam yoki koʻp boʻlishi mumkin. Doston-da shunday bayt bor:

Ki, Farhod oʻldi oshiqlik aro zor,
Vals yetti anga Xusravdin ozor. (418-bet)

Yana bir misol:

Boshi ustida Bonu ashk rezon,
Qaroru sabri koʻnglidin gurezonz. (360-bet)

“Ashk rezon”- yosh oqishi. “Gurezonz”-qochish. Sabru qarorning koʻnglida qolmasligi. Ikki harf farq hosil qilyapti.

Tajnisi xatti (yozuv tajnisi) da esa, arab yozuvidagi soʻzlarning nuqtalardan tashqari toʻla mosligiga asoslanadi, yaʼni ikki soʻz arab yozuvida yozilganida nuqtalari jihatidangina farqlanadi.²

“Farhod va Shirin”da shunday bayt bor:

Arigʻkim obshirin hanjar aylab,
Sovuq ogʻzi luobin xanjar aylab. (104-bet)

“Hanjar”- toʻgʻri, rost bilan “xanjar” faqat “h” va “x” harfi bilan farqlanmoqda. Bir nuqta soʻzni turli maʼno anglatishiga sabab boʻlmoqda.

Umuman, tajnisning barcha turlariga dostonidan koʻplab misollar keltirish mumkin. Tajnisli baytlar oʻquvchini fikrlashga, soʻzning maʼnosini toʻgʻri tushunishiga undaydi. Baytning badiiyligini oshiradi.

“Farhod va Shirin” dagi eng koʻp qoʻllanilgan lafziy sanʼatlardan yana biri tardu aksdir. A.Husayniy kitobida shunday fikrlar bildiriladi: Aks. Ani Tadbil ham derlar, baʼzilar tardu aks derlar. Ul andin ibo-

¹ Hojiahmedov A. Sheʼriy sanʼatlar va mumtoz qofiya. 69-bet.

² Oʻsha asar, 73-bet.

ratturkim, kalomning bir bo'lagin ikkinchi bir bo'lagining oldig'a qo'yarlar, so'ngra aning aksin qilurlar, birinchi bo'lakning o'rmin ikkinchisidiki bila almashtirurlar".¹

Bu usulda so'zlarning aksincha qo'llanishi nazarda tutiladi. "Tardu aks "teskari qilib takrorlash" ma'nosini ifodalab, she'rning birinchi misrasida keltirilgan ikki so'z yoki so'z birikmalarini keyingi misrada o'rmini almashtirib qaytarishdan iborat bo'lgan she'riy san'atdir".² Bunday so'zlar misraning turli o'rinlarida kelishi mumkin. Masalan:

Etib mendin sanga ko'p sarzanishlar,
Vale sendin manga ko'p parvarishlar. (408-bet)

Birinchi misradagi "mendin sanga" birikmasi ikkinchi misrada "sendin manga" tarzida qo'llanilmoqda.

Hammamizga ma'lum, bugungi kunda mashhur mana bu bayt ham tardu aksning go'zal namunasi:

Erursen shoh-agar ogosen sen,
Agar ogohsen sen- shohsen sen. (462-bet)

Takrorlanuvchi so'zlar misralar boshida va qofiya o'rnida kelishi mumkin:

Nega jonimg'a mundog' kecha bo'lg'ay,
Kecha jonimg'a mundog' necha o'lg'ay. (350-bet)

Dostonda Xusravning shon-u shavkati, qudratini tasvirlash uchun quyidagi bayt keltirilgan:

Ajam birla arab mulkida dovar,
Arab birla ajamg'a shohu sarvar. (282-bet)

Bunday misralarda ohang, musiqiylik yetakchilik qiladi. Bayt mazmunining o'quvchi ongiga tez, oson singishini ta'minlaydi.

¹ A. Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. 76-bet.

² Hojiahmedov A. O'sha asar, 89-bet.

Umuman, "Farhod va Shirin" da uchraydigan turli lafziy san'atlar lirik qahramon kechinmalari, ruhiy olami, shoir g'oyaviy-badiiy niyatini yuzaga chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

2. "XAMSA"DA XALQ MAQOLLARINING QO'LLANISHI

Ma'lumki, yozma adabiyot va folklor masalalari, xalq og'zaki ijodining shoirlar asarlaridagi o'rni kabilar xususida ko'pgina tadqiqotlar yaratilgan. So'z san'atining bu ikki turi o'rtasidagi o'zaro ta'sir uzoq asrlik tarixga ega. Qaysi bir ulkan san'atkor ijodiga nazar solmaylik, uning u yoki bu darajada folklorga murojaat qilgani, undan ijodiy foydalanganini ko'ramiz.

Yozma adabiyotning badiiy jihatdan puxta, shakl va mazmun jihatdan sodda, serma'no bo'lishi, xalq hayotiga yaqinlashuvi, kitobxon qalbidan mustahkam o'rin olishida xalq maqollarining muhim ahamiyati bor. I.S.Braginskiy, yozma adabiyotda maqol va matallardan, obrazlardan foydalanish juda qadim zamonlardan boshlab keng yoyilganini ta'kidlaydi.¹ Xalq og'zaki ijodining mahsuli, "Xalq tafakkurining chechaklari" (R.Dal) bo'lgan maqollar, matallar, iboralar, hikmatli so'zlar lirik qahramon ichki dunyosini yoritishga, uning kayfiyat va ruhiyatini tasvirlashda, so'zga ma'no va zeb berishda, she'riyatga hayotiylik baxsh etish, uni xalqqa yaqinlashtirishda zarur manba sifatida xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va boy hayotiy tajribaga asoslangan, o'zida o'tmish donologini singdirgan, ko'pgina donish ahllarining aqli majmui sifatida shakllangan maqol va matallar badiiy asar mazmunida, tilida hamisha ijobiy ta'sir ko'rsatib keldi. O'zbek xalqi maqolga, dono so'zlarga boy xalq. "Zohiran ixcham, ammo purma'no badiiy lavhalarda, zarrada quyosh aks etganidek, xalqning orzu-umidi, teran aql-zakovati, o'ziga xos dunyoqarashi ifodalangan, ko'p asrlik tajribasi umumlashgan"² maqollar ilk yozma yodgorliklarimiz M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning

¹ Braginskiy I.S. Ocherki iz istorii tadjikskey literaturi, 1956. -S.81.

² O'zbek xalq maqollari. T., 1981. 5-bet.

“Hibatul haqoyiq” asarlarida ham, undan keyingi yozma badiiy asarlarda ham ko‘p uchraydi.

Bugungi kunda she‘riy san‘atlar haqida ko‘p gapirildi. Umumta‘lim maktablarida adabiyot darsliklarida ham ko‘pgina badiiy san‘atlar xususida nazariy ma‘lumotlar kiritilgan. O‘quvchilarimiz yaxshi biladiki, baytda xalq maqolini kiritish, irsolu masal deb nomlanadi. Shu o‘rinda she‘riy san‘atlar, irsolu masal haqida bir oz mulohaza yuritsak. Arab, fors, turkiy adabiyotda badiiy san‘atlar xususida uzoq asrlardan buyon fikr yuritib kelinadi. “Fors tilidagi ilmi ba‘dening ibtidosi Umar Roduyoniyning “Tarjimon ul-balog‘a” (“Balog‘at tarjimoni”), o‘ziga Nasr binni Hasanning “Mahosinu-u-kalom”ini o‘mak bilgan xorazmshohiylarning saroy shoiri Rashiddin Vatvotdan forsiy “Mahosin”larning yetuk namunasini yaratgan Atoulloh Husayniyning “Badoye‘u-s-sanoye” sigacha, turkiy tildagi poetikaga oid XV asrning nodir namunasi Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” (“Balog‘at fanlari”) asarida ham shu jihatdan ish ko‘rilgan. Biroq davr o‘tgan sayin “ilmi bade”lar mukammallashib, undagi san‘atlar sonining ortishi bilan she‘riyat namunalarning badiiyati ham chuqurlashib, mavzu va janr doirasi kengayib borgan”.¹

Ko‘pgina manbalarda, hatto maktab o‘quvchilari uchun chiqarilgan adabiyot darsliklarida ham qadim davrlardan mashhur bo‘lib kelgan uch mustaqil soha haqida gapirilgan. Bular aruz ilmi, qofiya ilmi va bade’ ilmidir. Adabiyotshunos Yo.Is‘hoqov adabiyot nazariyasi haqida gapirar ekan, shunday yozadi: “Umuman, adabiyot nazariyasi uchta mustaqil sohaga bo‘lingan. Bular quyidagilar: 1) ilmi aruz she‘rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidalari haqida bahs yuritadi; 2) ilmi qofiya qofiya qonuniyatlari hamda turlari to‘g‘risida ma‘lumot beradi; 3) ilmi bade’ (bade’-arabcha yangi, ajoyib, nodir demakdir) fikrni ravon va nafis ifodalash yo‘llari va vositalari, badiiy san‘atlar (uslublar, vositalar)ning turlari hamda xususiyatlari kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Ilmi bade’ni tashkil etgan she‘riy san‘atlar, o‘z navbatida ikki guruhga ajraladi: san‘atlarning birinchi guruhi bevo-

¹ Qarang: Boltaboyev H. Mumtoz badiiy san‘atlar talqini/Is‘hoqov Yo. So‘z san‘ati so‘zligi. T., 2006. 4-bet.

sita she'ring mazmuni, ma'nosi bilan bog'langan bo'lib, ma'naviy san'atlar (sanoye'i ma'naviy) deb ataladi. Nutqni, she'ni bezash, turli stilistik figuralar, so'z o'yinlari hosil qilish maqsadida ishlatiladigan san'atlar esa lafziy san'atlar (sanoye'i lafziy) deb yuritiladi".¹

Atoullloh Husayniyning "Badoyi'u-s-sanoyi'" asarida she'riy san'atlarga keng to'xtab o'tilgan. Unda she'riy san'atlar uch guruhga ajratilgan:

1. Ma'naviy san'atlar.
2. Lafziy san'atlar.
3. Lafziyu ma'naviy san'atlar.

Atoullloh Husayniy ma'naviy san'atlarga iyyom, talmih, irsolu masal, husni ta'lil, laffu nashr, tablig', ig'roq, g'uluvv, ruju', takrir, tajrid, iltifot, lug'z, savolu javob, tashbih, istiora, tamsil, kinoya kabilarni kiritadi.² Lafziy san'atlar sifatida esa, tarsi', tajnis, saj', zulqofiyatayn, tashtir tajziya, mulamma', tavshih, murabba' kabilarni sanab o'tadi.³ Lafziyu ma'naviy san'atlar qatorida muqobala, muroatu nazir, ta'dil, iqtibos, tazmin, husn-i taxallus, husn-i matlab, husni maqta' kabilarni qayd etadi.⁴

Ko'rinadiki, irsolu masal san'ati ma'naviy san'atlar qatoriga kiritilgan. Shu ma'lumotlarga suyanan holda o'zbek olimlari A. Hojjahmedov, Yo. Is'hoqov, T. Boboyev va boshqalar ham ushbu san'at turini ma'naviy san'atlar qatorida tilga olib o'tadilar.

A. Husayniy irsolu masal haqida shunday yozadi:

"Irsolu-l-masal mashhur qavlg'a ko'ra bir baytqa bir masal kiritmaktur. Bu ikki yo'l bila bo'la olur. Birinchi va afzali uldurkim, masalning so'z va tartibin o'zgartirmay bergaylar... Ikkinchi yo'li uldurkim, masalda o'zgarish yuz berur...

Irsol lug'atta yubormoqtur. Bir jamoa orasida mashhur bo'lg'an va ul jamoa o'z kalominda turli ishlarga o'xshatish va misol tarzida ko'p zikr qilg'an doston va hikoyatlarni masal derlar.

¹ Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. T., 2006. 7-bet.

² Atoullloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. T., 1981. 122-222-betlar.

³ O'sha asar, 35-121-betlar.

⁴ O'sha asar, 225-257-betlar.

Aksar baytta masal keltirish, ani mahbub yo mamduh yoki o'zga kishiga yubormoq uchun bo'lur, aning uchun bu san'atni aning arzi e'tibori bila irsolu-l-masal deb atapturlar. Irsolu-l-masalayn mashhur qavlg'a ko'ra bir baytta ikki masal keltirmaktur, andoqkim (bayt):

Mekasham xoriy-i tu, chun nabuvad gul bexor,
Mebaram ranj-i tu, chun ganj naboshad bemor".¹

Baytning tarjiması: Gul tikansız (xorsız) bo'lmagach, sen tufayli xorlik ko'raman, ganj ilonsız bo'lmagach, sening azobingni ko'taraman.

Demak, A.Husayniy ta'kidicha, irsolu masal bir baytga bir maqol kiritishdir. Unda ikki yo'l bor. Birinchisi va afzali maqolni aynan, o'zgarishsiz kiritish. Ikkinchisi esa, maqolda o'zgarish qilib, uning ma'nosini kiritish. Yana bir turi borki, baytning har bir misrasiga maqol kiritiladi. Bu "irsolu-l-masalayn" deyiladi. Keltirilgan bayt ana shunga misol bo'ladi.

Adabiyotshunos A.Hojjahmedov esa, irsolu masal xususida shunday yozadi: "Irsoli masal "maqol kiritish" ma'nosini bildirib, she'riyat va nasrda ifodalanayotgan biron fikrni isbotlash uchun xalq maqolini keltirish san'ati sanaladi. Masalan, Navoiyning

O'qlaring ko'nglumba tushgach kuydi ham ko'z, ham badan,
Kim kuyar ulu qurug' chun nayistong'a tushdi o't

baytining ikkinchi misrasida keltirilgan "qamishzor (nayiston)ga o't tushsa, ho'lu qurug' baravar yonadi" maqoli birinchi misrada aytilyotgan fikrni dalillash vositasida yanada chuqurlashtirishga xizmat qilgan. Shuningdek, shoirning

Chun masal bo'ldi soching zulm ichra yoshurmoq ne sud,
Mushk isin yoshursa bo'lmas, bu masal mashhur erur

baytining ikkinchi misrasida qo'llangan "mushk isini yashirib bo'lmaydi" maqoli ham avvalgi misradagi fikr – ma'shuqa sochining

¹ Atoulloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. T., 135-136-betlar.

xushbo'yligi haqidagi fikrni ta'kidlashga yordam beryapti. Ba'zan ikkita maqol keltirilgan baytlar ham uchraydi. Masalan, Atoyining

Bo'ldi bag'rim suv g'amingdin "Yaxshilik qil, sol sug'a",
Oxir ey gul xirman albatta, "har ekkan o'rar"-

baytida ikkita maqolga murojaat qilingan. Bu holda shoir "irsoli masalayn" (ikkita maqol keltirish) san'atiga asoslangan".¹

Adabiyotshunos olim Yo.Is'hoqovning "So'z san'ati so'zligi" kitobida ham irsolu masal san'ati xususida ancha keng ma'lumotlar keltirilgan. Bu san'atning arabcha nomi irsol ul-masal fil-bayti. Biroq mumtoz poetikaga doir bir qator asarlarda irsoli masal (forsiy izofa) tarzida qayd etilgan.

She'riyatimiz tarixida juda ko'p ishlatiladigan bu san'at haqida poetikaga doir deyarli hamma asarlarda ma'lumot berilgan. Biroq uning ta'rifi masalasida ayrim tafovutlar uchraydi. Masalan "Tarjimon ul-balog'a"da: "Balog'at jumlasidan yana biri shuki, shoir baytda hikmat keltiradi va u masal (tamsil) yo'li bilan bo'ladi" deyilsa, "Hadoiq us-sehr"da: bu san'at shundan iboratki, shoir baytda mashhur bo'lgan timsol keltiradi, deb tushuntiradi. "Aruzi Humoyun"da: "Irsoli masal shundayki, shoir o'z she'rida mashhur masalni keltiradi" deyilsa, "Jam'i muxtasar"da ta'rif berilmay, faqat misol tariqasida keltirilgan bayt va undagi irsoli masal izohlanadi.

"Ilmi bade' dar zaboni forsiy"da berilgan ta'rif quyidagicha: "Irsoli masal shundayki, shoir gapda tamsil qilishga loyiq bo'lgan mashhur masal "Ki hikmatomuz ibora keltiriladi yoxud gap ravonligi jihatidan juda ma'qul tushib, zarbulmasalga aylanadi".

Xullas, bu san'atning mohiyatini shunday izohlash mumkin: Irsoli masal gapda yoki she'rda maqol, matal va hikmatli so'zlarni muayyan maqsadda tamsil yo'li bilan ishlatish san'atidir.

Irsoli masal poetik san'at sifatida she'riyatimizning qadimgi namunalarida ham uchraydi. "Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" singari mashhur obidalarda bu san'atning mahorat bilan ishlatilgan o'nlab namunalarini ko'rish mumkin.²

¹ Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. T., 1998. 59-60-betlar.

² Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. 20-bet.

Yusuf Xos Hojibning “xalq og‘zaki ijodiyotidan unumli foydalana bilganligiga ishora qiluvchi maqol, masal va hikmatlarni asarning deyarli har sahifasida uchramiz. “Irsolu masal” usuli bilan keltirilgan bir yuzu saksonga yaqin ibrat darajasidagi to‘rtliklar ham bu fikrning dalili bo‘la oladi. Quyida “Qutadg‘u bilig”da uchraydigan va ayrim o‘zgarishlar bilan turkiy xalqlar orasida hozir ham amalda bo‘lgan bir nechta maqol va hikmatlarni keltiramiz:

Ev almaq tilasang ayit qo‘shnisin,
Er almaq tilasang ayitg‘il suvin.

So‘zungni ko‘dazgin boshing barmasun,
Tilingni ko‘dazgil tishing sinmasun.

O‘gush so‘zlama so‘z birar so‘zla az,
O‘gush so‘z tugunin bu bir so‘zda yaz.

Qarinda to‘rumish qilinch, o‘gratik,
Yag‘iz yer qatinda ketar, ey tetik.

Mazmuni:

Uy olmoqchi bo‘lsang so‘ra qo‘shnisin,
Yer olmoqchi bo‘lsang so‘ragin suvin.

So‘zingni kuzatgin, boshing ketmasin,
Tilingni kuzatgin, tishing sinmasin.

Talay so‘zlama so‘z, biroz so‘zla oz,
Talay so‘z chigalin shu oz so‘zda yoz.

Qorinda yaralgan qiliq, o‘rganik,
Qora yer tagida ketar, ey tetik”.¹

Ma‘lumki, turkiy xalqlar orasida mashhur bo‘lgan maqollar Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida uchraydi. Unda uch yuzga yaqin maqollar mavjud. Ana shularning ko‘pchiligi “Qutadg‘u bilig” asarida, Navoiygacha bo‘lgan shoirlar – Atoyi,

¹ Karimov Q. Ilk badiiy doston. T., 1976. 137-140-betlar.

Lutfiy, Gadoiy ijodida, shuningdek, Alisher Navoiy she'riyatida ham qo'llanilgan.

Yuqorida "Qutadg'u bilig"dagi irsoli masal san'atiga oid baytlar keltirildi. XV asr birinchi yarmida yashab o'tgan shoirlar g'azallarida ham buni ko'ramiz. Taniqli adabiyotshunos olim E.Rustamov xalq maqollari, matal va iboralarning she'riyatda qo'llanish ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: "O'z she'rlarining sodda va tushunarligi, keng kitobxonlarga manzur bo'lishi uchun Sakkokiy, Atoyi, Lutfiylar xalq iboralari, maqol va matallar, til elementlaridan tez-tez foydalanadilar". Hofiz Xorazmiy, Gadoiy, Lutfiy, Atoyi g'azallarida xalq maqol va matallari g'oyatda mahorat bilan singdirilgan. Ularning ba'zilar shakl va mazmunini butunicha saqlagan holda qo'llanilsa, boshqa bir xillarining mazmuni misralar bag'riga kiritiladi, ularga ishora qilinadi. Ayrim baytlarda "Bu masal mashhur erurkim", "Masalkim", "Masaldurkim", "Masaldur ushbuki", "Ki derlar" kabi jumalalar keltirilib, xalq maqol va matallariga e'tibor qaratiladi.

Hofiz Xorazmiyda shunday bayt bor:

So'zladi ersa raqib andin ko'ngulda yo'q g'ubor,
Sag tilindin bok ermas, chunki daryo pok erur.¹

O'zbek xalqida "it tumshug'ini tiqqan bilan daryo suvi harom bo'lmas" ma'noli maqol mavjud.

Yuqoridagi baytning ikkinchi misrasida ana shu maqol mavjud.

Atoyida:

Otoyi, sen kimu ul sarv qomat kim,
Ilik yetmas ne hosil qo'lni sunmoq.²

Bu baytda "qo'l yetmas joyga qo'l uzatmaslik lozim" degan maqol kiritilgan. "Ilik yetmas ne hosil qo'lni sunmoq" degani shu ma'noda. Irsolu masal san'atini Navoiygacha bo'lgan davrda eng ko'p va san'atkorlik bilan qo'llagan shoir mavlono Lutfiydir. Shoir g'azallarining ko'pchiligida, hatto ayrim g'azallarining har bir baytida ma-

¹ Hofiz Xorazmiy. Devon. 1-kitob. T., 1981. 127-bet.

² Otoy. Tanlangan asarlar. T., 1960. 93-bet.

qol kiritilganini ko'ramiz. Mana bu baytda "Ko'zdan uzoq bo'lsa ko'ngildan uzoq bo'ladi" maqoli kiritilgan:

Dilbar sog'inmag'on jihati bu firoq emish,
"Ko'zdin yiroq bo'lsa ko'nguldin yiroq emish".¹

Shoirning "Ayoqingg'a tushar har lahza gisu" deb boshlanuvchi g'azalining har bir baytida bittadan-beshta maqol kiritilgan.

Umuman, mumtoz adabiyotimizda Navoiygacha bo'lgan davr she'riyatida ham irsoli masal san'ati ancha keng qo'llanilgan.

Bu badiiy san'atning yuksak darajadagi ifodasini Alisher Navoiy ijodida, ayniqsa, she'riyatida ko'rish mumkin.

Navoiyning barcha asarlarida irsoli masal san'ati-maqol, matal va hikmatlarning qo'llanishi o'ziga xos nafosat darajasiga ko'tarildi. Maqollar va hikmatli so'zlar Navoiyning she'riy va nasriy, tarixiy va ilmiy merosidan o'rin olgan. Adabiyotshunos M.Hakimov "Navoiyning barcha asarlarida uch mingdan ziyod xalq maqoli, ta'birlari va hikmatli so'zlarini ro'yxatga olgani"ni ta'kidlaydi.²

Navoiy foydalangan maqollar mavzu va mazmun jihatidan keng va xilma-xil bo'lib XV asr o'zbek xalqining donoligi, tilining jozibadorligini aks ettiradi. Shoir maqollarni rang-barang uslubda ishlatib, asarga shunday singdirib, yedirib yuborganki, ko'p o'rinlarda o'sha maqol, o'sha hikmat aytmoqchi bo'lgan g'oyasini, niyatini, maqsadini ifodalaydi. Shuning uchun ham Navoiyning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy qarashlarini belgilashda asarlaridagi maqollar va hikmatlarga eng muhim va yetakchi mezon deb qarash kerak.

Navoiy asarlarida, xususan, "Xazoyin ul-maoniy"da hikmatli so'zlar, maqollarni ishlatishda bir necha ko'rinishlar mavjud. Keltirilgan maqol, ta'bir va hikmatlar xalqdan olingani, xalq orasida ma'lum va mashhurligi quyidagi so'zlar vositasi bilan alohida ta'kidlanadi: "Bu masal mashhur erur", "bu masaldur", "masaldurkim", "so'zki bor", "so'z der", "rost andoqkim", "chin emishkim", "der emish", "derlar", "deydilar", "ayturkim" va hokazo. Yana ko'p hollarda ma-

¹ Lutfiy. Sensan sevarim... T., 1987. 110-bet.

² Hakimov M. Alisher Navoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi. T., 1979. 117-bet.

qol va matallar “kim”, “vahki”, “nechukkim”, “agarchi”, “andoqki balki”, “vale”, “lekin” bog‘lovchilaridan so‘ng hamda “bilmasmusen-kim”, “ayb emas”, “ayb qilmakim”, “ajabkim”, “ne ajab”, “ajab holat” kabi kirish iboralaridan so‘ng kelgan. Zikr etilgan bog‘lovchi va kirish iboralari ham o‘zidan keyin keluvchi hikmatning turmush va tabiat, jamiyat voqea-hodisalari ustidan chiqarilgan xalq hukmi ekanligiga ishora vazifasini bajaradi.

Navoiyning “Xamsa”sida ham xalq maqollari kiritilgan baytlar ko‘plab uchraydi. Shoir o‘z dostonlarida nima maqsadda maqollardan foydalanadi? Ularni qo‘llashdan qanday g‘oyaviy niyatni ko‘zlaydi? Navoiyning maqollardan foydalanishdagi badiiy mahorati nimalar bilan belgilanadi? Bularning har biri o‘z javobiga ega. “Xamsa” dostonlarining hammasida xalq maqollari singdirilgan baytlar ko‘zga tashlanadi. Shoir dostonlarida maqollar uch ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

1. Xalq maqoliga e‘tiborni qaratuvchi, baytda maqol mavjudligini asoslovchi “Ki, demishlar”, “demishlar”, “der edi”, “mashhurdir bu so‘z”, “mundog‘ nuktaye der”, “masaldurkim”, “masal chin bo‘ldikim”, “masaldurki” kabi jumlar mavjud bo‘lgan baytlar.

2. Xalq maqolining shakl va mazmuni to‘liq saqlangan, o‘tmish va bugungi kunda ham xalqimiz tilida aynan qo‘llanilayotgan maqollar kiritilgan misralar.

3. Maqolning shakli o‘zgartirilib, ayrim boshqa so‘z va birikmalar bilan almashtirib ishlatilgan, mazmuni saqlab qolingan yoki unga ishora qilinuvchi baytlar.

“Xamsa”da maqollar turli maqsadlarda qo‘llanilgan. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Shoirning inson, hayot, tiriklik, yashash bilan bog‘liq turli falsafiy qarashlarini yanada aniqroq namoyon etish uchun.

2. Doston qahramonlarining turli holat, kayfiyatlarini ta’sirli tarzda ifodalash uchun.

3. Shoirning turli ruhiy kechinmalarini bayon etish uchun.

4. Asar voqealari, obrazlar taqdirini uzviy bog‘liqlikda tasvirlash maqsadida va boshqalar.

“Xamsa”da “Kimki birovga choh qazsa, shu chohga o‘zi tushadi”, “It hurar, karvon o‘tar”, “Har qo‘yni o‘z oyog‘i bilan osadilar”, “Si-

chqon sig'mas iniga g'alvir bog'lar dumiga", "Tuproq olsang, oltin bo'lsin", "Ko'z ochib yumguncha bu dunyo o'tadi", "Tarki odat amri mahol", "Tiriklay go'rga tiqding", "Taqdirdan qochib qutilib bo'lmas", "Oyni etak bilan yopib bo'lmas", "Igna tashlasa, yerga tushmaydi", "Don sochish uchun yaxshi yer kerak", "To'qayga o't tushsa, ho'l-uquruq baravar yonadi", "Uyqu o'limdir", "Yaxshining ko'pi ham oz, yomonning kami ham ko'p", "Yog'ga suv solmaydilar", "Azobning rohati bor", "Qonni qon bilan yuvib bo'lmaydi", "Ming qarg'aga bir kesak", "Oyog'i bilan kelib, boshi bilan bordi", "Nima eksang, shuni o'rasan", "Arpa ekib, bug'doy olib bo'lmaydi", "Oz baxt - ko'p husndan yaxshiroq", "Jonidan umidini uzdi", "Qo'lini yuvib, qo'ltig'iga urdi", "Dunyo - bevafo", "Ariqqa bir oqqan suv yana oqadi" kabi maqollar aynan, shakli o'zgargan holda, bir maqolning mazmuni singdirilgan ikkinchi ko'rinishi, xalq maqolining birortasiga ishora qiluvchi boshqa shakllari tarzida namoyon bo'ladi.

Bu maqollar dostonlarning qaysi o'rnida, nima maqsadda, shoirning qaysi g'oyaviy fikrlarini ifodalashda qo'llanilganini tahlil jarayonida bilib olish mumkin.

"Sab'ai sayyor"ning VIII bobida Navoiyning tush ko'rishi, asarni yozishdan oldin ustozlarini eslashi, Xizrsifat pir bilan g'oyibona suhbatlashish, Surushning shoirga yetti qasr, yetti gulshan, yetti afsona, undagi ulug' zotlar haqida ma'lumot berishi kabilar tasvirlanadi. Shoir tushida ko'rgan voqealarining mohiyatini anglamay, o'z holatini quyidagicha bildiradi:

Bilmadim har ne bo'ldi jilva namo

Ki, demishlar, "g'aribun kal-a'mo". ("Sab'ai sayyor". 46-bet)

Navoiy arabcha maqollardan ham foydalanadi. "Ki, demishlar" deya unga ishora qiladi. "G'aribun kal-a'mo" degani "Musofir-ko'rday bo'ladi" ma'nosida. Shoir o'zini g'aribga o'xshatib, tushida kechirgan voqealarini anglay olmagani, uni ayon etishni Surushdan so'raganini shu yo'sinda ifodalaydi.

Shoir dostonlarida "It hurar, karvon o'tar" maqoli bir necha o'rinda uchraydi. Bu maqol xalq orasida biror ishga to'siqlik qiladigan, o'z

yomonligi bilan yaxshilar, yaxshiliklarga g'ov bo'lishga urinadigan kimsalarga nisbatan ishlatiladi. Zero, it hurgan bilan karvon qo'rqib to'xtab qolmaydi. O'z yo'ldan qaytmaydi. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida bu maqol shu ma'noda qo'llangan. Dostonning o'ttiz to'qqizinchi bobida Farhodni yenga olmagan Xusravning holati keltiriladi. Xusrav vaziri Buzurg Ummid bilan Farhodni mag'lub etish tadbirini ko'rishadi. Buzurg Ummid Xusravga dalda berib aytadi:

Yilon netgay urub nish ajdahoni,

It urmak birla yonmas korvoni. ("Farhod va Shirin". 306-bet)

U Xusravni ajdahoga, Farhodni ilonga qiyoslaydi. Ilonning nishi, zahri ajdahoga ta'sir etmasligini, yo'ldan qaytmay, harakat qilishni aytadi.

"Sab'ai sayyor"da ham ushbu maqol aynan keltiriladi:

Asru mashhurdir bu so'zda bali:

"It urar karvon kechar" masali. ("Sab'ai sayyor". 347-bet)

Dostonning so'ngida shoirning shoirlik, so'z, o'z asari haqidagi mulohazalari, uzri bayon qilinadi. Shoirning xijolati, dostonini o'quvchi qanday qabul qilishini o'ylab parishonligini ko'rgan ulug' zot buning sababini so'raydi. Surush unga javoban, tog'ga kesak otish, olovga xas tashlashning foydasi yo'qligini, uning ulug' ish qilganini ("Sab'ai sayyor"ni yozib tugatganini), o'zgalarning gapiga e'tibor bermaslikni, "it hurar, karvon kechar"ini aytib, xursand qiladi. "Saddi Iskandariy"ning o'ttiz beshinchi bobida Iskandarning Xurosonga kirib kelishi, Hirotni bino qilib, Movarounnahrni egallashi, Samarqandga asos solishi va Kashmirga yurish qilishi tasvirlanadi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotida Kashmir sehr-jodu, hiyla-tilsimlar mamlakati sifatida tilga olinadi. Bu bobda ham ana shu tomonga e'tibor qaratilgan. Iskandarga qarshi chiqqan Kashmir hukmdorlari g'aroyib bir qal'a barpo etadilar. Ulkan tepalikda, ulug'vor toshdek, temirdan qilingan darvozalari ko'kka yetgudek ko'rinishda. Uni mahv etish imkonsiz edi. Bu haqda Iskandarga xabar beradilar. Arastu, Filotun, Balinos, Shaminos kabi besh yuz hakimi bo'lgan Iskandar ularni yig'adi.

Kashmir afsuniga tadbir so'raydi. Ular Shohga g'am yemaslikni, bu ish chorasini ikki kunda topishlarini, uchinchi kun ular sehrni fosh qilishlarini aytadilar. Hakimlar g'aroyib asbob yaratadilar. Uzoqdan o'q otib, qal'a ichiga tushirishni, u qattiq portlab, o't chiqarishi, qora tutuni hamma yoqni qoplab olishi ayon bo'ladi. Bu bugungi to'p va uning o'qiga o'xshash narsa edi. Shu qurol bilan Kashmir qal'asiga hujum qilinadi. Navoiy Kashmir himoyachilari, uning hukmdori Mal-luning holatini quyidagi bayt orqali tasvirlab beradi:

Hamul go'y otilg'och qochib yak-bayak,
Masaldurki: "Ming qarg'aga bir kesak".
("Saddi Iskandariy". 246-bet)

Irsolu masal san'ati ajoyib bir tarzda qo'llangan ushbu misralarda shoir g'oyaviy niyati aniq bayon qilingan. "Ming qarg'a"- bu Mallu va uning tarafdorlari. "Bir kesak"- bu "go'y". Go'y bir necha ma'noga ega. Doston boshlarida Iskandar va Doro munosabatlari keltirilgan. Doro Iskandarga go'y va chavgon yuboradi. Bu ramziy ma'noga ega bo'lib, sen hali yoshsan, o'yiningni o'ynayver degani edi. Chavgon ot ustida turib o'ynaladigan uchi egri uzun tayoq bo'lsa, go'y uning yumaloq to'pi. Yuqoridagi baytda esa, go'y uzoqqa otishga mo'ljallangan qurolning o't chiqarib, portlovchi o'qidir. Xalqimiz orasida ham "Ming qarg'aga bir kesak" maqoli kichik bir narsadan qo'rqib qochadigan, yuraksiz kimsalarga nisbatan qo'llaniladi.

Navoiy "Xamsa"sida irsolu masal san'atidan foydalanilgan o'rin-larga ishora qiluvchi asosiy so'z "masaldurkim", "masal chin bo'ldi-kim" kabilardir. "Farhod va Shirin" dostonining qirqinchi bobida Farhodni yenga olmagan Xusravning hiyla yo'liga o'tib, gulga be-hush qiladigan dori sepishi asosida uni asir qilib olishi tasvirlanadi. Ma'lumki, Armaniya qal'asini qamal qilgan Xusrav Farhodning qat-tiq qarshiligiga duch keladi. Lashkari qo'rg'onga yaqin borolmaydi. U vaziri Buzurg Ummid bilan bu ishga chora izlaydi. Bu chora hiyla edi. Hiylagar, o'ta makkora bir kishini topib, hiylani o'rgatadilar, kat-ta pul va'da qiladilar. Makkora o'zini ishqda kuygan, dardli, Xusra-

vdan ozor chekkan kishi qiyofasiga soladi. Chiroyli bir gul uzib, unga behush qiladigan dori sepadi. Farhod yoniga borib, o'tli fig'onlar chekadi. Farhod uning holatiga achinadi. Unda o'zining iztiroblarini ko'radi. Nola chekib yiqiladi. Makkora uning dimog'iga gulni tutadi. Qo'rqinchli tush ko'rgan Shopur kelib qoladi. Nima gapligini anglaydi. Ulkan bir tosh olib hiylagarni uradi. "Avval mag'zi, so'ngra chiqti joni". Ana shu holatni Navoiy "Ushotur boshni tosh" maqoli orqali tasvirlaydi:

Usholdi tosh birla ul qotiq bosh,
Masaldurkim, "ushotur boshni tosh".

("Farhod va Shirin". 320-bet)

Shoir talqinicha, tosh boshni "ushotur"- majaqlaydi. Shopur toshi makkoraning boshini ezadi. U o'lim topadi.

Dostonning ellik ikkinchi bobida Shirinning Farhod ishqida jon berganini bilib Mihinbonu ham jon tarkini qilgani, Chin mamlakatidan Bahrom kelib, Armanda odil podshoh tayinlagani kabilar tasvirlanadi. Bahrom Farhodning vafot etganini ko'rib afg'on chekadi. Shoir Bahrom tilidan quyidagi maqolni keltiradi:

Ko'z ochmassen, debon: "kelgan qulumdur",
Masal chin bo'ldikim: "uyqu-o'lumdur!".

("Farhod va Shirin". 454-bet)

Uyquni o'limga o'xshatish xalqimiz orasida bor narsa. Bu yerda Farhodning chin o'limi abadiy uyqu tarzida ko'rsatilgan.

"Saddi Iskandariy" dostonida "Oz baxt ko'p husndin yaxshiroq" maqoli uchraydi. Dostonning oltmishinchi bobida Iskandar bilan Nozmehrning munosabatlari tasvirlanadi. Ma'lumki, Iskandar dastlab Doroning qizi Ravshanakka uylanadi. Keyin esa, Kashmir yurtining hukmdori Malluning qizi Nozmehrni nikohiga oladi. Ammo ko'proq Ravshanakka e'tibor qiladi. Bundan Nozmehr rashk qiladi. Iskandarga kin saqlaydi. O'rni kelganda, o'zining iztiroblari, yuragidagi ushbu alamlarini Iskandarga bayon etadi. Nozmehr go'zal edi. U o'z ko'rinishini ta'riflar ekan, ko'p husndan oz baxt yaxshiroqligini bildiradi:

Ne xush debdur ul dardmandi firoq

Ki: "Oz baxt-ko'p husndin yaxshiroq".

("Saddi Iskandariy". 417-bet)

"Xamsa" dostonlarida ko'proq ko'zga tashlanadigan maqollardan biri "Olovga yog' quyma" yoki shu mazmunni ifodalovchi maqollardir. Bu maqol biror voqea-hodisa, holatni yanada kuchaytirmaslik, dard-iztiroblarni bundan-da avj oldirmaslik maqsadini ifodalash uchun ishlatiladi. "Layli va Majnun" dostonida bir necha o'rinda ushbu maqol qo'llanilgan:

O't uzra ne erdi quymog'ing yog'!

Kuyganga ne erdi qo'ymog'ing dog'.

("Layli va Majnun". 84-bet)

Bu bayt dostonning o'n ikkinchi bobida keltirilgan. Unda Qaysning Laylini ko'rib qolishi, yuragida ishq otashi yonib, hushidan ketishi haqida gapiriladi. Laylining Qaysdagi o'zgarishni, uning beqaroru zor yig'lashlari, ko'ksini chok etishi, qayg'u-alamlari sababini so'rashi va bunga javoban oshiq yigitning (Qaysning) so'zlari bayon qilinadi. Qays Layli uning ko'nglini olganini, jonini qiynab, yana bilmaganga olishini "o't uzra ne erdi quymog'ing yog'!" deya baholaydi. Ishq – olov edi. Laylining bu sevgini anglamasligi unga yog' quyishdek gap. Shu maqol boshqa bir o'rinda ham keltirilgan. Qays Layli ishqida Majnun bo'ldi. Undagi ishqqa hech chora topilmadi. El orasida jinni nomini oldi. Dostonning yigirma sakkizinchi bobida Majnun otasi uni dasht-u sahrodan topib, uyiga olib kelishi tasvirlanadi. Otasi Majnunga nasihat qiladi. Ota-onasiga rahmi kelishini, umrlari tugab borayotganini, uning g'amida o'lib ketishlariga yo'l qo'ymaslikni so'raydi. Majnun o'z holatini shunday ifodalaydi:

Yo'q, yo'qki qo'yarg'a dog' uza dog',

O't yoqdingu quydung ustiga yog'.

("Layli va Majnun". 217-bet)

Majnun ishq olovida qiynalayotgan edi. Otasining bu gaplari o'tga quyilgan yog'dek bo'ldi. Chunki Majnun endi ota-onasini o'ylab ham yanada chuqurroq qayg'uda qolayotgan edi. Bu "olovga yog' quyish" maqoli bilan g'oyatda ta'sirli ko'rsatib berilgan. "Sab'ai sayyor" dostonida ham bu maqol baytlarda singdirilgan. Asarning o'n yettinchi bobida Bahrom holati beriladi. Ma'lumki, Dilorom bilan ovga chiqqan shoh xatoga yo'l qo'yadi. Dilorom aytganidek, kiyikni bir o'q bilan tushovlab, ikkinchisi bilan uni bo'g'izlagan shoh sevgilisidan maqto'v kutadi. Dilorom esa, bu qoyilatib bajarilgan ishni mashq natijasi deb baholaydi. Shoir ta'kidicha, bu Diloromdagi takabburlik, o'z husnidan mag'rurlanish bilan bog'liq:

Anga chun husndin bor erdi g'ino,
Keldi husn iqtizosi istig'no. ("Sab'ai sayyor". 96-bet)

Ya'ni Diloromda "husndin bor erdi g'ino"-davlati, boyligi (g'ino) husni edi. Shu sabab "husn iqtizosi"-talab "istig'no"ga takabburlikka olib keldi. Bahrom mast edi. Hushi o'zida bo'lmagan sarxush kishi esa, tezda jahlg'a minishi, qilayotgan ishi, aytayotgan so'ziga e'tiborsiz bo'lishi tabiiy. G'azabga tushgan Bahrom Diloromni o'z sochlari bilan band etib, kimsasiz sahroga etib tashlashni buyuradi. Ertasi o'ziga kelgach, Diloromni so'raydi, qilib qo'ygan xatosini anglaydi. Hijron, iztirob uni qiynab qo'yadi. Navoiy shoh Bahromdagi bu jarayonni "suvga yog' quyish" maqoli bilan ifodalaydi:

Ishq o'tikim ko'nguldin oldi farog',
Ashk ul o'tqodur suv o'rnig'a yog'. ("Sab'ai sayyor". 105-bet)

Ishq o'ti Bahrom ko'nglidagi tinchlik, xotirjamlikka barham beradi. Uning oromini oladi. Oshiq bu holda faqat ashk-ko'z yoshi to'kadi. Bu ashk o'tga suv o'rniga yog' quyishdek edi. Dostonning boshqa bir o'rnida esa, bu maqol azobning, kechinmaning g'oyatda kuchliligini ko'rsatish bilan birga, uni faqat sabr bilan yengish mumkinligini ta'kidlash uchun qo'llanilgan:

Hajr o'ti necha qo'ysa jonig'a dog',
Sabr qilmoq erur ul o't uza yog'. ("Sab'ai sayyor". 83-bet)

"Saddi Iskandariy" da ham bu maqol uchraydi. Yuqorida Iskandar va Nozmehr munosabatlari haqida gapirgan edik. Nozmehrning achchiq, alamli ginalari Iskandarga og'ir botadi. Unga yana azob bermaslikni, o'tga yog' quyishning hojati yo'qligini aytadi:

Ne xaskim o'tungdin kuyar log'-log',
Ne hojat yana quymog' ul o'tqa yog'
(“Saddi Iskandariy”. 412-bet)

“Xas”- bu Iskandar vujudi. “Log'-log'”-lov-lov yonish. Demak, Iskandar Nozmehr holatini ko'rib, lovullab yonayotgan vujudini yana qiynamaslik, olovga yog' quymaslikni iltijo qilmoqda.

Xalq orasida “Har qo'yni o'z oyog'i bilan osadilar” degan maqol bor. Bu har kim qilganiga yarashasini oladi degani. Yaxshilik, yomonlik qilgan ham bee'tibor qolmasligi, birovning savob-u gunohlari boshqaga emas, o'ziga nasib etishiga ishora. “Hayrat ul-abror” ning yigirmanchi maqolati Sulton Badiuzzamonga qilingan nasihatdir. Shoir Badiuzzamon haqida gapirar ekan, uni madh etadi, yuksak fazilatlarini ko'rsatib o'tadi. Keyin esa o'ziga xos nasihat qiladi.

Umr va davlat vafosizligi, inson tirik ekan, Haqni unutmasligi, hamma amallar undan ekanligi, shohlikda adolat, yaxshiga yaxshi, yomonga yomon bo'lish, insonning insonligi uning ichi va tashining birligidaligi, yolg'onchiga hech qachon ishonmaslik, o'zganing gunoh-u xatosi uchun boshqa birovga jazo bermaslikni ta'kidlaydi. Shu o'rinda esa, quyidagi baytni keltiradi:

Roi esang tut bu nafas yaxshi pos,
Har qo'yni o'z ayog'i birla os. (“Hayrat ul-abror”. 326-bet)

“Har qo'yni o'z ayog'i birla os” deyish-insonni qilgan ishiga qarab baholash demakdir. Navoiyning Sulton Badiuzzamonga qilgan bu pandi bugungi kunda ham g'oyatda ahamiyatlidir.

Xalqimiz tilida “Sichqon sig‘mas iniga g‘alvir bog‘lar dumiga” degan maqol bor. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida Ko‘rqush tili-dan Yapaloqqushga “Sichqon iniga sig‘mas, dumiga g‘alvir bog‘lar” shaklida aytilgan. Bu imkonsiz bo‘la turib, katta va‘dalar beradigan, o‘z holini hisobga olmay yuksakni ko‘zlaydigan, qashshoq bo‘la turib, o‘zini boy his qiladigan, qisqasi, nochor, ammo maqtanchoq, bir ishning oxirini o‘ylamaydigan kimsalarga nisbatan ishlatiladi. “Hayrat ul-abror”ning o‘n uchinchi maqolatidan so‘ng “Ayyubi xalaf noxalaf o‘g‘rining egriligini tuzgoni...” haqidagi hikoyat keltiriladi. O‘g‘ri Ayyub payg‘ambar uylariga lahim- yer ostidan chuqur qazib o‘g‘rilikka kiradi. Bu “kisaburi naqbzani”- o‘g‘riyu lahim qazuvchin-ing ishlaridan Ayyub payg‘ambar xabardor bo‘lib turgandilar. Le- kin hech nima demaydilar. O‘g‘ri nima topsa, hammasini orqasiga bog‘lab, ko‘tarib oladi. Yuk katta edi. Shuning uchun o‘zi qazgan te- shikka sig‘may qoladi. Navoiy bu manzarani shunday tasvirlaydi:

Tor ini sichqong‘a solib erdi g‘am,
Quyruqig‘a bog‘ladi g‘irbol ham. (“Hayrat ul-abror”. 243-bet)

Sichqon-o‘g‘ri. Uning orqalab olgan narsalari g‘irbol-g‘alvir. G‘alvir nimaligini esa, o‘quvchilar yaxshi bilishadi.

Navoiy “Xamsa”sida xalqimiz nutqida ishlatiladigan “Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi” maqolining mazmunini ifodalaydigan mis- ralar ham ko‘zga tashlanadi. Bu maqol ko‘pincha bor narsani, qilin- gan har bir ishni yashirin tutish mumkin emasligini bildiradi. Ya‘ni ulug‘ narsani kichigi bilan to‘sib, yashirib bo‘lmaydi. “Farhod va Shi- rin” dan olingan mana bu baytga nazar solaylik:

Quyoshni zarra yoshurmoq bo‘lurmu,
Hubob uzra tengiz turmoq bo‘lurmu?
 (“Farhod va Shirin”. 194-bet)

Dostonning yigirma yettinchi bobida Farhodning ishqqa giriftor bo‘lib, uni yashirishga uringani tasvirlanadi:

Shoir ta'kidicha, quyoshni zarra bilan to'sib bo'lmaydi. Hubob-yomg'ir pufakchasiga dengizni joylashtirib bo'lmaydi. Ishq-quyosh, dengiz. Uni yashirish vositasi esa, zarra va hubob.

Navoiy ulug'ligining yana bir qirrasi shundaki, shoirning o'zi ham maqolnamo jumlar yaratadi. Agar baytning birinchi misrasida xalq maqoli yoki uning biror shakli keltirilsa, ayrim o'rinlarda ikkinchi misrada Navoiyga taalluqli, shu maqol mazmuniga uyg'uni ishlatiladi. Yuqoridagi baytning birinchi misrasida "Oyni etak bilan yopib bo'lmas" maqolining ikkinchi ko'rinishi "Quyoshni zarra bilan yoshurub bo'lmas" qo'llanilgan. Ikkinchi qatordagi "Hubob uzra tengiz turmaydi" esa Navoiyning yangi topildig'i. Mana bu misralarda ham buni ko'rish mumkin.

Begonani uy sari yovutma,

O'runski qiziqdurur sovutma. ("Layli va Majnun". 217-bet)

"Layli va Majnun"dan olingan ushbu baytda otasining Qaysga nasihati ifodalangan. Xalq orasida "Joyingni sovutma", "Issiq joyingni sovutma" jumlari ishlatiladi. O'zining joyi, ishini qo'yib boshqa o'rinlarni istagan kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Navoiy bu fikrni "O'runski qiziqdurur sovutma" tarzida ishlatadi. Shu ruh, shu ohangda esa, ikkinchi bir g'oyani ilgari suradi: "Begonani uy sari yovutma". Begona, sinalmagan, notanish kishini uyingga kiritma.

Xalqimiz tilida "Kasalni yashirsang, isitnasi oshkor qiladi" degan maqol bor. Navoiy "Xamsa"sida buning bir necha ko'rinishlari uchraydi. "Mushkni yoshurub bo'lmas", "Olovni dudi oshkor qiladi" kabilar shular jumlasidandir. "Saba'i sayyor"ning o'ttiz birinchi bobida oltinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyatni aytib beradi. Bu payshanba kuni sandal rangli-qora-sarig'-jigarrangli qasrda aytilgan edi. Hikoyat oxirlarida shunday bayt keltiriladi:

Sandal isinda tek turub bo'lmas,

Mushkni kimsa yoshurub bo'lmas. ("Sab' ai sayyor". 287-bet)

“Farhod va Shirin”da Farhodning Shiringa bo‘lgan ishqini boshqalardan sir tutishga urinishi tasvirlanadi. Shoir ta’kidicha, bu iloj-siz ish. Agar uyda olov yonsa, uning dudi-tutuni chiqishi aniq. Uni yashirish qiyin:

Qayu uy ichra bo‘lsa shu‘la mavjud,
Emasdur uyga boki gar chiqar dud.

(“Farhod va Shirin”. 193-bet)

Mumtoz adabiyotda sabr haqida ko‘p gapiriladi. Sabrning tasavvufiy mohiyati, dunyoviy ma’nosi izohlanadi. Sabr timsollari (Ayyub payg‘ambar) namuna qilib ko‘rsatiladi. Xalq esa “Sabr qilsang g‘o‘radan halvo bitar” degan maqolni yaratib qo‘ygan. “Xamsa”da bu maqol ham mavjud. “Layli va Majnun” dostonining yigirma sakkizinchi bobida Majnunning otasi uni dashtdan qidirib topishi, nasihatlar qilib uyiga olib kelishi tasvirlanadi. Shu bobda quyidagi bayt keltirilgan:

Tadrij ila tifi o‘lur xiradmand,
Sokinlik ila qamish bo‘lur qand. (“Layli va Majnun”. 215-bet)

Majnunning otasi unga nasihat qiladi. Ko‘p azob bermaslikni, “o‘ldum deganda”, ya’ni qarilik chog‘ida unga yetishganini, tarbiyalab, ulg‘aytirganini, nomini abadiy qoldirishini, jununvash yurmaslikni, dard bergan Haq davosini ham berishini aytadi. Yuqoridagi bayt ham otaning gaplari. Uning fikricha, har go‘dak, bola ham sekin-sekin rivojlanib, ulg‘ayib “xiradmand”- aqli, dono bo‘ladi. Xuddi sekinlik bilan qamish qandga aylanganidek. Bu yerda shakarqamishdan shakar olinishi nazarda tutilgan. Ayni paytda “Sabr qilsang g‘o‘radan halvo bitar” maqolining boshqa shakli keltirilgan.

Xalqimiz nutqida “Ko‘kka tupursang, betingga tushadi”, “Birovga choli qazisang, o‘zing yiqilasan” kabi yaxshilikka, insof va diyonatga chaqiruvchi, zulmdan, birovga ozor berishdan saqlanishga undovchi mazmundagi maqollar ishlatiladi. “Sab‘ai sayyor”da shu mazmundagi maqol bor:

Har kishikim birovga qozg'ay choh,
Tushgay ul choh aro o'zi nogoh. ("Sab'ai sayyor". 262-bet)

Ushbu bayt dostonning yigirma to'qqizinchi bobida uchraydi. Unda beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir Bahromga Mehr va Suhayl haqidagi hikoyatni aytib beradi. Adanlik Jobirning dashtu daryoda yo'lto'sarlik qilishi, hiyla-yu makr, jangda mohirligi, podshoh Navdar, qizi Mehr, Yaman shohi No'mon va uning o'g'li Suhayl bilan bog'liq voqealar tasvirlanadi. Voqealar davomida Jobir ularning hammasini asir oladi. Suhaylni chuqur chohga tashlaydi. Mehr yordamida zindondan qutilgan Suhayl Jobirga ro'baro' keladi. Suhayl "Man sanga ko'rguzay yigitlikni" deya uni ko'tarib yerga uradi. Suhaylni tashlagan chohga o'zini tashlaydilar. Shoir xulosasiga ko'ra, "Kim birovga choh qazsa, unga o'zi tushadi". Yuqoridagi baytda ana shu kechinmalar ifodalanadi.

"To'qayga o't tushsa, ho'l-u quruq baravar yonadi" degan maqol bor. Bu – biror voqea ro'y bersa, gunohkor-u gunohsiz – hamma barobar aziyat chekishi, hech kim qutulolmasligiga ishora. "Xamsa"da shu mazmun singdirilgan misralar uchraydi. "Farhod va Shirin"ning o'ttiz to'qqizinchi bobi Xusravning Farhodga teng kelolmay, Buzurg Ummid bilan maslahatlashib, Mihinbonuga elchi yuborishi, niyatiga erishmagach, Armaniya qo'rg'onini qamal qilishi voqealari haqida. Mihinbonu elchi bilan suhbatlashib, Xusrav taklifini rad etadi. Farhod haqida iliq gaplar aytadi. Xusrav g'azabga minadi. Shu yerda shoir shoh va shohlik haqida mulohazalarini qistirib o'tadi. Agar podshohlar "g'azab tig'in chiqorsa" begunohlarga jabr bo'ladi. Shoir o'z fikrini asoslash uchun ushbu baytni keltiradi:

Qamishliq ichra chun o't tushti nogoh,
Qurug'-o'l kul bo'lur bo'lg'uncha ogoh.

(“Farhod va Shirin”. 312-bet)

Xalq maqolidagi "to'qayga" so'zi o'rinda Navoiy "qamishliq" jumlasini qo'llagan. To'qay-bu qamishzor degani. Shoir aytmoqchi, Xusrav va Mihinbonu o'rtasida jang boshlansa, mamlakat, gunohsiz

xalq azob tortadi. Ya'ni "to'qayga o't tushsa, ho'l-u quruq barobar yonadi".

"Layli va Majnun"da ham shu ruhdagi bayt bor:

Xirmon sari tushsa bir sharora,
Kuymakdin emastur anga chora. ("Layli va Majnun". 218-bet)

Majnun otasiga holatini bayon qilar ekan, uning boshiga tushgan savdolar taqdiri azaldanligi, bu borada ixtiyori o'zida emasligi, ish-qning bir uchquni jahonga g'avg'o solishi, uning vujudi esa, "yuz shu'la", "ming barq"- yashin, chaqmoq ta'sirida qolganini aytadi. Uning e'tiroficha, xirmonga bir "sharora"- uchqun tushsa, kuymasdan qolmaydi. Bu yerda "to'qayga" so'zi o'rinda "xirmon" ishlatilgan.

Xalqimiz "Har kimniki o'ziga-oy ko'rinar ko'ziga", "qo'ng'iz ham bolasini oppog'im derkan" maqollarini ko'p ishlatadi. Har bir kishi o'ziga yaqin, ayniqsa, farzandidagi qusurlarni tan olmaydi. Xunuk bo'lsa ham u uchun go'zal, aqlsiz, xulqi yomon bo'lsa ham odobli tuyulaveradi. "Sab'ai sayyor"da shunday bayt bor:

Zodayi tab' elga xush ko'runur,
O'g'li zangiga hurvash ko'runur. ("Sab'ai sayyor". 345-bet)

Dostonning o'ttiz yettinchi bobida "So'z g'oyati va nazm nihoyati" haqida gapiriladi. Shoir o'z dostonining yakunlanganligi, uning saviyasi haqida mulohazalar bildiradi. Kamtarlik qiladi. "She'r ham chun kishigadur farzand", "Chun o'g'ul aybini ata ko'rmas" deydi. Yozganlarida, dostonida kamchilik bo'lsa ham, ularni tan olish qiyinligini ta'kidlaydi. "Zodayi tab'" – har kishining ijodi, she'ri o'ziga yaxshi ko'rinadi. Chunki "o'g'li zangiga hurvash ko'runur". "Zangi"- qora tanli, negr. Uning farzandi ham shu ko'rinishda bo'ladi. Ammo u uchun o'g'li- "hurvash"- hurga o'xshash, juda chiroyli.

"Xamsa" dostonlarida rang-barang mavzudagi maqollar ko'zga tashlanadi. Ulardan ba'zilarini keltirish bilan kifoyalanamiz:

"Bir oqqan ariqqa yana suv oqadi":

Bihamdilloh ul gul topib rangu bo',
Bir oqqan ariqqa yana oqti suv. ("Saddi Iskandariy". 48-bet)

"Arpa sochib, bug'doy kutma":
Qachon sochsa tufroqqa bug'doy birov,
Yo'q imkonkim, ul arpa qilg'ay darov.
("Saddi Iskandariy". 324-bet)

"Oyog'ingga o'zing bolta urma":
O'zungni gar o'ltursang ul dam ne sud,
Boshing kessang ilging bila ham ne sud.
("Saddi Iskandariy". 317-bet)

"Qon bilan qonni yuvib bo'lmaydi":
Anga ashk to'kmakta ma'zur edi,
Ajab ishki, qon birla qon yur edi.
("Saddi Iskandariy". 321-bet)

"Umr-bevafo", "Ko'z ochib – yumguncha umr o'tadi":
Bil munikim, umr vafosiz durur,
Davlat ila joh baqosiz durur.

Tushdek erur dahrda nokomu kom,
Ko'z yumub ochquncha o'tubdur tamom.
("Hayrat ul-abror". 320-bet)

"O'lganni yana o'ldirmaydilar", "O'lganni ustiga tepma":
Kimsa o'lukni yana o'lturmadi,
Tig'i siyosat boshig'a surmadi.
("Hayrat ul-abror". 343-bet)

Kishi o'lganga tig'i kin surmas,
Bir o'lukni iki o'lturmas. ("Sab'ai sayyor". 310-bet)

"Tuproq olsang oltin bo'lsin":

Agar tuprog' tutsang bo'lsun oltun,
Oqizsang qatrai xay durri maknun.
("Farhod va Shirin". 43-bet)

"Tarki odat amri mahol", "Sut bilan kirgan, jon bilan chiqar":
Chu ko'rdi mumkin ermas tarki odat
Ki zotiydir shaqovat yo saodat. ("Farhod va Shirin". 43-bet)

"Urug' sotish uchun yaxshi yer kerak":
Xirad dehqoni mundog' nuktaye der:
"Ki dona sochqoli yaxshi kerak yer".
("Farhod va Shirin". 283-bet)

"Ishqda shohu gado teng":
Ketur soqiy, mayu, g'am xaylini yeng,
Ki, ermish ishq aro shohu gado teng!
("Farhod va Shirin". 305-bet)

"Yomonning ozi, yaxshining ko'pi yaxshi":
Bu so'zni ahli hikmat deb durur xo'b,
"Yamondin oz behkim, yaxshidin ko'p".
("Farhod va Shirin". 466-bet)

"Taqdirdan qochib bo'lmaydi", "Peshanada yozilgandan qochib
qutilib bo'lmaydi":

Kim, "Tengridin erdi bo'yla taqdir,
Nekim taqdir erur, ne tadbir". ("Layli va Majnun". 241-bet)

"Dard ustiga dard bo'ldi", "Dard ustiga chipqon bo'ldi":

Dard ustiga dardi chun uzoldi,
Ul go'riston ichida qoldi. ("Layli va Majnun". 270-bet)

Umuman, irsoli masal san'ati qo'llangan bunday misralarni ko'plab keltirish mumkin. Yuqoridagi fikr-mulohazalar, maqollar kiritilgan baytlar ham Navoiyning buyuk dahosi, asar qahramonlari kechinmalari, shoir g'oyaviy-badiiy niyatini tasvirlashdagi o'rnini yetarlicha anglash imkonini beradi. O'quvchining "Xamsa" voqealari, undagi obrazlar mohiyati, shoir badiiy mahorati kabilarni tushunib olishini osonlashtiradi.

3. DOSTONLARDA TURLI AFSONA VA RIVOYATLARGA ISHORA QILUVCHI BAYTLAR XUSUSIDA

Navoiy she'riyatida, "Xamsa" va boshqa turli asarlarida Sharqda mashhur rang-barang afsona, rivoyat, qissa va hikoyatlar sujetiga ishora qiluvchi baytlar uchraydi. Bu misralarni to'g'ri talqin qilish, uning mohiyatini aniq anglash uchun o'quvchilardan keng bilim, yetarlicha ma'lumot talab qilinadi. Qur'oni karimdan xabardorlik, undagi payg'ambarlar bilan bog'liq qissalar, bu obrazlarga xos yetakchi xususiyatlarni anglash, Sharqda mashhur sevgi-muhabbat, qahramonlik ruhi bilan sug'orilgan afsona va rivoyatlar, podshohlar tarixi, umuman, tarixni bilish, mifologik qarashlar, ular bilan bog'liq sujetlardan ogohlik kabilar ana shunday tayyorgarlik sirasiga kiradi.

"Xamsa" dostonlaridagi ayrim baytlarda butun bir sujetga yoki undagi bitta qirraga e'tibor qaratiladi. Biz "Xamsa"ni o'rganib chiqish asosida bunday baytlarni quyidagicha guruhlashni ma'qul topdik:

1. Payg'ambarlar, ularning hayoti, mo'jizalari bilan bog'liq qis-saga yoki uning biror jihatiga, umuman, diniy-Qur'oniy voqealarga ishora qiluvchi misralar.

2. Sharqda mashhur sevgi-muhabbat, an'anaviy adabiy qahramonlar sarguzashtlari, ular bilan aloqador voqealar sharh etilgan baytlar.

3. Ko'pgina tarixiy, afsonaviy, biror xususiyati bilan mashhur kishilar kechinmalari bilan bog'liq misralar.

4. Mifologik hodisa yoki mifologik obrazlarga taalluqli jihatlar aks ettirilgan baytlar v.h.

O'quvchi yoki talaba bu qissa, afsona, rivoyat va hikoyatlarning hammasidan xabardor bo'lolmasligi tabiiy. Bu holda esa dostonlardagi mohiyat, obrazlar bilan bog'liq kechinmalar, shoir g'oyaviy-badiiy niyati oydinlashmay qoladi. Shu sabab bunday baytlarni sharhlash asosida o'quvchilarga tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

"Xamsa" dostonlaridagi bu xildagi ishoraviy baytlarni yuqoridagi guruhlash asosida tahlil etish ma'qul topildi.

Yuqoridagi obrazlar haqida gapirganda, ular bilan bog'liq voqealar sharhiga to'xtab o'tildi. "Xamsa"da shunday baytlar borki, ularda qaysi obraz, qanaqa qissa yoki afsona xususida ochiq gapirilmay, ularga xos biror jihat tilga olinadi. Ana shu birgina so'z, timsol, ishora gap nima haqda ekanligini oydinlashtiruvchi kalitdir.

"Hayrat ul-abror" dan olingan mana bu baytga nazar solaylik:

Ajdar emaskim, emas ajdar salim,
Balki degil ani asoyi Kalim. ("Hayrat ul-abror". 224-bet)

Bir qaraganda hamma narsa ayon. Ammo qissalardan bexabar o'quvchi uchun "asoyi Kalim" notanish jumla. Ayni paytda kalit so'z ham shu. "Aso"-hassa. "Kalim"-Kalimulloh so'zining qisqargan shakli. Uning ma'nosi oldingi o'rinlarda izohlangan edi. Bu- Muso a.s.ga berilgan nisbat. Aso ham u kishi bilan bog'liq voqealarga ishora qiladi.

Manbalarda qayd etilishicha, Muso payg'ambarga bir necha mo'jizalar berilgan. "Alloh taolo Muso (a.s.) uchun to'qqizta payg'ambarlik mo'jizasi berganini bayon etadi... Alloh taolo Muso (a.s.)ni bir necha payg'ambarlik mo'jizalari bilan quvvatlagan edi. Ularning biri qo'llaridagi hassalari edi. Muso (a.s.) hassalarini yerga tashladilar, u shu ondayoq ajdardhoga aylandi"¹. Baytdagi ajdar, aso, kalim so'zlari ana shu voqealar bilan daxldor. "Saddi Iskandariy" dostonidan olingan mana bu baytda ham Muso a.s., aso va ajdah haqidagi qissaga ishora qilinadi:

¹ Rahmatulloh qori Obidov. Payg'ambarlar tarixi islomiyat tarixidir. 1-kitob. 276-bet.

Alarkim o'lunga davo qildilar,

Aso tashlabon ajdah o qildilar. ("Saddi Iskandariy". 23-bet)

Dostonning uchinchi bobida Rasuli amin-payg'ambarimiz haqida na't keltirilgan. Unda Muhammad a.s. ulug'lanadi. U kishining sifat-lari bayon qilinadi. Musoga "Tavrot", Dovudga "Zabur", Isoga "Injil", payg'ambarimizga "kutubi osmoniy"- Qur'oni karim nozil bo'lgani tilga olinadi. Musoga xos asoni ajdahoga aylantirish mo'jizasi qayd etib o'tiladi. Iso a.s. bilan bog'liq tafsilotlar oldingi o'rinlarda bayon etilgan edi. Ba'zi baytlarda Iso nomi tilga olinmay, u kishi haqida gap borayotganiga ishora qilinadi. "Hayrat ul-abror"dan olingan mana bu baytga e'tibor beraylik:

Balki ulus bo'lsa aning ogahi,

Ushbu nafasdur dami ruhullahi. ("Hayrat ul-abror". 295-bet)

Dostonning o'n sakkizinchi maqolatida "Falak g'amxonasi..." haqida gapiriladi. Shoir dunyo, inson, yashash xususida falsafiy mushohadalar bildiradi. Dahr-dunyo o'zini anglagan inson uchun zindon ekanligi, u uchun g'am chekmaslik, o'zni ranj ustiga ranjga solmaslik, odam qayerda yashamasin-Shommi, Hirotmi dahr ishi uchun g'am yegali arzimastligini uqtiradi. Shoir ta'kidicha, "jahon bog'i vafosiz", "umr guli baqosiz". Har nafasni xush o'tkazish muhim. Shu fikrlar jarayonida "obi hayot", "dami ruhullahi" haqida gapiriladi. "Dami ruhullahi" nima? Doston nashrida "ruhullahi" so'zi kichik harf bilan yozilgan. Bizningcha, bu so'z payg'ambar nisbati bo'lgani uchun ham (Masih, Xalilulloh, Kalimulloh singari) bosh harf bilan yozilishi kerak edi. "Ruhulloh" – Iso payg'ambarga berilgan nisbat. U kishining ilohiy ruh vositasida, otasiz tug'ilganliklarini anglatadi. "Dami Ruhullohi" esa, Iso payg'ambarning nafaslarini bildiradi. Hamma payg'ambarlarda bo'lganidek, u kishiga ham bir necha mo'jizalar berilgan. Birinchi mo'jiza chaqaloq paytlaridayoq biyron til bilan so'zlab, onalari Maryamning pokdomon ekanliklarini isbotlash uchun guvohlik berishlari, ikkinchi mo'jiza Injil kitobining sohibi bo'lishlari, uchinchisi shabko'r, tug'ma ko'r, pes kasallarni bir

nazar yoki bir qo'l silashlari bilan tuzatishlari edi. To'rtinchi mo'jiza jonsiz narsalar bir puflashlari bilan jonliga aylanishi, o'liklarni tiriltirishlari edi.¹ Yuqoridagi birikma ana shu mo'jizani anglatadi. Mana bu baytda ham ana shu tafsilotlar o'z ifodasini topgan:

Tirguzub o'lganni kalomi fasih,
O'ziga "jonbaxsh" laqab deb masih. ("Hayrat ul-abror". 58-bet)

"Saddi Iskandariy"da ham "e'jozi Ruhullahi" haqida gapiriladi. "E'joz"- mo'jiza. Yuqorida qayd etilgan mo'jizalarga ishora. Mana bu baytda ulug', qalb ko'zi ravshan kishilarning kalomi-so'zi Iso payg'ambar nafasiga o'xshatilgan:

Jamolida anvori Shohanshahi,
Kalomida e'jozi Ruhullahi. ("Saddi Iskandariy". 426-bet)

"Xamsa"da Sulaymon payg'ambar qissalariga ishora qiluvchi baytlar ham uchraydi. Ko'pincha u kishi taqdiri bilan aloqador "nigin", "xotam" so'zlari keltiriladiki, bu kalit so'zlar gap nimada ekanligi, qaysi qissaga ishora bo'layotganini anglatadi. "Hayrat ul-abror"ning Xoja Bahouddin Naqshband madhi keltirilgan qismida bu zotni ta'riflar ekan, "naqsh" so'ziga asosiy e'tiborni qaratadi. Bu bobda shunday bayt bor:

Bo'yla nigin naqshiga farmonbari,
Muncha ajab naqsh ila devu pari. ("Hayrat ul-abror". 97-bet)

"Nigin", "devu pari", "farmonbari" so'zlari bayt mohiyatini ochib beradi. Sulaymon payg'ambar bilan bog'liq voqealarni yodga soladi. Ma'lumki, Sulaymon payg'ambar ham bir necha mo'jizalar sohibi edilar. Shulardan biri-sehrli uzuk. "Uzuk tilsimli bo'lgani uchun, Sulaymon (a.s.) ning kuch-qudratlari shu uzukka bog'liq edi". "Nigin", "xotam" – uzuk degani. "Farmonbari"- bo'ysundirish, o'z hukmida saqlash. Demak, ana shu sehrli uzuk yordamida Sulaymon payg'am-

¹ Rahmatulloh qori Obidov. Payg'ambarlar tarixi islomiyat tarixidir. 2-kitob. 120-bet.

² O'sha manba, 66-bet.

bar dev-u pari, jinlarni o'zlariga bo'ysundirar ekanlar. Dostonning o'ninchi maqolatida rostlik haqida gapiriladi. Shu o'rinda Sulaymon payg'ambar, u kishining sifatlari, mo'jizalari ham tilga olinadi. Nigin qayd etib o'tiladi:

Anga dog'i gardishi charxi barin,
Saltanat ichra berib andoq nigin. ("Hayrat ul-abror". 205-bet)

Yusuf payg'ambar haqidagi qissalardan o'quvchilarimiz yaxshi xabardor. "Xamsa" dagi ba'zi baytlar ana shu qissadagi voqealarga ishora qiladi. Yusuf payg'ambar taqdirining turli tomonlari u yoki bu tarzda misralarda singdirilgan. "Layli va Majnun" dostonidan olingan mana bu baytda Yusuf payg'ambarning akalari tomonidan adashtirib yuborilganliklariga e'tibor tortiladi:

Andin bo'lub ul guruh afgor,
Itgan Yusufnin talabgor. ("Layli va Majnun". 94-bet)

Dostonning o'n uchinchi bobida Qaysning hijrondagi holati tasvirlanadi. Layli ishqida beqaror bo'lgan oshiq dasht-u sahrolarga chiqib ketadi. Otasi, qabiladagilar uni qidirishga tushishadi. Bu narsa akalari tomonidan aldab, sayrga olib chiqilgan, chohga tashlangan, qul qilib sotilgan Yusuf payg'ambar holatiga qiyoslangan.

Yusuf qissalarida bo'ri timsoli ham uchraydi. Akalari Yusufni adashtirib kelgandan so'ng, otalari Ya'qubga uni bo'ri yedi deydi. Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida ham bu voqealar batafsil yoritilgan. Ya'qub bo'riga qarata shunday deydi:

Bo'riga Ya'qub dedi: "Nobakor!
Nega bu bag'rimni qilibsen figor?
Nega yeding Yusufim, ey tan palid,
Seniyu naslingni qilay nopadid...

Bo'ri unga javoban Yusufni yemaganini aytadi:
-Men yemadim Yusufi siddiqni,
Senga de olmon dog'i tahqiqni...

Ana shu kechinmalar “Farhod va Shirin”dagi mana bu baytda o‘z ifodasini topgan:

Bo‘riga sharh etib gah arzi holin,
To‘kub yosh, yod etib Yusuf jamolin¹.
 (“Farhod va Shirin”. 339-bet)

Bu bayt dostonda Farhodning Salosil qo‘rg‘onida bandilikdagi holati tasvirlangan o‘rinlarda keltirilgan. Tabiatan ko‘ngilchan Farhod bandilikda ham goh dashtni aylanardi, goh qo‘rg‘onga qaytib kelardi. Qochib ketmasdi. Qo‘riqchilarning jazolanishini istamasdi. Dasht-utog‘larni kechganda qushlar, sher-u qoplon, bo‘rilar bilan dardlashardi. Yuqoridagi baytda uning bo‘riga arzi hol etgani bayon qilingan. Farhod holati Yusufga qiyoslangan. Yusuf va bo‘ri munosabati endi ayon.

“Xamsa”da Xizr, obi hayot, Ilyos, Iskandar bilan bog‘liq afsonalarga ishora qiluvchi baytlar anchagina. Bularning har biri alohida holda ham o‘z tarixiga ega. Xizr va obi hayot ma‘lum tushuncha. Xizr tilga olinganda obi hayot atamasi ham ko‘pincha yonma-yon qo‘llanadi. Buning tafsilotlarini bilamiz. Ikkinchi bog‘liqlik Xizr va Ilyos juftligi. Bu nima bilan aloqador? “Qisasi Rabg‘uziy”da yozilishicha, Xizr bilan Ilyos tiriklik suvini ichadilar. Xizr daryolarda, Ilyos esa, sahro, dasht-ubiyobonlarda adashganlarga yo‘l ko‘rsatadilar: “Xizr birla ikkilari (Ilyos-T.X.) mangu suyin ichtilar qiyomatga tegi o‘lmaslar. Xizr daryolarda yurur. Ilyos sahrolarda yo‘ldan ozg‘anlarga yo‘l ko‘rguzurlar. Ishlari bu turur”². Ammo ko‘pgina manbalarda aksi. Ya‘ni Xizr quruqlikda kishilarga yordam bersa, Ilyos dengizu daryolarda adashgan, qiynalganlarga madadkor bo‘lar ekan. “Qisasi Rabg‘uziy”da bir oz yanglishish bo‘lgan ko‘rinadi.

Bu obrazlar qatorida Iskandar nomining uchrashi nimani anglatadi? Afsonalardan ma‘lumki, obi hayot-tiriklik suvini Xizr, Ilyos va Iskandar izlashadi. Go‘yo obi hayot zulmat dunyosida bo‘lib, unga yetishish ancha mushkul ekan. Zulmat olamiga kirgan Xizr va Ilyos bir yo‘ldan, Iskandar esa, boshqa yo‘ldan tushib, uni izlashadi. Kim

¹ Durbek. Yusuf va Zulayho//Uch bulbul gulshani. T., 1986. 20-bet.

² Qisasi Rabg‘uziy. 2-kitob. 68-bet.

topsa, bir-biriga xabar berishga kelishib olinadi. Xizr va Ilyos ko'p yurib, bir suv yonida to'xtashadi. Ovqatlanish oldidan suvga qo'llarini yuvishadi. Dasturxonga qo'yilgan qovrilgan baliqqa bir tomchi suv tushadi. Baliq tirilib, suvga tushib ketadi. Xizr va Ilyos bu suv obi hayot ekanligini bilishadi. G'oyibdan kelgan sado istagiga ko'ra bu haqda Iskandarga xabar berishmaydi. Shunday qilib, Xizr va Ilyos tiriklik suviga erishib, mangu hayotga ega bo'lishadi. Iskandar esa, undan benasib qoladi. Nega? Ozarbayjon olimi M.Saidov shunday yozadi: "Nima uchun tiriklik suvini ichish Xizrga nasib etdi-yu, Iskandarga yo'q? Buni shunday izohlash mumkin: birinchidan, Xizr mifologik obraz bo'lgani uchun tiriklik suvi unga qismat bo'ldi. Chunki mifik obraz o'lmas, abadiydir. Iskandar esa, insondir. U erta yo kech bo'lsin o'limga mahkumdirl".

"Qisasi Rabg'uziy"da esa bu voqea boshqacha izohlanadi. Insonga katta hikmat, dunyoning, yashashning mohiyatini anglatadigan ibrat beriladi. Asarda tasvirlanishicha, Iskandar Xizr bilan birga zulmatga kirishga- obi hayotga erishish niyatida harakat qiladi. Xizr ikki ming kishi bilan yo'lga chiqadi. Iskandar xazinadagi "gavhar shabchirog"-qorong'ilikda yo'lni yoritadigan chiroq beradi. O'zi to'rt ming kishi bilan o'tlanadi. Zulmatda qaldirg'ochga o'xshar bir qushga duch keladi. Qush bu yerga kelish sababini so'raganda, Iskandar "mangu suvin tilayu keldim" deydi. Qush iblis edi. Unga yer yuzida yeb-ichib, turli kiyimlar kiyib, binolar qurgani, may ichib, soz eshitib lazzatlangani yetarli emasligini aytadi.

Iskandar zulmatda Isrofilga (oxirzamon farishtasi) uchraydi. U yorug' dunyoni qo'yib, qorong'ulikka nega kelganini so'raydi. Iskandar maqsadini aytadi. Isrofil unga mushukning boshidek keladigan bir tosh berib, undan xulosa chiqar deydi. Olimlar bu toshning hikmatini bilmaydilar. Toshni tarozining bir tomoniga, ikkinchi tomoniga esa tosh, temir soldilar. O'sha kichik tosh og'irlik qiladi. Xizr tarozining ikkinchi tomoniga bir hovuch tuproq solishni aytadi. Shunda ikki tomon teng keladi. Xizr buning ma'nosini aytadi: Olloh senga dunyo

¹ Saidov M. Ozarbayjon mifik tafakkurining gaynaklari. Baku, "Yozuvchi", 1983. 116-bet.

mulkini berdi. U bilan to'ymading. Qachon lahadga kirsang, bir hovuch tuproq bilan to'lasan. Iskandar bu gaplardan xulosa chiqaradi. Dunyoni qo'yib, zohid bo'ladi.¹ Ushbu voqealarga ishora "Xamsa"da uchraydi. "Saddi Iskandariy"ning oxirgi boblarida shahzoda Muzaffar Husayn, Husayn Boyqaro haqida gapirib o'tiladi. Husayn Boyqaro "Shohi G'oziy", "Iskandari soni" – ikkinchi Iskandar deya ulug'lanadi. Husayn Boyqaro Iskandar bilan qiyoslanadi. Shu asosda bir bayt keltiriladiki, u yuqoridagi afsonalarga taalluqli:

Gar ul obi hayvon uchun surdi ot,
Munung har so'zi keldi obi hayot.
("Saddi Iskandariy". 544-bet)

Baytning birinchi misrasida "Gar ul obi hayvon uchun surdi ot" deganda Iskandar nazarda tutilgan. Uning tiriklik suvi izlab chekkan mashaqqatlari tilga olingan. Husayn Boyqaroning har so'zi esa-tiriklik majmuasi-obi hayot.

Ba'zi manbalarda, jumladan, "Qisasi Rabg'uziy"da keltirilishicha, Iskandar olim-u fozillarni yig'ib, uzoq umr ko'rish sababini so'raydi. Bir yigit Odam Safiy vasiyat qilgan kitobda uni o'qiganini aytadi. Qof tog'idan narida qorong'ilik olamida bir chashma borligi, "suvi sutdin oqroq, asaldin suchukrak, sarig' yog'din yumshoqroq. Har kim andin bir ichim ichsa, o'lumas qiyomatg'a tegi"ligini aytadi.²

"Farhod va Shirin"dagi mana bu baytda ham Iskandarning zulmat dunyosi bilan aloqador hayotiga ishora qilingan:

Chiqib chun keldi ul ofot ichidin,
Sikandar uylakim zulmot ichidin.
("Farhod va Shirin". 150-bet)

Ba'zi afsona yoki ertaklarda tasvirlanishicha, Iskandar o'z qo'shini bilan biror mamlakatga hujum qilar ekan, qariyalarni qoldirib kelishni, ularni birga olib bormaslikni buyurgan ekan. Shunda zulmat dunyosiga kirishga to'g'ri keladi. Ammo u yerdan juda tez qaytish kerak

¹ Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob. 94-95-betlar.

² Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob. 94-bet.

edi. Buning tadbirini topa olmaydilar. Bir yigit Iskandardan yashirincha, o'z otasini olib kelgan edi. Chol biyalar bilan zulmatga kirishni, qulunlarni yuqorida qoldirishni, qaytishda biyalar bolasi uchun tez yugurishini aytadi. Shunday qilib, Iskandar yer ostiga – zulmat dunyosiga omon-eson kirib chiqqan ekan. Iskandarning ushbu sarguzashti Farhod holatiga qiyoslangan. Farhodning g'orga-qorong'ulikka kirib, Ahriman devni o'ldirib chiqishi o'sha voqealarga o'xshatilgan.

Mana bu misralarda ham Xizr, Iskandar, obi hayot va zulmat kabilar eslatilgan:

Sikandar birla chun mehnatga tushtuk,
Tilab hayvon suyin zulmatga tushtuk.
("Farhod va Shirin". 163-bet)

Farhodning Suqrot tog'ida Xizrga ro'para kelishi, u bilan muloqotda bo'lishi tasvirlanadi. Xizr Iskandar bilan birga tiriklik suvini qidirgani, zulmatga tushgani, obi hayot unga nasib etib, Iskandar quruq qaytganini aytadi:

Mening jonim chu ul suv birla qondi,
Sikandar jon chekib, lab tashna yondi.
("Farhod va Shirin". 164-bet)

Iskandarning "lab tashna yondi"shi –obi hayotga yetolmay tashna-chanqoq qaytishini anglatadi.

"Sab'ai sayyor"dan olingan mana bu baytda obi hayotning o'rnini tilga olingan:

Tutubon uyni mushkdin zulmot,
Mahvash ul zulmot ichra obi hayot. ("Sab'ai sayyor". 122-bet)

Dostonda shanba kuni Bahromning "qasri mushkin"- qora qasrda "lu'bat hindzod"-go'zal mahvash bilan kechgan tuni tasvirlanadi. Qora qasr, mushksifat uy-zulmatga o'xshatilgan. Undagi mahvash-oysurat qiz esa "obi hayot"- tiriklik suvi sifatida baholangan.

"Xamsa"da "oyinai Chin", "Oyinai Iskandariy", "oyinai getinamo", "oyinai jahonnamo", "Jomi Jam" kabi mumtoz adabiyotimizda

ko'p ishlatiladigan, ma'lum tafsilotiga ega sehrli oyna va jom haqida so'z boradi.

“Oyinai Chin” nima? Bu haqda, uning sirli xususiyatlari haqida ko'p gapiriladi. Ba'zi o'rinlarda “Oyinai Iskandariy” qo'llaniladi. “Saddi Iskandariy”da Xitoy hoqoni Iskandarga sovg'a qilgan oyna ham sehrli edi. Navoiy ta'rificha, u oynaning ikki yuzi ikki xil mo'jizali, ya'ni bir yuzi orqali gunohkor va gunohsiz (gunohkor oyinaga qarasa aksi ko'rinmas, gunohsiz qarasa ko'rinar ekan) aniqlansa, ikkinchi yuzida majlisda o'tirib ko'p ichib mast bo'lib qolgan odamning basharasi namoyon bo'lar ekan.¹

“Oyinai Iskandar” ning qanday xususiyati bor? “Layli va Majnun” izohlarida shunday yoziladi: “Oyinai Iskandar- Iskandar oynasi. Iskandar tomonidan temirga sayqal berib yaratilgan oyina. Go'yo unda Jamshidning jomidagidek, shu asnoda bo'layotgan narsalarni ko'rsa bo'lar ekan”².

“Sab'ai sayyor” dostonining yigirma yettinchi bobi to'rtinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir hikoyatidan iborat. Unda Dehli shohi Juna va tarozlik Mas'ud voqealari bayon qilinadi. Hikoyatning boshlanishida bir ko'zgu haqida gipiriladi. Bir musofir mehmon Junaga ko'zgu sovg'a qiladi:

Tuhfa kelturmish erdi bir ko'zgu,
Kim ani tutsa har kishi o'tru.

Chin desa aksida safo erdi,
Desa yolg'on yuzi qaro erdi. (“Sab'ai sayyor”. 207-bet)

Demak, bu ko'zguning xususiyati shuki, kim rost gapirsa, aksi toza, charog'on bo'lardi. Yolg'on gapirsa yuzi qora tusga kirardi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, oyinai Chin gunohkor – gunohsizni aniqlab bersa, Iskandar oynasi esa bo'layotgan voqealarni ko'rsatar ekan. Ko'zgu esa yolg'onchi yoki rostgo'yni ajratadi. Ana shu tafsilotlar Navoiy “Xamsa” sidagi qator baytlarda o'z ifodasini topgan.

¹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. 615-bet.

² Alisher Navoiy. Layli va Majnun. 348-bet.

“Hayrat ul-abror”da shunday bayt bor:
Ochti bu gulshanniki rangin erur,
Har gul anga oyinai chin erur. (“Hayrat ul-abror”. 20-bet)

Bu bayt dostonning “Avvalg’i munojot” deb atalgan uchinchi bobidan. Ma’lumki, dostonlarning “Munojot” qismida Haqqa iltijo qilinadi. Uning buyukligi, yakka-yu yagonaligi, husnda tengsizligi, olamni yaratgani kabi qator jihatlari ulug’lanadi. Yuqoridagi baytda olamdagi har bir narsa unga ayon, aniq ko’rinib turishi aytiladi. Har bir gul oyinai chin ekanligi ta’kidlanadi.

“Farhod va Shirin”dagi mana bu misralarda “oyinai getinamo” jumlası ishlatilgan:

Bo’lub geti aro mehri samo ul,
Hamul oyinai getinamo ul. (“Farhod va Shirin”. 169-bet)

“Giti” (yoki geti) – olam, dunyo. “Oyinai gitinamo” –jahonni ko’rsatuvchi oyna. Biz yuqorida tilga olgan Iskandar Zulqarnayn ixtiro qilgan va dunyoda bor narsalarni aks ettiruvchi oyna. Yuqoridagi bayt Farhodning Suqrot tog’iga borib, Xizr bilan muloqotda bo’lgani, sehrli oynaga ega bo’lgani xususida.

“Layli va Majnun” dostonida esa “oyinai jahonnamo” atamasi tilga olinadi:

Anglab edi ko’nglining safosin,
Bal oyinai jahonnamosin. (“Layli va Majnun”. 172-bet)

Bu bayt dostonning yigirma uchinchi bobida keltirilgan. Unda Laylining otasi Navfal qo’shinidan kuchsizligini seza boshlagach, Laylini o’ldirishni xayol qilgani, bu narsa Majnunning tushida ayon bo’lib, Navfaldan jangni to’xtatishni so’ragani kabilar haqida boradi. Majnun ko’ngli oyinai jahonnamoga o’xshatilgan.

Umuman, “Xamsa”da turli afsona, qissa, rivoyatlarga ishora qiluvchi baytlar mohiyatini shu xilda sharhlash, shoir asarlarini tushunishni osonlashtiradi.

4. "XAMSA" DA ADABIY TUSH VA UNING MOHIYATI

"Xamsa" nafaqat o'zbek, qolaversa, jahon mumtoz adabiyotining nodir namunalari sanaladi. "Xamsa"ning mazmun-g'oyasi nihoyatda serqirra va keng qamrovli. Qancha ko'p o'rganilsa, tadqiq etilsa, shunchalik yangi fikrlar, xulosalar va ma'no kashf etiladi. Shoir o'z asarlarida insonni kamolotga yetaklaydigan fazilatlar, samimiy tuyg'ular, ezgulik, go'zallik g'oyalarini kuyladi. Uning qalbini qabohatga to'ldiradigan, yovuzlikka boshlaydigan illatlardan qaytarishga, asrashga intildi. Vatan, xalq taqdiri, el farovonligi uchun mas'uliyat hissini tarbiyaladi. Dostonlarni o'qir ekan, o'quvchi qalbini mehr-oqibat, vafo, sadoqat, insof, diyonat, adolat, qadr-qimmat, izzat-hurmat, mehnat kabi yuksak axloqiy insoniy tushunchalar qamrab oladi. Bu narsa bugungi kunda g'oyatda kerakli, ma'naviyati yetuk, komil insonlar tarbiyalashda zaruriy tuyg'ulardir.

"Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlari badiiyatning ham yuksak namunasi sanalib, shoir iqtidorining benazir ko'zgusi deyish mumkin. Ana shu ko'zguda yuksak mahorat bilan aks ettirilgan tush lavhalarining go'zal tasvirlariga ham duch kelamiz. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi asarlari bo'lsin, yozma adabiyot bo'lsin – asar qahramonlari taqdirida tush muhim o'rin tutadi. Mumtoz adabiyot namunalarida bu epizodni ko'p uchratamiz.

Tush nima? Uning qanday ilmiy asoslari bor? Bu savollarga javob turlicha. Shu o'rinda "tush" tushunchasining izohi xususida. Folklorshunos Jabbor Eshonqul folklordagi tush lavhalari xususida tadqiqot olib borar ekan, bu haqda quyidagilarni bayon etadi:

"Ushbu tushuncha "o'z" va "o'zga olam", ya'ni xalqona "chin dunyo" va "yolg'on dunyo" deb ataluvchi dunyoqarash bilan bog'liq. Aslida bunday tushuncha va tasavvurlar dunyoning aksariyat xalqlari mifologiyasi, dinlarida ham mavjud bo'lib, mifologik, diniy, falsafiy adabiy manbalarda ko'plab talqinlarga ega. Ushbu dunyoqarash va tushunchalarga ko'ra biz yashayotgan voqelik aslida "yolg'on dunyo" bo'lib, o'zga olam – chin dunyoning soyalari deb qaraladi. Inson uxlab, uning ruhi ravoni chin dunyoga borishi yondosh (parallel) olam-

larga o'tishi mumkin deb tushuntiriladi. Ruhi ravonning chin dunyoga vaqtinchalik sayohati davrida ko'rgan – bilganlari tush deb qaraladi"¹.

Badiiy asarlarda tush lavhalarining alohida o'rni va "vazifasi" bor. Masalan, xalq og'zaki ijodida, "bevosita tush asosiga qurilgan "Musofirbek", "Sirli tush", "Xon bilan kambag'al dehqon", "Ibratli tush" kabi ertaklar bor"².

Tushdagi timsollarning yechimini aniqlash ham muhim, bu masala ta'birnomalarda o'z izohini topadi. Ana shunday ta'birnomalar sirasiga "Irq bitigi", "Ta'birnomai Yusuf alayhissalom" kabi asarlarni ham kiritish mumkin.

Yozma adabiyotda ham tush manzaralari alohida ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunos olim Yo.Is'hoqov adabiy tush usuli "Xamsa"-da faol badiiy vositalardan ekanligini ta'kidlaydi va ularni xarakteriga ko'ra ikki guruhga ajratadi:

1) ularning ba'zilar folklor asarlarida keng ishlatilgan (xususan ertaklar) badiiy priyomga aynan mos keladi.

2) ba'zi birlari esa shartli ramziy xarakterda bo'lib, avtor tomonidan ma'lum maqsadda (masalan, u yoki bu asarning yozilishini asoslash, "Xamsa" problemalari va g'oyalarini o'z zamonasi bilan bog'lash maqsadida) qo'llangan.

Birinchi guruh tushlar, asosan, asar qahramonlariga taalluqli bo'lib, asar sujetining keyingi rivoji uchun turtki-tugun hisoblanadi.³

"Layli va Majnun" ning XXIII bobidagi tush lavhasini ana shu guruhga kiritish mumkin. Navfal qo'shinlariga bas kelolmasligini anglagan Laylining otasi:

Ofat elidin o'chub charog'im

Toroji xazong'a qolsa bog'im .

Xushroqki aduvg'a kom bo'lg'ay

Nomus manga harom bo'lg'ay. (167-bet)

¹ J.Eshonqul. Tushning semantik talqini. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. 2005, №4. 33-bet

² J. Eshonqul. O'zbek xalq dostonlarida tush motivining o'rni va tasnifi. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. 2003, №6. 29-bet.

³ Is'hoqov Yo. "Xamsa"da badiiy psixologizm tiplari // Alisher Navoiy "Xamsa"si. T., 1986. 76-bet.

Garchi, ofat shamolidan charog'im o'chsa, bog'um xazon tusga kirsam ham, dushman maqsadiga yetgandan, elning nomusiga qolgandan ko'ra, yaxshisi, so'nggi chora-Laylini qatl etish degan qarorga keladi.

Bu holat Majnunga tushida ayon bo'ladi:

Ko'rdiki kelur nigori zebo,
Boshdin ayog'ig'a hazzu debo.
Yo'q, yo'q, ne nigor, sarvi gulchehr
Ne sarv, ne gulki, g'ayrati mehr. (168-bet)

Majnunning tushida Layli tasviri ko'rinadi. Layli "nigori zebo" ning boshdan oyog'igacha "hazzu debo" – kishini o'ziga maftun etadigan darajada harir kiyimdaligi (haz – halovat, bahra, debo - nozik naqshlar solib to'qilgan ipak mato), go'zallikda sarvu gul, quyoshning ham rashkini keltirishi ayon bo'ladi.

Hajr o'tida sham'i olamafro'z
Ya'niki ishi gudoz ila so'z ...
Sabrini oqizg'an ashk sayli,
Ya'ni mahu mehr rashki Layli. (168-169-betlar)

Ishq o'tida dunyolarga o't qo'yishga qodir, hijron azobida yonib – kuyayotgan sham. Ko'z yoshlari sabru qarorini tamom oqizgan, kunga ham, oyga ham hasad g'avg'osini solgan Layli.

Demak, go'zallikda tengsiz nigor, qaddi sarvga, yuzi gulga, balki oy-u quyoshga ham g'avg'o solgan suluv, ishq o'tida bamisoli shamdek yonib, ayriliq iztiroblarida qolgan, sabr-u ixtiyori qo'lidan ketgan Layli, ming oh, firoq nolalari chekib Majnunning yoniga keladi va:

Etgach alif qadin qilib dol
Majnunni oyog'in o'pti filhol. (169-bet)

Alifdek qomatini dol kabi egdi-yu Majnunning oyog'ini o'pdi. Shu tarzda Layli zor-zor yig'lab, seviklisi Majnunga otasining maqsadini so'zlaydi:

Ishqingda manga bu erdi maqsud
Kim, ko'rsam o'zumni anda nobud.
Ishqingda ne orzuki ettim,
Ul nav'ki komim erdi ettim. (169-bet)

Tog'larni talqon qilgan Farhod ma'shuqasi Shirin ishqida jon taslim qilishni o'ziga maqsad deb bilgan edi. Ishqda chin oshiq va ma'shuqaning matlabi bitta. Layli ham seviklisi Majnun ishqida qurbon bo'lishni istar edi, Davron uni shu orzusiga, ishq bobidagi maqsadiga yetishtirganligidan xursand, shod. Majnun ham goh hush, goh behush faqat Layli haqida o'ylar, uning xayoli bilan yashar, goh xayoliy visoldan xursand, goh hijron dardidan parishonxotir ekan, seviklisi hayotiga yetayotgan xavfdan tushida ogoh bo'ladi va o'ngida buning oldini oladi. "Ta'birnoma" larda keltirilishicha: "...Aynan tushlarda bizni qattiq bezovta qilayotgan masala yoki muammolar o'z ifodasini topgan bo'ladi"¹.

Ko'rinadiki, ushbu tush lavhasi doston sujetining rivojida keladi va voqealar taraqqiysida muhim turtki bo'ladi.

Dostonning XXXIII bobidagi tush manzarasiga to'xtalib o'tamiz. Majnunning manzili sahro-yu cho'l edi. Sababi ishq uni hushidan begonalashtirgan edi. O'g'lining "telbanamo" ahvolini ko'rib, ming jafolar chekkan ota-ona hasrat va qayg'uda olamdan o'tadi. Bu vaqtda Najd tog'ida sargardon yurgan Majnun ularning vafotidan tushida voqif bo'ladi.

Kim, ikki kabutari yagona
Bir uyda chiqardilar javona.
Chun chiqdi javonag'a paru bol,
Charx ayladi oni muztarib hol. (261-bet)

Bir uyda ikki kaptar bola ochgan. Kaptar bola qanot chiqargach charx uni iztiroblarga soldi. Necha muddatlar havoyi ahvol, parishonxotir kaptar bolasi ota-onasidan ayrilib, sahroni o'ziga maskan

¹ G.X.Myuller. Tushlar ta'birnomasi. T., 2006. 3-bet.

tutadi. Ota-ona kaptarlar uni uyga qaytarishga harchand urinsalar ham, ammo uddasidan chiqolmaydilar. Umidsizlik bilan qaytar chog'da:

Yuqoridin indi ikki burgut
Qildilar ikki hamomani qut. (262-bet)

Inson umrining oxirini ko'rsatuvchi, hayotdan nasibasi uzilganini anglatuvchi holatlar anchagina. Tushda ayon bo'ladi, ko'ngil seza-di, ba'zi alomatlar ko'rinadi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ham ana shu jihatlar tasvirlangan. Tush, uni ta'birlashga doir mulohazalar bildirilgan. Asar qahramonlaridan biri O'zg'urmish tush ko'radi:

Shoti ko'r dum, ellik uning pog'nasi,
U tiklab qo'yilgan-baland va yassi
Unga chiqib bordim bosib birma-bir,
To oxir sanadim o'zi nechta-dir.
Tepada suv tutar bir otliq odam,
Olib ichdimu men qoniqdim u dam¹.

Bu tushni O'gdulmish obro', davlat, amalga erishish tarzida sharhlaydi. O'zg'urmish esa uning to'g'ri talqinini aytadi. Shoti-yigit hayoti. Uning yuqorisiga chiqish-ularning tugashi. Otliq tutgan suvni qoldirmay ichish- nasibaning uzulgani edi. Bu ta'bir rost chiqadi.

Yuqoridan ikki burgut chang solib, ikkisini ham bir luqma bilan yemish etdi. Bu tush ta'birini sezgan Majnun ota-onasining vafot etganlaridan voqif bo'ladi:

Bildiki ota-onasi o'lmish
Xurshidi hayoti tiyra bo'lmish. (262-bet)

Muztarib hol, havoyi kaptar-ishq tufayli ixtiyori qo'lidan ketgan Majnun. Uning dardida noumidlikda qolib burgutga o'lja bo'lgan

¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T., 1990. 129-bet.

ota-ona kaptarlar-o'g'lining g'amu qayg'usida ajalga asir bo'lgan Majnunning-volidasi, padari. Darhaqiqat, ota-onalar hayotimizni nurga to'ldirib, yo'llarimizni yoritib, bag'rimizni isitib, umrimizga farah baxsh etib turgan quyoshdir.

"Layli va Majnun" dagi Majnun tushlari voqeligi, g'oyasi bilan bir-biriga o'xshash. Ikkala o'rinda ham noxushlik alomati namoyon bo'ladi. Birida baxtsizlikning oldini olish uchun tush ayon bo'lsa, ikkinchisida baxtsizlik, ayriliq, ota-ona qismati ayon bo'ladi.

Ko'rinadiki, shoir mana shu tush sujeti orqali, eng go'zal tashbehlar vositasida Majnunning butun qismatini yuksak mahorat bilan ramziy tarzda ifoda eta olgan.

"Xamsa"da maxsus ishlatilgan, lekin adabiy tushdan boshqacha xarakterga ega bo'lgan, yana bir usul mavjudki, buni Navoiyning iborasi bilan (shartli ravishda) "surush" (ba'zan "hotif nidosi") deb atash mumkin".¹

Ana shunday holatga "Farhod va Shirin" ning VIII bobida duch kelamiz:

Meni mahzunni ishq i barqraftor,
Ul ofat o'tig'a aylab giriftor. (36-bet)

Ushbu bobda asarning yuzaga kelish, yaratilish sabablari ko'rsatiladi. Shoir bir pari-chehraning ishqiga giriftor. Oshiq ishqda qanchalar jununvash holga tushgan bo'lsa, ma'shuqasi shunchalar sitamkor. Ana shunday chuqur qayg'uda qolgan oshiq-shoirga g'oyibdan bir nido eshitaladi:

Bu g'amdin menda qolmay aqlu hushi,
Bu nav' etti nido nogah surushi.
Ki, ey kunni malolatning xamuli,
Tushub dardu balo ko'nglung qabuli.
Chu sen mundin burun xomang qilib tez,
Suman bargini qilding sunbul omez. (37-bet)

¹ Yo.Is'hoqov. Alisher Navoiy "Xamsa"si. T., 1986. 78-bet.

Demak, hotif ko'ngli (yuqorida hotif, Surush haqida alohida fikr yuritganmiz) qayg'u va g'amga to'lgan, dardi-dunyosi ko'ziga qorong'u bo'lib, siqilgan shoirga nodir iste'dodi ila qalamini o'tkir-lashtirib suman gulning yaprog'ini sunbulnikiday xushbo'y qilgan-ligidan so'zlaydi. Ya'ni "Xamsa" ga ishora qiladi.

Nechukkim Xizr zulmatdin nihoni,

Ulusqa sochting obi zindagoni.

Yasading ravzai zarkor tarhin

Chiqording "Hayrat ul-abror" tarhin. (38-bet)

Sen "Hayrat ul-abror" ni yaratdingu, bamisoli Xizrdek tiriklik su-vidan elni bahramand etding. Bir bog' bunyod etdingki, tamom be-zaklari oltindan. Xizr zulmatdan obihayot chashmasini topgan, aba-diy barhayot afsonaviy shaxs obrazi. Badiiy asarlarda doim yashil rangdagi kiyimda yuradigan nuroniy sifatida tasvirlanadi. Ushbu tashbehni shunday izohlash mumkin: Shoir – Xizr. "Hayrat ul-abror" – obihayot. Xizr – obihayot- yashil rang tiriklik va manguлик timsoli. Demak, shoir ham, uning dostoni ham manguликka daxldor. Shuning-dek, buyuk qalam qudratidan barpo etilgan bog' ham mangu yashnay-veradi. Minglab qalblarga ma'naviy rohat baxsh etaveradi.

Agarchi ayturida ranj topting,

Vale ko'rkim ne yanglig' ganj topting. (38-bet)

Agarchi, asarni yozishda ranj tortgan, qiynalgan bo'lsangda, lekin qara, qandayin xazina topting. Darhaqiqat, Navoiy yaratgan doston – bahosi yo'q xazina. Durlari nozik ma'nolar, injulari- go'zal tashbe-hlar, badiiy vositalar, gavharlari – inja, nafis tuyg'ular bo'lgan xazi-na. Ushbu xazinaning "qulfi til va ul qulfnig kaliti so'zdir". So'zlar sehrini anglab, til qulfini yecha olganlar o'sha chashmadan qalbi-yu ruhini poklaydilar.

Qo'yub muncha nuqudi ganji shohi,

Ki, andin yorubon, mah toba mohi.

Topib bir qalb siymu aylabon but,

Anga yo'q toshu dur ichra tafovut. (38-bet)

Sen shundayin, oylar davomida o‘z-o‘zidan nur berib turadigan shohona xazinani qo‘yib, inju bilan toshni farqlab bilmaydigan, bir qalbaki kumushdan yasalgan sanamga topinmoqdasan. Qalbaki kumushdan yasalgan sanam – unda faqat tashqi go‘zallik bor. U haqiqiy baxt-qalbnig samimiy tuyg‘ularini tushunishdan, oshiq iztiroblarini his etishdan, unga qayg‘udosh bo‘lishdan yiroq, ojiz. Inju bilan toshni farqlamaydi. U chin oshiq, qalb egasi bilan - nafsning quli bo‘lganlar, shunchaki “sevadiganlar”, “raqiblar” ning farqiga bormaydi. Oshiqqa jafokash, elga chehrasi ochiq.

Ushotib butni imon ganji topqil,
Qo‘yub bu jahl, irfon ganji topqil.
Yana bir konni qazmoqliqqa mayl et,
Qazib ahbob aro naqdin tufayl et. (39-bet)

Sen o‘sha butni (bevafo sanamni) sindir (unut). Imon xazinasini top. Jahlingni yig‘ishtiru, ilmu irfon xazinasiga erish. Yana bir ulkan konni qazishni boshla va topgan xazinangdan elni, do‘stlaringni bahramand et. Demak, yangi konni qazishdan, yana bir doston yaratishga kirishishdan avval, o‘shanday qudratga ega bo‘lish, aql va imon chiroqlarini yoqish kerak.

Hazin Farhod shug‘lin ayla shirin
Ki, topqaysen nigore o‘yla Shirin.
Ki, ul Shiring‘a bu yondoshsa bir dam
Aning shirinlig‘idin kelmagay kam. (39-bet)

Mahzun Farhodning mashg‘ulotini Shirin qilib qo‘ysang, ya‘ni, “Farhod va Shirin” dostonini yaratsang, o‘zing shunday bir sevgiliga uchraysanki, agar bu sevgiling Shiringa bir dam yondashsa, Shirinligi uning Shirinligidan kam kelmaydi. Ya‘ni Shirindan ham suluвроq ma‘shuqaga uchraysan. Ko‘rinadiki, shoir to‘rt misrada ham “Shirin” so‘zini qo‘llaydi. Bu baytda g‘alizlik tug‘dirmaydi, aksincha, uning jozibasini ta‘minlaydi.

Qayu ganj ulki olding beshidin bir,
Ikkinchisin olurg'a ayla tadbir.
Erur sendin talab, bizdin hidoyat,
Gadolig' sendinu bizdin inoyat. (40-bet)

Sen xazinaning beshdan birini qo'lga kiritding. Endi ikkinchisini ham olish tadbirini qil. Ya'ni "Xamsa" ning birinchi dostonini yaratding. Endi ikkinchisi "Farhod va Shirin" ni yozishga kirish. Sendan talab bo'lsa, biz yol ko'rsatuvchi bo'lamiz, sen gado bo'lib tilansang, biz tilagan tilagingni beramiz. Sen chin yurakdan bu ishga kirishsang, biz senga kuch-qudrat ato etamiz, bu borada senga rahnamolik qilamiz.

Chu hotifdin yetishti bu navidim,
O'zumdin o'zga nav' o'ldi umidim. (40-bet)

Hotifdan bu xushxabarni eshitib umidim o'z-o'zidan o'zgarib ketdi. Ko'rinadiki, hotif shoirni "Xamsa"ni davom ettirishga, yangi bir doston yaratishga, "Farhod va Shirin" sevgisini kuylashga chorlaydi, qalbiga umid baxsh etadi. Zero: "Surush shoir ikkilanish, jur'atsizlik holatida bo'lgan paytda, uni ruhlantiruvchi, o'ylagan ishiga jiddiy kirishishga rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Uning ta'sirida ziddiyatli psixologik holatda keskin burulish paydo bo'ladi".¹

Hotif nidosi "Layli va Majnun"da ham shoirga hamroh, hamnafas sifatida gavdalanadi. Dostonning IX bobida shu holatga duch kelamiz. Ushbu bob tun tasviri bilan boshlanadi. Atrofga tun zulmati cho'kkan. Vujudi shu zulmatga asir bo'lgan shoir xayol otiga minadi, arab tuprog'iga yetganda ishq hidini sezgan hamono ot chopishdan to'xtaydi. Ishq vodiysiga yetgach, undan nari o'tib ketmoq mushkul edi. Bu shunday vodiy ediki, undagi hamma narsa vujudga titroq soladi. Goh qattiq shamol uvillaydi, yomg'ir undanda dahshatliroq. Yashin har tomonga uchar ekan, ba'zan yirtqich hayvonlar ko'rinadi.

¹ Is'hoqov Yo. Alisher Navoiy "Xamsa"si. 78-79-betlar.

Shu vodiya tanlari tuproqqa aylangan oshiqlarning suyaklari unda-bunda oqarib turadi. Xayol otiga mingan musofir ushbu holatlarni ko'rib o'ziga-o'zi deydi:

Deb o'zigakim: "Erur bu tunmu?
Yo dashti baloda tiyra kunmu?
Munchamu bo'lur jahonda ofat,
Har yon qadam ursa anda ofat?
Ne vodiya ekan bu tiyra vodiya
Kim dam yo'lini tutar savodi". (53-bet)

Bu tunmi yo balo dashtining qora kunimi? Jahonda buncha ham baxtsizliklar bo'ladimi? Qayerga qadam qo'ymayin ofat... Bu qorong'u vodiya qanday vodiya, uning zulmati nafas yo'limni bo'g'ayotir.

Tun – balo dashtining qora kuni. Baxtsizliklar, ofat bu qorong'u zulmat vodiysini qoplagan. Hamma, "qoraliklar" bir bo'lib, nafas yo'lini bug'adi.

U bo'lmayin ushbu ishta voqif
Kim, qildi nido xujasta hotif.
Kim: "Keldi bu dasht – ishq dashti
Jon ofati keldi sarguzashti". (53-bet)

U ham bu "qoraliklar" neligini anglab yetmay, g'oyibdan nido keladi. "Bu ishq dashtidir, sarguzashti – jon ofatidir". Darvoqe, ishq vodiysidagi har qanday sarguzasht jonning ofatidir. Bu ofat ayriligidan, hijrondan, rashkdan, ishqning ming turli ko'rguliklaridan.

Kimsa bo'la olmay anda sokin,
Sokin neki, yo'q mururi mumkin.
Juz bir kishikim sipehri bulbod,
Bilmas yana bir aning kibi yod...
Ishq ichra junun aning sifoti,
Majnun deyilib jahonda oti. (54-bet)

Cheksiz ofatlardan iborat bo'lgan bu vodiya hech kim yashay olmaydi, yashashgina emas, o'tishga ham imkon topa olmaydi. Dunyo bir kishidan boshqa hech kimning bu vodiya qadam qo'yganligini bilmaydi. Muhabbat bobida devonalikka yetishganligidan, uning nomini Majnun deb atashardi. Darhaqiqat, balo vodiysiga qadam qo'ymoq, ishq dardiga, muhabbat otashiga giriftor bo'lmoq demakdir. Ana shu dardga, otashga chidab beradiganlarga, undan keladigan har qanday azoblarga bardosh etadiganlar, ishqning jami g'urbatlarini sevinch bilan qabul aylaydiganlarga bu vodiya yashay oladilar. Dunyo-dunyo bo'lib bu vodiya faqat bir kishini – faqat bitta chin oshiqni ko'rdi. Ishq uni aqlu hushdan tamom ayirgan edi. Devonasifat etgan edi. Shuning uchun ham "Majnun" nomi bilan mashhur bo'ldi.

Bir nodira ishq muhtalosi,
Ne nodirakim jahon balosi.
Ishq ichra nechukki ul yagona,
Bu - husnda ofati zamona. (55-bet)

U bir nodiraning ishqiga muhtalo edi, nodiragina emas, balki jahon balosining ishqiga. Majnun ishqda yagona bo'lganidek, seviklisi ham husnda zamona ofati edi. Darvoqe, Majnun pok ishq egasi edi. Pokiza muhabbat esa tangrining inoyati bo'lib, ana shunday ulug' in'omga loyiq qalbi pokiza insonlargagina ato etiladi. Majnun shunday pok va samimiy muhabbati Layliga tushadi. Layli ham tangrining sevgan bandasi. Yo'qsa, uning surati-yu siyratini bunchalar go'zal yaratarmidi? Unga o'zidanda go'zal muhabbatni ato etarmidi? Bu sevgi afsonasida oshiq ham, ma'shuq ham ishq bobida bir-biriga munosib edi, zamonasining yaktolari edi.

Afsonalari jahonda nomiy,
Nazm aylab Xusrav-u Nizomiy
Andoqki bo'lub demakka mayli,
Nazm avjining axtari Suhayli. (55-bet)

Bularning jahonga mashhur afsonalari haqida Xusravu Nizomiy-
ylar doston yaratdilar. She'riyat osmonining yulduzi Suhayliy ham
"Layli va Majnun" haqida so'zlashga mayl qilgan. Demak, hotif ishq
vodiysi haqida, "Layli va Majnun" afsonasi-yu bu afsona asosida dos-
tonlar yaratgan shoirlar haqida so'zlaydi.

Chun qissani anglading ravon bo'l,
Sung'il varaqu qalam sori qo'l.
Sendan raqam aylamak hikoyat,
Bizdin sanga so'z sori hidoyat. (56-bet)

Bu qissani anglading, endi dadil bo'lib, qog'oz, qalamga qo'l
cho'z. Sendan bu hidoyatlarni yozmoq, bizdan senga to'g'ri yo'l
ko'rsatmoqdir. Shu tarzda hotif shoirmi ushbu sevgi afsonasini nazm-
ga solishga, yana bir xazina yaratishga undaydi.

Hazrat Navoiy qalamiga mansub "Farhod va Shirin", "Layli va
Majnun" dostonlaridagi tush lavhalarini ko'rib chiqar ekanmiz, shoir
iste'dodiga ming bora tan bermasdan iloj yo'q. Zero, benazir qalb so-
hibi, xalqimizning buyuk farzandi ushbu asarlarida ham so'z san'ati-
ning, badiiyatning yuksak qudratini yana bir bora isbotlab berdi.

Alisher Navoiy dostonlari badiiy jihatdan nihoyatda yuksak. Har
bir bayt, har bir satrda olam-olam ma'no mujassam. Navoiy hikoy-
alarida asosiy diqqat inson obrazini yaratishga qaratilganligini, ana
shu insonning ma'naviy qiyofasi va ichki ruhiy kechinmalarini mo-
hirlik bilan ochishda shoir badiiylkdagi hamma vositalardan mohirl-
ik bilan foydalangan¹.

"Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlarining ham bir necha
o'rinlarda tush manzaralarining go'zal va betakror chizgilari ko'zga
tashlanadi.

Odam alayhissalomni Alloh yer yuziga yuborgandan beri, uning
avlodlari tush ko'radilar va bu ilohiy mo'jizaning sir-asrorlarini bil-
ishga, uning asl ma'no-mohiyatini anglab yetishga harakat qiladilar.

¹ Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfası. Toshkent: Adabiyot va san'at na-
shriyoti, 1991. 11-bet.

Olim-u ulamolar asrlar mobaynida to'plangan tajribalarga, Qur'oni karim oyatlarining mazmuniga va o'tgan payg'ambarlar, xususan, payg'ambarimiz alayhissalomning shaxsiy hayotlarida sodir bo'lgan ajoyib hodisa-voqealarga, murakkab avliyolarning karomatlariga asoslanib, tush ta'biri ilmini yaratishga muayassar bo'lganlar¹.

Xalq ijodiyotida, ko'pincha ertak va dostonlarda sujet va kompozitsiyani rivojlantirish, qahramonning sarguzashti va xarakterini yaratishda "tush" bir usul, vosita sifatida xizmat qiladi. Bu usul deyarli barcha xalqlarning so'z san'atiga, folklori va adabiyotiga xosdir. Antik tarixchilardan Xares Mitilenalik (er. avv. IV a) Midiya va qadim O'rta Osiyo tarixini bayon etar ekan, bir-birini tush ko'rib sevib qolishgan "Zariadir va Odatida" qissasini hikoya qilib qoldirgan o'zbek xalq ijodiyotida, xususan, romantik dostonlarda ham "tush"ning o'rni katta. V.M.Jirmunskiy va H.T.Zaripov "tush" masalasini Go'ro'g'li va Mashriqa, Avazxon va Intizor, Kuntug'mish va Xolbeka, Orzigul va Suvon kabi qahramonlar misolida yoritadilar. "Tush" o'zbek yozma adabiyotiga, xususan folklor an'analari namoyon bo'lgan asarlarda ham xosdir. O'zbek klassik adabiyotining "Yusuf va Zulayho", "Gul va Navro'z", "Qissai Sayfulmuluk" kabi asarlari bunga dalil bo'la oladi.

Navoiy "tush" usulidan o'rinli va unumli foydalangan. "Tush" Navoiy asarlarida muqaddima yoki voqea tuguni o'rniga keladi, g'oyaviy-estetik muddaoni yoritishga, qahramonlar xarakterini takomillashtirish va hikoyaviy-romantik tasvirni kuchaytirishga xizmat qiladi. "Layli va Majnun" hamda "Sab'ai sayyor" da "tush" voqea bayoniga o'tish uchun bir muqaddima yoki "sababi ta'lif" vazifasini o'taydi. "Sab'ai sayyor" ning muqaddimasida shoir tushida yetti gumbaz ko'rgani, yetti gumbazda yetti hikoya eshitgani va shular dostoniga asos bo'lganini badiiy jihatdan ifodalaydi².

"Sab'ai sayyor" dostonining sakkizinchi bobida Navoiyning tushi keltirilgan. Shoir e'tiroficha, tushida go'zal bino, unda mavjud bo'lgan yetti gumbazni ko'radi. Har bir gumbaz o'zgacha rangda.

¹ Abduqahhor Shomiy. Tush ta'birlari. T. 2002. 3-bet.

² Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. T., 1974, 213-214-betlar.

Unda yettita mutasaddi kishi bo'lib, kiygan kiyimlari gumbaz rangida edi. Birinchi gumbaz qora rangda, ikkinchi zar-oltin rangli, uchinchi-si yashil, to'rtinchisi "gulfom" – gul rangli – qizil, beshinchisi ko'k, oltinchisi jigarrang, yettinchisi oq rangda edi. Har bir koshonada turli kishilar maqom tutgan edi. Har kun bittasining xonadonida bazm bo'lardi. Dono, aqlli kishilardan biri bir afsona aytib beradi. Shoir ularni zavq bilan tinglab, yodda saqlardi. Shu asnoda uning yoniga "xizrvash pir" keladi. Unga bu voqealarning ma'nosini anglagan-anglamaganini so'raydi.

“... Yetti afsonakim, sanga dedilar,
Yod tutgung borini to dedilar.
Senki mundoq ajab safar qilding,
Bu g'aroyib sari nazar qilding.
Kayfiyat neni aylading mafhum,
Bo'ldimu bu ish haqiqati ma'lum”. (45-46-betlar)

Shoir bu sirning mohiyatini Surushdan so'raydi. Surush unga “iki yil ranj” chekib “iki-uch ganj” yaratgani, ya'ni “Xamsa” ning dastlabki uch dostoni – “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” ni yozganini, to'rtinchi “noma” – dostonni yozishga vaqt bo'lganini aytadi.

Vaqt bo'ldiki, tortibon xoma,
Emdi to'rtunchi yozg'asen noma.
To'rt gavharga bergasen tartib,
To'rt unurni qilg'asen tarkib. (45-bet)

Surush shoirga Nizomiyning “Haft paykar”i, Xusrav Dehlaviyning “Hasht bihisht” i yozilgani, endi ularning yoniga yangi bino – asar bunyod etishi kerakligini ta'kidlaydi. Yetti gumbaz, undagi yetti quyosh mohiyatini uqtiradi. Yetti rangli, yetti qasr bunyod etishni, unda yetti hur manzil tutishini, yetti afsona aytishini, qisqasi, “Sab'ai sayyor” ni yaratishni bashorat etadi. Bu gaplarni tinglagan shoir sevinib, seskanib uyg'onadi:

So'z tugatgach, qoshida yer o'ptum,
Bo'lubon shod, seskanib qo'ptum. (48-bet)

Shoir "Muabbiri komil" ni chaqiradi. "Muabbir" kim? Muabbir-tushni ta'birlovchi, uning ma'nosini aytib beruvchi. Ma'lumki, xalq orasida tushni yaxshi-yomonga yo'yish, ta'birlash mavjud. Tushda ko'ringan ranglar, narsalar, vositalar, voqea-hodisalar asosida u yaxshi-yomon, baxt yoki baxtsizlik sifatida talqin etiladi. Har doim ham kuchli muabbirlar bo'lgan. Xalq orasida, folklor asarlarida yoki yozma adabiyotda ham buni uchratamiz. Mashhur "Yusuf va Zulayho" dostonidagi Yusuf payg'ambar ham o'tkir muabbir edi. Buning sababi asarda keltirilgan. Tangri Yusufga "muhray zarrin" beradi va "Yut muhrani ushbu zamon ilmi laduni senga bo'lur ayon", -deydi. Tangrining bu inoyati bilan Yusuf "ilmi laduni" o'rganadi va har qanday tushni to'g'ri ta'bir qilib beradi. "Ilmi laduniy" xudo tomonidan yetkazilgan ilohiy ilmlar degani. "Qissasi Rabg'uziy" da Yusufning tush ta'birlash salohiyati quyidagicha izohlanadi:

"Savol: Tush ta'birin zindonda netak bildi?

Javob: "Mavlo azza va jalla (olloh qudratli va ulug'), Jabroil alay-his-salomni izu berdi. Yusuf namoz qilib o'tururda uzumga mengzar (o'xshash) meva kelturdi. Yusufning erni uza qo'ydi. Ul meva eridi, qamug' tomurlariga yoyildi. Tushlar ta'birin aning birla bildi"¹. Demak, Ollohning Yusufga uzumga o'xshash meva bergani, uning Yusuf tomirlariga-vujudiga singishi natijasida tushlarni to'g'ri ta'bir-laydigan bo'ladi. Navoiyning tushni to'g'ri yo'ya oluvchi, bu sohada yetuk kishini izlashi ham ana shular bilan bog'liq.

Shoir bu borada jahonda komil insonni topadi va tushini gapirib beradi. Muabbir tushning mohiyatini bayon etadi. Bu "Sab'ai sayyor" dek dostonni yozishga ishora edi.

Dostonning birinchi hikoyatida ham tush lavhasi bor. Birinchi iqlimdan kelgan musofir shanba kuni qora qasrda Bahromga hindistonlik shoh Jasratxon va uning o'g'li Farrux bilan bog'liq afsonani aytib beradi.

¹ Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1-kitob. T., 1990. 133-bet.

Farrux tush ko'radi: Keng sahro, hisobsiz kishilar, "bir mahmil" (odam o'tiradigan, usti yopiq kajava), shamol esib pardani ko'tarishi, undagi "pari", "mehri xovari" (quyosh)dek go'zalni ko'rib qolishi, yuragida ishq alangasi uyg'onishi, kishilardan u yerning Quds ekanligini bilib olishi tasvirlanadi.

Farrux uyg'ondi sekrib uyqudin,
Ko'zidin uyqu o'chdi qayg'udin. (126-bet)

Bu hikoyatda tush bilan bog'liq yana bir jihat ko'zga tashlanadi. Xalq og'zaki ijodi asarlarida tushda tanishish, o'zaro sevishish, sevgi o'tida g'am-g'ussaga botish, o'z yorini izlash, og'ir sinov va qiyinchiliklardan so'ng visolga yetib, baxtli bo'lish asosiy usullardan hisoblanadi. Tushda, asosan, bir-biridan butunlay bexabar, bir-birini tanimaydigan, hatto, nihoyatda uzoq masofada yashaydigan yigit va qiz uchrashadi. Ana shu uchrashuv ular yuragida chegara bilmas otashin ishq dardini uyg'otadi. Oshiq va ma'shuqa qalbida muhabbat hislarini uyg'otish, ularning taqdirini bir-biriga bog'lash va ularni har balo-yu ofatlardan saqlash ba'zan ilohiy kuchlar-Tangri, Xizr, Ali kabilar zimmasiga tushadi. Bu haqda xalq dostonlarini ta'hlil etib, olimlar V.Jirmunskiy va H.Zarif shularni yozadi: "Ko'pincha sevishganlar bir paytning o'zida bir-birini bilmagan holda tushlarida uchrashadilar. Bu mavzuning musulmonlar variantida esa, ular ilohiy kuchlar Xizr, Ali, Chilton va boshqalar amri bilan tushlarida unashtirib qo'yiladi"¹.

Yozma adabiyotda ham bu sujet tez-tez uchrab turadi. "Yusuf va Zulayho", "Gul va Navro'z" dostonlarida bo'lgani kabi Navoiyning ushbu asarida ham bu kuzatiladi. Tushida parichehra ayolni ko'rgan Farrux ishq otashida yonadi, qayg'uga botadi. Sevgilisini izlab yo'lga chiqadi.

Farrux Quddusga boradi. Yana bir tush ko'radi. Tushida yorini Halabdan izlashi aytiladi. Bu voqealarning davomini esa, siz yaxshi bilasiz.

¹ Jirmunskiy V.M., Zarifov H.T. Uzbekskiy narodniy geroichekiy epos. M., 1947. -S. 333.

“Sab’al sayyor” ning XXV bobida Bahromning dushanba kuni sabz-yashil rangli qasrda uchinchi iqlim yo’lidan kelgan musofir hikoyati keltiriladi. Unda Misrda yashovchi xojaning o’g’li Sa’d bilan bog’liq voqealar bayon qilingan. Odati bo’yicha, xoja musofirlarga mehmondostlik ko’rsatadi. Ehson-u muruvvat, shirinso’zlik bilan munosabatda bo’ladi. Musofirlardan ko’rgan-bilgan voqea-hodisalari eshitishtir odat qilgan edi. Birda ikki musofir kelib mehmon bo’ladi. Sa’d ularga behad ehtirom ko’rsatadi. Ular Sa’dga Shahrisabzdan ekanliklarini, Kitvar shahridagi butxona, unda tunab qolgan kishilar g’aroyib hodisalarga duch kelishi, tush ko’rishini aytib berishadi. Ayni paytda, bu yerda yotib qolgan kishi Olloh tomonidan peshonasiga nima yozilgan bo’lsa, ya’ni kelgusi taqdiri qanday bo’lishi haqida ogoh bo’lishi aytiladi. Tushda ikki kishi (farishta) kelib, biri bu yerda yotib qoladigan inson taqdiri bilan bog’liq yaxshi jihatni, ikkinchisi esa uni kutayotgan azob, qiyinchiliklar haqida bashorat qiladi:

Har biri bir hadis anga aytur,
Kelgachu degach o’rniga qaytur.
Biri bir yaxshiliqki, ko’rgusi ul,
Biri tana’um soriki topqusi yo’l.
Biri der ranj kim, qo’yar anga yuz;
Tolii solibon su’a yulduz.
Bu iki ish din o’lg’och ul ogah,
Uyqudin seskanib qo’par nogah.
Yaxshiroq ish sori shitob aylar,
Ne yomon bo’lsa, ijtinob aylar. (179-bet)

Ikki xabardan ogoh bo’lgan kishi uyqudan uyg’onadi. Yaxshi hodisaga erishish uchun jadal harakat qiladi. Yomonidan esa, “ijtinob” – qochish, uzoqlashish fikriga tushadi, unga duch kelmaslikka intiladi.

Ikkinchi musofir butxonadagi pir bu ikki hodisaga ham tadbir chorasini, to’g’ri yo’lni ko’rsatishini aytadi. Ma’lumki, tasavvuf ilmida ilohiy bilimlar, diniy irfonga pir ko’magida erishiladi. Solik (tariqat yo’liga kirgan kishi) o’z maqsadiga yetish, Olloh vasliga er-

ishish uchun ma'lum bosqichlarni o'tishda pirga ergashadi. Uzoq riyozat chekib, undan yetarlicha ilm oladi. Bu yerdagi voqealar ham ana shularga ishora qiladi.

Sa'd bu gaplardan xabar topgach, sayohat orzusida yonadi. U aytilgan manzilga boradi. Butxonada tunab tush ko'radi. Ikki "ax-zarvash" – yashil rangli qushga o'xshash narsa boshi ustida aylanib, yoniga qo'nadi. Biri shunday deydi:

"Kim nasibing sening pari bo'lmish,
Ki yuzi mehri xovariy bo'lmish!". (183-bet)

Bu xabarga ko'ra, Sa'd nihoyatda go'zal, yuzi oy-u quyoshdek nurli pariga erishadi. Ikkinchisi esa, uning devga asir tushishini bashorat qiladi:

"Kim seni dev qilg'usidur asir,
Solib iki ayog'inga zanjir". (183-bet)

Sa'd tushida ko'rgan bu voqealardan, taqdir ko'rguliklaridan xabardor bo'lgach, seskanib uyg'onadi. U ishqqa giriftor bo'lgan edi. Ohu nola chekadi. Yonidagilar chora izlashga tushadilar. Pir sari otlanadilar. U tog'dagi bir g'orda uzlatda yashardi:

Go'shada mu'takif deyilgan pir,
Xalqdin g'or ichinda uzlattir. (184-bet)

G'or ichidagi bir go'shada pir "mu'takif" – joylashgan. U xalqdan chekinib, g'or ichida uzlatda yashardi. Ma'lumki, tasavvuf tushunchasida "pir", "shayx" atamaları uchraydi. "Pir forsiyda keksa ma'nosini bildiruvchi so'z". Pir-tariqatda shu tariqat asoschisi bo'lgan mutasavvuf¹. Ayni paytda solikka yo'l ko'rsatuvchi rahnamo. U ko'pincha uzlatda hayot kechiradi. Uzlat nima? "Uzlat – tasavvuf ta'limotiga ko'ra insonning ruhi, agar u poklanishiga moyil bo'lsa,

¹ Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. T., 1999. 67-bet.

tabiiy ravishda yakkalanish va go'shanishin bo'lishni talab qiladi. Inson ruhi tajrid (ajralish) va tafrid (yolg'izlanish) bosqichlarini bosib o'tmasa, mutlaq poklanmaydi. Uzat- so'fiylarning chilla o'tirishlari, xilvatlari bilan amalga oshirilgan¹.

Uzat, xilvat haqida ko'p gapirilgan. Tasavvufga doir adabiyotlarda uning mohiyati, foyda va zararlari bayon etilgan. Professor N. Komilovning "Tasavvuf" (birinchi kitob) kitobining "Xilvat va anjuman" qismida bu haqda mulohazalar bildirilgan. Imom G'azzoliy "Kimyoi saodat" asarida alohida "Uzat" degan bob ajratib, bu hodisaning olti xil foydasi va olti xil zararini ko'rsatib o'tadi. Avvalo shuki, G'azzoliy fikricha, uzlat mutafakkir insonlar uchun zaruriy ehtiyojdir, inson bot-bot yolg'iz bo'lishni, o'z-o'zi bilan yakka qolib, fikr daryosiga cho'mishni, dumyo tashvishlaridan vaqtincha forig' bo'lgani holda, tafakkuriy idrokka berilishni xohlaydi. Iloh ishqida yongan kishilar uchun bu intilish yana ham kuchliroq. Ularning ruhi muttasil yolg'izlikni qo'msaydi, chunki atrofda voqealar ularning bir nuqtaga yo'naltirilgan fikrini chalg'itadi².

Ko'rinadiki, Sa'd tushlarining natijasini, uning boshiga tushadigan ishlar xalosini ko'rsatib beruvchi bu pir barcha ilmlardan xabardor, donishmand kishi. Uning uzlatda yashash sababi ham endi ayon. Sa'd bilan bog'liq voqealar tush asosida ro'y bersa, uning keyingi taqdirini pir ko'rsatib beradi.

"Sab'ai sayyor" ning o'ttiz yettinchi bobida ham yana bir tush lavhasi bor. Agar dostonning boshlarida Navoiyning ustozlari, ushbu asarni yozish bilan bog'liq holatni tush ko'rgani tasvirlansa, so'ngi boblarida ham shoirning yana bir tushi keltiriladi. Bu Navoiyning shoh Bahromni tushida ko'rishi, u bilan suhbatlashishi xususida. Ushbu tush Navoiyning o'ziga xos usuli. Ko'nglidagi fikrlari, asarni o'z davri, kishilar, niyatlarini bayon etish vositasi sifatida keltirilgan.

Shoh Bahrom shoir bilan quchoq ochib ko'rishadi. Uning nazmdagi salohiyati, "nazm sohibqironi" ekanligi, shoh Bahrom tarixini boshqalardan to'liqroq yozib, nomini olamga yoyganini ("Sab'ai

¹ Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. T.: 1999. 178-bet.

² Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. T.: 1996. 97-98-betlar.

sayyor" dostoni nazarda tutilgan), boshqalar fors tilida yozgan bo'lsa, u turkiy tilda yozganini ta'kidlaydi:

Forsi bilgan ayladi idrok,
Lek mahrum qoldilar atrok,
Sen chu nazmingni turktoz etting,
Forsi tildin ehtiroz etting. (337-bet)

Bahrom qissasidan fors tilini bilganlar xabardor edi. Ammo "atrok" – turklar bundan benasib qoldilar. Bu sujetni turkiy tilda yozib, ularni bahramand qilding. Shoh Bahrom uning nomini yangidan ovoza qilgani, bu ishi uchun katta xazinalar nisor etishini, boshqa shohlar kabi xazina yig'ib, yer ostiga ko'mmagani, u buni ayb sanagani, xalqqa baxsh etish kerakligini, shoh G'oziy (Sulton Husayn Boyqaro) bilan bog'liq ba'zi mulohazalarni, unga salomini yetkazishni, ba'zi nasihatlarini bayon etadi:

Shahki ming yil aning hayotidur,
G'araz o'lganda yaxshi otidur...
Ming yil umid erurki qolg'aysen,
Yaxshi ot-o'q jahonga solg'aysen. (343-bet)

Bu Navoiyning davr, shohlik, umr haqidagi ko'ngil niyatlari. Shoir gaplarini Bahrom vositasida ifoda etayapti. Adabiyotshunos Yo.Is'hoqov bu holatni shunday izohlaydi: "Ma'lumki, Bahrom shoir bilan muloqotda zamon hukmdori Husayn Boyqaro bilan o'zini qiyoslab, o'rtadagi o'xshash xususiyatlarni birma-bir sanab o'tadi.

Bu Bahrom tilidan Sulton Husayn faoliyatiga berilgan obyektiv baho edi. Adabiy tush usuli shoirga asar mohiyatining zamon bilan bog'liq jihatlariga ishora qilish uchun imkoniyat yaratgan.

Faqat Sulton Husayn faoliyatiga daxldor qiyoslar va analogiyalar emas, balki shoh va shahzodalarga qaratilgan ta'na-dashnom, o'git-nasihatlar ham Bahrom tilidan bayon qilinadi (podshohlarga umumiy o'git tarzida, shahzodalarga esa nasihat shaklida)¹.

¹ Is'hoqov Yo. "Xamsa"da badiiy psixologizm tiplari // Alisher Navoiy "Xamsa"si. T., 1986. 77-bet.

Yuqoridagi misralarda tasvirlanishicha, shohning, umuman, odamzotning yashashdan maqsadi yaxshi nom qoldirish. Inson qancha uzoq yashamasin, baribir bu dunyodan ketadi. Shunday ekan, uning oti jahonga yaxshilik bilan tarqalishi kerak. Navoiyning bu mulohazalari har birimiz uchun ulug' hikmat, donishmandona nasihatdir.

Shoirning "Sab' ai sayyor" dostonida bo'lgani singari, mashhur "Saddi Iskandariy" dostonida ham tush manzaralarining go'zal namunalari uchraydi.

Siz adabiyot darslarida "Hayrat ul-abror" dostonidagi "Ikki vafoliyor" haqidagi hikoyatni o'qigansiz.

Ikki mahbubning bir-biriga ko'rsatgan sadoqati tufayli omon qolishi, sohibqiron Amir Temurning marhamatiga sazovor bo'lgani har biringizni hayajonga solgani tabiiy. Ana shu sujetga o'xshash voqea "Saddi Iskandariy"da ham uchraydi. Bu hikoyat Chingizxon va Xorazmshoh nizolari davridan so'zlaydi. Dostonning XXV bobida berilgan ushbu hodisaning mazmuni quyidagicha:

Chingizxon va Xorazmshoh bir-biri bilan adovatga kirishadi. Qirg'in janglar bo'ladi. Chingizxon zafar qozonadi. Muhammad Xorazmshoh mulki vayronaga aylanadi. Chingizxon butun xalqni qatl etishga buyruq beradi.

Navoiy bu manzaralarni quyidagicha tasvirlaydi:

Ato o'g'lig'a yig'labon: hoy-hoy!

Qizig'a ano tortibon: voy-voy!

Shom mamlakatida bo'layotgan bu voqealar jarayonida ikki rafiq haqida gap boradi. Asir tushgan bu ikki do'st qatlga hukm qilinadi. Har biri avval uni o'ldirishni iltimos qiladi:

Ki: "Avval mening boshima tig' sur,

Chu men o'ldum, uldam aning bo'ynin ur!". (154-bet)

"Bo'ynin ur" ish-o'ldirish. Shu voqealar davomida uyquda bo'lgan Chingizxon tush ko'radi. Tushida ikki do'st voqealari ayon bo'ladi.

Unda bir kishi xalqqa ozor bermaslikni, ikki do'stdan vafoni o'rganishni, Xorazmshoh bilan adovatda bo'lsa, jahon ahlining nima gunohi borligini ta'kidlaydi. Bundan ta'sirlangan Chingizxon uyg'onadi va kishilarga amon beradi:

Chu uyg'ondi uyqusidin qahramon,
O'lumdan xaloyiqqa berdi amon. (155-bet)

"Saddi Iskandariy"ning qirq yettinchi bobida Iskandar va Chin Xoqoni munosabatlari bayoni beriladi. Bobda tasvirlanishicha, Iskandar hind diyorini qo'lga kiritadi. Bir necha muddat bu yerda yashaydi. So'ngra Chin mamlakatini egallash taradduduga tushadi. Bundan xabar topgan Chin Xoqoni elchi yuboradi. Elchi hukmdorining sulh, tinchlik haqidagi gaplarini yetkazadi. Iskandar elchiga Xoqoni kelib, uzr so'rashini, bo'lmasa taqdir buyurgani bo'lishini aytadi. Xoqon kishi yuborish behudaligini anglab, qo'shin yig'a boshlaydi.

Sipohi sipehr anjumidin fuzun,
Adad ichra sahro qumidin fuzun. (333-bet)

Uning lashkari osmondagi yulduzlar, sahrodagi qumdan ham ko'p edi. Chin qo'shini jangga o'tlanadi. Xandaqlar qaziladi. Maxsus aravalar tayyorlanadi. Ikki tomonning lashkari ro'baro' keladi. Iskandar yonidagi olimlar yulduz-u sayyoralar holatiga qarab hujum qilish vaqtini belgilaydilar.

Chin Xoqoni va sipohi orasiga g'avg'o tushadi. Xoqon o'ziga qancha dalda bersa ham ko'ngli taskin topmaydi. Vahima bosadi. Atrof-dagi ulug'lar Iskandarning shukuhi, qudratini aytib, unga peshvoz chiqishni, xiroj to'lashni maslahat beradilar. Xoqon o'ziga toladi. Eng ishonchli bir kishisini chaqirib, bugun hech kimni qabul qilmasligini, uning huzuriga odamlarni kiritmaslikni buyuradi.

Qirq sakkizinchi bobda esa, Xoqonning o'z lashkargohidan hech kinga sezdirmay yo'lga chiqishi, yuz xavotir bilan Iskandar qo'nim topgan joyga kelishi, elchi tarzida Iskandar oldiga olib kirilishi tasvirlanadi. Shu yerda Iskandar tushi haqida gap boradi:

Ki, bu kecha bir tush ko'ribmen g'arib,
Bu gar bo'lsa ta'biri ermas ajib:
"Quyoshcha manga tushta anvar edi,
Yana bir quyosh ham padidor edi.
Kelibon qo'yar erdi olimda bosh,
Kishi ko'rmamish mundoq iki quyosh". (342-bet)

Xoqon yo'lga chiqqan kecha Iskandar uyqusida ajoyib bir tush ko'radi. Uning yonida quyoshdek nur paydo bo'ladi. Boshqa bir quyosh ham ayon edi. Osmonda, olamda bitta quyosh mavjud. Ammo Iskandar qarshisida ikki quyosh bor. Bu yaxshilik alomati edi.

Iskandar elchini iltifot bilan kutib oladi. Elchi Iskandarga niyatini bildiradi. Ikkovlari xoli qolishlarini so'raydi. Shubha qilsalar, oyoq-qo'lga band etishlariga rozilik bildiradi. Iskandar hammaga ruxsat beradi, kishan urishga hojat yo'qligini aytadi. Lekin Arastuning iltimosi bilan qo'l-oyog'iga kamand uradilar. Ikkovlari yolg'iz qolgandan so'ng, elchi sirni ochadi. O'zi Chin Xoqoni ekanligini, shu tarzda uchrashishga majbur bo'lganligini bildiradi. Iskandar hayratga tushadi. Xoqon unga e'tiqodi kuchliligi, boshiga og'ir ish tushganligi, Iskandarni donishmand, javonmardu pahlavonligini bilib kelganligini aytadi. Yuzma-yuz turib, barcha so'zlarini ochiq bayon etish istagini bildiradi. Xoqon Iskandarga bo'ysunishni, unga xiroj to'lashni, tinchlikni tilaydi. Iskandar unga ota-o'g'il bo'lishga tayyor ekanligini anglatadi. Iskandar tushida ko'rgan quyosh oydinlashadi. Bu Chin Xoqoni edi.

Umuman, "Farhod va Shirin"da Shopur Farhodning Xusravga bandi bo'lganini tush ko'rishi va uni qutqarishga o'tlanishi, "Layli va Majnun"da Majnunning Laylini tush ko'rishi, Navfal hujum qilsa otasi uni o'ldirmoqchi ekanligini bilib olishi, Majnunning ota-onasi vafot etganligi ham uning tushida ayon bo'lishi, bu jihatdan xarakterlidir. Bu dostonlardagi tush epizodlari asar qahramonlarining ruhiy holati, hayajonli kechinmalarini ta'sirli qilib tasvirlashda muhim rol o'ynagan.

"Sab'ai sayyor" xotimasida esa shoir shoh Bahromni tush ko'rganini aytib, yuksak falsafiy, ijtimoiy fikrlarini bayon etadi.

“Xamsa” ning “Saddi Iskandariy” dostonida Chingizxon tushi (ikki yorning bir-biriga sadoqati tufayli qirg‘inni to‘xtatishi), Iskandar tushi, “Sab‘ai sayyor”da Navoiyning ustozlarini tush ko‘rishi kabi o‘rinlar ham mavjud.

Umuman, “Xamsa”ning deyarli barcha dostonlarida “tush” manzaralari mavjud bo‘lib, bular asar qahramonlari kechinmalari, ruhiy holatini tasvirlashda muhim vazifani bajargan. “Tush” lavhalaridan foydalanishda esa Navoiy o‘zining yuksak mahoratini ko‘rsata olgan.

5.RAMZLARNING MA’NO VA MOHIYATI

O‘zbek mumtoz adabiyotida ramziy ma’noga ega voqea-hodisalar, turli ashyolar ko‘zga tashlanadi. Ba’zi narsalar biror tushunchani ifodalasa, ayrimlari jumboq, sirli, tilsim shaklida namoyon bo‘ladi. Turkiy xalqlarda ayrim ashyoning ma’lum bir tushuncha, qarash, vosita sifatida qo‘llanishi qadim davrlarga borib taqaladi. “Turk mifologiyasi”da yozilishicha, Yoy turklarda hokimiyat ramzi edi. Hatto Buyuk Saljuqiylar davlatining ramzi ham yoydan boshqa narsa emasdir. Turklarga ko‘ra, “osmon kamari” (kamalak) ham Tangrining bir yoyi kabi edi. Turkiylarda o‘q elchilik ramzi hisoblanardi. Bir joyga borgan elchilar ramz sifatida qo‘llarida o‘z hukmdorlarining o‘qlarini olib borardilar.

Ozarbayjon olimi M.Sayidov ana shunday qarashlar o‘g‘uzlarda ham uchrashini ta’kidlaydi: “O‘g‘uz va o‘g‘uzlar ishonardilarki, yoy va o‘q Tangri tarafidan yuborilgandir. O‘g‘uz deydi, qadimgi insonlar yoyni—shoh, o‘qni—elchi hisoblardilar”¹. Ushbu olimning quyida ko‘rsatilgan kitobida Osman Turanning bu boradagi fikrlari keltiriladi: “Eski (qadimgi) turklarda yoy ulug‘likni, hukmronlikni, mustaqillikni, o‘q esa tobelikni, vasallikni bildirarmish”². Ayni paytda, yoy va o‘q oila qurish, mustaqil uy sohibi bo‘lish ramzi ekanligi ham

¹ Sayidov M.Ozarbayjon mifik tafakkurining gaynaklari.Baku: “Yozuvchi”, 1983. 272-bet.

² O’sha asar, 272-bet.

ta'kidlanadi.¹ Ko'rinadiki, o'q ham, yoy ham bir emas, bir necha ramziy ma'noni ifodalaydi. Bu ma'nolar bir-biri bilan bog'liq, biri ikkinchisini to'ldiradi.

Yusuf Xos Hojibning mashhur "Qutadg'u bilig" asarida ham ramziy xarakterdagi bir necha o'rinlar uchraydi. Asardagi Oyto'ldining koptok ustida o'tirib, ko'zini yumib olishi, Kuntug'dining uch oyoqli kursida o'tirishi, qo'lidagi xanjar, o'ng tomonidagi shakar, so'l tomonidagi zahar, O'gdulmish xayolidan kechirgan tayoq, boshga oqqush qo'nishi, O'zg'urmish tush ko'rgan ellik poyali shoti, otliq tutgan bir kosa suv va uni ichish shular sirasiga kiradi. Ularning qanday ma'nolari bor? Oyto'ldi davlat timsoli.

Mol-mulk, boylik kelib-ketadigan narsa. Bugun senda, ertaga boshqaga o'tib ketadigan bevafo omonat. Shuning uchun u koptokka o'xshatilgan. Ko'zni yumib olish esa, davlatning ko'zi ko'r ekanligiga ishora. Kuntug'di o'tirgan uch oyoqli kursi –hokimiyat, hukmronlikning mustahkamligi, xanjar kuch-qudrat, g'azab, muammolarni hal qilish, shakar – yaqinlar, tarafdorlar, do'stlar nasibasi, zahar – dushmanlar, elikka qarshi turganlar qismati. Zahar- jazo, o'lim ramzi. O'gdulmishdagi tayoq va boshga qo'ngan oqqush – qarilik, soch oqarishi ifodasi.

Alisher Navoiyning "Xamsa"sida ham ana shu xildagi ramziy tasvirlar ko'zga tashlanadi. "Saddi Iskandariy" dostonidagi ikki suyak, ikki kaklik jangi, baliqlar, osh, tobutdan chiqarib qo'yilgan xoli qo'l, topishmoq-ramz hisoblasa bo'ladigan go'y, chavgon, kunjut voqealarida buni ko'rish mumkin. Dostonning o'n yettinchi bobida "Iskandar bila ul gadolig' ixtiyor etgan podsho..." haqidagi hikoyat keltirilgan. Unda tasvirlanishicha, Iskandar qaysi yurti egalasa, o'sha yerning o'zidan mamlakatga shoh tayinlardi. Mag'rib elida ham yurt podshohligiga munosib kishini surishtiradi. Xalq unga odamlardan uzlatga chekingan, qabristonni makon qilgan, tiriklikdan, bu hayotdan ko'ra "elni fano sori targ'ib etar" zot haqida ma'lumot beradilar. Mana, uning ko'rinishi:

¹ O'sha asar, 270-bet.

Yalang erdi boshu, oyog'i yalang,
Yaqo chokidin ko'ksi dog'i yalang.
Jahon shug'li gardiga silkib etak,
Tutub iki ilgiga iki so'ngak. ("Saddi Iskandariy". 101-bet)

Gado – faylasuf, donishmand inson. U yashash, tiriklikning mohiyatini teran tushunadi. Bu dunyo o'tkinchi, bevafo, hech narsaga arzimastligini "ikki so'ngak" vositasida ko'rsatib beradi. Uning ta'kidicha:

Chu o'lganda birdur bu iki mato'
Tiriklikda nevchun qilurlar nizo. ("Saddi Iskandariy". 102-bet)

Tiriklikda birov shoh, boshqasi gado, kimdir boy-badavlat, ayrimlar kambag'al, qashshoq, yana birov uzoq umr ko'radi, boshqalar qisqa – lekin hamma bu dunyodan o'tadi. O'lganda "iki mato'" -ikki suyak kimniki ekanligini ajratib bo'lmaydi. Shunday ekan, o'zni yuz balo, g'am-tashvish, turmush yugur-yugurlariga urishning ma'nisi yo'q. Gado Iskandardan to'rt narsani: abadiy hayot, qariligi yo'q yig'itlik, yoshlik, tuganmas boylik, yana g'amu motami yo'q shodlik ato etishini, shunda podshohlikka rozi bo'lishini bildiradi. Demak, asosiy maqsad ikki suyak – qaysi shohniki-yu, qaysi gadoniki ekanligini aniqlashdan iborat edi.

"Saddi Iskandariy"ning yigirma yettinchi bobi Doroning Iskandarga qarshi lashkar tortishi voqealariga bag'ishlangan. Doro qo'shini behisob edi. Iskandar uni ko'rib vahmda qoladi. Ammo ikki tog' kakligi bilan namoyon bo'lgan manzara uning ko'nglini ko'taradi. Ikki kaklikdan biri kuchsiz, ojizroq, ikkinchisi esa "jussa ichra zabardast", baquvvat edi. Iskandar haqir, kuchsiz kaklikni o'ziga, qudratlisini Doroga nisbat beradi. Ular orasidagi ayovsiz jangni kuzatadi. Shu vaqt osmondan uqob – burgut uchib keladi-da, ulug', baquvvat kaklikni o'lja qilib oladi. Iskandar bu voqeadan xursand bo'ladi:

Skandar bo'lub xushdil ul holdin,
Tanumand o'lub ko'ngli bu foldin.

Bilibkim,anga xasm o' lur zerdast,
Va lekin topar o'zga yerdin shikast. ("Saddi Iskandariy". 167-bet)

Kingaki, mag'lublik, "zerdast"-tobelik qismatida bo'lsa, u boshqa tomondan ham, har qanday sharoitda ham zabun bo'ladi. Iskandar jangga otlanadi. Ikki tomon ham shiddatli va ayovsiz olishadi. Doroning ikki noibi unga xiyonat qiladi. Shohga tig' sanchadi. Iskandar g'olib bo'ladi. Bu voqea oldindan oydinlashgan edi. Ikki kaklik – Doro va Iskandar. Kuchli kaklikni sayd etgan burgut esa xoin noiblar ramzi sifatida ko'rinadi.

Asardagi oyna yoki oйнаi Chin ham to'g'rilik,adolat ramzi sifatida tasvirlanadi. Chin xoqoni tomonidan Iskandarga tortiq qilingan oyna mo'jizaviy ashyo. Uning g'aroyibliги nimada? Oynaning ikki tomoni ham oy-yu quyoshdek yorug'. Agar shoh oldiga da'vogarlar kelib, maqsadini bildirsa bir zumda haq yoki nohaqni aniqlash mumkin bo'ladi. Ko'zguga qarasa bo'ldi:

Agar so'zi chindur-ko'rinur yuzi,
Ko'runmas yuzi –bo'lsa yolg'on so'zi.
("Saddi Iskandariy". 373-bet)

Demak, kim rost so'zlasa, oynada aksi ko'rinadi, yolg'onchining qiyofasi esa namoyon bo'lmaydi. Oynaning ikkinchi tomoni ham g'aroyib sifatga ega. Shoh bazmida ko'p may ichib, badmast bo'lsa, oynaga qarasa basharasi buzuq, ko'rimsiz holda goh yapaloq, goh uzun yoki qisqa, katta yoki kichik shaklda aks etadi. Ish shu joyga yetsa haligi kishi may ichishni to'xtatar ekan. "Sab'ai sayyor" dos-tonida ham ko'zgu haqida gap boradi. To'rtinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir Juna haqidagi hikoyatni aytib beradi. Dehlida hukmdorlik qiladigan bu shoh adolat, insof timsoli. Xazina, mol-u davlatining hisobi yo'q edi. Bir kuni musofir mehmon unga bir ko'zgu sovg'a qiladi. Bu ko'zgu qanday sifatga ega?

Tuhfa kelturmish erdi bir ko'zgu,
Kim ani tutsa har kishi o'tru,

Chin desa aksida safo erdi,
Desa yolg'on yuzi qaro erdi¹.

Ko'zguning sehrli xususiyati shu ediki, kim rost gapirsa oynada aksi aniq, tiniq ko'rinadi. Yolg'onchining yuzi esa, qora bo'lib aks etadi. Demak, bu yerda ham ko'zgu rostlik, to'g'rilik ramzi tarzida ifodalanadi. "Saddi Iskandariy" dostonida "Ul bolig'lar hikoyatikim..." keltiriladi. Unda o'zi suvda, daryoda bo'la turib, yanada ulkanroq suvni orzu qilgan baliqlar to'dasi haqida gap boradi. Bir baliqning gapiga kirib, nahang kezib yuradigan girdobga suzib borishadi. Ularning qismati fojiaga aylanadi:

Bolig'larga tushganda dardu firoq
Ki, bir-birdin o'lmish edilar yiroq.
Borin yutti bir-bir nahangi fano,
Ichi javfida jam' qildi yano. ("Saddi Iskandariy". 429-bet)

Nahang ularni bitta-bittalab yutib yuboradi. Girdobda turli tomonga ketib, bir-biridan yiroqlashgan baliqlar nahang qornida yana jam bo'ldilar. Baliqlar – qanoatsizlik, noshukrlik timsoli. O'zi suvda bo'la turib, yana boshqa suvni orzu qilish kaltabinlik. Ularni girdob sari boshlagan baliq esa, aqlsizlik, aldov ramzidir. Dostonda shu ruhdagi yana bir hikoyat bor. Unda Mashriqdan xazina topib, eshikdagi bundan ham kattaroq xazinaga ega bo'lishni istasa, Mag'ribga borsin degan yozuvni o'qib, yo'lga chiqqan kishi haqida gap boradi. U tamagir edi. Boriga qanoat qilmadi. Tezda Mag'ribga otlandi. Necha yil izlab, azob chekib, xazinaga yetishgan mahal ajalga duch keldi. Vafot etdi:

Necha yil qilib qat' daryou dasht,
Bo'lib anga yuz ming balo sarguzasht.
Yetib, istagan yerni topqon mahal,
Boshig'a yetishti sarosar ajal. ("Saddi Iskandariy". 490-bet)

¹ Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. T., 1991. 207-bet.

Bu hikoyatdagi kishi ham noshukrlik, tamagirlik, qanoatsizlik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Shoir aytmoqchi, boriga qanoat qilish xotirjamlik, tinchlik belgisi. Yanada ko'prog'idan umidvorlik, ochko'zlik, qanoatsizlik – umr zavoli. "Saddi Iskandariy"da umr, tiriklik, abadiylik, dunyoning o'tkinchiligi, charxning aylanib turishi– biron kelib, boshqalarning ketishi haqida chuqur mulohazalar yuritilgan. Iskandarning vafoti, undan oldin onasiga yozib qoldirgan nomasida bu boradagi fikrlar bildirilgan. U onasidan yig'lab, yoqasini chok etmaslikni, motam tutib, ko'p aziyat chekmaslikni so'raydi. Bu dunyoda hamma ham yaqinlaridan, qon-qarindoshlaridan judo bo'ladi. Yaqinidan ayrilmagan kishini topish qiyin. Iskandar o'z fikrini asoslash uchun, barcha atrofdan, turli mamlakatlardan odamlar chaqirib osh berishni, kimning biror yaqini vafot etmagan bo'lsa uni yeyishini aytadi:

Degilkim, munodo ul elga desun

Ki: "Ul kimsa bu oshlardin yesun.

Ki, bu ko'hna dayri kuhan toq aro,

Anga bo'lmag'ay kimsa tufroq aro". ("Saddi Iskandariy". 524-bet)

Insonlar orasida biror yaqinini tuproqqa topshirmagan kishini topish mushkul. Iskandar sharti bo'yicha, hech kimidan judo bo'lmagan inson osh yesin. Bu bilan u ham onasiga taskin beradi, ham dunyoda mangu qolish biror jonzotga nasib etmasligini uqtiradi. Osh – bu o'tkinchi dunyo, umrning boqiy emasligini anglatuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Navoiy jahon, tiriklikni turli ramzlar bilan tasvirlaydi. Shoir talqinicha, "ulug'roq kesak" – dunyo ramzi:

Jahon nedurur – bir ulug'roq kesak,

Yiroq tortqil ul kesakdin etak. ("Saddi Iskandariy". 514-bet)

Iskandar so'zlari, harakatlari– bu Navoiyning o'quvchiga qilgan donishmandona o'gitlari. Ko'p gapirilgan va hammaga ma'lum Iskandar va xoli qo'l haqidagi hikoyati ham o'ziga xos ibrat. Qari-

yb butun dunyoni egallagan, suv olamini ham zabt etgan, davlat-u shukhi nihoyasiz bo'lgan ulug' jahongir o'lim oldida ojiz. Bu dunyoda qancha yugurib-elmasin, nimalarga erishmasin, tortgan ranj-u iztiroblar, ozor-u sitamlar qoladi, xolos. Narigi dunyoga hech narsa olib ketilmaydi. Hammasi qoladi. Shuning uchun ham, Iskandar vasiyat qilib, bir qo'lini tobutdan chiqarib qo'yishini buyuradi:

Chiqoring bir ilgimni tobutdin,

Hamul nav'kim – rishta yoqutdin. (“Saddi Iskandariy”. 526-bet)

Navoiy talqinicha, bu hayrat, o'ziga xos ibrat. Iskandar bu manzaradan odamlar saboq olishini, o'ziga xos xulosa chiqarishni istaydi. Uning fikricha, bu voqea kishilarni hayotga, mol-davlatga ko'p ham ruju qo'ymaslikka, “jahon shug'lidin (tashvishidan) bori chekkay ilik”likka undaydi:

Angakim, madadkor bo'lg'ay bilik,

Jahon shug'lidin bori chekkay ilik. (“Saddi Iskandariy”. 527-bet)

Ana shu tasvir “Hayrat ul-abror” dostonining qirq to'qqizinchi bobida ham keltirilgan. O'n to'rtinchi maqolatda aflok-olam haqida mulohaza yuritib, Iskandar hikoyati ilova qilinadi. Navoiy yozganidek, Iskandar yurish qilib olmagan biror yer qolmadi. Dengiz-u yer, ho'l-u quruq uning hukmida edi. “Ham shah o'lub, ham valiyu ham nabi”, “yeti ko'k”, “yeti iqlim” unga bo'ysungan edi:

Ham yeti ko'k hukmi muyassar anga,

Ham yeti iqlim musaxxar anga.

Mana shunday qudratli hukmdor vasiyat qiladi:

Qabrg'a chun boshlag'unguzdur yo'lum,

Na'sh yonidin chiqaring bir qo'lum. (“Hayrat ul-abror”. 255-bet)

Umr poyoniga yetib, qabristonga borarda, na'sh – tobutdan bir qo'lini chiqarib qo'yishlarini so'rash o'zgalarga saboq edi. Quruq qo'l bilan dunyodan ketish – hayot va yashash mohiyatini anglash ramzidir.

Qadimgi davrlarda ikkinchi bir mamlakatning podshoh va amaldorlari, xalqi zukkoligini sinash, o'z maqsadini yashirin ifodalash uchun topishmoq – ramzlardan foydalanishgan. Professor N. Rahmonning “Turk xoqonligi” nomli kitobida ana shunday voqealardan biri bayon qilinadi. Unda yozilishicha, Doro skiflar bilan jangga otlanadi. Skif shohi unga qush, sichqon, baqa va beshta o'tkir o'q yuboradi. Doro sichqonni barcha noz-ne'matlardan bahramand bo'lish, baqani skiflar barcha yer-suvi bilan Eron shohi ixtiyoriga o'tishi, o'qlarni esa skiflar o'z qurollarini eronliklar oyog'i ostiga tashlab, taslim bo'lishlari tarzida talqin etadi. Aslidachi? Bu ashyolar qanday ma'noni bildiradi? Ularning zaminida yashiringan ishorani Doroning maslahatchisi Gobriy to'g'ri sharhlaydi: “Sovg'a skiflarning sharti bo'lib chiqadi: “Agar siz, eroniylar, qush kabi uchib g'oyib bo'lmasangiz, yo sichqon kabi yer tagiga kirib ketmasangiz, yo qurbaqa singari botqoqlikka sho'ng'imasangiz, u holda o'qlardan shikast yeb, shu yerlarda qolib ketasiz”¹. Ana shunday topishmoq-ramz “Saddi Iskandariy”da ham uchraydi. Dostonning yigirma uchinchi bobida Iskandar va Doro munosabatlari, Doroning Iskandarga go'y, chavgon va kunjut yuborgani bilan bog'liq tafsilotlar bayon qilinadi. Ularni Doro boshqa ma'noda yuborgani, Iskandar o'zgacha talqin etgani ko'pchilikka ayon.

Umuman, “Xamsa”da ramziy ma'noga ega jihatlarni ko'p kuzatamiz. “Saddi Iskandariy”ning so'nggida Iskandar umrining nihoyasini aks ettiruvchi, unga oldindan ayon bo'lgan “temurdin yer, oltundin samo”ning nasib etishi, tulmatdan qo'li kesilgan, butun qo'lga kesilganini olib atrofda qilarga saboq beruvchi inson, “Hayrat ul-abror”da maishatga, may-u bodaga berilib, mamlakat boshqaruviga loqayd bo'lgan Bahrom, uning xarob bir uyga borishi, uy egasining nochor ahvoli shohni hushyor torttirishi, adolatga qaytarishi kabilar tasvirlanadi.

“Farhod va Shirin” dostonida Xoqon xazinasidagi sandiq, undagi oyna, Suqrot g'ori, Farhod duch kelgan to'siqlar-ajdar, dev, tilsim va boshqalarning ham ma'lum ramziy ma'nolari mavjud. Bularning mohiyatiga yetish “Xamsa”ni, Navoiy g'oyalarini haqqoniy anglash imkonini beradi.

¹ Nasimxon Rahmon. Turk xoqonligi. T., 1993. 22-23-betlar.

6. «XAMSA» DA ME'YOR VA NISBAT TUSHUNCHALARI

O'ziga xos «so'z iqlimi» bo'lgan «Xamsa» g'aroyib sir-u sinoatlarga to'la. Ularni anglash, mohiyatini sharhlash muhim vazifalardan. «Xamsa» da hayot va inson turmushi, kechinmalari, turli voqea-hodisalar, odamzotga xos holatlarni baholash, o'lchashning o'ziga xos me'yorlari bor. Buni «mezon» va «nisbat» tushunchalari doirasida o'rganish to'g'ri bo'lar. Mezon va nisbat atamalarining ilmiy-falsafiy talqinlari bo'lganidek, soddagina, hayotiy ma'nosi ham bor. «O'zbek tilining izohli lug'ati» da ular shunday izohlanadi: Mezon 1. Tarozi o'lchov. 2. Ko'chma. Taqqoslash yoki baholash uchun o'lchov, andoza». Nisbat 1. Narsalarning bir-biriga nisbatan katta – kichikligi, oz – ko'pligi.

Navoiy hayotdagi ko'pgina hodisalarga, insonga xos tuyg'ular darajasini belgilashda me'yor, mezon va nisbat tushunchalariga suyanadi. «Xamsa» dostonlaridagi bu jihatlarni o'rganish, qiyoslash va tahlil qilish asosida quyidagi tarzda mulohaza yuritishga harakat qilindi:

1. Yomonlik va yaxshilik oqibatlari, ularning o'zaro me'yori.
2. Yuksaklik /martaba/, qadr-qimmat va xokisorlik, xo'rlik, haqirlik mezonlari.

3. Azobu g'am va shodlik darajalari.

4. Kuch va ojizlik nisbatlari.

5. Yor go'zalligi va oshiq holati me'yorlari va boshqalar.

Shoir bu tushunchalar mezoni va nisbatini belgilashda hayotdagi turli hodisalar, holatlar, o'zgarishlar va miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalanadi. Bularni shartli tarzda ushbu ko'rinishda guruhlashtirish mumkin:

1. Suv va u bilan aloqador tushunchalar doirasidagi qiyoslar.

Navoiy yuqoridagi sifatlar bayonida quyidagilarni mezon qilib oladi:

«Daryo-qatra», «daryo-kema», «daryo-xoshok», «daryo-xas», «daryo-dur», «bahr-qatra», «bahr-xoshok», «bahr-nam», «bahr-gavhar», «tengiz/ dengiz/- sarob», «tengiz-xas», «nahang-baliq» va hokazo.

2. Hayvonot va hashorat olami bilan bog'liq nisbatlar:

«Sher-kiyik», «sher-mo'r», «sher-qabon» /yovvoyi to'ng'iz/, «pil /fil/ -pashsha», «pil-mo'r», «pil-singak», «pil-mo'ri majruh», «ajdahoh-ilon», «ajdahoh-mo'r», «ajdahoh-ankabut», «anqo-pashsha» va boshqalar.

3. Turli narsa-buyumlar, tabiat hodisalari shoir g'oyalarini ifodalashda o'ziga xos mezon sifatida:

«tan /vujud/ -xoshok», «bosh-tuk», «shox-meva», «charx tominarvon», «quyosh-zarra», «xurshid-zarra», «barq-uchqun», «barq-xoshok», «to'qqiz osmon-jahon», «osmon-tuproq», «tog'-tuproq», «tog'-xoshok», «dunyo-saroy», «rishta-ilon», «rishta-ajdahoh», «rishta-dor», «rishta-ilik» /qo'l/, «rishta-bel», «paysa ipak-ajdahoh», «igna-xanjar», «igna-sinon» /nayza/, «tig'-tikan», «ko'h /tog'/-tan», «ko'h-koh» /somon/, «yel-somon», «feruza-xarmuhra/ eshak munchoq», «tobut-yoqut» kabilar.

4. Son – raqamlar orasidagi munosabat:

«qatra-yuz qatra», «bir g'amu-yuz g'am», «bir luqma – ming qon», «bir dam-bir oy», «ikki-uch-yuz», «besh-olti-o'n-o'n besh», «yuz kelibon – ming ketar», «yuz jon-ming imon», «yuz shuhrat-yuz ming tuhmat», «bir oh-yuz ming oh», «bir - yuz ming», «yuz-tuman», «bir sinuq bosh-yuz tuman tosh», «tun-u kun-oy-u yil», «bir xato-yuz azob», «bir aysh-ming ozor», «bir gul-yuz xor», «bir vafo-ming jaf», «yolg'uz bosh-yuz tosh», «ming ketar-yuz ming yetar», «bir jon-ming jon», «zuhra bir-mushtari yuz ming» va boshqalar.

Navoiy «Xamsa» qahramonlari holati, kechinmalari, ularga taalluqli sifatlar, falsafiy tushunchalar, hayotiy hodisalar, donishmandona xulosalar chiqarishda yuqoridagi nisbatlardan unumli foydalanaadi. «Xamsa» da qayd etilgan mavzular ko'lami nihoyatda keng. Hayot hodisotlari, inson turmushi, ichki kechinmalari bilan bog'liq barcha jihatlar qalamga olingan. Ana shu masalalardan biri va aytish mumkinki, shoir g'oyalarining yalovi – inson, unga yaxshilik qilish, ko'ngil kechinmalarini e'zozlash, yaxshilik va yomonlikning oqibatlarini ko'rsatishdir. Shoir insonni ulug'laydi. Uning ko'ngli

muqaddas ekanligini takror-takror ta'kidlaydi. Ayni paytda har bir kishi ezgu nom qoldirishi, umrini yaxshiliklar qilish bilan kechirishi muhimligini uqtiradi. Bu dunyoda birovga sitam yetkazish, uning qalbiga ozor berish - yomonlik nishonasi. Yomonlikning jazosi qattiq bo'ladi. «Farhod va Shirin» da shunday bayt bor:

Birovgakim birovdin yetti ofot,
Hamonokim qatig'roqdur mukofot¹.

Shoir «Xamsa» da ko'p o'rinlarda ana shu «ofot» - yomonlikning natijasi - «mukofoti» ni ko'rsatib o'tadi. Bu jazoning mezon qanday? Navoiy «Hayrat ul-abror» da «bir rishta»cha - kichik, ingichka ipcha ziyon yetkazishning «mevasi» ni munosib nisbatlaydi. Ana shu ozor ilon bo'lib qaytadi. «Rishta» - kichiklik, ozlik. Kingadir berilgan azobning miqdori. Uning ko'rinishi, shakli ilonga o'xshab ketadi. Ammo ilon- sovuqlik, ziyon, qo'rquv timsoli. Ilon harakatlari so'ngida o'lim yetadi. Bu kichik ozorning katta jazosidir:

Kingaki bir rishta yetkurding ziyon,
Qatlingga ul rishtani bilgil yilon².

«Bir rishta» ning /kichiklik/ katta nisbati «yilon». Shoir sultonlar haqida mulohaza yuritar ekan, «har ne xato» «hisob o'lg'och» «har biriga yuz azob» borligini aytadi. Bu fikrlarni har bir odamga nisbat berish mumkin. Qilingan xatolar, gunohlarning hisobi va uning turli ko'rinishdagi yuz azobi borligi aniq.

O'zgalarga berilgan qiynoqlar nisbatini shoir turlicha qiyoslaydi. Bir o'rinda «rishta-ilon» mezon qilib olinsa, boshqa baytlarda «tikan-yuz tig'», «igna-xanjari olmos», «rishta-ajdah» tushunchalari ma'lum g'oyalarni ifodalashda o'rinli ishlatilgan.

¹ Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. MAT. 20 tomlik. 8-tom. T., 1991. 437-bet.

² Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 20 tomlik. 7-tom. T., 1991. 125-bet.

Kimga tikan birla qilibsen sitez,
Urg'usidur ko'ksungga yuz tig'i tez. ("Hayrat ul-abror". 125-bet)

Shoir talqinicha, birovga tikancha / kichik, arzimas darajada / zulm etilsa, u yurakka «yuz tig'i tez» / behad azob ifodasi / bo'lib qaytadi.

Navoiy ba'zi baytlarda ushbu fikrlarini yana ham kuchaytiradi. «Rishta-ilon» dan «rishta-ajdahoga» aylandi. «Ajdahoga» - yovuzlik, azob-u o'limning yuksak ifodasi. «Farhod va Shirin» dostonida shunday bayt bor:

Birovkim rishtai uzdi jafodin,
Evaz tutmoq kerak ko'z ajdahodin. ("Farhod va Shirin". 437-bet)

Jabru jafo-yomonlikning katta uzvi. Uning bo'lak-bo'lakchalari ham bari bir ziyon. Shoir talqinicha, bir rishta jafo zohir etilsa, uning oqibati juda qo'rqinchli. «Tutmoq kerak ko'z ajdahodin» deyish - ana shu yetajak azobning darajasi.

Navoiy «Xamsa» sida «rishta» ko'pgina tushunchalarni nisbatlovchi so'z. U ozor, tama, qo'rquv, ko'rinish va ayni paytda go'zallik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqoridagi baytlarda rishta o'zgalarga yetkaziladigan ozorning eng kichik shakli tarzida talqin etilib, undan keladigan kulfatlarning behadligi ko'rsatilgan. Ana shu ruhdagi fikrlar mana bu baytda boshqacharoq bayon etilgan:

Birovkim tama' rishtaye qilg'usi,
Aning birla bo'g'zidin osilgusi¹.

Mumtoz adabiyotimiz vakillari, ayniqsa, ijodida tasavvufiy g'oyalar yetakchilik qiladigan shoirlarimizda eng ko'p e'tiroz bildirilgan, qoralangan narsa-nafs va tama. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Navoiy, So'fi Olloyor kabi ulug'larimiz beminnat, halol mehnat bilan kechadigan umrni eng oliy fazilat, komillik nis-honasi deb bilganlar. Aksincha, tamagirlik, o'zgalar hisobiga kun

¹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. MAT.20 tomlik.11-tom. T.,1993. 251-bet.

kechirishni noma'qbul harakat deya baholaganlar. So'fi Olloyorning «Sabot ul-ojizin» asarida «Hikoyati Savbon» keltirilgan. Otda ketayotgan Savbonning qamchisi yerga tushib ketadi. Otdan tushib uni olganda, atrofida gilar amr etilsa, qamchini olib berishlarini aytishadi. Savbon tamani eb ko'rmaganini aytadi¹. «Saddi Iskandariy»da Iskandarning Kashmir yurtiga kirib borishi, o'z odamlariga «kishidin tama' qilmasun rishta» deya hukm qilishi bayon etiladi. Ayni paytda, kim «tama' rishtaye qilgusi» «aning birla bo'g'zidin osilgusi» deydi. Rishta- ip. Dor ham ip. Kichikkina tamaning jazosi katta dor-o'lim.

«Hayrat ul-abror» da ham Navoiy tama haqida ko'p mulohazalarni bayon etgan. Tama etgan kishi- gado. Qanoatli darvesh-shoh. Tamagir shoh- gado. «Tama'din yiroq» lik osoyish nishonasi. Tama – xorlik. El ichida yuzsizlik. Shoir nafsni yengish, tamadan yiroq bo'lish mushkulligini bayon etadi. Chiroyli tashbeh bilan o'z fikrini asoslaydi:

Chunki og'izning yemak o'ldi ishi,
Harbi uchun chekti iki saf tishi. («Hayrat ul-abror. 167-bet)

Hayotiy tushuncha bo'yicha, tishlar ovqatni yeyish vositasi. Inson a'zolarining muhim bir uzvi. Ammo shoirona tasvir bo'yicha, ikki saf tizilgan yuqori-quyi tishlar kishining nafs va tamaga qarshi kurashishdagi o'ziga xos lashkari.

Umuman, «Xamsa» insoniylik, komillik, ma'naviy yetuklikdan saboq beruvchi o'ziga xos qomusdir.

¹ So'fi Olloyor. Sabot ul ojizin. Toshkent: "Cho'lpon", 1991. 60-bet.

III BOB: "XAMSA"NING G'UYAVIY MOHIYATI

1. "XAMSA"DA QANOAT TUSHUNCHASI

O'zbek mumtoz adabiyoti ayrim tushunchalar, obrazlar, timsollarning ko'p ma'noligi bilan xarakterlanadi. Bu narsa zohiriy va botiniy ma'no, haqiqiy va majoziy ma'no, ilohiy va dunyoviy, birlamchi va tagma'no kabi ko'pgina atamalar bilan nomlanadi. Ishq, fano, baqo, faqr, ilm, ko'ngil, so'z, odob, may, vafo, sabr, qanoat, dunyo, imon, nafs, nodonlik, jaholat, tama kabilarning mohiyatini ham shu tarzda sharhlash mumkin.

Navoiygacha bo'lgan adabiyotimizda ham, ayniqsa, Navoiy asarlarida qanoat xususida anchagina mulohazalar yuritilgan. Shoir she'riyatida, "Hayrat ul-abror", "Mahbubul-qulub", "Tarixi anbiyo va hukamo" kabi asarlarida bu boradagi mushohadalar bayon qilingan.

Qanoat nima? Uning hayotiy, tasavvufiy mohiyati nimalardan iborat? Bu savollarning o'ziga xos javobi bor. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qanoat so'zining ma'nolari izohlangan. Unda ko'proq bu so'z tilga olinganda nimani anglashimiz, xayolimizda ilk uyg'onadigan tasavvur o'z ifodasini topgan. "Qanoat" tushunchasining hayotiy, hamma ham tushunaveradigan mazmuni keltirilgan:

"Qanoat (a) 1. Ozga yoki borga ko'nish, bori bilan kifoyalanish, nafs tiyqlik bilan ko'pga, ortiqchalikka intilmaslik.

2. Mamnunlik, xursandlik, mamnuniyat, qoniqish.

3. Ishonch, ishonish". (O'zTIL. 2-tom. 550-bet).

Ba'zan boriga ko'nikmay, o'zini o'tga-cho'g'ga urib, yaxshi-yomon, harom – harishdan or qilmay yana ham ko'proq narsa ilinjida talpinish qanoatsizlik.

"Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da esa shunday qaydlar uchraydi: "Qanoat -1. qanoat: boriga sabr qilish, chidash, bardosh berish.

2. tamasizlik.

3. befoйда urinmaslik". (IV tom. T., 1985. 30-bet).

Ushbu izohlarda qanoatning tasavvufiy mohiyatiga daxldor bir fikr keltirilgan. Bu – tamasizlik. Navoiy ijodida qanoatning zidi, qarama-qarshisi sifatida asosan tama, tamagirlik qo'llanilgan. Qanoat – boriga ko'nish, shukr qilish. Ba'zan "Sabr-qanoat tilayman" degan jumlani eshitib qolamiz. Men bu tarzda ma'noni unchalik ham to'g'ri deb o'ylamayman. Inson g'amga, musibatga, qiyinchiliklarga sabr qilishi mumkin. Ammo unga qanoat qilinmaydi. Azobga qanoat emas, chidam kerak. Oz narsaga, bir parcha nonga, yetishmovchilik bo'lsa-da, sog'-salomat yashashga qanoat qilish mumkin. Shu sabab ham "sabr qanoat" emas, "sabr-toqat" tarzida jumla ishlatish to'g'ri bo'lardi. Qanoatning ma'nodoshi – shukr qilmoq, tamasizlik; sabr esa toqat, chidam bilan aloqador.

Mumtoz shoirlarimiz asarlarida qanoatning tasavvufiy mazmuni birinchi o'rinda turadi. Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniyy" asarida tasavvufning ko'pgina istilohlari sharhlangan. Unda futuvvat (yigitlik, mardlik, olijanoblik, saxovat, jo'mardlik; ayni paytda tariqatning bir bo'lagi hisoblanib, omma orasida yaxshi sifatlar va namunalik axloq bilan mashhur bo'lish tushuniladi) ning oltita zohiriy va oltita botiniy rukni (ustuni) borligi ta'kidlanadi. Oltita botiniy ruknning uchinchi qanoat (10-bet). Ayni paytda tariqatning kichik va katta abjadlari (hisoblari) borligi aytilib, katta abjad 29 ta so'zdan iborat ekanligi ta'kidlanadi: "Yigirma birinchi – qanoatni o'z hayotining asosi va faoliyatining poydevori deb bilish". (16-bet)

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u -bilig" asarini o'quvchilarimiz yaxshi bilishadi. Asarda to'rt majoziy obrazlar mavjud:

Biri to'g'rilikka tayanch – Adolat,
Biri Davlat erur, u qutli g'oyat.
Uchinchi – ulug'lik AQL ham ZAKO,
To'rtinchi – qanoat erur bebaho.¹

¹ Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u – bilig". T., 1990. 9-bet.

Demak, Adolat, Davlat, Aql, Qanoat timsollari, ular bilan bog'liq savol-javob, mulohazalar asarning asosini tashkil etadi. Kuntug'di, Oyto'ldi, O'gdulmish, O'zg'urmish timsollari asosida bu masalalar bayon qilinadi. O'zg'urmish (Uyg'ongan) – qanoat timsoli. U o'zini odamlardan chetga tortgan, dunyo ishlariga aralashmay, tog'u g'orlarda makon tutgan zot. O'z aql-u zakovati, dunyo va inson haqidagi donishmandona fikrlari, ofiyati – qanoati, boriga shukr qilishi bilan hukmdor nazariga tushgan zohid.

Biz bu asarda qanoatning tasavvufiy mazmuni asosiy o'rin tutishini sezamiz.

Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining “Hukamo zikri” qismida Luqmoni hakim haqida ma'lumot keltirilgan. Navoiy bu ulug' zot xususida ushbu asarning payg'ambarlar qismida ham, hukamo-hakimlar- donishmandlar qismida ham mulohaza yuritgan. Shoir Luqmoni hakimga taalluqli hikmatli fikrlar, u kishi tomonidan aytilgan donishmandona o'gitlarni bayon etadi. Navoiy yozadi: “Ul (Luqmon) debdurki, barcha yukni tortim, burchdin og'irroq yuk ko'rmadik va barcha lazzatni tottim, ofiyatdin chuchukroq sharbat totmadim...” (MAT. 16-tom. 190-191-betlar). Luqmoni hakim ta'kidicha, inson uchun eng og'ir, mashaqqatli yuk-burch, Olloh, el, yurt oldidagi burchni bajarish. Dunyoda lazzat, totli narsalar ko'p. Lekin eng shirini-ofiyat-qanoat. Demak, donishmand Luqmon xulosasiga ko'ra, odamzot uchun barcha sharbatlarning eng mazalisi, foydasi ko'pi boriga shukr qilish, Olloh berganiga qanoat qilish. Bu ham ko'pchilik amal qilsa arzirli hikmat.

Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari o'ziga xos odob-axloq darsligi. Uning inson kamoloti, shaxs tarbiyasidagi o'rni beqiyos. Mazkur asarning ikkinchi qismi (o'zi uch qism) “Hamida af'ol va zamima xisol xosiyatida” deb nomlanadi. Bu “Yaxshi fe'llar va yomon xislatlar xosiyati” degani. O'n fasldan iborat bu qismda tavba, zikr, zuhd, sabr, rizo, ishq kabi masalalar qatori qanoat haqida ham mulohazalar yuritilgan. Yuqorida tilga olingan atamalar ham bu qismda asosiy e'tibor tasavvufiy mazmunga qaratilganini ko'rsatadi.

“Qanoat– qismatdan rozi bo‘lish, nafsdan voqiflikdir. Ozga qone’lik qanoatdir”¹.

Navoiy asarning “Qanoat zikrida” deb nomlanuvchi to‘rtinchi bobida bu mavzuga doir mulohazalarini bildiradi. Shoir nazarida, qanoat- “chashmayedurkim, suvi olmoq bila qurumas va maxzan- edurkim, naqdi sepmoq bila o‘ksumas”. Ya’ni qanoat suvi tugamas buloq, sarf qilgan bilan tugamaydigan xazina. Qanoat – manzili xur- sandlik, ammo qiyin va mashaqqatli yo‘l. Qanoat –javhar. Kishilarn- ing eng yuksagi – qanoatlisi: “Emasdur kishi turfa andoqki, qone”.

Biz yuqorida qanoatning zidi tama ekanligini ta’kidlagan edik. Shoir ushbu o‘rinda ham shu nuqtai nazarini ilgari suradi. Qanoatli faqrning yovg‘on umochi olg‘ir-tamagir boyning novvot-u halvosidin mazaliroq. Qanoatda qanchalik osoyishtalik bo‘lsa, tamada shuncha razolat, uqubat bor.

Kimki qanoatli bo‘lsa, uning el-yurt ichida obro‘-e’tibori bo‘ladi. Aksincha, kimki tama-yu hirsga ruju qo‘ygan bo‘lsa, yaxshi-yomon ichida xoru nahs ko‘rinadi:

Har kimki, qanoat tarofi nisbati bor,
Barcha el aro tavozeu izzati bor,
Ulkim tamau hirs bila ulfati bor,
Yaxshi - yomon ichra zillatu nakbati bor.

(“Mahbub ul-qulub”. 55-bet)

“Hayrat ul-abror” dostonida ham bu mavzuning alohida sharhi bor. Dostonning yettinchi maqolati “Qanoat bobidakim...” deb nom- langan. Asarda mavjud yigirma maqolatdan – yigirmata eng zaruriy masalalardan biri sifatida qanoatga to‘xtalish ham bejiz emas. Unda quyidagi jihatlar yoritilgan:

Qanoat, uning foydalari.

Qanoatli insonga xos jihatlar, unga mos tashbehlar.

Qanoatning zidi sifatida tamaga bo‘lgan munosabat.

¹ Alisher Navoiy. “Mahbubul-qulub”. MAT. 14-tom. T., 1998. 286-bet.

Tamagirlikning oqibatlarini, bu kayfiyatdagi kishining balo-yu ofat-larga giriftorligi.

Qanoatli va tamagir do'stlar taqdiri bilan bog'liq ilova hikoyat.

Ma'lumki, "Hayrat ul-abror" 1483-yil yozilgan. "Mahbub ul-qu-lub" esa 1500-yil. Qanoat haqidagi fikrlar ikki asarda ham juda yaqin, o'xshash, hatto takror darajada. Shoir oradan 17 yil o'tib, umrining oxirida yozilgan "Mahbub ul-qulub"da ushbu mavzuga yana bir bor to'xtalishi, muhim ahamiyatga ega. Ikki asarda ham qanoat va tama darvesh-u shoh, gado va shoh, osoyishtalik va tashvish, obro' va xor-lik, qatiksiz umoch va kuloch (halvoga o'xshash shirinlik) juftliklari vositasida tashbehlangan.

Shoir yozishicha, qanoatli kishi g'ani – boy bo'ladi. Oddiy, ko'rimsiz kulbada yashayotgan qanoatli darvesh tamagir shohdan ustun. Shoiming mana baytiga e'tibor beraylik:

Chunki tama' bo'ldi gadolar ishi,

Bilki gadodur tama' etgan kishi. ("Hayrat ul-abror". 165-bet)

Gadoning ishi tama. Uning boshqa ilinji yo'q. "Qonii darvesh erur podshoh". Qanoat bilan inson sarbaland bo'ladi. Tinch ko'ngil, osoyish unga hamroh bo'ladi. Birovning minnatli kulochidan o'zining qatiksiz umochi yaxshiroq:

Tinch ko'ngil birla qatiksiz umoch

Behki birov minnati birla kuloch. (170-bet)

Qanoatsiz kishining qismati xorlik:

Ulki etib tarki qanoat shior,

Aylab ani ul tama' el ichra xor. (172-bet)

"Hayrat ul-abror"ning muhim xususiyati shundaki, shoir biror bir mavzu xususida fikr bildirar ekan, uning dalili, natijasi o'laroq qiziqar-li hikoyatni ilova qiladi. Qanoat haqidagi mulohazalarini bayon etib bo'lgach, "Qoni' juvonmard ila tomi' jahongard..." haqidagi hikoyat-ni keltiradi.

Fors mamlakatidan Chinga yo'lga chiqqan ikki do'st haqidagi bu hikoyatda "qoni"- qanoatli va "tomi"- tamagir kishining holati bayon qilingan. Unda oson xazina, yengil boylikka ega bo'lishni istamay, yo'lida davom etgan, shahar darvozasidan birinchi kirib, podsholikka erishgan va boshqasi davlatga mashaqqatsiz erishish umidida tosh ostidan xazina izlab hech nimasiz qolishi tasvirlangan. Navoiy e'tiroficha, "Xom tama' dahrda ranjur erur".

Navoiyning qanoat haqida bu dostonida bildirgan fikrlari to'liq tasavvufona. Mana bu bayt ham fikrimizni quvvatlaydi:

Jur'asidin soliki roh et meni,
Mulki qanoat uza shoh et meni. (176-bet)

Umuman, Navoiyning qanoat borasidagi mulohazalari har birimizni o'z harakatlarimiz, qilayotgan haq-u nohaq ishlarimizni yana bir bor o'ylab ko'rishga undashi bilan ahamiyatlidir.

2. "HAYRAT UL-ABROR" SABOQLARI

Navoiyning "Hayrat ul-abror"i – diniy – tasavvufiy, falsafiy, odob-axloq, pand-nasihatholik ruhida doston. Bu asarni shoirimizning hayot, inson, yashash, islom, yaxshilig-u yomonliklar haqidagi o'ziga xos saboqlari deyish ham mumkin. 63 bobdan iborat dostonning har bir bobida o'nlab masalalar, 20 maqolatu, 20 hikoyatning har birida ko'plab g'oyalar, fikr-mulohazalar bayon qilinadi. Ayrim baytlar borki, undagi mazmun yirik asarlar salmog'i bilan teng turadi. Ularni shohbayt, hikmat, fikrlar qaymog'i deyish mumkin. Ana shunday baytlarga e'tiborni qaratamiz.

Shoir o'quvchi e'tiborini eng muhim tushunchalarga qaratadi. Ularning har biriga alohida urg'u beradi: Ko'ngul, iymon, islom, karam (saxovat), adab, qanoat, vafo, ishq, rostlik, ilm, dunyo (aflok) kabilar teran sharhlanadi.

"Hayrat ul-abror"da inson, insoniylik belgilari, "odamiylar odamiysi", ya'ni bugunning tili bilan aytganda, komil shaxs haqida ko'pgina fikrlar uchraydi. Dostonning boshlaridayoq, olamning paydo bo'lishi,

borliqdagi g'aroyibot, sir-u sinoatlarning yaratuvchisi Olloh qudrati madh etiladi. Shoir olamdagi barcha narsalarning yaratilishidan maqsad inson ekanligini bir o'rinda "Lek boridin g'araz inson edi" deya ta'kidlasa, boshqa bir baytda "Bor edi inson guli maqsud anga" deydi:

Bu chaman o'lmog'ida mavjud anga,
Bor edi inson guli maqsud anga. (239-bet)

Navoiy insonni ulug'laydi. Bu nomga musharraf bo'lish oliy sadodat ekanligini uqtiradi. Haqiqiy insonni "odamiylar odamiysi" deya baholaydi. Va bunday kishining birinchi belgisi iymon ekanligini ta'kidlaydi:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishoni anga imon erur. (100-bet)

Shoir iymonli, haqiqiy kishilarga xos sifatlarni ko'rsatib o'tadi. Ishi elga foyda keltirish, yaxshilik qilish, odob-axloqli, saxovatli, qilmishi rostlik va to'g'rilik, sabr-qanoatli, shukr qilib yashaydigan, halol mehnatni qadrlaydigan, shirin so'z, nafs va ta'madan yiroq kishilarni ana shu bahoga loyiq deb biladi. Shoir insonning suvrati bilan siyrati, ya'ni tashqi ko'rinishi bilan ichki dunyosi mos tushishini aytadi. Aytadigan so'z bilan qiladigan ish muvofiq bo'lmasa foydasiz ekanligini uqtiradi:

Kimniki, inson desang, inson emas,
Shaklda bir, fe'lda yakson emas. (325-bet)

Komil insonning ko'ngli, so'zi, ko'rinishi, fe'l-atvori, qiladigan ishlari bir xil bo'ladi.

Haqiqiy inson sabr-qanoatli, shukrlidir. Insonni davlati, mol-mulki emas, qanoati sarbaland etadi:

Mulk ila o'zni demagil arjumand,
Mulki qanoat bila bo'l sarbaland. (166-bet)

Navoiy asarlarida shukr qilib yashash g'oyasi ko'p tilga olinadi. Qit'alaridan birida ikki kishining holatini tasvirlash orqali shukronalikni ulug'laydi. Birov kelyapti: oyog'ida kiyishga kalishi yo'q. Ikkinchisi kelyapti – oyoqning o'zi yo'q. "Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukr qil" degan maqol mazmuniga juda mos. "Hayrat ul-abror"da bu fikr yana ham chuqurlashtiriladi:

Biri aning ne'matig'a shukr erur,
Kimsaki, shukr aylasa ko'prak berur. (123-bet)

Navoiy komil insonga xos yana bir muhim belgi sifatida halol mehnatni ulug'laydi. Birovning minnatli oshidan halol mehnat bilan topilgan ozgina narsa ham qimmatliroq. O'zi mehnat qilib topgan bir dirham birovning "ganj"i - katta xazinasidan yaxshiroq:

Bir diram olmoq chekibon dast ranj,
Yaxshiroq andinki birov bersa ganj. (153-bet)

Boshqa bir o'rinda esa, halol mehnat bilan topilgan qatiqsiz umochni (suvda pishirib olinadigan xamir ovqat) kulochga, ya'ni sharbat, bodom, qaymoq solib pishirilgan kulchaga qarshi qo'yadi. O'z mehnati bilan topilgan umochda ko'ngil tinchligi, osoyishtalik bor. Birov bergan kulochning minnati, bezovtaligi ko'proq:

Tinch ko'ngul birla qatiqsiz umoch
Behki birov minnati birla kuloch. (170-bet)

Komil insonga xos yana bir sifat-rostlik, to'g'rilik. Bu tushuncha Navoiyning ko'p asarlarida izohlanadi. "Xamsa" ning "Hayrat ul-abror", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlarida, ayniqsa chuqur mulohazalar bildirilib, ibratomuz hikoyatlar keltiriladi. "Sher bilan Durroj", Muqbil va Mudbir, chin-u yolg'onni aks ettiruvchi sehrli oyna, kampir va daraxti, yolg'onchi kishi va uning uyi yonib ketishi kabi hikoyatlarni eslash kifoya. "Hayrat ul-abror"da bu mavzu

o'ninchi maqolatda yoritilgan. To'g'rilik timsollari sifatida o'q, nay, nayza, sham', sarv kabilar tavsiflanadi. Shoirning bu boradagi xulosasi quyidagicha:

Bir buki, tuz bo'lsa kishining so'zi,
Yo'q so'zikim, ham so'zi-yu ham o'zi. (205-bet)

Tuz-bu to'g'rilik, rostlik degani. Insonning so'zi rost bo'lishi zarur. Nafaqat so'zi, o'zi ham, so'zda boshqayu, ishda o'zgacha bo'lish muvofiq emas.

Ya'ni:

Ulki shior ayladi yolg'on demak,
Bo'lmas ani er-u musulmon demak. (208-bet)

Yolg'onchi odam xalq e'tiboridan qoladi. Shoir "kizb" – yolg'on, "kozib" – yolg'onchi tushunchalariga ko'p to'xtaladi. "Tuz-haq", "egri-botil" deydi. Egrilik, yolg'onchilikni "barqqa"– chaqmoq, yashinga o'xshatadi. O'zi osmonda bo'lsa ham quyiga tushishini xorlik deb biladi. Egrilik-rejasiz bog', tekislanmagan, teng suv icha olmaydigan notekis yer. Yolg'onchilik yashirin qolmaydi. Tezda elga oshkor bo'ladi. Yolg'onchilikda nomi chiqqan odamning rost so'zi bo'lmaydi. Unga hech kim ishonmaydi. To'g'ri so'zi ham yolg'ondek tuyuladi. Shu sabab har qanday mushkul damda ham yolg'on gapirmaslik kerak:

Necha zarurat aro qolg'on chog'i,
Chin demas ersang, dema yolg'on dog'i. (209-bet)

Haqiqiy inson nafsga mute bo'lmagan, uni yenga olgan kishidir. Navoiy e'tiroficha, to'qaydagi sherni yengish mardlik emas, o'z nafsi-ni bo'ysundira olgan shijoatlidir. Kishini beburd qiladigan, har ko'yg'a solib, yo'ldan ozdiradigan balo-nafsdur. Nafs bilan jihod aylagan akbardir. Inson ehtiyojining, nafs nayranglarining cheki yo'q. Navoiy aytganidek:

Nafskim, ul ayshi mudom istagay,
Sanga gunoh, o'ziga kom istagay. (323-bet)

Nafs istagi – aysh, rohat-farog'at. Uni qondirish qiyin. Nafs qanchalik “kom” – bahra, lazzat uchun intilsa, inson shunchalik gunohga botaveradi. “Hayrat ul-abror” da bir bayt bor:

Chunki og'izning yemak o'ldi ishi,
Harbi uchun chekti iki saf tishi. (167-bet)

“Hayrat ul-abror” ning nasriy bayonida bu bayt “Og'izning ishi ovqat yeyish bo'lgani sababli chaynash uchun (Xudo) ikki qator tish ham yaratdi” tarzida sharhlangan. Ammo bunday emas. Chunki bu bayt dostonning yettinchi maqolatidan olingan bo'lib, u “Qanoat bo-bidakim” deb boshlanadi. Shoir bu bobda qanoat, tama', ularning foyda va zararlarini sharhlaydi. Shu asosda yuqoridagi bayt ham keltiriladiki, uning talqini quyidagicha: Og'izning ishi yeyish. Inson ehtiyojining cheki yo'q. Taom, nafs lazzati hammani ham mahv etishi mumkin. Navoiy e'tiroficha, og'izning, nafsning bu istagiga qarshi ikki qator tish berilgan. Ular ovqatni chaynash vositasi emas. Balki inson nafsiga qarshi kurashadigan ikki qator lashkar-jangchilardir. “Harbi uchun” birikmasi ana shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Navoiy asarlarida so'zga alohida e'tibor beriladi. “So'z” deganda til, nutq, muomala, badiiy adabiyot kabilar nazarda tutiladi. Shoir nazarida shirin so'z, yaxshi muomala ko'p mushkullarni hal qilishda foyda beradi. Gapirayotgan yuksak martabali kishi yoki gadomi, boy-u badavlat yoki kambag'almi- bu muhim emas. Muhimi u nima deyayotgani. “Hayrat ul-abror” ning o'n uchinchi maqolati foyda yetkazuvchilar haqida. Komil insonlarga xos belgilar qatorida yaxshi so'zga ham e'tiborni tortadi. Shoir talqinicha, ba'zan katta davlat, ganj-xazina berib ham qilib bo'lmaydigan ishni “bir yaxshi so'z” bilan bajarish mumkin:

Ganj berib bo'lmaz ekin tutsa ko'z,
Ulcha qilur vaqtida bir yaxshi so'z. (239-bet)

Shoir fikrlarini davom ettirib, so'z bilan eng yomon odam yaxshiga aylanishi, "kufr ahli musulmon", "hayvon degan inson" bo'lishini ta'kidlaydi. So'zdan jonsiz vujudga jon, "o'luk tan hayot" topadi:

Ham so'z ila elga o'lumdin najot,
Ham so'z ila topib o'luk tan hayot. (240-bet)

Navoiy asarlarida, "Hayrat ul-abror" da ham insoniylikning yetakchi omili sifatida o'zgalarga yaxshilik qilish ekanligi ko'p bor qayd etiladi.

Kimki, o'zgalarga yaxshilik qilish, foyda keltirishni odat qilsa, bundan o'ziga ko'proq foyda yetadi:

Naf'ing agar xalqqa beshak durur,
Bilki bu naf' o'zungga ko'prak durur. (234-bet)

Yaxshilik qilib yashash yuksak baxt. Uni hamma ham qilolmaydi. Yaxshilik qilolmagan odam yomonlik ham qilmasa. Shuning o'zi yaxshilik qilish bilan teng:

Yaxshilik ar aylamasang ish chog'i,
Aylamagil bori yomonliq dog'i. (299-bet)

Navoiy talqinida, yaxshilik qilishning ham o'z shartlari bor. Eng yaxshisi qilgan yaxshiligini aytmaydigan, minnat qilmaydigan kishidir. Ming yaxshilik qilib, bir marta ham aytmagan kishida "erlik asari yordur":

Yaxshi emas gar qilib aytur kishi,
Ko'r ne bo'lur qilmayin aytur ishi. (275-bet)

Umuman, "Hayrat ul-abror" da yosh-u qari, erkak-u ayol-hamma-hamma uchun o'git bo'ladigan, hayoti davomida amal qilishi zarur bo'lgan ko'pdan ko'p saboqlar o'z ifodasini topgan. Ularni o'rganish har birimizning bugungi kundagi muhim vazifalarimizdandir.

3. "XAMSA"DAGI AYRIM HIKOYATLAR TALQINI

Alisher Navoiy asarlarining mazmun-mohiyatini tezda anglab yetishning bir qator murakkabliklari bor. Ayrim bayt, hikoyat, obraz yoki timsollarning asosiy ma'nosini to'g'ri tushunish chuqur tafakkur, keng qamrovli ilmni talab etadi. Shoir asarlarini teranroq his qilishda tariqat odobi, tasavvuf mohiyati, islom odob-axloqi, so'fiylar hayoti, shaxsiyati bilan bog'liq jihatlardan oz bo'lsa-da xabardor bo'lishning ham ahamiyati bor. Ayniqsa, Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asari bilan tanishishning afzalliklari ko'p. Shoirning boshqa asarlari-da ilgari surilgan g'oyalarni to'g'riroq talqin etishda uning o'rni katta. Ma'lumki, "Xamsa" da bir qator masalalar yoritilgan. Ko'pgina ibratli hikoyatlar keltirilgan. "Hayrat ul-abror" ning o'n uchinchi maqolatida haqiqiy insonlik, "odamiylar odamiysi qanday bo'lishi haqida mulohazalar bildirilgan.¹ Shoirning ta'kidicha, "Necha jaf o'yetsa, vafo aylagan", azob-u ozorlarga sabr bilan chidaydigan, hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaydigan kishi "basha xaylining insoni". Shu yerda Ayyubi xalaf va o'g'ri haqidagi hikoyat keltirilgan.² Ayyubning uylariga lahm qazib o'g'ri kiradi. Ko'p narsani orqalab o'sha teshikdan chiqib ketishni istaydi. Voqeadan xabardor bo'lib turgan Ayyub o'g'riga yumshoqlik bilan muomala qiladilar va eshikni ochib beradilar. O'g'ri tavba qiladi. To'g'ri yo'lga kiradi – voqea shu. Odatda, uyiga o'g'ri kirgan kishining qay holatga tushishi, unga qiladigan munosabati ayon. Ammo Shayx nega karamu afv ko'rsatdilar, yaxshi muomala qildilar? Sababi nima?

Ayyub – komil inson. Adashganni to'g'ri yo'lga solish haqiqiy

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Yigirma tomlik. 7-tom. Toshkent, 1991. 233-242-betlar.

² O'sha asar, 242-245-betlar.

musulmonning ishi – bu bir tomoni. Ikkinchidan, shayx “shariat ri-oyati va tariqat odobi” dan xabardor edi. Bu odobning shartlari, qoida va amallari qanday? Mana shu yerda bir oz qiyinchilikka duch kelamiz. Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida tariqat odobi haqida fikrlar keltirilgan. Shoir shunday yozadi: “Ul adabdurki, yaxshiyu yomonga va ulug‘u kichikka bajo keltirurlar... Hattoki, o‘z farzandlariga va xodimu mamluklarigaki /qul, asir/, har necha alardin beqoidalig‘ ko‘rsalar, xushunat / qo‘pollik/ birla alarga so‘z demaslar, balki nasi-hatni yumshog‘ va chuchuk til bila qilurlar, hattoki o‘g‘rigacha”.¹

Ayyubning o‘g‘riga yumshog‘ muomalasi ana shu jihat bilan izoh-lansa to‘g‘ri bo‘ladi.

Maktab o‘quvchilari Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoniga kirgan “Hotami Toyi hikoyati” ni yaxshi bilishadi. Hotam – adabi-yotimizdagi saxiylik timsoli. Ammo u o‘tinchi cholni o‘zidan ham ustun qo‘yadi. O‘z mehnati bilan yashash, birovning minnatiz umr kechirish – komillik nishonasi. Chol shunchaki oddiy mehnatkash emas. U aqli komil, ilm-ma‘rifatdan xabardor ulug‘ zot. Sharq allo-malari halol mehnat bilan kun kechirishi ko‘p targ‘ib etishadi. Bun-ing boisi bor. Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da Abdulloh Ansoriy shayxlar haqida yozganda, shayx Abu Said Xarrozni “barchadin alar-ni ko‘prak vasf qilibdurlar”² deydi. Sababki, “alar o‘t uk /etik/ tikarga mansubdirilar”, ya‘ni mehnat qilib, halol luqma bilan kun kechirish-ni odat qilgan ekanlar. Navoiy keltirgan bu hikoyat bilan “Hotami Toyi”dagi chol orasida o‘xshashlik, yaqinlik ko‘zga tashlanadi. Chol obrazini ana shu asosda tahlil etish muvofiqdir.

Navoiyning lirik asarlari, “Xamsa”, “Nasoyim ul-muhabbat” va boshqa asarlarida “Futuvvat”, “Javonmard” /“juvonmard”, “jo‘mard”/, “Muruvvat” kabi atamalar ko‘zga tashlanadi. Bu so‘zlarn-ing ma‘no va mohiyatini bilmaslik, ular uchraydigan misralar maz-munini yetarlicha anglamaslikka sabab bo‘ladi. Ularning istilohiy, lug‘aviy ma‘nolari, futuvvat shartlari, qonun-qoidalari Husayn Voiz

¹ Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. 17-tom. Toshkent, 2001, 18-bet.

² O‘sha asar, 15-bet.

Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniyyoxud javonmardlik tariqati" kitobida va boshqa ko'pgina manbalarda qayd etilgan. Professor N. Komilovning bu boradagi fikrlari e'tiborga loyiq.²

Bu boradagi ma'lumotlarni bilish- Navoiyning ayrim fardlari, qit'alari- umuman lirik asarlari, "Xamsa"dek yirik asarlaridagi mohiyatni, ayrim obrazlarga xos xususiyatlarni to'g'ri va yetarlicha tushunib olish imkonini beradi. Hammamizga ma'lum bo'lgan va 10-sinf uchun chiqarilgan "O'zbek adabiyoti" darsligiga kiritilgan ushbu fardga e'tibor beraylik:

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,
Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo'q.³

She'r tahlili darslikda berilgan. Ammo uning mazmunini yana ham batafsil anglash uchun "Futuvvat", "Muruvvat" tushunchalaridan yetarlicha xabardor bo'lish zarurga o'xshaydi. Agar o'quvchi ulardagi mohiyatni, bu guruhga taalluqli shaxslar xarakteri, tabiatidan bexabar bo'lsa, fard mazmunini chuqur his qila olmaydi.

"Xamsa"- umumta'lim maktablarida keng o'rganiladi. Asardagi ayrim hikoyatlar, obrazlarni "Futuvvat", "Muruvvat", "Javonmard" kabi atamalar bilan bog'langan holda kengroq tadqiq etish zarur. Zero, shularsiz ularning mohiyati yetarlicha ochilmaydi. Shoir asarlarida gadodan tortib adolatli shohgacha, payg'ambardan tortib, shayx, so'fi, oddiy kishilargacha, ma'shuqa-yu oshiqlar, navjuvon yigitdan tortib, mehnatkash cholgacha mana shu sifatlariga ega shaxslar tarzida sharh etiladi. "Xamsa"dagi Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Iskandar, Axiy, Mas'ud, Ayyub, o'tinchi chol, gado va boshqalarni esga olaylik. Ularning har birida "Futuvvat ahli", "javonmard"larga xos yoki bu xususiyatlar kuzatiladi.

Birgina misol: "Layli va Majnun"da bir necha o'rinda "Muruvvat", "Futuvvat", "Javonmard", "Futuvvat ahli", "Muruvvat ahli"

¹ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniyyoxud javonmardlik tariqati. Toshkent, 1994.

² Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob. Toshkent, 1996.

³ Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. 6-tom. Toshkent, 1990. 529-bet.

jumlalari ko'zga tashlanadi. Avvalo, Majnun ham javonmardlardan edi. Uning hech kimga ozor yetkazmasligi, insonlarga, hatto hayvonlarga bo'lgan munosabati va muhabbati, pok qalb-u toza ko'ngli shunga ishora. U "nafsdin kechib tamomi", ya'ni nafs balosidan qutilgan, ruhan yuksaklikka ko'tarilgan, axloqi yuksak zot. Axloq komilligi, nafsni mag'lub etish ham javonmardlarga xos. Zayd Majnunga "Ey javonmard!"- deya murojaat etadi. Shoir shunday yozadi:

Majnunki futuvvat ahli erdi,
Ihsonu muruvvat ahli erdi.¹

Umuman, Majnun obrazini ham, boshqa obrazlarni ham ana shu jihatdan tahlil etsak, Navoiy qarashlari, shoir ilgari surgan g'oyalar mohiyatini to'g'ri anglay boshlaymiz. O'quvchilarimiz Navoiyning shoirona iste'dodi, asarlaridagi ulug'vor salohiyatni yanada yorqin his qila boradilar.

4. DUNYO VA YASHASH MAZMUNI

Alisher Navoiy asarlarida, ayniqsa, "Xamsa"da har bir tushuncha, mavzu, hayot, inson bilan bog'liq masalalar yuksak darajada talqin etiladi. Ishq, ko'ngil, vafo, qanoat, odob-axloq, so'z, rostlik va yolg'onchilik, saxovat va buxl (baxillik, xasislik), aql va jaholat, ilm va nodonlik, yaxshilik va yomonlik kabi yana ko'plab tomonlar tahlilida ana shu jihatni ko'ramiz.

Ulug' shoirimizning olam, hayot, inson va umr mazmuni xususida ham teran mulohazalari bor. "Xamsa"da ular haqida atroflicha fikr yuritilgan. Dunyo nima? Olam nima uchun yaratilgan? Inson va insoniylik nima bilan belgilanadi? Yashash, tiriklikning asosiy mohiyati nimada? Bu savollarga har kimning o'z javobi bor. Kim uchundir uzoq umr ko'rish, farovon va to'kis hayot umr mazmuni. Boshqa birov uchun hisobsiz mol-mulk, o'zgalarga hukm-u zug'um o'tkazish – bosh maqsad. Kimlargadir sog'-salomat, tinch-u osoyishta umrguzaronlik ham yetarli. Yana kimlardir amal-u mansab ilinjida kuyib

¹ Alisher Navoiy. Layli va Majnun. 2-tom. Toshkent, 1992. 232-bet.

yonadi. Hamma ham o'zicha haq. Ammo Navoiy xulosalari qanday? Shoir ta'kidicha, dunyo "karvonsaroy", "karvon", "buqalamun", "hubob" (suv yuzida paydo bo'ladigan pufak), "kabutar", "jallod", "ulug' bazm", "bir jom zahr", "zindon", "ulug' kesak", "suv ichidagi kesak" va hokazo. Bu nisbatlarda ko'proq olamning bevafoligi, inson umrining omonatligiga ishora bor. "Farhod va Shirin"da gardunga nisbatan shunday deyiladi: "Shioring har necha javru jafodur". Ha, dunyoning shiori: javru jafo.

Navoiy ko'p o'rinlarda umrning o'tkinchiligiga e'tiborni tortadi:
Ey ko'ngul, boqmag'il jahon ishiga,
Kim jahon qilmadi vafo kishiga. ("Sab' ai sayyor". 328-bet)

Hayotning inson uchun abadiy emasligini shoir bir baytida shunday ta'kidlaydi:

G'amim yo'qtur o'lmakda emgak uchun,
Nedinkim tug'ar kimsa o'lmak uchun.
(*"Saddi Iskandariy"*. 18-bet)

Insonning qismati azaldan ma'lum. U o'lish uchun tug'iladi. Bundan hech kimga omonlik yo'q. Shoir dunyoning o'tkinchiligini bot-bot e'tirof etadi. Nega? Bu tushkunlik, hayotga ko'ngil qo'ymaslikka chaqiriqmi? Navoiyning niyati boshqacha. Olamning yaratilishi, kishilarning kelib-ketishi hayot qonuni. Hech kim bu dunyoda abadiy qolmaydi. Birov keladi, boshqaning nasibasi tugab bitadi:

Turfa bukim, yuz kelibon ming ketar,
Ming chu ketar, keynicha yuz ming yetar.
(*"Hayrat ul-abror"*. 249-bet)

Shoir ta'kidicha, yuz kishi tug'ilsa, ming odam bu olamni tark etadi. Uning o'rmini yana yuz ming kishi egallaydi. Bu – hayotning davomiyligi, siru sinoati. Dunyo shu: kelish-u ketish. "Ketguchi bu bazmga kelgan kishi". Dunyo – bazm. Qisqa fursat. Umr shunday davom etaveradi:

Silsila bu nav' azal to abad,
Kelguchi-yu ketguchi behaddu ad.
(“Hayrat ul-abror”. 249-bet)

Navoiy tasviricha: “Osoyish yeri ermas bu manzil”. Inson - omonat. Bu holatni “suv ichinda kesak”, “kesak manzili istiqomat emas” o‘xshatishlari orqali bayon etadi:

Bir ulug‘roq kesak erur bu jahon,
Ki erur ko‘pragi suv ichra nihon.
(“Sab’ai sayyor”. 328-bet)

Suv – qudrat timsoli.

Kesak uning oldida hech narsa:

Kim kesakni suvda nazora qilur,
Bir-ikki lahza chun o‘tar ezilur.
(“Sab’ai sayyor”. 328-bet)

Kesakning “bir-ikki lahzada ezilur”i inson umriga ishora. “Bar-chag’a chun adam sori yo‘ldur, Karvon ichra karvon uldur”. “Karvon”-olam. “Karvon ichra karvon” –inson umri. Hammaning yo‘li adam- yo‘qlik sari borishi aniq. Boshqa bir o‘rinda shoir inson hayotini suv yuzidagi hubobga qiyoslaydi:

Muni ma‘man dema, degil xarobe,
Muni maskan dema, degil hubobe.
(“Farhod va Shirin”. 421-bet.)

Bu olam “ma‘man” –tinch, omonlik joyi emas. Xarob bir maskan. Uni maskan deb ham bo‘lmaydi. U “hubob”-suvning pufagi, lahzalik hodisa.

Navoiy olam haqida fikr yuritib, uning o‘tkinchiligi, zolim va bevafoqligi, “g‘am yemakka kiro aylamasligi”ni ta’kidlaydi. Ayni paytda, olam paydo bo‘lganidan maqsad odam ekanligini uqtiradi:

Karam birla haq aylagay olame,
Bu olamda maqsud anga odame.

(“Saddi Iskandariy”. 14-bet)

Shoirning olam haqidagi yuqoridagi mulohazalarining ma’lum asosi bor. Dunyo o’tkinchi, uning gultoji inson hisoblanar ekan, umr mazmuni nima bilan bog’liq? Ana shu yerda shoirimizning bosh muddaosi oydinlashadi: umrni, “bir-birga siz borchangiz mehmon-siz” deya tiriklikni g’animat bilish, hayotni mazmunli o’tkazish. Shoir shunday yozadi:

Qo’yub borin oxir chu ketgungdurur,
Deginkim olib oni netgungdurur.

(“Saddi Iskandariy”. 472-bet)

Inson uchun oxir-oqibat tuproq oromgoh bo’lar ekan, yig’ib-yig’ishtirganini tashlab ketishga mahkum ekan, yelib-yugurish, tinib-tinchimasligining ma’nisi nimada? Shoir aytmqchi:

Chu oxir bo’lurbiz adam, ey rafiq,
G’animat tutoli bu dam, ey rafiq.

(“Saddi Iskandariy”. 468-bet)

Navoiy talqinicha, insoniylikning, yashashdan maqsadning muhim shartlari bor. Shoir tasviricha, yaxshi nom qoldirish, ezgu ishlari, so’zu amallari bilan el ko’nglidan joy olish – umr mazmuni. Olam bevafo, umr bebaqo, tiriklik abas ekan, har bir kishi faqat yaxshi nom qoldirishga harakat qilishi zarur:

Ming yil umid erurki qilg’aysen,
Yaxshi ot-o’q jahonga solg’aysen.

(“Sab’ai sayyor”. 343-bet)

Navoiyning “Farhod va Shirin”dan olingan mana bu bayti har bir o’quvchiga umr mazmuni, tiriklik va hayot maqsadini anglatib turgandek bo’ladi:

Qila olg'oncha ul bo'lsun shioring
Ki, yaxshi ot qolg'ay yodgoring. (465-bet)

5.NAVOIY PANDLARI – HAYOT SABOG'I

Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniyy" kitobida futuvvat ahli, ya'ni komil, har jihatdan yetuk kishilar ega bo'lishi zarur bo'lgan qirq sakkizta ijobiy, shuningdek, inson uchun qusur sanalgan yigirma uchta yomon jihatlar sanab o'tilgan. Ollohni, islomni tan olishdan boshlab, aql, ilm, bilim, karam, vafo, shafqatu kasallarni borib ko'rishgacha bo'lgan ko'pdan ko'p sifatlar qayd etilgan, gap tashish, ko'p kulishdan tortib, yolg'on qasam, may ichish-u zinogacha bo'lgan qator illatlardan parhez qilish zarurligi uqtirilgan¹. Ana shu jihatlarning hammasi Navoiy asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Shoir merosida ko'p uchraydigan pand-u-nasihatlar, inson, hayot, tiriklik, yashash mazmuni borasidagi o'gitlar otaning farzandiga, ustozning shogirdiga, akaning ukasiga, ulug' donishmandning kelajak avlodiga yetkazayotgan hayot sabog'i deyish mumkin.

Navoiyning uch kishi– Husayn Boyqaroning o'g'illari Badiuzzamon Mirzo, Shoh G'arib Mirzo va o'z ukasi Darveshaliga qilgan pandlari xuddi bugunning gaplaridek taassurot uyg'otadi.

Ma'lumki, Navoiy merosining bir qismini uning xatlari –"Munshaot" asari tashkil etadi. Shoirning Badiuzzamon Mirzoga yozgan qator xatlari ham xarakterli.

Navoiy bilan bu shahzodaning munosabatlari ancha yaxshi bo'lgan. Husayn Boyqaro bilan Badiuzzamon Mirzo orasida bo'lib turadigan nizo, kelishmovchiliklarni bartaraf etishda shoir ko'p vaqt vositachilik vazifasini bajargan. Shahzodaga nasihatlar qilgan. Bu fikrlarni bir maktub orqali asoslash mumkin. Navoiy Badiuzzamon Mirzoga xat yo'llab, Olloh roziligini ota roziligiga tenglashtiradi. Ota g'azabiga uchragan Tangri taolo g'azabiga duchor bo'lishini ta'kidlaydi. U mashhur shayxlarning "otang parvardigoringdur" degan

¹ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati. T., 1994. 11-12-betlar.

so'zlarini esga oladi. Ayni paytda mashhur adib Ahmad Yugnakiyning bir ruboiysini keltiradi:

Atodin xato kelsa ko'rma xato,
Savob bil xato toki qilsa xato.
Atoning xatosini bilgil savob,
Seni yuz balodin qutqarg'ay xudo.

Bu- har bir farzand uchun shior. Bugungi kunda ba'zan uchrab turadigan ota va farzand nizolari, arziyas narsalar sabab, otasini behurmat qilayotgan ayrim noqobillarga o'ziga xos ibrat. Otaning har qanday kamchiligi, xatosini farzand qusur deb bilmasligi, uni savob o'rinda qabul qilishi, shunda Olloh uni har qanday balo-yu ofatlardan omon saqlashi ta'kidlanmoqda. Otasi Ya'qubga bir ozgina odobsizlik qilgani uchun Yusuf payg'ambar boshqa payg'ambarlardan yetmish yil keyin jannatga kirgani, Hom ham otasi Nuhga tarki adab qilgani uchun rangi qora bo'lib, uning nasli payg'ambarlikdan judo bo'lganini misol qilib ko'rsatadi.

Navoiy Badiuzzamondan sodir bo'lgan ba'zi kamchiliklarni arz qilib o'tadi. Shoir e'tiroficha, ushbu shahzodaga doimo duo tilab, nimaiki nomunosib ish qilsa aytib o'tgani yoki kitoblarida nasihat qilganini eslatadi. Navoiy Badiuzzamonga yetkazishni farz sanagan va bu ishi noto'g'ri deb bilgan quyidagi sabablarni ko'rsatadi.

1. Viloyatdan olinadigan mollar, soliqlarni maslahatsiz yig'ayotgani. Agar ozgina ishora qilsa ham, ya'ni ruxsat so'ralsa yo'q deyilmas edi.

2. Ota bilan suhbatda muloyimroq, so'zni yumshoqroq so'zlash. "Astrobodg'a kishi yubormangkim, bermagumdir" degan jumlaning Navoiy keskinroq javob deb biladi. Buni boshqacharoq, samimiyroq tarzda ham bayon qilish mumkin edi.

3. Badiuzzamon yozgan nishon-farmonning tug'rosi-maxsus o'rinda Husayn Boyqaro nomini qayd etmagani. Navoiy bularni gina tarzida bildirib, Badiuzzamonday oqil, iymonli yigitga bunday ishlar ravo emasligini uqtiradi.

Navoiy Husayn Boyqaroning Badiuzzamonga munosabatini, uning eng sevimli farzandligini hammadan yaxshiroq sezishini eslatadi.

Shoir Badiuzzamonning bu ishlarini Husayn Boyqaroning keksayib qolgani sababli qilayotgan bo'lsa, noto'g'ri ekanligini, chunki farzand otasi zaiflashganda, qariganda ko'proq xizmat qilishi, jonini nisor etishi kerakligini aytadi.

Navoiy bu so'zlarni aytishni qarz deb biladi. Bu pandlarini Husayn Boyqaro topshirig'i bilan buyruq asosida yozmaganini, hatto Husayn Boyqaro bundan bexabar ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Umuman, bu maktub-Husayn Boyqaro va Badiuzzamon munosabatlarini yumshatish, Badiuzzamonga nasihatlar qilib, noto'g'ri ishlarini ko'rsatish va uning farzandlik burchini bajarishga undash edi.

Navoiy "Farhod va Shirin" dostonining bir bobini Abul Favoris Shoh G'arib Mirzoga bag'ishlagan. U Husayn Boyqaroning o'g'li. Laqabi Abul Favoris. "Favoris- "foris"ning ko'pligi; suvoriy, sher demakdir.¹ Navoiy "Majolis un-nafois" ning yettinchi majlisida Shoh G'arib Mirzo haqida ham gapirib o'tadi. Uni sho'x tabiatli, o'tkir zehnli, nozik xayol yigit ekanligini, nazm va nasrda naziri yo'qligini aytib samimiy munosabat bildiradi². "Farhod va Shirin"da bu shahzodani madh etadi. Ayni paytda bir necha nasihatlar qiladi. Bu pandlar ham bugungi yoshlar – o'quvchi va talabalarga qaratilgandek tuyuladi:

Quyoshliq istasang kasbi kamol et,

Kamol ar kasb etarsen, bemalol et. ("Farhod va Shirin". 462-bet)

Quyoshlik istash – quyoshdek nurposh bo'lish, zaminga, el-u yurtga nur bag'ishlash. Buni istagan kishi komil bo'lishi – ilm-u hunar o'rganishi zarur. Shoir ilm va ta'lim haqida gapirar ekan, ta'limda kim malollik – loqaydlik qilsa, "ilm ahli oldinda xijolat" tortishini aytadi. Bu- haq gap. Ilm olib, olim bo'lish ulug' sharaf. Kim olimlarga ta'zim qilsa, xuddi payg'ambarga ta'zim qilgandek bo'ladi.

¹ Alisher Navoiy. Farhod va SHirin. MAT. 20 tomlik. 8-tom. T., 1991. 526-bet.

² Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Asarlar XV tomlik. 12-tom. T., 1966. 175-bet.

Olimlar, ilm ahli-payg‘ambarga voris hisoblanadi deydi shoir. Albat- ta, gap bu yerda haqiqiy olim, ilm-u irfonda mukammal inson haqida bormoqda. Ilm egalarining yaxshi nomi qoladi. Iskandar ilm-u hu- nari tufayli “bahru barni” –dengiz-u quruqlikni egallaydi. Navoiy shu o‘rinda Mirzo Ulug‘bekni tilga oladi, ilmi sabab osmonni kashf etgani, “Zichi Ko‘ragoniy” nomli ilmi osmoniyni yozganini ta’kid- laydi. Inson ilm borasida hech qachon qanoat qilmasligi, ilm o‘rgan- ishdan to‘xtamaslikni, bir necha ilmlardan xabardor bo‘lishini aytadi. Diniy ilmlar, ayniqsa fiqh, hadis, tafsirni o‘rganish zarurligini qayd etadi. Tibbiyot, hikmat – falsafani o‘rganish ham xo‘b. Inson tarixga nazar solishi, hech kim abadiy qolmasligi, Tahmuras, Jamshid, Zah- hok- hammasi o‘tgani, faqat kimdandir yaxshi ot qolishi, boshqasi yomonlik bilan nom chiqarishini uqtirib, inson yaxshi nom qoldirish uchun yashashi kerakligini aytadi:

Qila olg‘oncha ul bo‘lsun shioring,

Ki, yaxshi ot qolg‘ay yodgoring. (“Farhod va Shirin”. 465-bet)

Haq nima buyursa shuni qilish, Ollohga manzur bo‘lmagan ish- lardan voz kechishni aytadi.

Navoiy shahzodaga o‘git berar ekan, mizojini yaxshi bilib olish- ni, ovqat yeyishda ham me‘yorga rioya qilishni, ko‘p ovqat badanga yuk ekanligini uqtiradi. Tiriklik suvi bo‘lsa ham, me‘da hazm qilma- sa, iste‘mol qilmaslikni aytadi. Bundan tan sihat topadi.

Shoir tarixga nazar solib, o‘tgan jahongirlardan ibrat olishni, kim zulm, kim adolat qilgani, qaysining harakatlaridan yurt obod bo‘ldi, qaysidan barbod, qaysi ishlardan el salomatlik topdi. Shulardan xulo- sa chiqarishni, yaxshi nom qoldirishni nasihat qiladi.

Navoiy bu pandlari foyda berishini, uni ham duo bilan yod etishni Shoh G‘arib Mirzodan so‘raydi.

Shoir pand berganidek, ilm-u hunar o‘rganish, hayotdan saboq ol- ish, yaxshi nom qoldirish uchun yashash barchaning umr mazmuniga aylansa.

Navoiyning ukasi Darveshaliga qilgan nasihatlari ham bugungi yosh avlodga qaratilgan o‘ziga xos o‘git hisoblanadi.

“Saddi Iskandariy”da keltirilgan 64 misrali bu pandda Navoiyning o‘z jigariga, eng yaqin kishisiga qilgan qalb so‘zlari bayon qilingan. Navoiy “Saddi Iskandariy”- dagi bobda dastlab Darveshaliga o‘zining qarindoshi ekanligini, “besh ganj”- “Xamsa”dek sehrli asar yaratgani, unda bir qism gavharlarni –hikmatomuz so‘zlarni unga bag‘ishlashini, bu gavharlar unga “pand” – nasihat ekanini – ularni tinglab, amal qilishni, nimagaki erishgan bo‘lsa Haq ehsoni deb bilishni ta’kidlaydi. Olloh “vahhobu g‘affor”- baxsh etuvchi va kechiruvchi, ayni paytda “jabboru qahhor”- g‘azab-u qahr qiluvchi ham. Shoir birinchi o‘rinda, Darveshaliga doimo Ollohni yodda tutishni, din qoidalaridan chetga chiqmaslikni, Xudo-yu Rasul amriga quloq tutishni, so‘ngra valine‘mat-shoh amriga itoat etishni so‘raydi. Agar Olloh shoh lutfini bizga ato etmaganda edi, men bilan sen – bir – ikki gado edik, xolos, deydi shoir. Lutf etgan shoh uqubat-u g‘azab ham ko‘rsata oladi. Ikkinchi o‘rinda, Darveshalining hukmdorligiga e‘tiborni qaratadi. Xalqni adolat bilan boshqarishni aytadi. Shu o‘rinda mashhur misralarni keltiradi:

Navosiz ulusning navobaxshi bo‘l,

Navoiy yomon bo‘lsa sen yaxshi bo‘l. (561-bet)

Shoir o‘zini g‘oyatda kamtar tutib, men yomon bo‘lsam sen yaxshi bo‘l deydi. Xalqqa yaxshilik qil, bechora ulusning navobaxshi bo‘l deya nasihat qiladi.

Bu – hammamizga ibrat. Xalq koriga yarash, uning og‘irini yengil qilish – oliy maqsad. Shoir balki pandlari ukasiga og‘ir botmasin degan andishada, bu gaplarni senga aytishga ehtiyoj yo‘q, o‘zing bularni yaxshi tushunasana, lekin yana bir bor aytishning ziyoni yo‘q. Chunki bu dunyoga, tiriklikka baqo yo‘q. Hayot- bevafo. Men bormi – yo‘qmi, bu so‘zlarim senga yodgor deydi. Haqiqatdan ham, ota-onalarni e‘zozlash, ilm-u hunar egallash, turli fanlarni o‘rganishga jahd etish, har ishda Ollohni yod etib, insof chegarasidan chiqmaslik, xalqqa adolat bilan munosabatda bo‘lish, yaxshi nom qoldirish uchun yashash Navoiydan bizga qolgan buyuk ma‘naviy yodgor, asrlar osha boqiy qoladigan mangu hikmat.

IV BOB: "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONI

1. Dostondagi hikoyatlarning mavzulari, g'oyaviy tasnifi

Alisher Navoiy ijodining yuqori cho'qqisi "Xamsa"dir. "Xamsa"da shoirning hayot, inson, yashash bilan bog'liq ko'pdan ko'p mulohazalari bayon qilingan. "Xamsa"ga qadar lirik she'rlar, xususan, g'azal yozib nom chiqargan, devonlar tuzgan shoir dostonchilikda ham qalam tebratdi. Ulug' ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141-1206), uning hindistonlik izdoshi Amir Xusrav Dehlaviy (1252-1325) "Xamsa"larini qayta mutolaa qilib, o'zi ham "Xamsa" yozishga kirishadi. Bu niyat juda erta boshlangan bo'lsa-da 1483-yil amalga oshirishga kirishildi. 1485-yil "Xamsa" yozib tugatiladi. Bu turkiy tildagi birinchi "Xamsa" edi. "Uni yozishga hammasi bo'lib, ikki yil sarflangan. Navoiy bu ulug' asarning ikki yil ichida yozilganini ta'kidlab, agar boshqa ishlar xalaqit bermaganida uni olti oyda yozishi ham mumkinligiga, aslida ham bu besh dostonni yozishga ketgan muddat, "yig'ishtirsa", olti oydan oshmayajagiga ishora qiladi:

Bu mehnatlar ichra chekib so'zga til,
Zamondin kamu besh o'tub ikki yil.
Chekib xoma bu noma itmomig'a,
Yeturgaysen og'ozin anjomig'a.
Ki ahli muhosib shitob aylasa,
Deyilgan zamonin hisob aylasa,
Yig'ishtirsa bo'lmas bori olti oy..."

Navoiy "Xamsa" bilan o'ziga o'lmas haykal qoldirdi. Bu asar o'z davrida ham, buguni kunda ham katta qadr-qimmat topdi. Millionlab odamlarning sevimli asariga aylandi. "Xamsa" barcha xalqlarn-

¹ Hayitmetov A. Adabiy merosimiz uqlari. Toshkent, 1997. 85-bet.

ing ma'naviy boyligi, komil insonni tarbiyalashning asosiy manbaiga aylandi. "Xamsa"dagi har bir doston o'z xususiyatiga ega. "Hayrat ul-abror" falsafiy, diniy, tasavvufiy, odob-axloq ruhidagi asar bo'lsa, "Farhod va Shirin" ishq-muhabbat, komil inson, Farhod, Shirin sarguzashtlari bilan bog'liq. "Layli va Majnun" ishq, uning ilohiy va majoziy tomonlari, Qaysning boshidan kechirganlari, Laylining boshiga tushgan azoblar haqida hikoya qiladi. "Sab' ai sayyor"da Bahrom va Dilorom voqealari, shu asosda turli masalalarni yorituvchi yetti hikoyat bayon qilinadi. "Saddi Iskandariy"da Iskandar obrazi asosida ideal podsho haqida fikr bildiriladi. Turli-tuman mavzular qalamga olinadi.

Mazkur ishda asosiy e'tibor "Hayrat ul-abror"ga va undagi hikoyatlarga qaratilgan. "Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat ul-abror"da Navoiyning islom dini, tasavvuf haqidagi mulohazalari keng bayon qilingan. Ayniqsa, dostonning hamd, munojot, na't qismlari, Imon sharhiga bag'ishlangan birinchi maqolat, islom haqida fikr yuritilgan ikkinchi maqolatda bu borada ko'p gapirilgan. Professor A. Hayitmetovning "Xamsa"da islom nuri" maqolasida bu qismlar to'liq yoritilgan. Bu kitobda shunday yoziladi: "Dostonning "Ul xoliq hamdikim..." deb boshlangan bobi va undan keyin kelgan to'rtta munojot boblari shoir falsafiy va axloqiy dunyoqarashini belgilashda beqiyos ahamiyatga ega. Bu o'rinlarda Navoiy xudoning tanholigi ("vahdat") va ulug'vorligini, yer-u osmonni, ulardagi zarradan tortib, quyoshgacha bo'lgan narsalarni bir o'zi yaratganligini, yaratish bilangina cheklanmay, olamda mavjud moddiy va ma'naviy kuchlar o'rtasida o'zaro ziddiyat va kurash yuzaga keltirib, borliqqa rang-baranglik, o'ziga xos ma'no va go'zallik bag'ishlaganini she'riy til va badiiy bo'yoqlar bilan g'oyat jonli, obrazli ifodalashga intiladi.

"Hamd" bobidan keyin mazkur dostonda to'rt munojot keladi. Navoiy bu munojotlarda bevosita Ollohga murojaat qilib, dunyoning, hayotning yaratilishi bilan bog'liq o'z fikrlarini yanada chuqurlashtiradi. "Xamsa"ning har bir dostonida Olloh madhidan so'ng, odatda Muhammad alayhis-salomning maqtovi- na't keladi. "Hayrat

¹ Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Toshkent: "Fan", 1996.

ul-abror"da bunday na'tlar beshta bo'lib, ularning har biri payg'ambarimiz hayotidan islom olami uchun muhim ma'lumotlarni beradi yoki shoir o'zining bu ulug' zot tarjimai holining yoki faoliyatining ayrim masalalari va nuqtalariga to'xtaladi".¹

"Hayrat ul-abror"ning asosiy qismini yigirma maqolat va yigirma hikoyat tashkil etadi. Asarda har bir maqolatdan keyin bir hikoyat keltiriladi. Doston oxirida yana bir hikoyat bor. Hammasi bo'lib yigirma bir hikoyat keltirilgan. Bu hikoyatlarning hajmi turlicha. Eng kichigi o'n to'rt bayt – yigirma sakkiz misra bo'lsa, eng kattasining hajmi qirq ikki bayt – sakson to'rt misaradan iborat. Ulardagi misralar soni quyidagicha:

Boyazid haqidagi hikoyat – yigirma ikki bayt.

Ibrohim Adham va Robia Adviya bilan bog'liq hikoyat- yigirma bayt.

Shoh G'oziy bilan bog'liq hikoyat – qirq bir bayt.

Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoyat- o'n to'rt bayt.

Hotam Toyi haqidagi hikoyat – yigirma ikki bayt.

No'shiravon hayosi bilan bog'liq hikoyat – o'n olti bayt.

Qoni` Juvonmard ila tomi` hikoyati – yigirma sakkiz bayt.

Ikki vafoli yor hikoyati - yigirma to'rt bayt.

Shayx Iroqiy haqidagi hikoyat – o'ttiz ikki bayt.

10. Sher bilan Durroj hikoyati – o'ttiz to'rt bayt.

11. Imom Faxr Roziy bila Sulton Muhammad Xorazmshoh hikoyati – o'n sakkiz bayt.

Yoqut husnixati haqidagi hikoyat – yigirma bayt.

Ayyubi xalaf va o'g'ri haqidagi hikoyat – yigirma sakkiz bayt.

Iskandar va uning xoli qo'l bilan dunyodan ketishi haqidagi hikoyat – yigirma besh bayt.

Bani Isroili Rind bilan bog'liq hikoyat – yigirma bayt.

Abdulloh Muborak jihodi bilan bog'liq hikoyat – o'ttiz to'rt bayt.

Imomi Zaynul-obidin bilan bog'liq hikoyat – o'ttiz bayt.

Chin marg'zori bilan bog'liq hikoyat – qirq ikki bayt.

¹ Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Toshkent: "Fan", 1996. 33-62-betlar.

Bahrom haqidagi hikoyat – qirq ikki bayt.

Xoja Muhammad Porso va o'g'li Xoja Abu Nasr bilan bog'liq hikoyat – o'ttiz to'rt bayt.

Ul qul hikoyati – yigirma bayt.

Demak, yigirma maqolatga ilova qilingan yigirmata va xotimada keltirilgan bir hikoyat – hammasi yigirma bitta bo'lib, ularning umumiy hajmi, hikoyat nomi ostida berilgan misralar miqdori – besh yuzi oltmish olti bayt – bir ming bir yuz o'ttiz ikki misradan iborat ekan. R.Vohidov va H.Eshonqulovlar tomonidan tuzilgan "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" kitobida "Hayrat ul-abror"ning tuzilishi, undagi masalalar haqida ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan. Unda shunday yozilgan: "Hayrat ul-abror" qomusiy asar bo'lib, uning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamonlar uchun o'ta dolzarb bo'lgan barkamol avlod, komil inson haqidagi ulug' mutafakkirning teran axloqiy – ma'naviy, ijtimoiy-falsafiy mulohazalari badiiy ifodasini topgan. "Hayrat ul-abror"da ham ijodkorning barkamol shaxs haqidagi o'ylari maqolatlarda yorqin inikosini topgan. Asardagi hikoyatlar esa maqolatlarda ilgari surilgan tayanch g'oyalarni o'quvchi shuuriga yanada teranroq ta'sir etishi, uning mavzu bilan mukammalroq tanishishga imkon yaratadi".¹ Bu hikoyatlarda ko'pdan ko'p mavzular qalamga olingan. Ma'lumki, dostonning har bir maqolati biror masalani yoritishga qaratilgan. Ana shu mavzular hikoyatlarda ham yanada rivojlantirilgan. Professore A.Hayitmetov to'g'ri ta'kidlaganidek: "Alisher Navoiy ijodining ulug'vorligi avvalo undagi mavzular va g'oyalar olamining kengligi, rang-barangligi bilan bizni hayratga soladi. Unda o'z davrining biror muhim muammosi, o'sha davr hayotining biron tomoni yoritilmasdan qolmaganday. Buni biz, avvalo, "Xamsa" dostonlarida ko'ramiz".² "Xamsa"ning birinchi dostoni bo'lmish "Hayrat ul-abror"da deyarli barcha mavzular uchraydi. Ollohning ulug'vorligi, uning madhi,

¹ Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006. 311-312-betlar.

² Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodida mavzularga bo'lish va tanlash prinsiplari. // Navoiyga armug'on. 3-kitob. Toshkent, 2003. 8-bet.

payg'ambarimiz Muhammad a.s.ning tarjimai hollari, ulug' sifatlari, maqtovlari, islom dini, iymon, ustozlari Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylarga ehtirom, so'z va ko'ngil, pir va murid munosabatlari, adolat, karam va saxovat, halol mehnat, odob-axloq va hayo, qanoat, ishq va vafo, rostlik, muomala, mehr, ota-ona hurmati, mardlik, kechirimlilik va avf, insof va kamtarlikni ulug'lash, o'ziga oro berish va mayxo'rlikni qoralash, yolg'onchilik, bo'lar-bo'lmasga kulish, odobsizlik, zulm va adolatsizlik, tama va ikkiyuzlamachilik, dunyoga hirs qo'yish, o'g'rilik kabilarni tanqid qilish asosiy o'rin tutadi. Professor A.Abdug'afurov "Xamsa" dostonlarining mavzulari haqida shunday yozadi: "Xamsa" dostonlarida biz, avvalo, inson sharaf-g'ururini, erk-huquqini, yuksak insoniy fazilatlarini yetuk badiiylilik bilan ulug'lagan, zulm va zo'ravonlikni inkor etib, sevgi va sadoqatga madh o'qigan buyuk daho ijodkor Navoiyni ko'ramiz. Bularda zolim hukmdorlarni la'natlab, odil va orif shoh g'oyasini olg'a surayotgan, urush-qirg'inlarni qoralab, do'stlik, hamkorlikni targ'ib etayotgan, mamlakat obodligi va el-ulus farovonligi ustida qayg'uruvchi yirik davlat arbobi mutafakkir Navoiy bilan, o'z ona tilining obro' e'tiborini himoya qilib, uning cheksiz boyligi va keng imkoniyatlarini amalda isbot etishga kirishgan otashin vatanparvar Navoiy bilan uchrashamiz. Bu dostonlarning barchasida yovuzlik va yomonlik bilan, pastkashlik va riyokorlik bilan kelisha olmaydigan odil va haqgo'y, ezgulik va yaxshilikni, sofgo'ylik va to'g'rilikni kuylovchi xalqparvar va olijanob muallif "Meni" faol harakat etadi".¹

"Hayrat ul-abror"dagi yigirma bir hikoyatni mavzu jihatdan quyidagicha tasnif qilish mumkin:

Diniy-tasavvufiy ruhdagi hikoyatlar. Bularga "Avvalgi maqolat"-ga ilova tarzida keltirilgan Boyazid bilan bog'liq "Sulton ul-orifin va murid hikoyati", ikkinchi maqolatga ilova tarzida keltirilgan "Ibrohim Adham va Robia Advia" bilan bog'liq hikoyat, to'rtinchi maqolatga ilova qilingan Abdulloh Ansoriy haqidagi hikoyat, to'qqizinchi maqolatga ilova qilingan Shayx Iroqiy bilan bog'liq hikoyat, o'n ikkinchi maqolatga ilova qilingan Yoqut husni xati bilan bog'liq hikoyat,

¹ Abdug'afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. Toshkent, 1995. 20-bet.

o'n uchinchi maqolat uchun keltirilgan "Ayyubi xalaf va o'g'ri bilan bog'liq hikoyat, o'n oltinchi maqolatga ilova tarzida keltirilgan Abdulloh Muborak jihodi, o'n yettinchi maqolatga ilova shaklida keltirilgan Imomi Zaynul-obidin hikoyati, yigirmanchi maqolatga ilova qilingan Xoja Muhammad Porso va o'g'li Xoja Abu Nasr haqidagi hikoyatlar kiradi.

Adolat va insof mavzusi bilan bog'liq hikoyatlar. Bularga uchinchi maqolatga ilova qilingan "Shoh G'oziy" hikoyati, "Ul qul" hikoyati kiradi.

Halol mehnat va saxovat ulug'langan hikoyat. Bunga "Hotam Toyi va chol" hikoyati kiradi.

Odob-axloq bilan bog'liq hikoyatlar. Ularga "No'shiravon hayosi", "Ikki vafoli yor", "Qoni Juvonmard ila tomi" hikoyati", "Sher bilan Durroj hikoyati" kabilar kiradi.

Falsafiy ruhdagi hikoyat. Bunga "Iskandar va xoli qo'li bilan bog'liq hikoyat" kiradi.

Ilm-irfon g'oyalari bilan bog'liq hikoyat. Bunga o'n birinchi maqolatga ilova qilingan "Imom Faxr Roziy bila Sulton Muhammad Xorazmshoh" haqidagi hikoyat kiradi.

May va mayxo'rlik qoralangan hikoyatlar. Bularga "Bani Isroiliyi Rind hikoyati", "Bahrom haqidagi hikoyat" kiradi.

Ishq va uning kechinmalari bilan bog'liq hikoyat. Bunga o'n sakkizinchi maqolatga ilova tarzida keltirilgan "Chin marg'zori" haqidagi hikoyat mansub.

Ko'rinadiki, "Hayrat ul-abror"dagi hikoyatlar mavzusi rang-barangdir. Professor N.Mallayev bu haqda shunday yozadi: "Navoiy hikoyalari mavzui, g'oyaviy mazmuni, obrazlari va badiiy uslubi jihatidan xilma-xildir. Ularning ko'pchiligi axloq-odob, ilm-ma'rifat, insof-adolat, sevgi va sadoqat, mehnat va mehmondo'stlik kabi masalalarga bag'ishlangan hikoyalardir".¹ "Hayrat ul-abror" falsafiy, diniy-tasavvufiy, axloqiy ruhdagi asar bo'lgani uchun ham unda diniy ruhdagi hikoyatlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shoirning asosiy fikri maqolatlarda keltirilgan. Yigirma maqolatda turlicha mavzu va ma-

¹ Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. Toshkent, 1974. 186-bet.

salalar yoritilgan. Fikrni asoslash uchun o'shanga mos hikoyat keltirilgan. "Hayrat ul-abror"dagi "Avvalgi maqolat" "Imon sharhidakim" deb nomlanadi. Unda insonlikning asosiy belgisi imon ekanligi aytiladi:

Kimki jahon ahlida inson erur,
Bilki nishoni anga imon erur...
Bas ani inson demak o'lg'ay ravo,
Kim ishi imon bila topqay navo.¹

Yana bu qismda imonning oltita belgisi – haqni tanish, farishtalarni bilish, Qur'oni karimga ixlos, payg'ambarimizga ishonch, qiyomatga ishonish, Ka'bani ziyorat qilish – hajga sharh beriladi. Keyin yigirma uchinchi bobda "Sultonul-orifin va murid" haqidagi hikoyat keltiriladi. Yigirma ikki bayt – qirq to'rt misrali bu hikoyatning mavzusi diniy-tasavvufiy ruhda. Mashhur shayx Boyazidning g'amgin bo'lib turganini ko'rgan murid buning sababini so'raydi. Shayx yig'lab, oh-voh chekib, bu dunyoda odam ko'pligini, lekin haqiqiy kishi topilmasligini aytadi. Yaxshi kishi bu dunyoda borligini bilmasligini, bor bo'lsa ham o'tib ketganini bildiradi. Murid shu el ichida o'zing ham bor, sen ularga mansub emasmisan deydi. Shayx Boyazid unga javoban imon bilan ketmasang, inson degan nom olishing mumkin emas deydi.

Shayx dedi: "Ey ishi gumrohliq,
Topmog'on ish sirridin ogohliq.
Men dog'i yuz ming meni sargashtadek,
Ashki bog'ur qonig'a og'ushtadek,
Bo'lmasa imon bila ketmak ishi,
Anglaki oni desa bo'lmas kishi."²

¹ Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" MAT. 20 tomlik. 7-tom. Toshkent, 1991. 100-101-betlar. (Izoh: boshqa misollar ham shu manbadan olinib, beti ko'rsatiladi.)

² "Hayrat ul-abror". 109-bet.

“Boyazidga bu nukta ya’ni imonning butligi, solimligi ayon emas. Shu bois u muridining oldida qayg’ulik o’tiradi. Xulosa shuki, ne-ne ulug’ so’fiylar o’zining imoni butligiga gumonsiragan ekan, Navoiy ular oldida o’zini savol beruvchi gustoh murid yanglig’ his etadi”.¹

Dostonning ikkinchi maqolati “Islom bobidakim...” deb nomlanadi. Unda ham islom dini g’oyalari, asoslari yoritib beriladi. Islom shartlari ko’rsatiladi. Kalimai shahodat, Muhammad a.s.ning payg’ambarligi, tahorat, zakot, ro’za haqida gapirib o’tiladi. Unga ilova tarzida yigirma beshinchi bobda “Ibrohim Adham va Robiayi Adviya” haqidagi hikoyatni keltiradi. Bu hikoyatning hajmi yigirma bayt- qirq misra. U ham to’liq diniy mazmunda. “Alisher Navoiy o’zining shariy-axloqiy mulohazalarini ibratli hayotiy lavhalar bilan dalillash maqsadida musulmon dunyosida dovuqli mutasavvif Ibrohim Adham haqidagi she’riy hikoyatini keltiradi. Mazkur lavhalarda yana bir taniqli ma’naviy-ruhiy arbob Robiayi Adviya ham ishtirok etadi. Ibrohim Adham 14 yil sahro kezib Makkai mukarramaga yetib keladi. Ammo Ka’batulloh o’z o’rnida yo’q ekan. O’sha muqaddas makonda hozir bo’lganlar muborak sajdagohning Robiai Adviya ishtiqboliga chiqqanligini ma’lum qilishadi. Tabiiyki, bunday kutilmagan hodisa Ibrohim Adham fig’onini falakka ko’taradi. Shunday qilib, Ibrohim va Robiyaning uchrashuvi hamda muloqotlari voqe bo’ladi. Ibrohim Adhamning fig’onli savollarini tinglagan bokira-yu zakovatli ayol Robia quyidagicha javob qaytaradi:

Robia dedi anga: “Ogoh bo’l,
Kim necha yil bodiyada borcha yo’l.
Bo’ldi ishing arzi namoz aylamak,
Sheva manga arzi niyoz aylamak.
Sanga samar berdi namoz-u riyo,
Bizga bu bar berdi niyozu fano”.²

¹ G’afforov N. Alisher Navoiy “Xamsa”sida so’fiylar timsoli. Fil.fan.nom.diss. avtor. Toshkent, 1999. 12-bet.

² Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006. 314-bet.

“Hayrat ul-abror”ning to‘rtinchi maqolati “Riyoyi xirqapo‘shlar sulukidakim...” deb nomlanadi. Bu bob shunday sharhlanadi: “Xirqa kiygan riyokor shayxlar xususidadkim, ularning oldida haqiqiy libos degani hiyla-nayrang kiyimidir, avom xalqqa o‘rgatadigan haqiqat va bilimlari esa ahmoqlik, haqiqiy mayxo‘rlar to‘g‘risidadkim, ularning vujud kiyimlari yo‘qlik qo‘lining zarbasidan yirtilgan va Iso nafasdek jonbaxsh nafasleri esa muqaddas ruh kabi pok va ziyorat joylari falakning sahnidi”.¹ Unda yolg‘onchi, riyokor din vakillari fosh qilinadi. Ularning xirqalari, salla, aso (hassa), tasbeh, uzun soqollari, xonaqohda o‘tirishi, mehrobda toat qilishlari xalqni aldash vositasi ekanligi uqtiriladi. Bu el barcha yomonlardan yomonligi aytiladi:

Bu el erur borcha yomondin yomon,
Kimki yo‘q andin yomon, andin yomon.²

Bu boradagi fikrlardan so‘ng, yigirma to‘qqizinchi bobda Xoja Abdullohi Ansoriy haqidagi hikoyat keltiriladi. Bu hikoyatning hajmi kichik – o‘n to‘rt bayt – yigirma sakkiz misra. Uning mazmuni ham diniy ruhda. Shoir Abdullohi Ansoriyni ulug‘laydi. Butun Hirot ahli, hatto olam ahli tomonidan qibla deb hurmat qilingan bu so‘fiyning ishi toat, Olloh amriga itoat etish ekanligi aytiladi. Shayxning Haqqa bo‘lgan e‘tiqodi, do‘zzax-u janatdan maqsadi yo‘qligi, yor visolidan umidvorligi tasvirlanadi:

Ulki ani qibla der ahli Hirot,
Dema Hirot ahli, bari koinot.
Ahli ayon soliki atvori ul,
Ismda Abdullohi Ansori ul.
Dedi bukim, ish manga toat turur,
Tengrining amrig‘a itoat turur.³

¹ Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. Toshkent, 1989. 248-bet.

² “Hayrat ul-abror”, 137-bet.

³ “Hayrat ul-abror”. 141-bet.

Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining to‘qqizinchi maqolati “Ishq o‘ti ta’rifidakim...” deb nomlanadi. Bu qismda asosan ilohiy ishq haqida gap boradi. Olloh husni, Haq jamoli, shavq o‘ti haqida, ishq kuch-qudrati haqida gapiriladi. Ishq bor joyda aql ojiz bo‘lishini, xoshokning o‘tga tushishiga, ishqqa duchor bo‘lgan pil (fil) mo‘rga (chumoliga) aylanishi, oshiq kishining tili, ko‘zi, ko‘ngli pok bo‘lishi aytiladi. Bu bobda mana bu mashhur baytlar bor:

Bo‘lmasa ishq, ikki jahon bo‘lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo‘lmasun.
Oshiq ani bilki, erur dardnok,
Ham tili, ham ko‘ziyu ham ko‘ngli pok.¹

Ushbu fikrlardan keyin “Shayxi Iroqiy Shomda husn shami gulin ko‘rgach, parvonadek tutashqoni va shu‘lasi inkor tikonlarin kuydurib, munkirlar boshig‘a oshqoni” deb nomlanuvchi hikoyat keltiriladi. Bu hikoyatning hajmi o‘ttiz ikki bayt – oltmish to‘rt misradan iborat. Ilohiy, haqiqiy ishq haqida gapiriladi. Hikoyatda yozilishicha, fano ko‘yida yurgan Shayx Iroqiy Misrda bir necha vaqt yashab qoladi. Keyin u Shom safariga otlanadi. Uning Shomga kelayotganini eshitgan hokim barchani uni kutib olishga chiqishini buyuradi. O‘zi ham Shayxni kutib olishga chiqadi. Barcha kishilar otlardan tushib, ta‘zim qilib Shayxga hurmat ko‘rsatadilar. Shom viloyati hokimining bir o‘g‘li bor edi. U go‘zallikda, lutfu malohatda Yusuf payg‘ambar darajasida edi.

Bor edi voliga bir andoq o‘g‘ul,
Kim anga yuz Misr shahi erdi qul.
Lutfu malohatda jahon ofati,
Dema jahon ofati, jon ofati.
Shom savodida mahi anvar ul,
Misr eliga Yusufu payg‘ambar ul.²

1 “Hayrat ul-abror”. 191-193-betlar.

2 “Hayrat ul-abror”. 199-bet.

Shayxning ko'zi unga tushgach, yoqasini chok etadi, ishq uni shu ko'yga tushiradi. Vujudida titroq, og'zida dod-faryod uyg'onadi. Bu pok ishq edi. Olloh jamolining aksini unda ko'rgan edi. Navoiy aytganidek, bu ishq pok edi, haqiqiy ishq edi.

Ishqda pok o'lsa kishi bu sifat,
Xosiyat bo'lur bu sifat oqibat.
Husni haqiqiyni gar o'truda ko'r,
Xoh ani ko'zgudavu, gar suvda ko'r.¹

“Hayrat ul-abror”ning o'n ikkinchi maqolati qalam haqida. Unda kotiblik, kitob, xat yozish, harflarni, so'zlarni to'g'ri yozish haqida gap boradi. Bu maqolatga ilova tarzida “Yoqutning husnixat tufayli podshohlar oldida ham, darveshlar oldida ham hurmati ortgani” haqidagi hikoyat keltiriladi. Bu hikoyatda shayx Suhravard va Yoqut munosabatlari ko'rsatiladi. Hikoyat yigirma bayt – qirq misradan iborat. “Shayx Suhravard bilan bog'liq hikoyatda haq sari yo'lda kim peshroq: so'fiymi yo xattot degan masala qo'yiladi. Abbosiy xalifa Musta'sim shayx Suhravardga yuksak hurmat ko'rsatib, uni o'z taxtiga o'tqazadi, o'zi uning yoniga cho'kadi. Shunda shayxning nigohi Qur'onni ko'chirishda zamonasining yaktosi bo'lgan Yoqutga tushadi. Shayx o'rnidan turib, unga hurmat ko'rsatadi. Hamma hayratda. Shunda shoh Suhravardga: “Ne-ne ogoh kishilar (so'fiylar) ham ayog'ingning tufrog'ini o'padi, ne-ne shohlar senga qulluq qilganidan faxrlanadi-yu, sen nimasi uchun Yoqutga buncha ehtirom ko'rsatyapsan?” – deb so'raydi. Shayx esa: “Chunki “Qur'on” bitishda uning oldiga tushadigan kishi yo'q. U Xudoning so'zlarini bezaydi. Shuning uchun uning hurmatini joyiga qo'yish biz uchun vojib deydi”.²

Dostondagi yana bir diniy-islomiy ruhdagi hikoyat o'n uchinchi maqolatda keltirilgan. Bu maqolat “Sahobdek naf rassonlar bobida-

¹ “Hayrat ul-abror”. 200-bet.

² G'afforov N. Alisher Navoiy “Xamsa”sida so'fiylar timsoli. Toshkent, 1999. 14-15-betlar.

kim..” deb nomlanadi. Shoir odamlarga foydasi tegadiganlarni maqtaydi. Kim boshqalarga ko‘p foyda keltirsa, o‘zi undan ko‘proq naf topishini aytadi:

Naf ing agar xalqqa beshak durur,
Bilki bu naf o‘zunga ko‘prak durur.¹

Bu qismda shoir yaxshi-yomon odamlar, til foydalari, so‘z bilan yomon kishi ham yaxshi bo‘lishi, yaxshi so‘zdan o‘lik ham najot topishi haqida gapiradi. Hammaga ma‘lum mana bu baytlar ham shu yerda keltirilgan:

Odamiy ersang demagil odami,
Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.²

Faqat o‘zini o‘ylaydigan kishilarni shoir chumoliga o‘xshatadi. Ishi uyiga tashish bo‘lgani uchun u tiriklayin yerga – go‘rga kirdi deydi. Yana supurgiga o‘xshatadi. U ham faqat to‘dalash bilan mashg‘ul bo‘lgani uchun eshik ortida xor bo‘lib yotadi deydi. Bu maqolatga dalil sifatida “Ayyubi xalaf noxalaf o‘g‘rining egriligin tuzgoni...” haqidagi hikoyatni keltiradi. Bu hikoyatning hajmi yigirma sakkiz bayt – ellik olti misra. Hikoyatning mazmuni quyidagicha: “Ayyub – “bashar xayli”ning insoni, odamiylar odami. Jismi shamdek ishq o‘tida kuygan xalaf (o‘rinbosar) uyida sajda qilayotgan kechalarning birida unikiga o‘g‘ri kiradi. Xalaf buni sezsa ham, e‘tibor bermay, toatida davom etadi. O‘g‘ri uydan nimaiki topsa, yig‘ib, to‘plab, teshikka kirmoqchi bo‘ladi. Lekin sig‘maydi. Shunda Ayyub o‘rnidan turib, eshikni ochadi va o‘g‘riga yo‘l ko‘rsatadi. O‘g‘ri qilgan gunohini tushunib, pirning oyoqlariga tiz cho‘kadi. Hikoyatning tasavvufiy talqini shunday: qalb ko‘zi ko‘r, odamlarga naf i tegmaydigan, tili ham, ko‘ngli ham saxovatdan bebahra kishi o‘g‘rilikka kiradi, ya‘ni murshidning oldiga keladi. Ayyubi xalafning eshik ochib, yo‘l ko‘rsatishi o‘g‘rining tavbasiga asos bo‘ladi. Yo‘l – ramz. U – tariqatga boshlash

¹ “Hayrat ul-abror” 234-bet.

² O‘sha asar, 240-bet.

va olloхни tanish”.¹ Hikoyatda adashgan, yo‘lini topolmagan kishini to‘g‘ri yo‘lga boshlash, uni gunoh va xato ishlardan qutqarish foydali ish ekanligi ta‘kidlanmoqda. O‘g‘rini Haq yo‘lga boshlagan Ayyub katta ish qilgan edi. O‘g‘rining bir gunohini – o‘g‘riligini kechirish orqali unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatilgandi:

Kimgaki ko‘rgussalar ul nav’ yo‘l,
O‘zga yo‘lidan chiqa olg‘aymi ul?
Na‘ra chekib, sel kibi to‘kdi yosh,
Shayx ayog‘iga fido qildi bosh.
Komil anga berdi chu bu parvarish,
Ayladi bir afv bila muncha ish.²

“Hayrat ul-abror”dagi o‘n oltinchi maqolatga ilova qilingan hikoyat ham diniy-tasavvufiy ruhda. U hikoyat “Abdulloh Muborakning burqa’ bila jihod maydonig‘a kirib, fath jamolidin burqa’ olg‘oni va Hasan Rabi’ ul jamolini ko‘rub hayron qolg‘oni” deb nomlanadi. Bu hikoyat o‘ttiz to‘rt bayt- oltmish sakkiz misradan iborat. Uning mavzusi mardlik. Shayxning jihodga kirib, dushmani yenggani haqida. Hikoyat mashhur so‘fiylardan Hasan ibn Rabi’ tilidan rivoyat qilinadi. Unda yozilishicha, kuffor – kofir, ya’ni dushman tomondan bir pahlavon chiqib, yakkama-yakka jangga raqib chaqiradi. Ko‘plab musulmonlar uning tig‘idan halok bo‘ladi:

Kimki xirom ayladi maydonig‘a,
Kirdi o‘zi kuch bila o‘z qonig‘a.
Necha musulmonni chu qildi shahid,
Bo‘lmish edi din cherigi noumid.³

Bu holat hammani tashvishga soladi. Shunda yuziga burqa’ –

¹ G‘afforov N. Alisher Navoiy “Xamsa”sida so‘fiylar timsoli. Toshkent, 1999.

16 – bet.

² “Hayrat ul-abror” 244-bet.

³ “Hayrat ul-abror” 277-bet.

niqob tortgan bur mard kishi maydonga kiradi. Bir na'ra tortib, dushmani urib yiqitadi. Uni do'zzaxga yuboradi – o'ldiradi. Qo'shin ichida g'ala-g'ovur ko'tariladi. Hech kim uning kimligini bilmaydi:

Chehrasini burqa' aro yoshurib,
Ishq o'ti yanglig' yoshurin kuydirib.
Qahr ila kofirg'a yetishg'an zamon,
Hamla hamon erdiyu, yiqmoq hamon.
G'ozi o'zin chunki ayon qilmadi,
Kimsa aning kim ekanin bilmadi.¹

Hasan ibni Rabi' uning kimligini bilish uchun qidirib topadi. Xudo nomini tilga olib, o'zini tanitishini, yuzidagi pardani olishini so'raydi. Tangri oti tilga olingach, yuzini ochadi. Bu Abdulloh Muborak edi. O'zini tanitib, barchaga ko'rinish berishini so'raganda, Olloh hammasidan xabardor ekanligi, kishilar bilsa-bilmasa ham, oshiq yori uchun ham ishini pinhon tutishi zarurligini aytadi. Olloh yo'lida, islom yo'lida bu ishni bajarganini bildiradi.

Dostonda o'n yettinchi maqolatga ilova qilingan hikoyat ham diniy mazmunda. Ayni paytda bu yerda mehr-muhabbat mavzusi ham bor. O'n yettinchi maqolat "Bahor yigitligi nazohatidakim..." deyiladi. Unda bahor, yigitlik, bahordagi o'zgarishlar, inson umri kabilar haqida gapiriladi. Ilova tarzida "Imomi ma'sumi Zaynul-obidinning sag'erasi ma'sumasining kabirush-shon kalomi, agarchi ul sag'iradin ma'sum edi" nomli hikoyat keltiriladi. Bu hikoyatning hajmi o'ttiz bayt – oltmish misra. Uning mazmuni quyidagicha: Zaynul-obidin bir kuni yosh bolaning boshini silab mehr ko'rsatadi. Uning olti yoshlardagi bir aqli bolasi bor edi. U otasining boshqa bolaga mehr ko'rsatayotganidan yig'laydi. Otasi buni rashkdan deb biladi:

Ko'rdi otasiki, sevar yoshini,
Yosh to'kubon qildi girih qoshini.

¹ "Hayrat ul-abror" 277-bet.

Chehra uza yoshini ko'rgach imom,
Istadi qoshig'a qilib ehtirom.
Qildi tasavvur yuzida ashkdin,
Ki magar ul yig'lar edi rashkdin.¹

Otasi unga mehr bilan boqib, u bola hali sut emadigan yoshdaligi, ta'ni o'jizligi, mehrga muhtojligi sabab shunday qilganini aytadi. Rashk qilish yaxshi emasligini tushintiradi. Bolasi bunday emasligini, u boladan rashk uchun yig'lamaganini, balki bir kuni otasidan Haqdan o'zgaga mehr qo'ymaganini eshitganini, endi esa o'zgaga mehr berib, Haqni unutganidan, otasining ahdiga turmaganidan yig'laganini aytadi. Otasi bu gaplardan ta'sirlanib, ko'z yoshi to'kadi. Bu hikoyatda Olloh ishq barcha narsadan ustunligi, Haq mehri ko'ngilda abadiy bo'lishi ta'kidlangan.

"Hayrat ul-abror"dagi yigirmanchi maqolatga ilova qilingan maqolat ham diniy-tasavvufiy ruhda. Bu maqolat "Ul maqsud adosidakim..." deb boshlanadi. Unda shahzoda Sulton Badiuzzamonga nasihatlar qilinadi. Bu qismga "Xoji Muhammad Porsodin haj ahli duo istid'o qilmoq va o'g'li Xoja Abu Nasr aning istid'osi bila duo qilmoq" deb nom qo'yilgan hikoyat kiritilgan. Bu hikoyat o'ttiz to'rt bayt- oltinchi sakkiz misradan iborat. Unda Xoja Muhammad Porso va uning o'g'li Xoja Abu Nasr bilan bog'liq voqea bayon qilingan. Xoja Makka safariga chiqadi. O'gli ham unga hamroh bo'ladi. Ular bilan birga yo'lga chiqqan ko'pchilik odamlar hajga yetib keladilar. Tilaklari Haqqa ijobat bo'lishini tilab duo istaydilar. Duo o'qishni Xojadan so'raydilar. Xoja o'g'liga ishorat qiladi. Uning bu ishda komil ekanini aytadi. Ota o'g'illardagi bu ahillikning boshqa ota-o'g'illarda ham bo'lishini Navoiy istaydi. Go'yo Husayn Boyqaro o'g'illariga namuna sifatida keltirgandek.

Umuman, "Hayrat ul-abror"dagi yigirma bir hikoyatdan to'qqiztasi diniy, islomiy, tasavvufiy mazmunda bo'lib, ularda Olloh ishq, so'fiy va shayxlarning hayoti bilan bog'liq voqealar bayon qilingan.

¹ "Hayrat ul-abror" 291-bet.

“Hayrat ul-abror”dagi ikki hikoyat adolat, insof va afv haqida. Bular “Shoh G‘oziy” va “Ul qul hikoyatikim” kabilardir. “Shoh G‘oziy hikoyati” uchinchi maqolatga ilova qilingan. Ma’lumki, uchinchi maqolat “Salotin bobidakim” deb boshlanadi. Unda shoir podshohga xitoban deydi: ham adolat ravishida, ham insofda, yumshoq muomalaliq, hayo va odob barcha yaxshi fazilatlariga ega bo‘lishlikda sen yo‘l qirg‘og‘idan chetga chiqib ketgansan, odamlarning qo‘llari shu jihatdan sendan ko‘ra yaxshiroqdirlar. Navoiy podshohlarning qasrlarida el jonidan ip tortib tikilgan bezaklar, ulus qoni bilan qizartirilgan peshtoqlar, el masjididan g‘isht keltirib, qabrlar toshini ko‘chirib kelib qurilgan saroylarga la’natlar o‘qiydi... Navoiy podshohlarning bunday ishlarni tark etishga chaqiradi, adolat bilan ish tutishga undaydi”.¹ Adolat haqidagi fikrlarini asoslash uchun, odil podshoh timsoli sifatida “Shoh G‘oziy hikoyati”ni keltiradi. Bu hikoyat dostonning o‘ttiz yettinchi bobida berilgan. Uning hajmi qirq bir bayt- sakson ikki misra. Asosiy mazmuni shohning adolati, jabrdiyda kampirning arz-dodiga quloq tutib, to‘g‘ri hukm chiqarganida. “Hikoyat garchi tarixiy shaxs Sulton Husayn Boyqaro nomi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, aslida xalq ertaklarini eslatadi: unda shoirning odil hukmdor haqidagi orzulari ifoda etilgan. Hikoyatda shohning odilligini ko‘rsatuvchi, uning davrida adolat hukmron ekanligini isbot etuvchi lavhalar bitiladi. Shaharni sayr etib yurgan Boyqaroning etagini bir kampir tutib, da’vo bilan mahkamaga – qozi oldiga olib keladi hamda taxt talashib, urush qilib yurgan yillarida yakka-yu yagona o‘g‘lini nohaq o‘ldirganlikda ayblaydi. Hikoyatda Navoiy qozining ham obrazini orzu tarzida chizadi: u hukmdorga ham, beva kampirga ham bir xil munosabatda bo‘ladi. Ularga da’vogar va javobgar shaxslar sifatida yondashadi. Adolat bilan qonun doirasida hukm chiqarishga kirishadi. Ikki kishi guvohligida aybi bo‘yniga qo‘yilgan shoh gunohkor deb topiladi, bevaga esa uni o‘ldirish yoki o‘g‘li evaziga xun haqi undirib olish huquqi beriladi. Hukmga bo‘ysungan shoh odilligidan lol qolgan kampir uning jonini omon qoldiradi, o‘g‘li evaziga oltin olish

¹ Qayumov A. Alisher Navoiy. Toshkent, 1976. 62-63-betlar

bilan cheklanadi, xalq orasida esa “Zoli zar” (“tilla kampir”) laqabi bilan shuhrat topadi”.¹

Dostonning oxirgi qismida oltmish uchinchi bobda “Ul qul hikoyatikim” keltiriladi. Bu hikoyatning maqolatlarga bog‘liqligi yo‘q. Asar xotimasida berilgan. Uning hajmi yigirma bayt – qirq misra. Hikoyatda adolat, kechirimlilik mazmuni singdirilgan. Uning mazmuni quyidagicha: Bir saxovatli podshoh bor edi. Uning xizmatida bir bakovul qul bor edi. Bakovul – podshohning dasturxoni, osh-ovqatidan xabardor kishi. Bir kuni shoh ovqatlanishni xohlaydi. U qul turtinib ketib, issiq ovqatni shohning boshiga to‘kib yuboradi:

Bir kun aning bazmida shilon chog‘i,
Shohga ham ishtaha o‘lg‘on chog‘i.
Nakbat ayog‘ig‘a urib toshni,
Shah boshig‘a to‘kdi isiq oshni.²

Atrofdagilar podshoh uni o‘ldiradi, deb o‘ylashadi. Shoh qulg‘a boqib, uning ahvoliga achinadi va uni ozod qiladi. Vazir bu qulning jazosi o‘lim ekanligini aytadi. Podshoh esa, kulib bu qul uyat va xijolatdan o‘lib bo‘ldi. Hech kishi o‘lgan odamni qaytadan o‘ldirmaydi deydi. Kim gunoh ish qilsa, uni kechirish zarurligini aytadi:

Har kishi xalq ichra gunahkorroq,
Afv-u inoyatga sazovorroq.³

Bu hikoyatda ham podshoh o‘zining adolati, to‘g‘ri hukm chiqarishi bilan, qulni kechirishi bilan namoyon bo‘ladi.

III. “Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarning yana bir mavzusi halol mehnat va saxiylikni ulug‘lashdir. Bunga Hotam Toyi hikoyati misol bo‘la oladi. Dostonning beshinchi maqolati – karam vasfidakim...” deb boshlanadi. Bir yuz sakkiz baytdan tashkil topgan bu maqolat-

¹ Abdug‘afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. Toshkent, 1995. 50-51-betlar.

² “Hayrat ul-abror”. 343-bet.

³ “Hayrat ul-abror”. 343-bet.

da karam - saxovat, himmat, ehson, marhamat, olijanoblik, yaxshilik, ochiqqo'llik, javonmardlik singari xilma-xil tushunchalar haqida gapiriladi. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror"ning beshinchi maqolatida vujud-vujudi bilan saxovatni targ'ib qiladi. Uning xayoliga keltirish dushvor bo'lgan ochilmagan qirralarini kashf etishga erishadi. Biroq o'sha qarashlarning tasdiq muhri sifatida "Hotami Toyi va o'tinchi chol" hikoyatini taqdim qiladi.¹ Bu hikoyatning hajmi – yigirma ikki bayt – qirq to'rt misra. Mavzusi esa, halol mehnatni ulug'lash. Saxovat, birovning minnatli nonidan peshana teri bilan topilgan nonning o'rni katta ekanligini ko'rsatishdir. Ma'lumki, Hotam – musulmon dunyosida saxovat timsoli. Uning haqida behisob asarlar yaratilgan. Ulug' o'zbek shoiri she'riy hikoyatining qahramoni ham o'sha Hotami Toyidir. Hikoyatning qisqacha mazmuni shunday: Hotam Toyidan bir kishi o'ziday saxiy kishi ko'rgan-ko'rmaganini so'raydi. Hotam unga bir kuni aylanib kelish uchun sahroga chiqqanini, shu paytda uyida yuzlab tuya, qo'y-qo'zi so'yib, odamlarga ziyofat berilayotganini, sahroda bir qari chol orqasiga bir quchoq tikan ortib kelayotgani, uning qaddi bukilib, bir qadam yurib, dam olib zo'rg'a yurayotganini ko'radi. Cholga Hotamning uyiga borishini, unga mehmon bo'lib qornini to'yg'azishini, mehnatdan azob chekish shart emasligini aytadi. Chol esa, Hotam minnatidan, tikan mehnati yaxshiroq ekanini tushuntiradi:

Sen dog'i chekkil bu tikan mehnatin,
Totmag'il Hotami Toy minnatin.
Bir diram olmoq chekibon dast ranj,
Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj.²

Cholning fikricha, birovning katta xazinasi, pulidan mehnat qilib topilgan bir diram yaxshiroq ekan. Hotam shu uchun ham cholni himmatda o'zidan ustun qo'yadi. Maktab o'quvchilari Navoiyning

¹ Vohidov R, Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006. 319-bet.

² "Hayrat ul-abror". 153-bet.

“Hayrat ul-abror” dostoniga kirgan Hotami Toyi hikoyatini yaxshi bilishadi. Hotam – adabiyotimizdagi saxiylik timsoli. Ammo u o‘tinchi cholni o‘zidan ham ustun qo‘yadi. O‘z mehnati bilan yashash, birovning minnatiz umr kechirish – komillik nishonasi. Chol shunchaki oddiy mehnatkash emas. U aqli komil, ilm-ma’rifatdan xabardor ulug‘ zot.

IV. “Hayrat ul-abror”da odob-axloq bilan bog‘liq hikoyatlar ham bor. Ularda hayo, vafo, qanoat, to‘g‘rilik ulug‘lanadi, tama, yolg‘onchilik qoralanadi. Dostonning oltinchi maqolati odob haqida. Unda tavoze, hayo, kulgi, bola tarbiyasi, farzandga yaxshi nom qo‘yish, ota-ona hurmati kabilarga to‘xtab o‘tiladi. Unga ilova tarzida o‘ttiz uchinchi bobda “No‘shirvonning hayosi...” hikoyati keltiriladi. Bu hikoyat o‘n olti bayt – o‘ttiz ikki misradan iborat. Uning mazmuni quyidagicha: Anushirvon yoshlik chog‘ida bir go‘zalga oshiq bo‘ladi. Bir kuni bog‘dagi xilvatda ular uchrashib qoladilar:

Yetti g‘amu mehnati bemar anga,
Toki visol o‘ldi muyassar anga.
Bir chaman ichra tuzibon xilvate,
Gulrux ila qildi ayon suhbate.¹

No‘shirvon qo‘lini yori sari uzatadi-yu, ko‘zi bir nargis guliga tushib, tortib oladi. Shu hayosi sabab kelgusida u adolatli shoh darajasiga erishadi:

Jumlayi olam aro shoh ayladi,
Adlini olamg‘a panoh ayladi.²

“Hayrat ul-abror”ning sakkizinchi maqolati vafo haqida. Unga ilova tarzida “Ikki vafoliq yor...” hikoyati keltiriladi. Hikoyat yigirma to‘rt bayt – qirq sakkiz misradan iborat. Unda Hindistonni mavh etgan Temur bu yerdagilarni qatliom etishni buyurgani, ikki do‘stga navbat

¹ “Hayrat ul-abror”. 163-bet.

² “Hayrat ul-abror”. 164-bet.

yetgach, ular oldin uni o'ldirishini, do'stining o'limini ko'rmaslikni so'rashi, shu orada shohning hammaning gunohidan o'tgani xabari kelishi kabilar tasvirlanadi. Ikki kishining vafosi tufayli ko'pchilik o'limdan omon qoladi.

Dostonning yettinchi maqolati "Qanoat bobidakim..." deb nomlanadi. Unda qanoatning foydasi, tama va tamagirlikning oqibatlari ko'rsatiladi. Yigirma beshinchi bobda unga misol tariqasida "Qanoatli juvonmard bilan tamagir jahongashtaning hamroh bo'lgani..." hikoyati beriladi. Bu hikoyat yigirma sakkiz bayt – ellik olti misradan iborat. Unda yozilishicha, ikki do'st Fors yurtidan Chin mamlakatiga sayohatga chiqadi. Ularning biri qanoatli, ikkinchisi tamagir edi. Yo'lda yarmi yerda, yarmi yuqorida bo'lgan tosh chiqadi. Toshda shu yerda xazina borligi, azob bilan uni olish mumkinligi, ammo qanoat qilib, undan voz kechsa yaxshi bo'lishi, qanoatli yo'lda davom etishi, u podsholikka erishishi, tamagir esa hech narsasiz qolishi tasvirlanadi. Shoir aytmoqchi, qanoat kishini yuksakka ko'taradi. Tama esa xor qiladi.

Navoiyning ko'p asarlarida ayniqsa, "Xamsa"sida rostlik, to'g'ri-lik, yolg'onchilik haqida gapiriladi. "Hayrat ul-abror"dagi o'ninchi maqolat "Rostlik tarifidakim..." deb nomlanadi. Unda rostlik, to'g'ri-lik ulug'lanadi, yolg'onchilik qoralanadi. Bu maqolatga qo'shimcha tarzda "Durrojning yolg'onni chin o'rniga ayturi..." deb nomlanadigan hikoyat keltiriladi. Bu hikoyat o'ttiz to'rt bayt – oltmish sakkiz misradan iborat. Uning mazmuni quyidagicha: Sher bilan durroj (tustovuq jinsidagi qush) do'st tutinishadi. Durroj yolg'on so'zlashga odatlangan edi. U doim do'stiga murojaat qilib, "Meni sayyod domidan qutqar!" deb baqirar, sher yugirib yetib kelsa, aldaganligi ma'lum bo'lardi. Kunlarning birida durroj chindan ham domga ilinadi va sherdan yordam so'rab qichqiradi. Har vaqt aldanib kelgan sher bu safar (odatdagi yolg'on deb o'ylab) yordamga bormaydi. Shu tariqa yolg'onchi durroj o'z boshiga o'zi yetadi.¹ Shoir yozganidek, yolg'onchilik kishining boshiga yetadi. Yolg'onchi degan nom chiqargan insonning gapiga hech kim ishonmaydi.

¹ Abdug'afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. 55-bet.

So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil,
Rost navo nag'amag'a tahsin degil.¹

V. "Hayrat ul-abror"dagi bir hikoyatni falsafiy mazmunda deb hisoblasak to'g'ri bo'ladi. Bu "Iskandar va xoli qo'li bilan bog'liq hikoyat"dir. Bu hikoyat dostonning o'n to'rtinchi maqolatiga ilova tarzida keltirilgan. U "Aflok hay'ati shikoyatidakim..." deb nomlanuvchi maqolatdan so'ng joylashtirilgan. Shoir dastlab aflok – falakdan shikoyat qiladi. Akademik Aziz Qayumov yozganidek: "O'n to'rtinchi maqolatda shoir falak hay'atidan shikoyat qiladi. Taqdir hech kimga rahm-shafqat qilmaydi. Hayot cheklangan fursatda tugaydi. Taxt ustida yuksaklikda o'tirganlar bir kun taxt ustiga yotadilar. Odamning sha'ni yuqori ko'tarilgan bo'lmasin, baribir bir kun tuproq ostiga kirib past bo'ladi. Shuning uchun davlatu iqbolga shodlanmaslik kerak, qo'lidagi bor narsasini elga sarf etish lozim."² Navoiy yozishicha bu dunyoda vafo yo'q, jaf o bor. Odamlar kelib ketaveradi. Yuz kishi kelsa, ming kishi ketadi. Undan keyin navbat yuz ming kishiga yetadi:

Turfa bu kim, yuz kelibon ming ketar,
Ming chu ketar, keynicha yuz ming yetar.³

Dunyoning o'tkinchiligi, hech kim abadiy yashab qolmasligi, mol-davlatini olib ketolmasligini aytib, misol sifatida Iskandar bilan bog'liq hikoyatni keltiradi. Bu hikoyat yigirma besh bayt – ellik misradan iborat. Unda hammaga ma'lum Iskandarning quruq qo'l bilan olamdan ketishi haqida gapiriladi. Hikoyatning mazmuni quyidagicha: Iskandar butun dunyoni egallaydi. U olmagan biror joy qolmaydi. U shoh, valiy, nabi va donishmand ham edi. Yetti osmon, yetti iqlim unga bo'ysunardi. Bu dunyodan ketish paytida u katta tashvishga tushib qoladi. Hech kim unga yordam berolmaydi. Shunda u vasiyat qiladiki, vafot etgandan so'ng, qabrga olib borayotganlarida

¹ "Hayrat ul-abror". 212-bet.

² Qayumov A. Alisher Navoiy. 66-bet.

³ "Hayrat ul-abror". 249-bet.

tobutdan bir qo‘lini chiqarib qo‘ysinlar. Bu boshqalarga ibrat bo‘lsin. Suv-u quruqlikni egallagan, yetti kishvar shohi bu dunyodan quruq qo‘l bilan ketayapti. Navoiy buni shunday ifodalaydi:

Qabrg‘a chun boshlag‘ungizdir yo‘lum,
Na’sh yonidin chiqaring bir qo‘lum.
To kishikim qilsa nazar ul sori,
Ibrat ila boqqay o‘shul qo‘l sori.
Jismida jon yo‘q bu makondin borur,
Xoli ilik birla jahondin borur.¹

VI. Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarning biri ilm-u irfon g‘oyalari talqiniga bag‘ishlangan. O‘n birinchi maqolatda ilm haqida gapiriladi. Shoir ilmni va ilm oluvchilarni ulug‘laydi. Uzoqdan, boshqa yurtlardan ilm istab kelganlarni qiyinchiliklarni yengib, umrini ilm olish uchun sarflayotganlarini maqtaydi. Navoiy ilm haqida ko‘pgina asarlarida gapirib o‘tgan. “Alisher Navoiy ma‘rifatparvar shoir. Navoiy ijodiyotida ma‘rifat targ‘ibi, xurofotga qarshi barham beruvchi kuch sifatida ilmni ulug‘lash yo‘nalishi doimo yetakchi mavqelarda turgan. Navoiy yaratgan ilg‘or qahramonlar yoshlikdan ilmga chanqoq, hunarga ishtiyoqmand kishilar”.²

“Hayrat ul-abror”da ilm haqida alohida maqolatda gapirish bilan birga bir hikoyat ham keltiriladi. Bu “Imom Faxr Roziy bila Sulton Muhammad Xorazmshoharo hammomda oshnolik sha‘mi yorug‘oni...” deb nomlanadi. O‘n sakkiz bayt – o‘ttiz olti misrali bu hikoyatda ilm va shohlikka baho beriladi. Imom Faxr Roziy Xorazmga keladi. Ammo Xorazm hukmdori Xorazmshoh uni ko‘rishga kelmaydi. Bu ham shohni ko‘rishga bormaydi. Ular bir kuni hammomda uchrashib qoladilar:

Bor edi hammomda bir kun imom,
Shah dog‘i hammomg‘a qildi xirom.³

¹ “Hayrat ul-abror”. 255-256-betlar.

² Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. Toshkent, 1989. 55-bet.

³ “Hayrat ul-abror”. 221-bet.

Ular hammomda bir-biri bilan savol-javob qiladi. Imom unga oxirat haqida gapirib, u dunyo ham hammomga o'xshashini, shoh bilan gado bir bo'lishini, ilmi odamning ilmi o'zi bilan bo'lishini, sanga sultonlikdan foyda kam, menga ilm bilan yaxshilik ko'p deydi. Bu fikrlar har bir kishini ilmi bo'lishga, insonning bilimi hamma vaqt o'zi bilan birga bo'lishini anglashga chaqiradi.

VII. "Hayrat ul-abror"da may va mayxo'rlik qoralangan ikkita hikoyat keltirilgan. Biri Bani Isroili Rind haqida bo'lsa, ikkinchisi Bahrom haqida. O'n beshinchi maqolat "Jahl mayi..." haqida. Unda may va mayxo'rlik qoralanadi. Maqolatga ilova tarzida Bani Isroiliyi Rind haqidagi hikoyat berilgan. Bu hikoyat yigirma bayt- qirq misradan iborat. Unda Bani Isroiliyga mansub Maymana nomli kishining mayxo'rligi, tavbasi haqida gapiriladi. O'n to'qqizinchi maqolat esa Xuroson kishvari haqida bo'lib, unga ilova qilib, Bahrom haqidagi hikoyat keltiriladi. Bu hikoyat qirq ikki bayt – sakson to'rt misradan iborat. Unda may tufayli Bahromning mamlakatga qaramay qo'ygani, bir kambag'al tanbehi bilan adolat yo'lini tutgani haqida gapiriladi. Hikoyatda yozilishicha Bahrom taxtga o'tirgach, mayga, maishatga beriladi. Amaldorlar orasida zulm kuchayadi. Xalq qiynalib qoladi. Bir kuni Bahrom ovga chiqadi. Bir kulbaga mehmon bo'ladi. Uy egasi bir qattiq non bilan suv keltirib qo'yadi. Shoh uning sababini so'raydi. Uy egasi bunday deydi:

Dedi: Burun yaxshi edi holimiz,
Zulm xarob ayladi ahvolimiz.
Shoh ulus holidin ogoh emas,
Juz mayu mutrib anga dilxoh emas.¹

Uy egasi oldin ahvollari yaxshi ekanini, zulm ularni shu holga olib kelganini, amaldorlar tamaga og'iz ochgani, shuning uchun yurt vayron bo'lganini aytadi. Bir binoning xarobalarini ko'rsatib, bu oldin nima bo'lganini so'raganda, uy egasi oldin bu yer saroy, atrofi bog'zor, suvi bor go'zal joy bo'lganini, hozir esa suv ham yo'qligi,

¹ "Hayrat ul-abror". 315-bet.

bog' qurib, hech narsa qolmaganini bildiradi. Shoh uning gaplarini eshitib, g'aflatdan uyg'onadi. Zulmni yo'qotib, adolat bunyod etadi:

Zulm qo'yib, adl durur niyati,
Kim bu asar ayladi xosiyati.
O'tlanibon mulkida dod ayladi,
Borcha g'amin xalqni shod ayladi.¹

Dostondagi yana bir hikoyat ishq bilan bog'liq. Asarning to'qqizinchi maqolati "Ishq o'ti tarifidakim..." deb nomlanadi. Navoiy ishqni ulug'laydi. Deyarli barcha asarlarida ishq mavzusi qalamga olinadi. "Navoiy sevgini shunchalar ulug'laydi. Sevgi egalarining olijanob, yuksak intilishlari faqat yor bilan bog'liq ekani, yorga oid hamma-hamma narsa, hatto hijron va vasl ham barobar darajada qimmatli ekanligini ko'rsatadi. Chin oshiq shundaydir".² "Hayrat ul-abror"-da ishqqa alohida maqolat bag'ishladi. Ishqni shunday ta'riflaydi:

Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo'lmasun.³

O'n sakkizinchi maqolat "Falak g'amxonasidakim..." deb nomlanadi. Unga ilova tarzida "Chin marg'zori..." haqidagi hikoyatni keltiradi. Bu hikoyat qirq ikki bayt – sakson to'rt misradan iborat. Hikoyatning to'liq nomi quyidagicha: Chin o'tlog'idagi bir mushkin ohuning sherlarni ovlagani, majruh ovlarning uning tuzog'iga ilinib, sher panjasidan ajal tuprog'i bilan bo'lgani. Uning mazmuni quyidagicha: Chin mamlakatida bir go'zal bor edi. Dunyo odamlari uning husniga oshiq. Shoh ham uning zulfiga giriftor. Xon unga soqchilar qo'ygan. Kim unga qarasa, gapirsa, jazolanar edi. Bir yigit unga oshiq-u beqaror bo'lib qoladi. Ko'plab oshiqlar jazoga tortiladigan bo'ldi. U yigit esa beparvo. O'limdan qo'rqmaydi. Tilida, so'zida, og'zida yor edi:

¹ "Hayrat ul-abror". 316-317-betlar.

² Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruxafzo ash'orlar. Toshkent, 2011. 27-bet.

³ "Hayrat ul-abror". 191-bet.

Tilida yor edi-yu, so'zida yor,
Og'zida yor edi-yu, ko'zida yor.¹

Uning sadoqatini ko'rib, shoh yumshaydi. Oshiqni o'ldirmay, yor haramiga xos mahram qilib qo'yadi. Ishq balolariga chidagani uchun u yuksaklikka erishadi.

Umuman, "Hayrat ul-abror"dagi hikoyatlar hajmi har xil bo'lganidek, mavzusi ham rang-barangdir. Hikoyatlar Navoiy fikrlarini yanada jonli, aniq, ta'sirli bo'lishi uchun asos bo'lgan.

2. Asardagi hikoyatlarning badiiy xususiyatlari

"Hayrat ul-abror"dagi hikoyatlarda turli mavzular qalamga olinganidek, ulardagi obrazlar ham xilma-xildir. Dostondagi badiiy jihatlar, ularda she'riy san'atlar, badiiy vositalarning qo'llanishini o'rganish ham foydadan xoli emas. Shu sabab, ushbu bobda asardagi obrazlar va dostonning badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritishga harakat qilindi.

Dostondagi yigirma bitta hikoyatda o'nlab so'fiy, shayxlar, hukmdorlar, an'anaviy obrazlar va turli toifa kishilari timsollari uchraydi. Ularning asosini diniy- tasavvufiy faoliyat bilan bog'liq shaxslar, shuningdek, shohlar, amir va hukmdorlar obrazlari tashkil etadi. Professor N.Mallayev Navoiyning turli asarlarida uchraydigan hikoyatlardagi obrazlar haqida quyidagilarni yozadi: "Navoiy hikoyatlarining qahramonlari tarixiy, yarim afsonaviy shaxslarning nomi bilan bog'lanadi, ularning orasida "sof" to'qima obrazlar ham anchagina. Qadimgi shohlar, yunon olimlari, Faxriddin Roziy, Hotami Toyi, Ibrohim Adham, Xoja Porso, Boyazid Bistomiy va boshqalar Navoiy hikoyalarning qahramoni. Ammo, hikoyalardagi qahramonlar aynan tarixiy shaxslarning obrazi bo'lmay, balki ayrim jihatlarini saqlab qolishiga qaramay, badiiy fantaziya, ijobiy to'qima bilan yo'g'rilib, allaqachonlar an'anaviy adabiy obrazlarga aylanib ketgan edi: Anushervon, Jamshid, Iskandar va boshqalar – adolat, shon-shavkat; Arastu, Aflotun, Luqmon, Faxriddin Roziy va boshqalar – aql va donolik; Hotam Toy – saxovat ramzi va hokazo; Majnun, Shayx San'on, Vomiq va Uzro,

¹ "Hayrat ul-abror". 304-bet.

Xusrav va Shirin – an’anaviy oshiq-ma’shuqlar. Bu an’anaviy obrazlar bilan birga biz Navoiyning ayrim hikoyalarida uning zamondoshlarini ham ko‘ramiz. Masalan, “Hayrat ul-abror”dagi “Shoh G‘oziy” hikoyasida Husayn Boyqaro (ideallashtirilgan shoh obrazi sifatida); shu dostonidagi “Ikki vafoli yor” hikoyasida Amir Temur obrazlari berilgan”¹

Birinchi hikoyatda Boyazid nomi tilga olinadi. Asarda u imonli, insofli, shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. “Tasavvuf allomalari” kitobida Boyazid Bistomiy haqida shunday yoziladi: “Sharqda “Sulton ul-orifin”, “Burhon ul-muhaqqiqin” laqabi bilan shuhrat topgan tasavvufdagi tayfuriya oqimiga asos solgan Abu Yazid Tayfur Iso o‘g‘li, Sarushon o‘g‘li Bistomiy VIII asrning oxirgi choragida Bistomning Kumush mavzeida zardushtiy donishmandi xonadonida tavallud topgan. Ayrim tadqiqotchilar Boyazidning otasi Surushon islomni qabul qilgan, biroq vaqt mansabdor ham bo‘lgan deyishadi. Boyazid Bistomiyning o‘qish yillari haqidagi fikrlar har xil: ba’zilar u biron bir maktab yoki ustoz qo‘lida tahsil ko‘rmagan, barcha ilmlar unga Olloh tomonidan in’om etilgan deyishsa, bir guruh sharqshunoslar “Boyazid uch yuz donishmanddan dars olgan” deyishadi. Shunday bo‘lsa-da Nishopur, Ray, Hamadon, Iroq, Shom va Arabistonlarga safar qilgan. U 867-yili 103 yoshida o‘z vatanida olamdan o‘tgan”.²

Ikkinchi hikoyatda Ibrohim Adham va Robiya Adviya nomi uchraydi. Ular ham o‘zini islom yo‘liga bag‘ishlagan mashhur so‘fiylardan. Adabiyotshunos Nodir G‘afforov “Hayrat ul-abror”da o‘n ikki tarixiy so‘fiylar siymosi keltirilishini aytib, shularni yozadi: “Dostonning illyustrativ qismi, ya’ni hikoyatlarda tasvirlangan so‘fiylar – Boyazid Bistomiy, Ibrohim Adham, Robia Adviya, Xoja Abdulloh Ansoriy, Shayx Iroqiy, Shayx Suhrevardiy, Abdulloh Muborak, Xoja Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr Porso...”³ Ibrohim Adham bilan Robia Adviya – ikki mashhur so‘fiylar bir hikoyatda keltirilib, namozxon afzalmi yoki ko‘ngli Olloh ishqini bilan jo‘sh urgan niyozmand afzalmi

¹ Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. 185-186-betlar.

² Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent, 2004. 47-48-betlar.

³ G‘afforov N. Alisher Navoiy “Xamsa”sida so‘fiylar timsoli. 9-10-betlar.

degan masala o'rtaga qo'yiladi. Ma'lumki, Ibrohim Adham shohlikdan voz kechib, tariqat yo'liga kirgan mashhur zohid, so'fiy va avliyoy. U taxminan, 776 yoki 783-yillarda vafot etgan. Sharqda "Ummul buldon", "Qubbatul islom" nomi bilan mashhur bo'lgan Balx eng qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. Ibrohim Adham ham shu joy bilan bog'liq. Ibrohim Adham zodagon oilada dunyoga keladi. Yoshligida yaxshi bilim oladi, ilohiyotga qiziqib haq yo'liga kiradi. Biroz vaqt shahar hokimi vazifasida ishlaydi. U haqda ko'plab rivoyat va afsonalar yaratilgan.¹

Robia Adviya (Adaviya) ham mashhur so'fiy ayollardan. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida u haqda shunday yozadi: "Robiai Adaviya- Basra ahlidin erdi. So'fiyon Savriy r.a. andin masoyil so'rar erdi va aning mav'ezotu duosig'a rag'bat ko'rguzur erdi".² Boshqa bir manbada u haqda shunday yoziladi: Robia Adaviya Sharq tasavvufida haqiqiy muhabbat – ishq ilohiy g'oyasini targ'ib etgan birinchi mutasavvif ayoldir. U taxminan 713-718-yillar oralig'ida Basrada donishmand Ismoil Adaviy Kaysi oilasida dunyoga kelgan. Qiz oilada to'rtinchi farzand bo'lgani uchun unga "Robia" deb nom qo'yishgan.

To'rtinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Abdulloh Ansoriy nomi uchraydi. Bu ham mashhur so'fiylardan. O'z davri va undan keyingi asrlarda ham Sharqda ulkan shoir va shayx sifatida shuhrat sohibi bo'lgan Abdulloh Muhammad Ansoriy 1006-yilda Hirotning Ko'handich mahallasida alloma Abuayub Ansoriy xonadonida tavallud topgan. U ustози Abulhasan Xarraqoniy olamdan o'tguncha, uning huzurida bo'lib, ilmidan fayzu barokot topgan va pining minbariga sohib bo'lgan. U fiqhni Imomi Sharif Marg'azyidan, hadis ilmini Abulfazl Muhammad Joriniydan, tafsir ilmini Xoja Yahyo Ammordan o'rganadi. Abdulloh Ansoriy madrasalarda dars berish, xonaqohlarda va'z aytish, Qur'onni hammadan o'tkazib qiroat qilishi, turli sahobalar tilidan hadis rivoyat qilish bilan birga yoshligidan boshlaboq she'r yozish, hikoyatlar bitish, ilmiy risolalar insho etish bilan shug'ullanadi.

¹ Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent, 2004. 20-22-betlar.

² Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 20 tomlik. 17-tom. Toshkent, 2001. 412-bet.

O'n birinchi maqolatga misol sifatida keltirilgan hikoyatda Imom Faxr Roziy nomi keltirilgan. "Faxriddin Roziy (to'liq ismi Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad bin Umar ibn al-Husayn) (1149, Ray – 1209, Hirot) – mashhur kalom olimi va diniy falsafa namoyondasi. Ray va Marog'ada tahsil olgan. Xorazm, Buxoro va Samarqandda yashagan. G'aznada (1185-yilgacha) va Hindistonning Panjob viloyatlarida faoliyat olib borgan, keyinchalik Hirotida yashagan".¹

O'n sakkizinchi maqolatda ilova qilingan hikoyatda Suhrovard va Yoqut obrazlari bor.

Yoqut – arablar orasida shuhrat topgan kotib (1268-yilda vafot etgan). Bag'dodda Abbosiy xalifa Musta'sim davrida yashagan. "Qur'onni ko'chirishda yagona hisoblangan. Shayx Suhrovard esa mashhur so'fiylardan. Yirik va mashhur tariqat arbobi, o'z davrining yagonasi, nurlar matla'i, sirlar manbai, tariqat rahbari, haqiqat tarjimoni, zohir va botin ilmlarida barcha ulug' shayxlarning ustozlari, oriflar yo'l boshchisi, soliklar tayanchi, rabboniy olim Shahobiddin Abuhafs Umar ibn Muhammad Bakriy Suhrovardiy Eronning Zanjon viloyatidagi Suhrovard qishlog'ida tug'ilgan. Tasavvufdagi ustozlari amakizi Shayx Abunajib Suhrovardiy. Qisqa umrida 50 ta kitob yozishga ulgurgan".²

Dostonda Ayyub obrazi ham bor. U Qur'onda nomi zikr etilgan yigirma besh payg'ambardan biri. Ayyub nomi va qissasi Tavrot, Injil hamda boshqa qadimiy kitoblarda ham keltirilgan. Ayyub har qanday musibatlarga, qiyinchiliklarga sabr-toqat qiluvchi, bardosh beruvchi inson timsoli sifatida tanilgan.

"Hayrat ul-abror"dagi hikoyatlardan birida Abdulloh Muborak nomi tilga olinadi. Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da Abdulloh Muborak haqida quyidagilarni yozadi: "Ani ulamoning shahanshoi der ermishlar va judu shijoatda zamonining yagonasi ermish va tariqat as'hobining muhtashami. Va bu qavmning mashoyixining ko'pining suhbatig'a musharraf bo'lubtur".³

¹ O'zME. 9-tom. Toshkent, 2005. 210-bet.

² Donishmandlar tuhfası. Toshkent, 2009. 121-bet.

³ Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. 27-bet.

Yigirmanchi maqolatdan so'ng keltirilgan hikoyatda Xoja Muhammad Porso va o'g'li Xoja Abu Nasr nomlari uchraydi. Navoiy u haqda quyidagilarni yozadi: "Alarning oti Muhammad bo'lib, Muhammad b. Mahmud Hofiz Buxoriydir q.s. shu asarda u kishining o'g'illari Xoja Abu Nasr haqida ham gap boradi. Shariat va tariqatda otasi darajasiga yetgani kabilar bayon qilingan.¹

Hikoyatlarda hukmdorlar obrazi ham uchraydi. Ularning ayrimlari tarixiy shaxslar bo'lsa, ba'zilar afsonaviy shaxslar hisoblanadi. Uchinchi maqolatga "Shoh G'oziy" haqidagi hikoyat keltirilgan. Shoh G'oziy – bu Husayn Boyqaroning ideallashtirilgan obrazidir. "Husayn Boyqaro, Husayniy (to'liq nomi Husayn ibn Mirzo Mansur binni Mirzo Boyqaro) (1438- Hirot – 1506) – Xuroson hukmdori (1469-1506), shoir. XV asr o'zbek mumtoz adabiyotining namoyondalaridan. Undan bizgacha she'rlar devoni va Navoiyga bag'ishlangan "Risola" asari yetib kelgan. Shoh shoiming hozirgacha 202 g'azal, Navoiy g'azaliga bog'langan 3 muxammas, 6 ruboiy, shuningdek, fors-tojikcha 2 g'azal, 1 ruboiy va bir necha baytlari ma'lum.² Navoiy "Xamsa" dostonlarining ayrim boblarida Husayn Boyqaroni madh etadi. "Majolis un-nafois"ning sakkizinchi majlisini ham unga bag'ishlaydi. "Shoh G'oziy" hikoyatida esa uni adolatli hukmdor sifatida ko'rsatadi.

"Hayrat ul-abror"da "No'shirvon hayosi" bilan bog'liq hikoyat mavjud. Unda No'shirvon (Anushirvon) haqida gap boradi. "Sharq xalqlari kitobiy adabiyoti va folklorida juda keng tarqalgan an'anaviy obrazlardan biri No'shirvon (Anushervon)dir. No'shirvon (531-589) Sosoniy shohlaridan biri bo'lib, shon-shavkati bilan shuhrat qozongan edi. Ammo tarix zaminidan adabiyot olamiga o'tgan No'shirvon yarim tarixiy, yarim afsonaviy qahramon tusini olib, odillikning ramzi sifatida talqin etiladi. Navoiy No'shirvon nomini odillik ramzi sifatida bot-bot zikr etish va tafsiflash bilan birga, uning to'g'risida bir necha hikoya ham keltiradi. Bu hikoyalar "Hayrat ul-abror" va "Tarixi muluki Ajam"dan o'rin olgan".³

¹ O'sha asar, 266-272-betlar.

² O'zME. 11 tom. Toshkent, 2005. 397-398-betlar.

³ Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti 195-bet.

Dostondagi “Ikki vafoliq yor” hikoyatida Amir Temur nomi keltirilgan. Amir Temurning kimligini yaxshi bilamiz. “Amir Temur tarixiy manbalarda Temur, Temurbek, Amir Temur va Sohobqiron nomlari bilan bir qatorda Amir Temur Ko‘ragon, Sohobi jahon (olam egasi) hamda Sohobi adl (adolat o‘rnatuvchi) kabi qator ulug‘ va qutlug‘ nomlar bilan ham tilga olinadi. Amir Temur Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xoja Ilg‘or qishlog‘i (Qashqadaryo viloyatining hozirgi Yakkabog‘ tumani)da 1336-yil 9-aprel kuni dunyoga keladi”.¹

O‘n birinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Sulton Muhammad Xorazmshoh obrazi uchraydi. U Imom Faxr Roziyga qarshi tarzda keltirilgan. Ilm bilan shohlik qiyoslanib, ilmning abadiyligi ta’kidlanadi. Ma’lumki, Muhammad Xorazmshoh, Muhammad II Aloiddin, Aloiddin Muhammad (to‘liq ismi Qutbiddin Muhammad ibn Takash ibn Elarslon ibn Anushtegin) (taxm. 1182-1220yil dekabr) – Anushteginiylar sulolasidan bo‘lgan Xorazmshohlar davlati hukmdori (1200-yil 3-avgust – 1220-yil dekabr). Otasi – Takash Xorazmshoh, onasi – Turkon Xotun Qipchoq xoni Jonkishining qizi.

Dostondagi yana bir hikoyatda Iskandar nomi uchraydi. U ham shuhrat qozongan Aleksandr Makedonskiyning Sharqdagi idealashtirilgan nomi. Iskandar, Iskandar Zulqarnayn – Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan obraz. Bu obrazning paydo bo‘lishi tarixiy yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy faoliyati bilan bog‘liq. Iskandar Qur‘onning surasida eslangan Zulqarnayndir. U Sharqdagi musulmon xalqlari orasida mashhur. Navoiy “Tarixi muluki Ajam”da Iskandar haqida afsona, rivoyat va tarixiy asarlardan kelib chiqib fikr yuritadi. “Saddi Iskandariy” dostonida esa Iskandarning ideal obrazi yaratib, uni shoh va olim sifatida talqin etadi.

O‘n to‘qqizinchi maqolatdan so‘ng keltirilgan hikoyatda Bahrom obrzi uchraydi. Bu obraz Navoiyning ko‘pgina asarlarida, ayniqsa, “Xamsa”ning to‘rtinchi dostoni – “Sab‘ai sayyor”da keng tasvirlangan. “Bahrom Go‘r yoki Varaxran V (shohlik yillari 421-438) – Eron-da hukmronlik qilgan sosoniylardan Yazdigardning o‘g‘li. Yaman shohi No‘mon va uning o‘g‘li Munzir tarbiyasida o‘sgan. Nizomiyning “Haft paykar”, Xusrav Dehlaviyning “Hasht bihisht” va Alisher

¹ Muhammadjonov A. Amir Temur. Risola. Toshkent, 2011. 5-bet.

Navoiyning “Sab’al sayyor” dostonlarida Bahrom Go’r adolatli shoh, jasur sarkarda, ayni paytda maishatparast, xudbin shaxs sifatida tasvirlangan. Ma’lumotlarga ko’ra, Bahrom Go’r 63 yil (ba’zi manbalarda 70 yil) umr ko’rgan”.¹

Hikoyatlardan birida – beshinchi maqolatga ilova qilinganida Hotam obrazi uchraydi. Hotam adabiyotimizda saxiylik timsoli. U musulmon dunyosida ancha mashhur. “Hotami Toy (to’liq nomi Abu Safanat Hotam ibni Abdulloh ibni Sa’di Toyi) (taxminan VI asr oxiri – Yaman – VII asr boshi) – saxiyliги va olijanoblighi bilan Sharq mam-lakatlarida dong taratgan shaxs. Yamandagi Toy qabilasining boshlig’I, mashhur lashkarboshi va shoir bo’lgan. Adlu insofi, saxiyliги va yaxshliги bilan dastlab atrof-dagi qabilalar, keyin butun Arabiston va Sharq xalqlari orasida Hotami Toy – Toy (qabilasi)dan bo’lgan Hotam nomi bilan shuhrat qozongan”.²

Umuman, hikoyatlardagi obrazlar ham rang-barang bo’lib ular tarixiy, afsonaviy, an’anaviy mashhur shaxslar nomi bilan bog’liq.

“Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarning badiiyliги ham yuksak. Ularda ko’pgina badiiy vositalar, she’riy san’atlar uchraydi. Atulloh Husayniy badiiy san’atlarni 3 turga ajratadi. Birinchi san’at – lafziy san’atlar, ikkinchi san’atlar – ma’naviy go’zalliklar, uchinchi san’at – lafzi-yu ma’naviy san’atlar.³

She’r san’atlari o’zbek mumtoz adabiyotining o’ziga xosliğini, milliyliğini, latofat-u nazokatini, ta’sirchanliğini ta’minlovchi vositalardan. O’zbek adabiyotida san’atlarning soni shunchalik ko’pki, ularning aniq sonini aytish qiyin. Ba’zi adabiyotlarda ularning soni 150 dan ortiq deb ko’rsatiladi.

Lafziy san’atlar she’riy nutqdagi so’zning tovushi bilan bog’liq bo’lib, ko’proq shakl hodisasi sifatida ko’rinadi. Lafziy san’atlar xilma-xil. Adabiyotshunos T.Boboyev tarse, tajnis, saj’, tashtir, aks, mul-lama’, hojib, ishti-qoq, tasdir kabilarni lafziy san’atlar turiga kiritadi.⁴

Ma’naviy san’atlar nima? Ularga qaysi she’riy san’atlar kiradi? She’r san’atlarining bir guruhiga she’r ma’nosi, g’oyasi bilan bog’liq

¹ O’zME. 1 tom. Toshkent, 2000. 669-670-betlar.

² O’zME. 11 tom. Toshkent, 2005. 378-bet.

³ Atulloh Husayniy. Badoe’u –s-sanoe’. Toshkent, 1981.

⁴ Boboyev T. She’r ilmi ta’limi. Toshkent, 1996. 237-bet.

bo'lgan san'atlar kiradi. Ma'naviy san'atlar ham rang-barang ko'rinishlarga ega. Mana ular: tavjih, iyhom, lutf, tajohilu-orif, talmeh, irsoli masal, ruju', takrir, savoli-javob, muammo, lug'z, tashbeh, tamsil, kinoya, tadrij, tazod, istiora, taajjub, muashshah, chiston kabilar.

She'riy san'atlarning uchinchi turi – ma'naviy-lafziy san'atlar. "Sanoe'ning bu turi, yuqorida aytilganidek, she'rning ham tovush (shakl), ham ma'no (mazmun) tomoni bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ma'naviy-lafziy san'atlar ham g'oyatda rang-barang ko'rinishlarga ega. Jumladan: mutobaqa, tatbij, muqobala, taffvif, ta'dil, irsod, muzovaja, iqtibos, tazmin, tanosib..."¹

Demak, she'riy san'atlar juda ko'p bo'lib, ularning bir qanchasi "Hayrat ul-abror"dagi hikoyatlarda uchraydi. Ulardan ayrim misollar keltiramiz. Hikoyatlarda eng ko'p uchraydigan san'at – tazoddir. "Tazod – ma'naviy san'atlarning eng ta'sirchan va ko'p ishlatiladigan turlaridan biri bo'lib, nasr va nazmda keng qo'llanilgan. Xullas, tazod nasr va nazmda bir-biriga zid tushunchalarni ifoda etuvchi so'z yoki iboralarni ma'lum bir munosabat nuqta'i nazaridan ishlatishdan iboratdir".²

Yaxshi-yomon, baland-past, shoh-gado, kun-tun, komilu-johil, do'zax-jannat, ganj-ranj kabilar tazodni hosil qiladi. Ikkinchi hikoyatda mana bunday bayt bor:

Nedin ekin bu ki manga yetti ranj,

Men chekibon ranju, sanga bo'li ganj.³

Bu misralardagi ranj va ganj tazod. Ranj – azob, ganj – xazina degani. Abdulloh Ansoriy bilan bog'liq hikoyatdan olingan mana bu baytda ham tazod qo'llangan:

Do'zzax o'ti beymi ham ermas g'araz,

Ne buki jannat anga bo'lg'ay evaz.⁴

Bu misralardagi do'zzax-jannat so'zlari tazodni hosil qilgan. Hotam Toiyi bilan bog'liq hikoyatda ham tazod bor:

¹ Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. Toshkent, 1996. 267-bet.

² Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. Toshkent, 2006. 65-bet.

³ Hayrat ul-abror. 120-bet.

⁴ Hayrat ul-abror. 141-bet.

Da'vat etib asru farovon bukun,
Qildi yomon-yaxshini mehmon bukun.¹

Bu baytda yomon-yaxshi so'zlari tazod. Imom Faxr Roziy bilan bog'liq hikoyatdan olingan mana bu baytda shoh-gado, ichkari-tashqari, bor-yo'q so'zlari tazod bo'lib kelgan:

Anda gado shoh bilan yakson bo'lub,
Shohu gado borchasi uryon bo'lub.²

Johu jalol ahli saningdek bori,
Ichkariyu boru yo'qi tashqori.³

Hikoyatlarda tarse' san'ati ham ko'p uchraydi. "Tarse'ning lug'aviy ma'nosi gavharni ipga tizishdir. Istiloh sifatida esa ikki jumla yoki misradagi so'zlarning bir-biri bilan vaznda, ham qofiyada barobar bo'lib kelishini bildiradi".⁴

Iskandar bilan bog'liq hikoyatda tarse' san'ati qo'llangan bayt bor:

Hittai hukmig'a kirib bahru bar,
Qabzai amrig'a tushib xushku tar.⁵

Bani Isroiliyi Rind hikoyatida ham tarse' qo'llangan bayt uchraydi:

O'zdin esa tavba bo'lur o'yla sust,
Haqdin esa tavba bo'lur bo'yla rust.⁶

Boshqa bir hikoyatda ham tarse' qo'llangan misralar keltirilgan:

¹ Hayrat ul-abror. 153-bet.

² Hayrat ul-abror. 222-bet.

³ Hayrat ul-abror. 222-bet.

⁴ Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. Toshkent, 2006. 80-bet.

⁵ Hayrat ul-abror. 254-bet.

⁶ Hayrat ul-abror. 266-bet.

Ahli jahon husnining oliftasi,
Shohu zamon zulfining oshuftasi.¹

“Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarda tardi aks san’ati ham qo’llanilgan. Ma’lumki, tardi aks – teskari holda takrorlanish. Aks tasvirlash degani. Yaxshi-yomon – yomon-yaxshi, ogoh sen – shoh sen – shoh sen – ogoh sen, shoh-gado, gado-shoh kabi. Boyazid Bistomiyl bilan bo’gliq birinchi hikoyatda bu san’at ishlatilgan:

Soqiy, o’lubmen, mayi imon ketur,
Jismima imon mayidan jon ketur.²

Bu misralardagi “mayi imon” va “imon mayidin” jumalari tardi aksga misoldir. Imom Faxr Roziy bilan Sulton Muhammad Xorazmshoh haqidagi hikoyatda ham tardi aks san’ati qo’llangan bayt bor:

Anda gado shoh bilan yakson bo’lub,
Shohu gado borchasi uryon bo’lub.³

Bu misralarda “gado shoh” va “shohu gado” tardi aksni hosil qilgan.

Bulardan tashqari, hikoyatlarda boshqa bir qancha she’riy san’atlar uchraydi.

Tajnis. Badiiy san’atlardan biri bo’lib, lug’aviy ma’nosiga ko’ra hamjins, jinsdosh ma’nolarini anglatadi. Tajnis shaklan bir xil, biroq boshqa-boshqa ma’nolarni ifodalovchi so’zlar (omonim)ni qo’llash orqali nozik so’z o’yinlari ishlatishga imkon beradi.⁴ Oltinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda tajnis mavjud:

To ani ich deb senga men yuz tutay,
Tomsa to’quz, oqsa xud o’ttuz tutay.⁵

¹ Hayrat ul-abror. 302-bet.

² Hayrat ul-abror. 109-bet.

³ Hayrat ul-abror. 222-bet.

⁴ Is’hoqov Yo. So’z san’ati so’zligi. 59-bet.

⁵ Hayrat ul-abror. 164-bet.

Bu misralardagi yuz soʻzi tajnisni hosil qilgan. U ham yuz tutish – qarash ham yuz marta – son maʼnosida kelgan. Yana bir misol:

Ishq balosi aro shukr etti ul,
Koʻr ne biyik martabagʻa yetti ul.¹

“Etti ul” bilan “Yetti ul”da tajnis sodir boʻlgan.

Ishtiyoq. Bu sanʼat shundayki, shoir yoki yozuvchi nasr yoki nazmda bir oʻzakdan hosil boʻlgan soʻzlarni ishlatadi. Noʻshiravon bilan bogʻliq hikoyatda shunday bayt bor:

Komgʻa may ayladi chun komgor,
Ayladi taslim oʻzin guluzor.²

Bu misralardagi “komgʻa” va “komgor” ishtiyoqdir.

Talmih. “Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarda talmih sanʼati ham uchraydi. Adabiyotshunos T.Boboyev talmih haqida shunday yozadi: “Talmih (ar. – nazar solmoq, ishora qilmoq) – sheʼrda mashhur qissa, mashhur bayt yoxud mashhur maqolga ishora qilish usuli. Bu sanʼat mumtoz adabiyotimizda ham, hozirgi zamon sheʼriyatida ham keng qoʻllanilgan. Baʼzi misollar keltiraylik: Mashhur qissa yoki dostonga ishora qilish:

Koʻp oʻqudim Vomuqu Farhodu Majnun qissasin,
Oʻz ishimdin bul ajabroq, dostone topmadim.
(Alisher Navoiy)

Bu baytda Vomiq, Farhod, Majnun haqidagi qissalarga ishora qilinmoqda”.³

Demak, mashhur shaxslar, asarlarga ishora qilish talmih ekan. “Ikki vafoli yor” hikoyatidagi mana bu baytlar talmihga misol boʻla oladi:

¹ Hayrat ul-abror. 304-bet.

² Hayrat ul-abror. 164-bet.

³ Boboyev T. Sheʼr ilmi taʼlimi. 254-bet.

Andoq eshittimki shahi komron,
To'rt ulus xoni Temur ko'ragon.¹

Bu misralarda mashhur sarkarda Amir Temur bobomizning nomi tilga olingan. Mana bu misralarda esa Nil daryosi haqida gapirilgan. Qon Nil daryosidek oqqani aytilgan:

Kasratidin dashtni tutg'on qotil,
Qon ila shingarfdin oqizdi Nil.²

Shayx Iroqiy bilan bogliq mana bu baytda esa Yusuf payg'ambar nomi tilga olingan:

Shom savodida mahe anvor ul,
Misr eliga Yusufi payg'ambar ul.³

Shom yurti podshohining o'g'li go'zallikda Yusuf payg'ambarga o'xshatilmoqda.

Bani Isroiliyi Rind hikoyatida esa, Saddi Iskandar – Iskandar va u qurgan devorga ishora qiluvchi bayt bor.

Haq chu oni tavbag'a mahram qilib,
Saddi Skandar kibi mahkam qilib.⁴

Irsoli masal. Mumtoz adabiyotda she'riy misralarda maqollar ishlatish uchraydi. Bu narsa irsoli masal degan san'atni hosil qiladi. "She'riyatimiz tarixida juda ko'p ishlatiladigan bu san'at haqida poetikaga doir deyarli hamma asarlarda ma'lumot berilgan. Irsoli masal gapda yoki she'rda maqol, matal va hikmatli so'zlarni muayyan maqsadda tamsil yo'li bilan ishlatish san'atidir".⁵

¹ Hayrat ul-abror. 185-bet.

² Hayrat ul-abror. 186-bet.

³ Hayrat ul-abror. 199-bet.

⁴ Hayrat ul-abror. 266-bet.

⁵ Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. 20-bet.

Bunday misralar “Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarda ham uchraydi. Xalq orasida “Sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga” degan maqol bor. Ayyub payg‘ambar bilan bog‘liq hikoyatda ana shu maqol kiritilgan bayt bor:

Tor ini sichqong‘a solib erdi g‘am,
Quyruqig‘a bog‘ladi g‘irbol ham.¹

Ikkinchi misrada “Dumiga g‘alvir bog‘lamoq” ma‘nosi bor. Oxirgi “Ul qul hikoyatikim...” hikoyatida ham maqol kiritilgan misralar bor:

Kimsa o‘lukni yana o‘lturmadi,
Tig‘i siyosat boshig‘a surmadi.²

Bu misralarda “O‘lgan odamni yana o‘ldurmaydilar” degan maqol kiritilgan.

Umuman, “Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarda ko‘plab she‘riy san‘atlar kiritilganki, ular hikoyatlarning badiiyligini oshirgan.

¹ Hayrat ul-abror. 243-bet.

² Hayrat ul-abror. 343-bet.

XULOSA

Alisher Navoiy "Xamsa"ning o'rganilmagan, o'rganiladigan jihatlari anchagina. Shoir asarlaridagi mazmun, mohiyatni anglash, undagi obrazlar, badiiy jihatlarni o'quvchi tushunadigan tarzda sharh-lash bugunning muhim vazifalaridan.

Mazkur kitobda "Xamsa"dagi obrazlar talqiniga alohida e'tibor qaratildi. Dostonlarda Farhod, Shirin, Xusrav, Xoqon, Layli, Maj-nun, Navfal, Bahrom, Dilorom, Farrux, Axiy, Sa'd, Mas'ud, Juna, Mehr, Suhayl, Navdar, No'mon, Muqbil, Mudbir, Iskandar, Doro, Ravshanak, ko'plab olimlar, ota-onalar obrazi uchraydi. Ayni paytda, Husayn Boyqaro, Badiuz-Zamon, Shoh G'arib Mirzo kabi hukmdor-lar madh etilgan o'rinlar, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabi mashhur shoirlar nomlari ko'zga tashlanadi. Kitobda bu obrazlar talqiniga emas, balki dostonlardagi ana shu timsollar bilan bo'g'liq voqea-hodisalar, kechinmalar jarayonida shoir fikr-lari, qarashlarini yanada yorqinroq, aniqroq tasvirlash maqsadida misralarga singdirilgan, o'quvchiga unchalik ham tanish bo'lgan payg'ambarlar, diniy-tasavvufiy, Surush, mifologik obraz-lar xususida mulohaza yuritildi. "Xamsa"da payg'ambarlar nom-lari kiritilgan o'rinlar, misralar aniqlab olindi. Odam Atodan boshlab, payg'ambarimiz Muhammad (a.s.)gacha o'tgan mashhur payg'ambarlar, ular bilan bog'liq ma'lumotlar qayd etildi. Misralar tahlilga tortildi. Mashhur so'fiylar, ularning hayoti, qilgan ishlari, "Xamsa"da nima maqsadda tilga olingani bilan bo'g'liq mushohadalar bayon qilindi. Nisbatan kam ma'lumotga ega bo'lganimiz Surush haqida fikrlar bildirildi. Asarda Xizr, Bahrom Go'r mavjud o'rinlar atroficha tahlil qilindiki, bu o'quvchilarning nazariy bilimni boyi-tadi, "Xamsa" mohiyatini anglashni osonlashtiradi.

Kitobning katta qismini dostonlarning badiiyati bilan bo'liq jihat-lar tashkil qiladi. Unda "Farhod va Shirin" dostoni misolida she'riy san'atlar, xususan, lafziy san'atlar, "Xamsa"da xalq maqollarining qo'llanishi, turli afsona va rivoyatlarga ishora qiluvchi xos baytlar,

tush manzaralari, ramzlar xususidagi mulohazalar bildirilib, ularning asardagi maqsad va vazifalari talqin qilindi. Shu asosda o'quvchiga noma'lum, nazariy bilimini boyituvchi fikrlar bayon qilindi.

Kitobning uchinchi bobi "Xamsa" mohiyatini anglashga yo'naltirildi.

Asarda qanoat tushunchasi, ayrim hikoyatlar tahlili, hikmatomuz baytlar saralab olindi, kitobxonga saboq bo'luvchi pand-nasihatlar talqin etildi.

Bu ham "Xamsa"ning buyukligi, shoir g'oyalarining abadiyligini ko'rsatadi. Bularni tushunishda o'quvchiga osonlik tug'diradi.

Monografiyaning to'rtinchi bobi "Hayrat ul-abror" tahliliga bag'ishlangan. Ma'lumki, dostonning asosiy qismini yigirma maqolat va yigirma hikoyat tashkil etadi. Asarda har bir maqolatdan keyin bir hikoyat keltiriladi. Doston oxirida yana bir hikoyat bor. Hammasi bo'lib yigirma bir hikoyat keltirilgan. Bu hikoyatlarning hajmi turlicha. Eng kichigi o'n to'rt bayt – yigirma sakkiz misra bo'lsa, eng kattasining hajmi qirq ikki bayt – sakson to'rt misradan iborat.

"Hayrat ul-abror"dagi hikoyatlarda turli mavzular qalamga olinganidek, ulardagi obrazlar ham xilma-xildir. Dostondagi badiiy jihatlar, ularda she'riy san'atlar, badiiy vositalarning qo'llanishini o'rganish ham muhim ishlardan. Shu sabab, ushbu bobda asardagi obrazlar va dostonning badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritishga harakat qilindi.

Umuman olganda, Navoiy "Xamsa"si mangu sarchashma. Ma'naviyatimizning tuganmas xazinasi. U har bir davr, har bir zamonda o'z ahamiyatini saqlab qolaveradi. Asardagi g'oyalar eskirmas. Komil inson, ma'naviyati, dunyoqarashi mukammal shaxs ehtiyoji bor ekan, Navoiy "Xamsa"sig'a suyanaveriladi.

Kitob oliy o'quv yurti talabalariga "Navoiyshunoslik" fanini o'qitish va o'rganishda oz bo'lsada, yordam bersa, maqsadga erishilgan bo'lar edi.

МУНДАРИЖА

Muqaddima	3
-----------------	---

I BOB: NAVOIY "XAMSA"SIDAGI OBRAZLAR

1. Payg'ambarlar obrazi	6
2. Diniy-tasavvufiy qarashlar bilan bog'liq obrazlar	45
Surush obrazi	53
3. Mifologik va boshqa obrazlar	58
1. Xizr obrazi	58
2. Shoh bahromga nisbat berilgan "go'r" so'ziga doir mulohazalar	68

II BOB: SHOIR "XAMSA"NING BADIY XUSUSIYATLARI

1. Dostonlardagi badiiy san'atlar haqida	72
2. "Xamsa"da xalq maqollarining qo'llanishi	98
3. Dostonlarda turli afsona va rivoyatlarga ishora qiluvchi baytlar xususida	121
4. "Xamsa"da adabiy tush va uning mohiyati	132
5. Ramzlarning ma'no va mohiyati	155
6. «Xamsa» da me'yor va nisbat tushunchalari	163

III BOB: "XAMSA"NING G'OYAVIY MOHIYATI

1. "Xamsa"da qanoat tushunchasi	168
2. "Hayrat ul-abror" saboqlari	173
3. "Xamsa"dagi ayrim hikoyatlar talqini	179
4. Dunyo va yashash mazmuni	182
5. Navoiy pandlari – hayot sabog'i	186

IV BOB: "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONI

1. Dostondagi hikoyatlarning mavzulari, g'oyaviy tasnifi	191
2. Asardagi hikoyatlarning badiiy xususiyatlari	215
Xulosa	228

Adabiy-badiiy nashr

TOHIR XO‘JAYEV

**NAVOIY “XAMSA”si: obraz,
badiiyat va mohiyat**

<i>Nashr uchun mas'ul:</i>	Tohir Xo‘jayev
<i>Dizayner:</i>	Muhharam Zoiytova
<i>Sahifalovchi:</i>	Umida Valijonova

Нашриёт лицензияси AI № 303 21.06.2017
«Zilol buloq» нашриёти. Тошкент ш., Қамарнисо к., 3-уй.

Босишга 05.01.2023 да рухсат этилди.
Бичими 60/84 1/16. Гарнитураси «Times New Roman».
Офсет босма. 14 нашр т., 14 босма. т.
Адади 100 дона Буюртма №

«SAYDANA-PRINT» МЧЖ босмахонасида босилди.
Тошкент ш., Қамарнисо к., 3. E-mail: Saydana-print@mail.ru
Тел.: +99890 00644448



Xo'jayev Tohir Rashidovich – 1961-yil 7-mayda Buxoro viloyati Shofirkon tumanida tug'ilgan.

1983-yil Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining O'zbek filologiyasi fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgan. 1996-yilda "XV asr birinchi yarmi o'zbek adabiyoti va folklor" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

1988-yildan Navoiy davlat pedagogika institutida o'qituvchi, katta o'qituvchi, kafedra mudiri, dekan lavozimlarida ishlagan. Ayni paytda O'zbek tili va adabiyoti kafedrasining dotsenti.

2001-yil "Ko'ngil shoiri" risolasi, 2008-yil "XV asr birinchi yarmi o'zbek adabiyoti va folklor" nomli monografiyasi, 2014-yil "Alisher Navoiy "Xamsa"sini o'rganish" qo'llanmasi nashr qilingan. O'ndan ortiq uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalari, 200 ga yaqin ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalari chop etilgan.

T.Xo'jayev "O'zbekiston Respublikasi Xalq ma'orifi a'lochisi" (1991), "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligi" esdalik nishoni sohibi. Vatan ravnaqi, ma'naviy-ma'rifiy ishlardagi faolligi uchun uch marta Navoiy viloyati hokimining Faxriy yorlig'i bilan taqdirlangan.



ISBN 978-9943-7781-6-0



9 789943 778160